



“ILM-FAN VA TA'LIM” JURNALIGA QABUL QILINGAN MAQOLALARGA 3 ISH KUNIDA DOI RAQAM OLINADI VA ZENODO, OPENAIRE, CYBERLENINKA, GOOGLE SCHOLAR (10 ISH KUNI) KABI XALQARO ILMIY BAZALARDA INDEKSLANADI VA ILMIY JURNAL TO'LIQ SHAKLDA WWW.ILMFANVATALIM.UZ RASMIY SAYTIGA JOYLANADI.

ISSN: 2181-4325

ILM-FAN VA TA'LIM

Respublika ilmiy jurnali

ZENODO | OPENAIRE | CYBERLENINKA | GOOGLE SCHOLAR

Aniq fanlar

Tabiiy fanlar

Tibbiyot fanlari

Texnika fanlari

Iqtisod fanlari

Filologiya fanlari

Pedagogika fanlari

Arxitektura

Qishloq xo'jaligi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

San'at va madaniyat fanlari

Jismoniy tarbiya va sport

“Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) xalqaro ilmiy bazalarida indekslanadi va jurnal to’liq shaklda <https://ilmfanvatalim.uz/> rasmiy saytiga joylanadi.

ILM-FAN VA TA’LIM

ILMIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

15.05.2025 | № 7(36)



ILM-FAN VA TA’LIM

ilmiy jurnal
scientific journal
научно журнал

Bosh muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda bir marta
nashr etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiya
agentligida 2023- yil
22 - yanvarda 059679
raqam bilan ro‘yxatga
olingan.

ISSN 2181 - 4325

Jurnaldan maqola ko‘chirib
bosilganda, manba
ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: <https://ilmfanvatalim.uz/>

Tahrir kengashi:

Isroilov Shaakram Xalmatovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" kafedrasining professori

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yadgarova Ozoda Ibragimovna

Samarqand davlat chet tillar instituti gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Djurakulova Difuza Farxodovna

Samarqand Davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Olimov Jahongir Bo'riboyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mamadaliyev Muxammadkarim Zoirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yusupov Axror Qurbonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Ganiyeva Lola Muxsindjanovna

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada San'ati instituti "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsenti

San'atshunoslik fanlari nomzodi

Akbarov Qobuljon

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fanlari nomzodi

Nuriddinova Maysara Ikramovna

Samarqand davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna

O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasida dotsenti

Komilov Ro'zi Rabiyeovich

Samarqand davlat chet tillar instituti "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasida professori v.v.b.

ISLOM DININING IJTIMOIIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI

Husen Xayrulloevich Jo‘rayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedraasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

husaynbuxoriy@mail.ru

Shahrizod Amonov

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, yo‘nalishi 5.1 – ITM 21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dini barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'stona va yoru birodar qilib tinch yashashini uqtirib keladi. Ayni paytda islom dinida razolat, kibr, adovat, hasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Ushbu maqolada islom dinining vujudga kelishi haqida mulohaza yuritilgan

Kalit so‘zlar: xudo, ilm, ta'lim, islom, ta'limot, qur'on, din, xadis, alloh, 'tiqod, arab, ramazon, qurbonlik, Makka, Madina, xalq, itoat, Imon, zakot, haj.

РОЛЬ ИСЛАМА В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Аннотация: В этой статье Ислам призывает объединить все народы, чтобы они жили мирно, как равные, дружелюбные братья и сестры. В настоящее время в исламе осуждаются такие пороки, как разлад, высокомерие, вражда, зависть, предательство, угнетение. Ислам в этой статье размышления о возникновении религии

Ключевые слова: Бог, наука, образование, ислам, доктрина, Коран, религия, хадис, Аллах, Вера, арабский, Рамадан, жертвоприношение, Мекка, Медина, народ, послушание, Вера, закят, хадж.

THE ROLE OF ISLAM IN SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation: In this article, Islam promotes the peaceful coexistence of all nations as equal, friendly, and brother-in-law. At this time, in the religion of Islam, vices such as disgrace, arrogance, enmity, envy, betrayal, oppression are condemned. Islam in this article contemplated the incarnation of religion

Keywords: God, Science, Education, Islam, doctrine, Quran, religion, Hadith, Allah, faith, arab, Ramadan, sacrifice, Mecca, Medina, people, obedience, faith, Zakat, Hajj

Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, ahloqsizlik, zo‘ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o‘sha davrni haqli ravishda Johiliya davri deb atagan va undan qutilish yo‘li kerak edi. Bunday holatlarga, ayniqsa bo‘linib ketgan Arab qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro nizo va urushlarga barham berish uchun siyosiy iqtisodiy, ma’naviy jihatdan birlashgan yagona Arab davlatini vujudga keltirishni davr taqazo etmoqda edi. Bunga esa yagona Hudoga e’tiqod qilish orqali erishish mumkin bo‘lar edi. Bu davrda Islomning paydo bo‘lishi uchun g‘oyaviy muhit ham yetilib borayotgan edi. Chunonchi haniflar – chinakam e’tiqod qiluvchilar, haqiqat izlovchilar diniy harakati bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Haniflar Arab qabilalarini birlashtirish jarayonining g‘oyaviy ifodachisi edilar. Shunday qilib bu davrda Arablarni har jihatdan birlashtirish, kuchli saltanatni vujudga keltirish, yakka hudolikka o‘tishga hijoz arablari ma’lum ma’noda tayyor edilar. Bunday harakatni boshqargan kishilar o‘z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi.

Islom dinining asoschisi Muhammad (s.a.v.)dir. Muhammad (s.a.v.) har tomonlama barkamol inson bo‘lganlari u zotning shahsiy fazilatlari tufayli hijozliklarning harakati o‘ziga hos hususiyatlar kasb etib, diniy va siyosiy kuchga aylandi; bu kuch Islomning vujudga kelishini eng muhim tarihiy voqealaridan biriga aylantirildi. Islomning vujudga kelishi, arablar orasida vahdoniyatga asoslangan dinning qaror topishi, arab qabilalarining yakka hudo – Olloh g‘oyasi atrofida birlashishi Abdullohning o‘gli Muhammad nomi bilan chambarchas bog‘liq. Muhammad(s.a.v.) Makkaliklarni but va sanamlarga sig‘inishdan qutqarish va yagona Olloh e’tiqodiga olib kirish uchun 3 yil yashirin ravishda harakat qildi. Bu davrda Islom diniga kirganlar 30 kishini tashkil etdi xolos.

Birinci bo‘lib Bibi Hadicha , keyin amakivachchasining o‘gli Haydar y’ani Ali, asrandi o‘g‘li Zayd ibn Horis islomga kirdi. So‘ng Abu Bakr, az-Zubayr, Talha, Usmon ibn Affon va boshqalar islomni qabul qildilar. Shu tariqa Makkaliklar ikkiga ajralishdi. Bular Ollohnig yakkaligiga ishonganlar- mo‘min-musulmonlar va ishonmaganlar – mushriklar edi. Mushriklar Ollohnig yakka deb e’tirof etmay, uning sheriklari bor, y’ani hudolar ko‘p deb , turli sanam, tosh va hakazolarga, ko‘plab hudolarga sig‘inishdilar. Mushriklar 23 yil davomida Muhammad (s.a.v.) targ‘ibotlariga tish tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar. Ular hatto Muhammad Payg‘ambarni jismonan yo‘q qilmoq payiga tushganlar. 619 yilda avval amakisi Abu Tolib, keyin hotini Hadicha vafotidan so‘ng mushriklar payg‘ambarga qarshi kurashni yanada kuchaytirdilar. U zot o‘zga yerlardan tarafdorlar izlashga majbur bo‘ldilar. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko‘chdi. 622 yilda Makka zodogonlari bilan raqobatlashib kelayotgan Yasrib(Madina) dagi Abs va Hazraj qabilalarining vakillari musulmon jamoasini o‘ziga qabul qilish , Muhammad(s.a.v.) ni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo‘lishdi. Shu tariqa 622 yilda

musulmonlar jamoasi Makkadan Madinaga ko‘chadi. Buni tarihdagi hijrat- ko‘chish deb yuritiladi. Musulmon yili Hijriy yil hisobi shu yildan boshlanishi rasmiy tan olingan.

Ko‘chib kelgan kishilar muhojirlar (ko‘chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar anсорlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Bu yerda Muhammad(s.a.v.) qisqa vaqt ichida tarqoq arab qabilalarini muhojirlar bilan birlashtirib bir jamoa – ummani tashkil etdi. Bu jamoa qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylandi. Diniy, ma’muriy va harbiy hokimiyat butunlay Muhammad Payg‘ambar qo‘liga o‘tdi. Madina atrofidagi barcha arab qabilalari bo‘ysundirildi. Ayni vaqtda Madina va Makka o‘rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi va Badr, Uhud, Handoq kabi janglar bo‘lib o‘tdi. Nihoyat Makka zodogonlari 628 yilda Muhammad(s.a.v.) bilan kelishishga majbur bo‘ldilar. 630 yilda musulmonlar qushini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Ollohning elchisi deb e’tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka’ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. 632 yilda Muhammad oila a’zolari bilan birga Ka’baga birinchi marta haj ziyoratiga keldi. Mazkur Haj tarixda “vidolashuv haji” Muhammad hajga to‘plangan 124 ming musulmonga harata tuya ustida o‘tirib nutq so‘zlangan. Bu nutq tarihdagi – “vidolashuv hutbasi” deb yuritilib, u nafaqat yig‘ilgan musulmonlarga, balki butun insoniyatga haratilganligi va insoniyat tarihdagi eng buyuk inqilib yasaganligi bilan ajralib turadi. Vidolashuv hutbasi jaholiyat davrining butun hurofatlarini, butun yomonliklarini, qon da’volarini, sudho‘rlikni, qimor, fohishalikni, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarashni o‘rtadan barham toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Muhammad Payg‘ambar aytgan va’zalarining qisqacha mazmuni quyidagicha. VII asr boshlarida Arabiston yarim orolda yirik Arab davlati tashkil topgan. Arablar bu davrda o‘zlarini ijtimoiy va madaniy jihatdan o‘zgacha xalq sifatida ko‘rsata bildi.

Voha va shaharlar aholisi kam sonli bo‘lgan va ular birg‘biridan Arabiston Sahrosi tufayli ajralib turar edi, Jug‘rofiy jihatdan qulay bo‘lganni uchun qadimda Sharq va G‘arbdagi turli mamlakatlar savdog‘sotiq, iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatishga intilib keldi. Atrofdagi bo‘layotgan barcha siyosiy voqiyalar arab halqlari taqdirigi tas‘ir etmay qolmadi. Qabilalar ittifoqi mustahkam emas edi. Ular goh birlashib, goh parchalashib ketadi. Bu narsa arablar siyosati va diniy ta’limotida ham o‘z aksini topdi. VIII asrigacha bozorlar, shaharlarda, dasht va vohalarda qadimiy arablarga xos turlicha diniy oqimlarni, xristianlikni, otashparastlikni targ‘ib qilib o‘zini payg‘ambar sanagan ko‘plab va’xonalarni uchratish mumkin edi. Arab qabilalarining birlashishi uchun intilishi turli qadimiy diniy topinishlarning markazlashuviga olib keldi. Kuchli urug‘ jamoalar ibodat xonasi va ular sig‘inadigan xudolar jamiyatda yetakchi axamiyatga yega bo‘la boradi. Ojiz qabilalar topishini va xudolari xaqida ta’limot yo‘q qilindi. Yirik savdo va madaniyat markazi bo‘lgan

Makka shahridagi Ka`ba machiti ulkan axamiyatga ega bo`la boshladi. Makkadagi hukumron qabilag` Qurayshlar “o`rtoqlik ”va savdo ittifoqini tuzishdi. Makka atrofidagi sayl muqqadas sanaldi. Tez orada qurayshlar maka atrofidagi urug`, qabilalar uchun har yili ziyoratni tashkil etdi. Makkada diniy e`tdodlarga shubxa bilan qarovchi kishilar paydo bo`la boshladi. Shulardan biri – Muhammad edi. U Hoshimiy qabilasidan chiqqan. Bu qabila Ka`baga kiritiladigan eshik kalitiga ega bo`lgan. Muhojir Muhammad yangi ittifoq yetakchisi bo`lib qoldi. Boy savdogar Abu Bakr o`zining o`n yoshli qizi Oyshani ellik yoshli Muhammadga turmushga berdi. Qur`oni karimda 25 nafar payg`ambarning nomi zikr etilgan. Muahmmad Olloh tomonidan odamlar orasidan tanlangan so`nngi payg`ambar sanaladi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug`ilgan. Otasi Abdulloh Muhammad tug`ilmasdan ikki oy oldin 25 yoshida vafot etgan. Muhammad 6 yosh bo`ganida onasi Amina ham vafot etadi. Muhammadni bobosi Abd al-Mutallib o`z tarbiyasiga oladi. Ikki yildan so`ng bobosi ham vafot etadi. Sakkiz yoshli Muhammadni amakisi Abu Tolib o`z tarbiyasiga oladi. Abu Tolib tijorat ishlari bilan shug`ullanardi. Muhammad ham amakisi bilan tijorat ishlari bilan shug`ullangan. 25 yoshda Yamanga o`sha davrning badavlat ayoli Hadicha bilan uning mollarini sotishda ko`maklashish uchun boradi. Bu hamkorlik Muhammad bilan Hadichaning oila qurishiga sabab bo`ladi. Ular 6 nafar farzand- ikki o`g`il va to`rt qiz ko`rganlar. Farzandlaridan faqat Fotima o`sib ulg`aydi, qolgan farzandlari bevaqt vafot etgan. Muhammad amakisi Abu Tolibga yordam bo`lsin deb uning kichik o`g`li Alini o`z yoniga olgan va keyinchalik qizi Fotimani unga turmushga bergan. Muhammad 40 yoshga borganida uning hayotida Payg`ambarlik davri boshlangan. Ya`ni unga ilk vahiy kela boshlagan. Ana shu davrdan Muhammad Ollohninng rasuliga – elchisiga aylandi. Bu faoliyat 23 yil davom etdi. Uning bir qismi Makkada (610-622), ikkinchi qismi Madinada (622-632) o`tgan. Adabiyotlarda qayd etilishicha dastlabki vahiy ramazon oyining 26 sidan 27-siga o`tar kechasi kelgan. Shuning uchun bu kunni musulmonlar qadr, y`ani ilohiy qudrat kechasi sifatida nishonlaydilar. Ramazon oyini esa muborak deb biladilar. Kelgan vahiy Muhammad Payg`ambarni insonlarni johiliyadan qutqarish va Olloh ko`rsatgan to`g`ri yo`lga chaqirishga da`vat etadi. Islom, barcha insonlarning adolat va tenglik asosida yashashini talab qiladi. Qur'on sharifda "Ey imon keltirganlar! Adolatni to'liq o'rganib chiqing va adolat bilan shahodat qiling" (Nisa surasi, 135) deb buyuriladi. Islomda, zulm va nafsiy jinoyatlar qat'iy nazar bilan ta'qiqlanadi, va insonlar o'rtasidagi munosabatlar adolat asosida tuzilishi talab qilinadi. Islom, iqtisodiy faoliyatni barqaror va adolatli shaklda olib borishga ahamiyat beradi. Qur'on sharifda "Ollahning sizga berdiği rizqni qaytaring va sizlarga halol va toza narsalardan yeying" (Baqara surasi, 168) buyuriladi. Islomda, iqtisodiy faoliyat adolat asosida amalga oshirilishi, zulm va riba shakllari bilan to'g'rilanishi talab qilinadi. Islom,

ilmni o'rganishni va bilimlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Qur'on sharifda "O'zingizga foyda yetadigan ilmni o'rganing" (Tahrim surasi, 6) buyuriladi. Islomda, ilm-fan o'rganish, tadqiqot va o'zlashtirishga ahamiyat beriladi, va bu bilimlarni ijtimoiy taraqqiyot uchun foydali qilish talab qilinadi. Muhammad vafotidan sung (632yil) uning tomonidan tuzilgan ittifoq qabilalarini birlashtiruvchi yanada katta markazga aylandi. Madinadagi bu ittifoq boshida Ollohning noiblari,halifalar turar edi. Su`niy mazxabdagi musulmonlarda asosan ilk to`rt halifa alohida ahamiyatga ega.Bularg` Abu Bakr(632-634), Umar (634 644),Usmon (644-656)va Hazrati Ali vakiligini tan olishgan. Halifalar yil sayin g`oya va e`tiqod sifatida islom ta`limotini mukkamalashtra bordilar.Ular himmati ila Madinada 114 suradan iborat “Quroni karm”tartib topdi.Xalifa Usmon davrida Muhammad ta`lim va o`gitlari 50 yili yozuvga tushirildi.

Yana bir muqqadas diniy kitob mavjud.Bu Muhammad payg`ambar hayoti,faoliyati va ugitlari haqidagi xadislardan iborat.hadislar to`plami IX asrda vatandoshimiz –Buxoriy va Muslim kabi muhandislar tomonidan amalga oshirilgan. Muhammad Sollolohu alayxi vasallam vorislari xalifa Abu Bakr,Umar va Usmon avvalgi qushni qabilalarni, so`ngra O`rta dengiz va Osiyodagi baz`i mamlakatlarni fath etdilar va birlashtirdilar islom dini VIIIg`Ixasr davomida Eron , Shimoliy Xindiston va O`rta Osiyoga tarqaldi. X-XV asrlarda esa arab, hind va o`raosiyolik savdogarlar orqali u bug`or ,qipchoqlarga yetib bordi.Shimoliy Kavkaz,Sibir` va keyinroq Oltin O`rdaga kirib keldi. Shialardan yana bir oqim ismoiliylar ajralib chiqib, u Avg`onistonning tog`li hududlari va Badaxshonda qaror topdi, ismoillik talimoti,hususan ulardan ajralib chiqqan qarmatlar islom diniga nisbatan oppazitsion munosabatida bo`ldi,Qaramat mazxabi XI asirga qadar mavjud edi. 650 yilda Arablarni Sug`diyona,Tohiriston,Hoayezming hosidor yerlari o`ziga jalb etdi. Avvaliga ular Xurosanda talonchilik yurishini boshladi.Chunki lashkarboshining qarorgoxi Marvda yedi. O`rta asr tarixchi olimi Abu Ja`far at-Tabariyning yozishicha, Movarounnahr hududida uyushgan holda arablarga qarshi kurash olib borishga harakat qilingan.

Arablar yurishlardan so`ng o`lja bilan Marvga qaytishganida o`rtaosiyolik shohlar Xorazm yaqinida yig`ilib, bir-biriga hujum qilmaslik haqida majburiyat olishar edi. Abul Hasan al-Balozuriy VII asrning 80-yillaridagi arablarning yurishlari haqida yozar ekan, Movarounnahr hududida o`troq aholi bilan birga Choch yaqinida, Yettisuvning Talas va Chuv vodiysida yashovchi ko`chmanchi turklar, Ili daryosi havzasida va irtishdan g`arb tomonda yashovchi turgeshlar; Farg`ona va Toharistonda yashovchi qarluqlar ham arablarga qarshi kurashdilar. Zarafshon vodiysida, Buxoro bilan Samarqand oralig`idagi hududda yashagan turkiy xalqlar ayniqsa katta kuch edi.Arablar bilan zabt etilgan xalqlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklar bir qator jiddiy qo`zg`olonlarga olib keldi.

V. V. Bartol`dning yozishicha (“O`rta Osiyoda arab istilosining tarixiga oid”), arablar bilan G`urak so`g`dliklari o`rtasidagi keskinlik Samarqand qamal etilishidan oldin boshlangan edi. At-Tabariy ham shunday ma`lumot keltiradi. Samarqand rustoqlari (Qishloq mavzelari) ning arablar tomonidan fath etilishi, 720-721-yillarda u yerlarga arablar hamda Bakr ibn voil qabilalarining ko`chirilishi ham mahalliy aholining qarshiligiga sabab bo`ldi. Xuroson hokimi al-Jarroh (Qutaybadan so`ng) mamlakatni faqat qilich va qamchi bilangina boshqarish mumkin, deb hisoblardi. At-Tabariyning yozishicha, Samarqand aholisi Xuroson va Movarounnahrda boshqaruvga homiylik qilib turgan xalifa Umar II ga shikoyat xati yubordilar. Islom dinini qabul qilganlarning barchasidan xiroj olmaslik tadbirini Umar II murosaga keltirish siyosati deb bildi. Zarafshoning manbaida, Mug` tog`idagi (Tojikistonda) qal`ada 1933 yili topilgan xujjatlarda 720-721 yillarda Panjikent hokimi Divashtich boshchilik qilgan sug`dliklarning arablarga qarshi qo`zg`oloni haqida ma`lumot keltiriladi. Xitoydan ko`p mol bilan qaytgan 400 sug`dlik savdogarlar, Ishtixon, Sabasket va Sug`diyonaning boshqa yerlaridagi aslzodalarning barchasi “oltin qayishli kishilar” qo`llab-quvvatlashdi. Zamindorlar o`z sipoh va oilalari bilan to`planib yo`lga chiqishdi, 10 mingdan ziyod kishi ko`chdi. Ko`chmanchilar Xo`jandga yetib kelishganda Farg`ona hokimi shaharga joylashtirolmay, Isfara tumanini tafsiya etdi. Divashti boshchiligidagi aholi va sipohlarning boshqa qismi Zarafshon bo`ylab tog`lar orqali Abgar (yoki Abargar) qal`asidan yuqori tomonga yo`l olishdi. Ko`chmanchilar hali Isfaraga yetib ulgurmasidanoq Al-Xarashiy yuborgan arab qo`shinlari Xo`jand tuprog`iga oyoq qo`ydilar. Arablar Xo`jand shahri atrofini o`rab, uni qamal qila boshlashdi. Farg`ona hokimi yordam bera olmadi. Shunda sug`diyonaliklar sulh tuzishni so`rashdi. Arablar sug`dliklar uylariga qaytishini, xiroj to`lashini, asirga olingan arab ayollarini qaytarib berilishini talab qilib, shu shartlar bajarilsagina tinchlik sulhi tuzulishiga rozi ekanliklarini aytishdi. Sug`dliklar bu shartlarni qabul qilishganlarida arablar ularni aldashdi va deyarli hammalarini qirib tashlashdi. Ayni vaqtda Xo`jand mulkdorlari ham qirib yuborildi. Ayrim ma`lumotlarga ko`ra uch ming, boshqa ma`lumotlarga qaraganda yetti ming kishi qurbon bo`ldi. At-Tabariyning ta`kidlashicha, mulkdorlarning bo`yinlarida muhrlik qog`oz osilib turardi. Bu shundan dalolat beradiki, arablar juz`ya va xiroj to`lovchilar bo`yniga muhr osishdek ayanchli udumni O`rta Osiyoda erta joriy etishgan. Markaziy Arabistonda murtadlik harakatiga soxta payg`ambar Musaylama boshchilik qilgan. Abu Bakr musulmonlar qo`shinini 11 otryadga bo`lib, eng kuchlisi Xolid ibn al-Volid otryadi edi.

Xolid eng qiyin joylarga yuborildi va barcha janglarda, shu jumladan Yamamadagi Musaylamada g`alaba qozondi. Yil davomida murtadlarga qarshi janglar davom etib, Abu Bakrning g`alabasi va arab qabilalarining birlashishi bilan yakun topdi. Qo`zg`olonlar bostirilgach, Abu Bakr Arabiston yarim orolidan

tashqarida bosqinchilik urushlarini boshladi. 633-yilda Abu Bakr Xolid ibn Validni Sosoniylar saltanatining eng boy viloyatlaridan biri bo‘lgan Iroqqa yubordi. Shundan so‘ng u Suriyaga 4 ta qo‘shin jo‘natib, 634-yilda Xolid ibn Valid qo‘shinini o‘sha joyga ko‘chiradi. 634-yilda Abu Bakr kasal bo‘lib qoldi va o‘limidan oldin Umar ibn Xattobni xalifa etib tayinlashni vasiyat qildi. Yangi xalifa sosoniylar, Vizantiya imperiyasi va Misrga qarshi bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Bir paytlar kuchli davlatlar bo‘lgan Vizantiya va Sosoniylar davlati bir-birini charchatib yuborgan, bu esa xalifalik qo‘shinlariga ularni osonlikcha mag‘lub etish imkonini bergan. 640-yilga kelib butun Mesopotamiya, Suriya va Falastin xalifalik nazoratiga o‘tdi. 642-yilda Misr, bir yildan keyin esa butun Fors imperiyasi bosib olindi. Umar ibn Xattob xalifalikning siyosiy tuzilishiga asos solgan. U samarali soliq tizimi – devonni yaratdi.

Barcha hokimlar (amirlar) bevosita xalifa tomonidan tayinlangan. Umar Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilishlari (hijratlari) dan taqvim hisobini kiritdi. Umar ibn Xattob vafotidan oldin olti kishidan iborat kengash tayinladi va ular orasidan xalifani saylaydi. Da’vogarlarining hammasi quraysh edi. Kengash da’vogarlar sonini ikkiga (Usmon va Ali) kamaytirdi va bu lavozimga xalifa Usmon ibn Affonni sayladi. Usmon ichki muammolarga qaramay, o‘zidan oldingilarning bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Xalifalik qo‘shini Shimoliy Afrikani, Pireney yarim orolining qirg‘oqbo‘yi rayonlarini bosib oldi va Hind daryosining quyi oqimigacha yetib borgan Sosoniylar imperiyasini to‘liq bosib oldi. Usmon davrida Qur‘onning yozma matnini bitta kitobga yig‘ish tugallandi. 656 yilda Usmon ibn Affon uning siyosatiga rozi bo‘lmagan qo‘zg‘olonchilar tomonidan o‘ldirildi. Uchinchi xalifaning o‘ldirilishidan keyin Muhammad payg‘ambarning sahobalari Ali ibn Abu Tolibni yangi xalifa etib sayladilar. Ko‘p o‘tmay Ali Usmonning qarindoshlari bo‘lgan bir qancha hokimlarni ishdan bo‘shatib, ularning o‘rniga o‘zining ishonchli vakillarini tayinladi. Ali davrida xalifalik poytaxti Madinadan Kufaga ko‘chirildi. Usmon o‘ldirilgach, xalifalik aholisining bir qismi, az-Zubayr, Talha va Oisha boshchiligida jinoyatchilarni jazolash talabi bilan chiqishdi.

Qo‘zg‘olonchilar tomonidan to‘plangan qo‘shin Basraga kirib, bu qotillikka aloqadorlikda gumon qilingan 600 ga yaqin kishini qatl qildi. Xalifa Ali o‘z qo‘shini bilan isyonchilar va unga bay‘at qilgan Usmonning qotillari bilan muzokaralar olib borish uchun Basraga yetib keldi. Sunniy manbalarga ko‘ra, Usmonning o‘limida aybdorlar Ali va isyonchilar o‘rtasidagi muzokaralar ularning ta‘qib va qatl etilishi bilan yakunlanishidan qo‘rqib, janglarni boshlagan. Ali va isyonchilar o‘rtasidagi jang musulmonlar o‘rtasidagi birinchi jang bo‘lib, „Tuya jangi“ deb nomlanadi. Xalifa Ali g‘olib bo‘ldi, Talha va az-Zubayr jangda halok bo‘ldi, Muhammad payg‘ambarning xotini Oysha Hasan ibn Ali hamrohligida Madinaga yuborildi.

Shundan so‘ng xalifaning Suriyadagi noibi, Usmonning qarindoshi bo‘lgan Muoviya Usmonning qotillari jazolanmaguncha xalifaga bay’at qilishdan bosh tortdi. Siffinda Ali va Muoviya o‘rtasida jang bo‘lib, u hakamluk mahkamasi bilan tugadi va norozilarning bir qismi (Xorijiyalar) chiqib ketdi. Oqibatda Ali xalifalik hududining katta qismini nazoratdan mahrum qildi.⁸

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.intereuroconf.com/index.php/ipsn/article/download/742/548>.
2. <https://poe.com/Assistant>.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_falsafasi.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-tarixi-va-falsafasi>.
5. <http://www.genderi.org/kirish-islom-dini-paydo-bolmasdan-oldingiarabiston.html>.

MATN YARATISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Yusupova Gulandon Atham qizi

ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
gulandon0898@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, ularning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritiladi. Raimes, Byrne, Tribble va Harmer tomonidan taklif etilgan yondashuvlar tahlil qilinib, ularning o‘zaro farqlari va integratsiyalashuv imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: matn yaratish, metodik yondashuv, jarayon yondashuvi, janr yondashuvi, erkin yozish, grammatik-sintaktik yondashuv, kommunikativ yondashuv, ijodiy yondashuv.

Annotation: This article elucidates the methodological approaches employed in developing text creation skills, their scientific and theoretical foundations, and practical aspects. The approaches proposed by Raimes, Byrne, Tribble, and Harmer are analyzed, and their distinctions and potential for integration are examined.

Keywords: text creation, methodological approach, process approach, genre approach, free writing, grammatical-syntactic approach, communicative approach, creative approach.

Matn yaratish faqat til o‘rganish vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida ham qaraladi. Raimes matn yozishni o‘rgatishning ahamiyatini aynan shu jihat bilan bog‘laydi: matn yaratish orqali o‘quvchilar tildagi bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki uni amaliyotda qo‘llash, o‘z fikrini mustaqil ifodalash va yangi nutqiy shakllarni kashf etish imkoniga ega bo‘ladilar. Harmer esa matn yaratish vaqtida xatoga yo‘l qo‘yishni o‘quv jarayonining tabiiy va muhim qismi sifatida ko‘radi. Yozma matn yaratish jarayonida o‘quvchilar matnning maqsadini aniqlaydi, grammatik va leksik vositalarni tanlaydi, matnning mazmuni, tuzilishiga e’tibor qaratadi. Matn yaratish til ko‘nikmalari orasida o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan ko‘nikmadir. Og‘zaki nutq tabiiy tarzda shakllanadigan bo‘lsa, matn yaratishni egallash uchun maqsadli, tizimli va ongli o‘rgatish zarur. Har bir o‘quvchining matn yaratish ehtiyoji ularning til bilish darajasi va matn yaratishdan foydalanish maqsadiga qarab farqlanadi. Matn yaratishni o‘rgatish metodologiyasi bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilar – Ann Raimes, Donn Byrne, Christopher Tribble va Jeremy Harmer tomonidan bir nechta asosiy yondashuvlar

ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ba’zilari bir-birini to‘ldiradi, ba’zilari esa mutlaqo yangi nazariy asosga ega.

Ann Raimes matn yaratishni o‘rgatish bo‘yicha oltita yondashuvni ilgari suradi. Ularning har biri matn yaratishda ma’lum bir jihatga urg‘u beradi va ularning aralash holda qo‘llanishini ham taklif qiladi. Unga ko‘ra, o‘qituvchilar faqat bitta yondashuvga yopishib qolmasligi, balki o‘z amaliyotida eklektik, ya’ni moslab qo‘llash usulini tanlashi maqsadga muvofiq.[3]

Raimes quyidagi yondashuvlarni tavsiya etadi:

- Nazoratdan erkinlikka o‘tish yondashuvi;
- Erkin matn yaratish yondashuvi;
- Paragraf asosida tuziladigan yondashuv;
- Grammatik-sintaktik yondashuv;
- Kommunikativ yondashuv;
- Jarayon yondashuvi.

Byrne o‘z tasnifida matn yaratishdagi to‘rtta muhim jihatga e’tibor qaratadi. Bu yondashuvlar Raimesning ba’zi yondashuvlariga mazmunan mos keladi:[1]

- Aniqlikka urg‘u beruvchi yondashuv;
- Erkinlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv;
- Matn tuzilishiga asoslangan yondashuv;
- Maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv.

Tribble uchta yondashuvni taqdim etadi. U Raimesning “matn”, “yozuvchi” va “o‘quvchi”ga yo‘naltirilgan yondashuvlarini asos qilib oladi:[5]

- Matnga asoslangan yondashuv;
- Jarayon yondashuvi;
- Janr yondashuvi – bu Tribble tomonidan alohida yangilik sifatida taklif etilgan.

Harmer o‘qituvchilarga turli bosqichdagi o‘quvchilar uchun mos yondashuvni ongli ravishda tanlashni maslahat beradi. Uning tasnifida quyidagi yondashuvlar mavjud:[2]

- Jarayon yondashuvi;
- Janr yondashuvi;
- Ijodiy matn yaratish yondashuvi;
- Hamkorlikda yozish yondashuvi;

Nazoratdan erkinlikka o‘tish yondashuvi Ann Raimes tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u XX asrning 1950–1960 yillarida mashhur bo‘lgan audiolingval metodga asoslanadi. Yondashuv bosqichma-bosqichlik prinsipiga tayangan holda tashkil etiladi: avval o‘quvchilarga gap darajasida nazorat ostidagi mashqlar taklif etiladi, keyinchalik ular paragraf tuzishga o‘tadilar. O‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan material asosida o‘quvchilar aniq ko‘rsatmalarga amal qilgan holda

yozma topshiriqlarni bajaradilar. Mazkur yondashuvda asosiy urg‘u grammatik to‘g‘rilik, sintaksis, matn tuzilishiga qaratiladi. Chunki matn yozish jarayoni qat’iy nazorat ostida bo‘lganligi sababli, o‘quvchilar kamroq xatoga yo‘l qo‘yadilar va o‘qituvchi uchun tahrirlash jarayoni ham ancha osonlashadi. Nazoratdan erkinlikka o‘tish yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: o‘quvchilarda ishonch hosil bo‘ladi, chunki ular aniq tuzilishga tayangan holda yozadilar; grammatik bilimlari mustahkamlanadi; til elementlari amaliyotda qo‘llaniladi; og‘zaki va yozma ifoda orasida o‘tish osonlashadi.

Bu yondashuv Donn Byrne tomonidan “Aniqlikka yo‘naltirilgan yondashuv” nomi ostida ham ilgari surilgan. U bosqichma-bosqich nazoratni kamaytirish orqali matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirishni taklif qiladi. O‘quvchilar o‘z g‘oyalari bilan ishlamaydi, balki berilgan matnlar asosida ishlaydi — ya’ni gaplarni birlashtiradi, o‘zgartiradi yoki davom ettiradi.

Xuddi shuningdek, Christopher Tribble ham “Matnga asoslangan yondashuv” orqali mazkur prinsiplarni qo‘llaydi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar an’anaviy namuna matnlari bilan ishlaydilar: ularga taqlid qiladilar, o‘zgartiradilar yoki ulardan namunalar oladilar. Xatolik esa “yo‘l qo‘yilmasligi kerak bo‘lgan holat” sifatida talqin qilinadi.

Erkin matn yaratish yondashuvi matn yaratishdagi erkinlik, mazmun va g‘oya ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuvda asosiy e’tibor matn yaratish mazmuniga, o‘quvchining fikrlari va original yondashuvlariga qaratiladi; grammatika yoki shakl emas, aynan fikrlar va ijodiy ifoda markazda turadi. O‘quvchilar uchun ularga tanish bo‘lgan mavzularda erkin matn yozish orqali o‘zlarini ifoda etadilar. Ularga mavzu tanlashda mustaqillik beriladi yoki umumiy mavzu asosida o‘z fikrlarini erkin bayon qilish so‘raladi. Bunday matn yaratish shakllaridan biri — “tezkor matn yaratish” (quick write) bo‘lib, bunda o‘quvchilar 5–10 daqiqa davomida hech qanday tuzatishsiz, faqat o‘z fikrlarini izchil tarzda yozib boradilar. Ushbu jarayonda grammatik xatoliklar to‘g‘rilanmaydi, asosiy maqsad — o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishidir. Scrivener bu faoliyatni “fastwriting” deb ataydi va uning ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bu faoliyatda keraksiz gaplar bo‘lishi mumkin, biroq ular orasida matnning asosiy g‘oyasi ham bo‘lishi mumkin. Donn Byrne bu yondashuvni “Erkinlikka yo‘naltirilgan yondashuv” deb ataydi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari o‘quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantiradi; fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatadi; matn yaratishda mustaqillik va ishonch hosil qiladi; ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Erkin matn yaratish yondashuvi, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarining shaxsiy tajribasi, his-tuyg‘ulari va qiziqishlarini matnga jalb qilishda alohida samaradorlikka ega. Shu bois, bu yondashuv yozishni nafaqat texnik ko‘nikma, balki shaxsiy ifoda vositasi sifatida ham qarashga imkon yaratadi.

Paragraf asosida tuzilgan yondashuv matn yaratishni o‘rgatishda matn ichidagi tuzilish — ayniqsa paragraf darajasidagi tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarga ona tilidagi matnlarni qanday tartibda tashkil qilishni, ya’ni fikrlar oqimini qanday mantiqan izchil joylashtirishni o‘rgatishdan iborat. Bu yondashuv asosida tashkil etilgan mashqlarda o‘quvchilar namuna-paragraflarni ko‘chiradilar, tahlil qiladilar yoki ularga taqlid qiladilar. Odatda mashqlar paragrafda aralashtirib berilgan gaplarni to‘g‘ri tartibda joylashtirish; umumiy g‘oyani aniqlash, asoslovchi misollarni ajratish; paragraf uchun mos sarlavha yaratish; matn ichidagi fikrlar ketma-ketligini tuzatish kabi shakllarda bo‘ladi.

Bu yondashuvning o‘ziga xos jihati shundaki, u matn yaratishni nafaqat grammatik, balki mantiqiy va struktural jihatlarini ham mustahkamlaydi. Matn shunchaki gaplar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir mantiqiy tuzilishga ega bo‘lgan paragrafik birlik ekanligini o‘rgatadi. Donn Byrne ushbu yondashuvga “Matnga yo‘naltirilgan yondashuv” deb nom beradi va uni gap darajasidan yuqoriroq — paragraf darajasida tashkil etilgan matnni shakllantirishga qaratadi. Bunda o‘quvchilar paragrafning tuzilishi, ichki mantiqi va uslubiy jihatlarini ustida ishlaydilar.

Grammatik-sintaktik yondashuv — matn yaratishni o‘rgatishda bir vaqtning o‘zida bir nechta til komponentlarini uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Ya’ni, o‘quvchilar yozma topshiriqni bajarayotganda grammatik to‘g‘rilik, sintaktik aniqlik va matnning umumiy tuzilmasiga birgalikda e’tibor qaratadilar. Ushbu yondashuv ayniqsa amaliy matn yaratish topshiriqlari uchun foydalidir.

Ushbu yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, u matn yaratishni puxta rejalashtirish va mantiqan tashkil etish zaruratini anglatadi. Faqatgina grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar yozish kifoya emas — ularning qanday tartibda joylashtirilgani, qanday bog‘lovchilar bilan bog‘langanligi va qanday umumiy tuzilma yaratganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ yondashuv — matn yaratishning maqsadi hamda uslubini diqqat markaziga qo‘yadigan yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, matn yaratish — bu faqat grammatika yoki gap tuzilishini to‘g‘ri bajarish emas, balki muloqot vositasi bo‘lishi kerak. Ya’ni, har bir matn yaratishning aniq maqsadi (nima uchun yozilmoqda?) va aniq o‘quvchisi (kimga yozilmoqda?) bo‘lishi zarur. Bu yondashuvda o‘quvchi matn yozishda o‘zining potensial o‘quvchisini hisobga olishi lozim: o‘qituvchi, sinfdoshlar yoki hatto tashqi o‘quvchi (masalan, maktubdagi manzil egasi). Yozilgan matn o‘qiladi, unga javob beriladi, unga savollar beriladi yoki fikr bildiriladi — bu esa matn yaratishni chinakam kommunikativ holga keltiradi. Byrne bu yondashuvni “Maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv” deb ataydi va matn yaratishning ikkita muhim komponentiga — maqsad va uslubga — doimo e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Aynan mana shu omillar o‘quvchini matn

yaratishga rag‘batlantiradi, uni ongli matn yaratuvchi sifatida shakllantiradi. Asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: matn yaratish aniq vazifaarga asoslanadi (masalan, xat yozish, savollarga yozma javob berish); o‘quvchilar matn yozgandan so‘ng, uni sinfdoshlariga taqdim etadilar, muhokama qiladilar yoki almashadilar; matnlar til shakllari (grammatika)dan ko‘ra ma’lumot uzatishga, fikr bildirishga va o‘quvchida reaksiya uyg‘otishga qaratiladi. Matn tahriri asosan mazmun, aniqlik, tushunarlik asosida amalga oshiriladi, grammatik xatolar esa ikkinchi darajali hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar matn yozishni haqiqiy muloqot vositasi sifatida qabul qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularda matn yaratishga nisbatan ijobiy munosabat, ichki motivatsiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Ijodiy yondashuv — o‘quvchilarning tasavvuri, his-tuyg‘ulari hamda shaxsiy tajribalariga tayanuvchi matn yaratish faoliyatini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida o‘quvchilarga she’r, hikoya, sahna asarlari kabi erkin shakllardagi yozma topshiriqlar beriladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi — shaxsiy ifoda va tafakkurni rag‘batlantirish orqali chuqur va hissiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Harmer bu yondashuvni “o‘zini anglash yo‘lidagi sayohat” deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar shaxsiy tajribasi asosida matn yozganda, ularda ichki motivatsiya kuchayadi va ular an’anaviy, standart matn yaratish topshiriqlariga nisbatan ko‘proq kuch sarflashga tayyor bo‘ladilar. Ijodiy yondashuv o‘quvchiga o‘z fikrini mustaqil ravishda bildirish, individual nutq uslubini rivojlantirish, tilni emotsional va estetik jihatdan boyitilgan shaklda qo‘llash imkonini beradi.

Ijodiy yondashuvda eng katta motivatsion omil — o‘z mehnatidan faxrlanish tuyg‘usidir. Biroq, bu yondashuvning ba’zi murakkab jihatlari ham mavjud: ko‘plab o‘quvchilar erkin mavzuda yozishga qiynaladi; “aytiladigan gap yo‘q” degan holatlar yuzaga keladi, bu esa o‘quvchini demotivatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun Harmer o‘qituvchilarga ijodiy yondashuvdan foydalanishda o‘quvchilarni asta-sekinlik bilan erkin yozishga o‘rgatish; avval qisqa jumlar va iboralardan boshlash; so‘ngra asta-sekin butun matnlar yaratishga o‘tish; matn yozishda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi metod va topshiriqlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Ijodiy yondashuv o‘quvchining shaxsiy yondashuvi va emotsional dunyosini inobatga olgan holda matn yaratish ko‘nikmasini chuqurroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa, shaxsiy anglash, estetik tafakkur va ichki dunyoni ifodalash imkonini beruvchi topshiriqlar orqali matn yaratish jarayonini boyitadi.

Hamkorlikda yozish yondashuvi — o‘quvchilarni matn yaratish jarayoniga jamoaviy tarzda jalb qilishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, matn yaratish yakka faoliyat emas, balki muloqot va hamkorlik orqali shakllanadigan ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. O‘quvchilar birgalikda g‘oya ishlab chiqadilar, matn tuzadilar, tahrir qiladilar va yakuniy shaklga keltiradilar.

Hamkorlikda yozish yondashuvining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

— Fikrlar almashinuvi: O‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini eshitadilar, baholaydilar va umumiy qarorga keladilar;

— Mas’uliyatni taqsimlash: Guruhdagi har bir a’zo o‘ziga tegishli vazifani bajaradi, bu esa ishtirokni faolroq qiladi;

— Til vositalarini boyitish: O‘quvchilar turli tildagi ifodalarni bir-birlaridan o‘rganadilar;

— Tahrirlash va refleksiya: Matnni tahlil qilish va yaxshilash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Harmer ta’kidlaganidek, bu yondashuv “jarayon” va “janr” yondashuvlari bilan uyg‘un holda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar biror janrdagi matnni guruhda tahlil qilgach, shu janr asosida yangi matn yaratadilar. Yoki ular matn yaratishning bosqichma-bosqich jarayonini guruhda tashkil etadilar — reja tuzish, g‘oyalarni baholash, yozish, tahrirlashlash va yakuniy ko‘rinishda taqdim etish.

Jarayon yondashuvi — Raimes, Tribble va Harmer kabi yetakchi metodistlar tomonidan keng qo‘llanilgan va rivojlantirilgan yondashuv bo‘lib, u tayyor matn natijasidan ko‘ra, matn yaratish jarayonining o‘ziga e’tibor qaratadi. Boshqa yondashuvlardan farqli o‘laroq, bu usulda matn yaratishning yakuniy holatidan ko‘ra, uni yaratish bosqichlari muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar matnni Men nima uchun yozayapman? (maqsad); Men kim uchun yozayapman? (uslub); Fikrni qay tarzda yetkazmoqchiman? (mazmun va shakl) kabi savollar yaratadilar.

Harmer bu yondashuvning afzalliklari qatorida tilni chuqurroq o‘rganish; matn yaratish ustida ongli ishlash; tahrirlash va takomillashtirishni o‘rganish; o‘qituvchi va sinfdoshlar tomonidan olingan fikr-mulohazalarni hisobga olish orqali matn sifatini oshirishni ko‘rsatadi.

Janr yondashuvi — yozishni o‘rgatishda kommunikativ, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olgan holda, ma’lum bir matn turiga xos bo‘lgan shakl, uslub va tarkibiy xususiyatlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvdir. Bu yondashuv Christopher Tribble tomonidan alohida mustaqil namuna sifatida tavsiya etilgan bo‘lib, keyinchalik Harmer tomonidan ham keng qo‘llanilgan. Ushbu yondashuvda asosiy e’tibor matn yaratishning janr xususiyatlariga qaratiladi — ya’ni muayyan maqsadga xizmat qiluvchi, o‘ziga xos tarkibiy tuzilma va til unsurlariga ega matnlarni o‘rganish va yaratish. Masalan, o‘qish uchun ariza, rasmiy e’lon, maqola, esse, tabriknoma kabi matnlar bir-biridan tubdan farq qiladi va ularni yaratish uchun har xil yondashuv, til vositalari va strukturaviy bilimlar talab etiladi.

Matn yaratish – bu o‘quvchining til kompetensiyasini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va ijodiy ifoda qilish imkonini beruvchi murakkab nutqiy faoliyatdir. Turli metodistlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar (Raimes, Byrne, Tribble, Harmer va boshqalar) ushbu jarayonga turli nuqtayi nazardan yondashishadi: ba’zilari grammatik aniqlikka, ba’zilari fikr erkinligiga, ba’zilari esa

janr yoki kommunikativ xususiyatlarga urg‘u beradi. Har bir yondashuvning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ularni o‘quvchilarning ehtiyoji, tayyorgarlik darajasi va maqsadiga qarab moslashtirish zarur. Samarali matn yozishni o‘rgatish — bu birgina uslub emas, balki turli yondashuvlarni ongli ravishda tanlash, tatbiq etish va moslashtirishdan iborat jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Byrne, D. Teaching Writing Skills. Longman, 1988.
2. Harmer, J. How to Teach Writing. Pearson Education, 2004
3. Raimes, A. Techniques in Teaching Writing. Oxford University Press, 1983.
4. Scrivener, J. Learning Teaching. Macmillan, 2005.
5. Tribble, C. Writing. Oxford University Press, 1996.

BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT TUZUMI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI (1753-1920)

Akmal Baxtiyorovich Yo‘ldoshev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi”
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
akmalyuldash114@gmail.com

Nodirbek Rustamjon o‘g‘li Hamroyev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi,
yo‘nalishi 5.2 - ITM 21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Buxoro amirligi o‘zining uzoq tarixiy davrida Markaziy Osiyoning eng muhim va ta’sirli davlatlaridan biri bo‘lib, uning davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti o‘zgacha o‘ringa ega edi. Xususan, Buxoro amirligi davlat tuzumi, monarxik boshqaruv tizimiga asoslangan bo‘lib, Amir (hukmdor) davlatning oliy hokimi hisoblangan. Amirlikning hukumati o‘z ichiga amirning o‘rinbosarlari va vazirlarini olgan, shuningdek, harbiy va ma’muriy tizimlar ustidan nazorat o‘rnatilgan edi. Buxoro amirligi xududida islom qonunlari asosida tartiblar belgilanib, shariat va davlat qonunlari bir-birini to‘ldirgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, davlat, tuzum, amirlik, siyosat, tarix, islom dini.

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТРОЙ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (1753-1920)

Аннотация: Бухарский эмират был одним из самых важных и влиятельных государств Центральной Азии в течение долгого исторического периода, и его государственный строй и социально-экономическая жизнь занимали особое место. В частности, Бухарский эмират является государством система основывалась на монархической системе правления, Верховным правителем государства считался Эмир (правитель). Правительство эмирата включало заместителей эмира и министров, а также осуществляло контроль над военной и административной системами. На территории Бухарского эмирата были установлены порядки, основанные на исламском праве, а законы шариата и государства дополняли друг друга.

Ключевые слова: Бухара, государство, режим, эмират, политика, история, ислам.

STATE SYSTEM AND SOCIAL AND ECONOMIC LIFE OF THE BUKHARA EMIRATE (1753-1920)

Abstract: Bukhara Emirate was one of the most important and influential states of Central Asia during its long history, and its state system and socioeconomic life had a special place. In particular, the state structure of the Bukhara Emirate is based on the monarchical management system, and the Amir (ruler) is considered the supreme governor of the state. The government of the emirate included deputy emirs and ministers, as well as control over the military and administrative systems. In the territory of the Bukhara Emirate, procedures were established on the basis of Islamic laws, and Sharia and state laws complemented each other.

Key words: Bukhara, state, system, emirate, politics, history, Islam.

KIRISH:

Buxoro amirligi (1753–1920) Markaziy Osiyoning yirik siyosiy va madaniy davlatlaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilishga ega edi. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi ostida amirlik mutlaq monarxiya asosida boshqarilgan bo‘lib, unda amir davlatning yagona hukmdori sifatida siyosiy, diniy va harbiy hokimiyatni o‘z qo‘lida jamlagan. Buxoro shariat qonunlariga asoslangan davlat bo‘lib, unda diniy va dunyoviy boshqaruv uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

Davlat tuzilishi qattiq iyerarxiya asosida shakllangan bo‘lib, unda amirga bo‘ysunuvchi devonlar, viloyat hokimlari va diniy ulamolar muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy hayotda islomiy an‘analari, ilm-fan va hunarmandchilik katta ahamiyat kasb etgan. Buxoro madaniyati va ta’limi Markaziy Osiyoning yirik ilm markazlaridan biri sifatida rivojlangan bo‘lib, madrasa va diniy ilmlar keng yoyilgan. Mazkur maqolada Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-madaniy hayoti tahlil qilinib, uning boshqaruv tizimi, jamiyat tarkibi, ilm-fan va san’at sohalaridagi rivoji hamda o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

ASOSIY QISM:

Buxoro amirligining ijtimoiy tuzumi sinflarga bo‘lingan edi, unda amirning ma’muriy apparati, ruhoniylar, savdogarlar va dehqonlar kabi turli ijtimoiy qatlamlar

mavjud edi. Eng yuqori sinf amirlar va ularning qarindoshlari, ruhoniylar esa islomiy bilimlarni o‘rgatish, diniy faoliyatni boshqarish va shariat hukmlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, Buxoro amirligida savdo, hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanib, iqtisodiy hayotda katta ahamiyat kasb etgan. Buxoro amirligining iqtisodiy hayoti asosan qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, savdo va qo‘lyozma ishlari bilan bog‘liq edi. Buxoro shahri o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning yirik savdo markazi bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri edi. Bu shaharda juda ko‘p savdogarlar, hunarmandlar va ilm ahli yashagan, bu esa iqtisodiy va madaniy rivojlanishga xizmat qilgan. Buxoro amirligi boshqa davlatlar bilan ham savdo aloqalarini rivojlantirib, boy iqtisodiy tizimni shakllantirgan. Shunday qilib, Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy

hayoti bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘sha davrda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Buxorolik hunarmandlarning kasb mahorati, an‘analari, nozik san‘ati avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Mahsulotning hajmi va sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha batafsil qoidalar mavjud bo‘lib, ularni buzish ustaxona va shahar ma‘muriyati tomonidan jazolanadi. An‘anaviy shakllarning yuqori sifati va o‘zgarmasligini saqlab qolgan hunarmandchilikdagi ushbu tartib ishlab chiqarish rivojiga to‘sqinlik qilgan. Diniy xurofotlar, cheklovlar har qanday yangiliklar kirib kelishiga to‘sqinlik qilgan. Buxoro Amirligi o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasining eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, o‘zining aniq tashkil etilgan davlat tuzumi bilan ajralib turardi. Buxoro Amirligining davlat tuzumi monarxik (imperial) tizimga asoslangan bo‘lib, hukmdor — Amir — davlatning oliy hokimi hisoblangan. Amirlikda hukmdor o‘z mamlakatini meros orqali boshqarardi, bu tizimda huquqiy va siyosiy qarorlar amir tomonidan qabul qilinardi. Shu bilan birga, amirning qarorlarini bajarishda uning yordamchilari, o‘rinbosarlari, vazirlari va rahbarlari muhim rol o‘ynagan.

Amir davlatning yuqori hokimi bo‘lib, uning o‘zi har tomonlama mamlakatining manfaatlarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynagan. Amirning ma‘muriy hokimiyati o‘rinbosarlarni va maxsus vazirlarni o‘z ichiga olgan. Ular ma‘muriy, iqtisodiy va harbiy sohalarda boshqaruvni amalga oshirishgan. Ma‘muriy tuzilma, shu bilan birga, Buxoro amirligida hukumat tizimini mustahkamlashga xizmat qilgan. Buxoro Amirligida davlat va diniy hukumat o‘rtasidagi chambarchas aloqalar mavjud edi. Islom shariati asosiy qonun bo‘lib, Buxoro amirligi o‘zining boshqaruvini shariat qoidalari asosida amalga oshirgan. Bundan tashqari, hukmdor va ma‘muriyat, shariatni qo‘llab-quvvatlashga va o‘z davlati uchun amaliy qonunlar ishlab chiqishga harakat qilgan[1].

Buxoro Amirligining ijtimoiy tuzumi juda qat’iy va ierarxik bo‘lib, ijtimoiy qatlamlar orasida katta farqlar mavjud edi. Buxoro jamiyatida yuqori tabaqa amirlar, ruhoniylar va zodagonlardan iborat edi, o‘rtacha va past tabaqa esa dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa ishlab chiqaruvchilarni o‘z ichiga olgan. Amir, zodagonlar va ruhoniylar (ularning oliy ruhoniylar sinfi, masalan, ulamolar) ijtimoiy tuzumning yuqori qatlamida joylashgan. Ushbu sinf davlatni boshqarishda asosiy rol o‘ynagan va ularning qo‘lida siyosiy hokimiyat hamda diniy ta’sir bo‘lgan. Savdogarlar, hunarmandlar va ilmiynlar o‘rtacha tabaqaga kirgan. Ular iqtisodiy faoliyatni rivojlantirgan, o‘zlarini ijtimoiy hayotda sezilarli darajada namoyon etgan, lekin ular o‘zlarini yuqori sinfga kiritolmagan. Dehqonlar, qarzidorlar va boshqa past tabaqalar jamiyatning eng ko‘p qismidan iborat edi. Ular asosan qishloq xo‘jaligida ishlashgan, shuningdek, iqtisodiy resurslarni ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynagan. Buxoro Amirligi iqtisodiy jihatdan asosan qishloq xo‘jaligi va savdoga asoslangan

bo‘lib, bu jamiyatda juda muhim o‘rin tutgan. Qishloq xo‘jaligi, asosan dehqonchilikka tayanib, suvli yerlarda paxta, bug‘doy, tariq va boshqa mahsulotlar yetishtirilgan. Qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlari ko‘plab jamoat resurslarini shakllantirgan, bu esa davlatning iqtisodiy qudratini oshirgan.

Buxoro shahri Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim savdo nuqtalaridan biri sifatida yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan. Buxoro orqali O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy va Yaqin Sharq o‘rtasidagi savdo yo‘llari o‘tayotgan. Shuningdek, Buxoro amirligi hunarmandchilik sohasida ham rivojlangan bo‘lib, ipak ishlab chiqarish, mis, temir va boshqa qo‘shma mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Davlat daromadlari asosan soliqlardan olinardi. Buxoro amirligida soliqlar har bir hududning iqtisodiy sharoitlariga qarab farq qilardi. Buxoroliklar boy kishilardan ko‘proq soliq olgan, kambag‘al kishilardan esa minimal soliq undirilgan. Bunday soliq tizimi mahalliy iqtisodiy holatni saqlab turishga xizmat qilgan.

XX asr boshida Buxoro hunarmandchilikning ko‘pgina sohalari taraqqiy etgan o‘lka sifatida qayd etiladi. Shunisi ahamiyatliki, Buxoro amirligida ayniqsa ipakchilik va qog‘oz ishlab chiqarish eng taraqqiy etgan sohalardan hisoblanadi. Mamlakatda hunarmandlarning ko‘pchilik qismi sezilarli guruhi temirchilar, payvandchilar, misgar va zargarlar qaysiki, o‘zlarining kasbiga ixtisoslashgan mahalla dahalarida istiqomat qiladi. Misgar va zargarlar, Buxoro shahrining markaziy hududlarida yashagan. Bunday hunarmandchilik sohalari Yevropa shahar sanoatchiligi tipida bo‘lmay, qo‘l mehnatiga asoslangan tizimni uzoq vaqtlardan buyon davom ettirib keladi. XX asr boshlariga kelib amirlikda paxta tozalash, jun, moy va press zavodlari tashkil qilina boshladi. Ayniqsa, amirlikning Yangi Buxoro, Chorjo‘y, Qorako‘l, Qiziltepa, Eski Buxoro, Ziyovuddin, Kerki, Termiz, G‘ijduvon, Zirabuloq hududlarida yangi ishlab chiqarish sohasiga asoslangan zavodlar tashkil topa boshlaydi. Bu amirlik iqtisodiyotining endi jonlanayotganini ifodalaydi. Buxoroning sharqiy bekliklarida tog‘li hududlar ko‘p bo‘lganligi va bekliklarni muhofaza qilish talabi natijasida qurol-yarog‘ ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Masalan Yurchi, Boysun, Sherobod bekliklarida temir, ko‘mir rudalaridan foydalanilgan [2.56].

Buxoro Amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti o‘rta asrlar Osiyosining o‘ziga xos yuksalgan va barqaror davlat tizimlaridan biri sifatida ajralib turdi. Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy tuzilishi va iqtisodiy tizimi o‘z vaqtida muvaffaqiyatli ishlagan va davlat barqarorligini ta’minlagan. Ammo, vaqt o‘tgan sari davlatdagi siyosiy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ichki isyonlar Buxoro Amirligining zaiflashishiga olib keldi. Yana bir muhim jihat, Buxoro amirligi O‘rta Osiyo madaniyati va ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

XULOSA:

Buxoro amirligi (1753–1920) o‘z davrida Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilan ajralib turdi. Sug‘orma dehqonchilik, ipakchilik va gilamdo‘zlik kabi tarmoqlar amirlik iqtisodiyotining asosiy tayanchlari bo‘ldi. Shuningdek, Buxoro ilm-fan va islomiy ta’lim markazi sifatida o‘z mavqeini saqlab qoldi. Biroq XIX asr oxirlariga kelib, amirlik iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashib, tashqi kuchlarning ta’siriga tushib qoldi. Eskirgan boshqaruv tizimi, ichki ziddiyatlar, ijtimoiy tengsizlik va Rossiya imperiyasining iqtisodiy ekspansiyasi mamlakat inqirozini tezlashtirdi. XX asr boshlarida jadidchilik harakati paydo bo‘lsa-da, amirlikda islohotlar o‘tkazilmadi va natijada 1920-yilda bolsheviklar tomonidan Buxoro amirligi tugatildi. Ushbu jarayon Buxoro amirligining iqtisodiy va madaniy rivojlanishidan inqirozgacha bo‘lgan yo‘lini yoritib, tarixiy saboqlarni ochib beradi. Amirlikning taraqqiyoti va tanazzuli Markaziy Osiyo tarixidagi muhim voqealar sirasiga kirib, bu hududdagi siyosiy o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. История Бухары с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1976. – С. 126.
2. Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Т., 1953. – С. 67.
3. Тўраева С.Р. Бухоро хонлиги ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тоғқончилик ишларининг тутган ўрни (X асрлар) // Ўтмишга назар, №20 (2019). 15-б.

USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN

Akmal Baxtiyorovich Yo‘ldoshev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi”
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
akmalyuldash114@gmail.com

Farrux Abdumajid o‘g‘li O‘ngboyev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi,
yo‘nalishi 5.1 - ITM 21 guruhi talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada jahon tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan, 1299-yilda Usmon G‘oziy tomonidan asos solingan, va oradan 7 asrdan ko‘proq vaqt o‘tib, 1922-yilga kelibgina o‘z poyoniga yetgan, o‘z vaqtida Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat bo‘lgan ulkan imperiya Usmoniylar(Usmonlilar, Ottomanlar, Porta)imperiyasi boshqaruv tizimi haqida malumot berilgan.

Kalit so‘zlar:Usmon I, beklik, Murod I, sultonlik, Usmoniylarimperiya, sulton, Valide Sulton, Buyuk Vazir, Devon, Shayx ul-islom, beylarbey, sanjaq, yanicharlar, “Midxat konstitutsiyasi”.

FROM THE HISTORY OF THE OTTOMAN SYSTEM OF STATE GOVERNMENT

Abstract:In this article, Asia Minor, which left a unique mark in world history, was founded in 1299 by Osman Ghazi, and after more than 7 centuries, reached its end only by 1922, information about the administrative system of the Ottoman Empire (Ottomans, Ottomans, Porta), a huge empire consisting of Eastern Europe, the Middle East and North Africa, and partly the Caucasus and the Crimea.

Keywords:Osman I, beylik, Murad I, Sultanate, Ottoman Empire, Sultan, Valide Sultan, Grand Vizier, Devon, Sheikh ul-Islam, beylarbey,sanjak, janissaries, "Constitution of Midhat".

ИЗ ИСТОРИИ ОСМАНСКОЙ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: В этой статье представлен список известных людей, которые оставили свой след в мировой истории, основанной Османом Гази в 1299 году, и достигшей своего пика более 7 веков спустя, только в 1922 году, в свое время огромной империей, состоящей из Малой Азии, Восточной Европы, Ближнего

Востока и Северной Африки, частично Кавказа и Крыма. Османы, оттоманки, порты), в котором приводится информация о системе правления империи.

Ключевые слова: Осман I, бекство, Мурад I, султанат, Османская империя, султан, Валиде Султан, великий визирь, Девон, шейх уль-ислам, бейларбей, санджак, янычары, “Конституция Мидхата”.

ASOSIY QISM

1299-yilda Usmon G‘oziy tomonidan asos solingan Usmoniylar imperiyasi davomiyligi jihatdan rekordchilardan hisoblanadi va oradan 7 asrdan ko‘proq vaqt o‘tib, 1922-yilga kelibgina o‘z poyoniga yetgan. Usmonli turk imperiyasi (Yevropada Ottoman imperiyasi deb atalgan) – Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat bo‘lgan ulkan imperiya. Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliy-g‘arbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Ko‘niya sultonligiga tobe kichik bir beklik (beylik) shaklida tashkil topgan. Bu beklikning ilk hukmdori Erto‘g‘rul bo‘lsa ham, uning o‘g‘li – Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli turklar imperiyasi nomini olib, o‘rta asrlarda jahonning eng qudratli

Davlatlaridan biriga aylangan. Usmon I va uning o‘g‘li O‘rxon bek (bey) unvonini qabul qilgan bo‘lsa, O‘rxonning o‘g‘li Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan. Usmonli imperiyasining davlat tashkiloti – ikki asosiy o‘lchovga ega tizim bo‘lgan, harbiy ma‘muriyat va fuqarolik ma‘muriyatidan iborat. Sulton tizimdagi eng yuqori lavozim edi. Oliy ma‘muriyatning muhim qismi sulton saroyi edi (XV asrda u 5 minggacha xizmatkor va ma‘murga ega edi). Hovli tashqi (sulton) va ichki qismlarga (ayollar turar joyi) bo‘lingan. Tashqi qismni amalda saroyvaziri bo‘lgan va sulton mulkini tasarruf etuvchi boshqaruvchi (oq amaldorlarning boshlig‘i) boshqargan. Ichki qism – sultonga yaqin bo‘lgan qora amaldorlarning boshlig‘i tomonidan boshqarilgan[1]. Usmonli sultoni, podshoh yoki “podshohlarning podshosi”, imperiyaning yagona regenti bo‘lib xizmat qilgan va u har doim ham to‘liq nazoratni amalga oshirmagan bo‘lsa ham, uning hukumatining mujassamligi deb hisoblangan. Sulton saroyida haram muhim rol o‘ynagan. Imperial Haram Usmonli sudining eng muhim vakolatlaridan biri edi. Uni Valide Sulton boshqargan. Ba’zida Valide Sulton davlat siyosatiga aralashgan. Haram ayollari bir muncha vaqt davomida “Ayollar sultonligi” deb nomlangan davrda davlatni samarali nazorat qilganlar. Sulton oliy hukmdor bo‘lsa-da, sultonning siyosiy va ijro etuvchi hokimiyati turli davlat muassasalariga topshirilgan. Davlat siyosatida bir qancha maslahatchilar va vazirlar Devon nomi bilan tanilgan kengash atrofida to‘plandilar. Usmoniylar davlati hali ham Beylik bo‘lgan yillarda Devon qabila oqsoqollaridan iborat edi. Keyinchalik, uning tarkibiga harbiy ofitserlar va mahalliy elita (diniy va

siyosiy maslahatchilar kabi) kiritilgan. 1320-yildan boshlab, sultonning ba’zi majburiyatlarini o’z zimmasiga olishga Buyuk Vazir tayinlangan. Bu lavozim sulolaning boshidanoq ta’sis etilgan. Sulton nomidan ma’muriy, moliyaviy va harbiy ishlarni olib borgan. Buyuk Vazir, go’yo sultonning davlat noibi hisoblangan (uning diniy masalalarga aloqasi yo’q edi). U har doim Sulton huzuriga kirish imkoniga ega edi, uning ixtiyorida davlat muhri bor edi. Buyuk vazir amalda mustaqil davlat vakolatlariga ega edi (qonun chiqaruvchi vakolatlardan tashqari); mahalliy hukmdorlar, lashkarboshilar va qozilar unga itoat qilganlar. Sulton tomonidan tayinlangan Buyuk Vazirsultondan deyarli mustaqil bo’lgan, lavozimidan ozod etish va ishdan bo’shatish va nazorat qilish huquqiga ega bo’lgan. XVI asr oxiridan boshlab sultonlar siyosatdan voz kechganlar va Buyuk Vazir amalda davlat rahbari bo’lgan. Buyuk vazirning idorasi fransuzcha La Sublime Porte (“Brilliant darvoza”) deb atalgan. Buyuklardan tashqari, oliy martabali kishilar oddiy vazirlar edi (ularning soni yettitadan oshmagan), ularning vazifalari va tayinlanishi sulton tomonidan belgilangan. XVIII asrga kelib vazirlar (xuddi sadr o’rinbosarlari hisoblangan) barqaror ixtisoslashgan vakolatlarga ega bo’ldilar: vazir-kiyashi –sadr kotibi va ichki ishlar bo’yicha vakolatli, reis-afendi –tashqi ishlarga, chaush-boshi –quyi ma’muriy-politsiya apparatiga, kapudan –flotga mas’ul bo’lgan va hokazo. Buyuk vazir va uning yordamchilari buyuk imperator kengashi –Divanni tashkil qilishgan[2]. Davlat ishlarining ma’naviy-diniy qismini Shayx ul-islom boshqargan (bu lavozim 1424-yilda tashkil etilgan). Shayx ul-islom –sulton o’zining ruhiy hokimiyatini ishonib topshirgan eng oliy musulmon ruhoniysidir. U “fatvo” berishga haqli edi, ya’ni hukumat hujjatining Qur’on va shariatga muvofiqligi haqida maxsus xulosa. Imperator kengashi Divon-i Humoyun maslahat organi vazifasini bajargan[3]. Shayx ul-islombutun ulamolar tabaqasini (qozilar, ilohiyot va huquqshunoslar –muftiylar, diniy maktablar o’qituvchilari va boshqalarni ham o’z ichiga olgan musulmon ruhoniylari) boshqargan. Shayx ul-islom nafaqat ma’muriy hokimiyatga, balki qonunchilik va adolatga ham ta’sir ko’rsatgan, chunki sulton va hukumatning ko’plab qonunlari va qarorlari fatvo shaklida uning qonuniy tasdiqlanishini olgan. Shayx ul-islom sulton tomonidan tayinlangan. Usmoniylar tizimida uchta sud tizimi mavjud edi: biri musulmonlar uchun, biri musulmon bo’lmaganlar uchun, va uchinchi o’zlarining diniy jamoalari ustidan hukmronlik qilgan tayinlangan yahudiylar va nasroniylarni jalb qilgan holda va “savdo sudi”. Butun tizim yuqoridan ma’muriy Qonun, ya’ni qonunlar, islomgacha bo’lgan davrda ishlab chiqilgan turkiy Yassa va Törega asoslangan tizim orqali tartibga solingan[4]. Usmonli imperiyasi dastlab XIV asr oxirida sulton tayinlagan hokimlar bilan belgilangan hududiy birliklar ma’nosida viloyatlarga bo’lingan. Ma’muriy bo’lini sheyaletlarga(viloyatlarga), ulargahokimlar–beylerbeylar(1590-yildan–valiylar)boshchilikqilgan.

Beyelbeyning vazir unvoni va posho unvo boredi, shuning uchun eyaletlarni ko‘pincha pashalik deb atashgan. Vali Istanbuldan tayinlanib, ulug‘ vazirga bo‘ysundirildi.

Har bir viloyatda yangichalar korpusi boredi, ularning qo‘mondonlari ham Istanbuldan tayinlangan. Kichikroq ma‘muriy birliklar “sanjaqlar” deb atalgan, boshchiligidagi harbiy boshliqlar – sanjaqbeylar. Dastlab ularning soni 50 tagacha bo‘lgan. Murod III davrida imperiya 21 eyalet va 2500 ga yaqin sanjaqdan iborat edi. Sanjaqlar okruglarga (kazalar), okruglar volostlarga (naxiye) bo‘lingan[5]. Abdulhamid II (1876 – 1909) hukmronligi davrida Usmoniylar davlatining ichki va tashqi siyosatida, boshqaruv tizimida katta ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abdulhamid II davrida Usmoniylar imperiyasi davlat boshqaruviga ko‘ra, birinchi Usmonli konstitutsiyasi “Kanun-i Esasi” e‘lon qilingan va parlament yig‘ilgan. Ikki palatali parlament tuzilgan. 1876-yil 23-dekabrda qabul qilingan “Midxat konstitutsiyasi” Turkiyani konstitusion monarxiya deb e‘lon qilgan. Lekin Konstitutsiya va parlament uzoqqa bormagan. Keyinchalik, 1908-yil 23-iyulda yangi Konstitutsiya qayta kuchga kirgan. Ikkinchi parlament chaqirilgan. Amalda Usmonlilar davlati respublika boshqaruvi sari qadam tashlagan[6]. Sultonning barcha fuqarolari ikki toifaga bo‘lingan: harbiy (askeriy) – professional askarlar, musulmon ruhoniylari, davlat amaldorlari; soliqqa tortiladigan (raya) – barcha dindagi dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar. Birinchi toifa soliqdan ozod qilingan. Ikkinchi toifa – arab-musulmon an‘analariga ko‘ra, soliq to‘laganlar[7]. Usmonli davlatining birinchi harbiy bo‘limi XIII asr oxirida Anadolu g‘arbiy qismida yashovchi qabilalardan Usmon I tomonidan tashkil qilingan qo‘shin edi. Harbiy tizim imperiyaning rivojlanishi bilan murakkab tashkilotga aylangan. Usmonli harbiylari yollash va ushlab turishning murakkab tizimi edi. Usmonli armiyasining asosiy korpusiga Yangiissariy, Sipaxi, Akinji va Mehteran kirgan. Usmonli armiyasi bir paytlar dunyodagi eng ilg‘or jangovar kuchlardan biri bo‘lib, birinchilardan bo‘lib mushaklar va to‘plardan foydalangan. Usmonli turklari Konstantinopol qamali paytida kalta, ammo keng zambaraklar bo‘lgan falaklardan foydalanishni boshladilar. Usmonli otliq qo‘shinlari tez turkman va arab otlarida kamon va kalta qilichlardan foydalangan holda, og‘ir zirhga emas, balki yuqori tezlik va harakatchanlikka bog‘liq edi (zodagon poyga otining ajdodlari), va ko‘pincha mo‘g‘ullarnikiga o‘xshash taktikalarni qo‘llaganlar. Usmonli armiyasi XVII – XVIII asr boshlarida samarali jangovar kuch bo‘lib davom etgan[8]. O‘sha davrning yana bir e‘tiborga molik voqeasi qo‘shin tarkibida sultonga yaqin bo‘lgan harbiy qismlarga kiritilgan askarlardan yanicharlar korpusining tashkil etilishi bo‘ldi. Chet elliklar tomonidan yanicharlar deb atalgan bu askarlar keyinchalik nasroniy oilalardan, xususan, Bolqon yarim orolidagi asirga olingan o‘g‘il bolalar orasidan jalb etila boshlandi. Devshirme tizimi nomi bilan mashhur bo‘lgan bu amaliyot Murod I (1362 – 1389) davrida joriy qilingan. Maqomi

bo'yicha sultonlarning qullari bo'lgan yanichalar intizomli muntazam armiya bo'lib, yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan va qurollangan piyoda askarlaridan iborat bo'lib, jangovar qobiliyati bo'yicha Lyudovik XIV davrida fransuz armiyasi paydo bo'lgunga qadar Yevropadagi barcha o'xshash qo'shnlardan ustun edi. Yanicharlar dastlabki yillarda juda qo'rqinchli harbiy qism bo'lgan, ammo G'arbiy Yevropa o'zining harbiy tashkil etish texnologiyasini modernizatsiya qilganidan so'ng, ularni mavqeyi pasayib borgan. Asta-sekinlik bilan Usmonlilarning harbiy qudrati eskirgan, ammo yanicharlar o'zlarining imtiyozlariga tahdid solinayotganini sezganlar va isyon ko'targanlar. Sulton Mahmud II (1808 –1839) 1826-yilda qo'zg'olonni bostirgan, rahbarlarni qatl qilgan va yirik tashkilotni tarqatib yuborgan[9]. Sulton Mahmud II Yanichar korpusini tugatgan va zamonaviy

Usmonlilar armiyasini tashkil etgan. U ularni Nizom-i Cedid (Yangi tartib) deb nomlagan. Usmonli armiyasi, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni yollagan va zobitlarini G'arbiy Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborgan birinchi muassasa bo'lgan[10]. Yanicharlar nasroniylar va boshqa ozchiliklardan yollangan bo'lib, ularning bekor qilinishi Usmonli imperiyasini boshqarish uchun turk elitasining paydo bo'lishiga imkon bergan. Usmonli dengiz floti Yevropa qit'asida imperiya hududlarini kengaytirishga katta hissa qo'shgan. U 1517-yilda Jazoir va Misrning Usmonli imperiyasiga qo'shilishi bilan Shimoliy Afrikani zabt etishga kirishgan. 1821-yilda Yunoniston va 1830-yilda Jazoirni yo'qotishdan boshlab, Usmonlilarning dengiz kuchlari va imperiyaning uzoq xorijdagi hududlari ustidan nazorat pasayib ketgan. Sulton Abdulaziz (1861 –1876) Angliya va Fransiya dan keyingi eng katta flotni qurib, kuchli Usmonli dengiz flotini tiklashga uringan. Angliyaning Barrou shahridagi kemasozlik zavodi 1886-yilda Usmonli imperiyasi uchun birinchi suvosti kemasini yasagan. Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Birinchi jahon urushidan so'ng Usmonlilar davlati mustaqilligi xavf ostida qolgan. Mustafo Kamol (keyinchalik “Otaturk” familiyasi berilgan) Turkiyaning Mustaqillik urushida g'alaba qozongan (1919 –1923). Sultonlik 1922-yil 1-noyabrda tugatilgan va oxirgi sulton Mehmed VI (1918 –1922) 1922-yil 17-noyabrda mamlakatni tark etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:(references):

1. Османская империя/https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя
2. Xronologik tartibda Usmonli imperiyasi tarixi. Usmonlilar imperiyasi Usmonlilar imperiyasi qachon paydo bo'lgan? /<https://goaravetisyan.ru/uz/istoriya-osmanskoi-imperii-v-hronologicheskoy-poryadke-osmanskaya-imperiya/>
3. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>

4. Османская империя/https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя
5. Usmonli imperiyasi.Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>
6. Османская империя/https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя
7. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>
8. Абдул-Азиз/ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Абдул-Азиз>
9. Махмуд II/https://ru.wikipedia.org/wiki/Махмуд_II
10. Османская империя/https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя

XI ASRDAN BOSHLAB MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF ILM MADANIYATI

Dilnoza Vohidova

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va
manbashunosligi, falsafa” kafedrası tayanch doktoranti

Abdulhay Ahmadali o‘g‘li Turdaliyev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi,
yo‘nalishi 5.2 – ITM 21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limoti va uning ilmiy hamda madaniy hayotga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Xususan, tasavvufning Movarounnahr va Xuroson hududlarida shakllangan ijtimoiy-ma’naviy muhitga ta’siri, mashhur tasavvuf vakillarining ilmiy merosi va bu merosning keyingi davrlardagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, Markaziy Osiyo, XI asr, Movarounnahr, Xuroson, ilm-madaniyat, tariqat, ma’naviyat.

КУЛЬТУРА МИСТИЧЕСКОЙ НАУКИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ С XI ВЕКА

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние суфизма, распространившегося в Центральной Азии с XI века, на научную и культурную жизнь региона. Особое внимание уделено воздействию суфийских учений на духовно-нравственную среду Мавераннахра и Хорасана, а также научному наследию выдающихся представителей суфизма и его значению в последующие периоды.

Ключевые слова: Суфизм, Центральная Азия, XI век, Мавераннахр, Хорасан, наука и культура, тарикат, духовность.

CULTURE OF MYSTICISM SCIENCE IN CENTRAL ASIA FROM THE 11TH CENTURY

Annotation: This article explores the impact of Sufism, which began to spread in Central Asia from the 11th century, on the region’s scientific and cultural development. It focuses on the influence of Sufi teachings on the spiritual and intellectual environment of Transoxiana and Khorasan, as well as the scholarly legacy of prominent Sufi figures and its importance in later historical periods.

Key words: Sufism, Central Asia, 11 th century, Transoxiana, Khorasan, science and culture, tariqa, spirituality.

Tasavvufiy-falsafiy ta’limotlar ikki o’rtadagi aniq chegaralarning yo’qolishi va asta-sekin uyg’unlashib ketish natijasida hosil bo’lgan g’oyalardir. Bu ta’limotlar Markaziy Osiyoda zohidlik davri (VIII-IX asrlar)dayoq aqidaviy-falsafiy oqimlar va mutakallimlar o’rtasidagi g’oyaviy kurash yoki vujudi vojib va vujudi mumkin ta’limotlari borasidagi tortishuvlar natijasida hosil bo’ldi. Markaziy Osiyo tasavvufi hanafiy mazhabi asosida shakllandi va mintaqadagi faqih, muhaddis va kalom ilmi ulamolari bir paytning o’zida zohid bo’lganliklari haqidagi ma’lumotlar manbalarda keltirilganligini hisobga olsak, tasavvufda bu g’oyalar bevosita shakllangan, degan xulosaga kelishimiz mumkin bo’ladi. Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyati, madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti an’alarini anglashda islomiy bilimlarning o’rni hamda ahamiyati beqiyos sanaladi. Bu masalada, ayniqsa, tasavvuf mohiyatini bilmasdan turib Sharqona ijtimoiy taraqqiyotning sifat o’zgarishlarini bilib bo’lmaydi. Islom tasavvufi o’z tarixi, shakllanish va takomillashish jarayoniga ega bo’lib, uning rivojlanishiga oid tarixiy-madaniy asoslar ham o’ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo’lib, tez orada boshqa hududlarga tarqagan islom dini insoniyat madaniy taraqqiyotida keskin burilishga sabab bo’ldi. U necha asrlardan buyon jaholat tuzumi hukmron bo’lgan jamiyat oldiga yangicha axloq mezonlarini qo’ydi. So’fiylik islom an’alari negizida yuksak insoniy fazilatlarni o’zida aks ettirgan bir yo’nalish sifatida paydo bo’ldi. So’fiylik yo’li o’zligini dunyoning o’tkinchi hoyu-xavaslari, dabdalaridan ustun qo’yish bilan bir qatorda, o’z “nafs”larini barcha narsalardan xor tutib, unga qarshi kurashib, oxir oqibat uni yengib chiqishga intilish harakati sifatida namoyon bo’ldi. Keyingi davrlarda tasavvuf falsafiy jihatdan birmuncha takomillashib, komil insonni shakllantiruvchi muayyan bosqichlarni o’z ichiga oluvchi nazariy faoliyat sifatida tizimlashdi. Tasavvuf tarixiy rivojlanish yo’lida bir necha davrlarni bosib o’tdi.

Tadqiqotchilar bu jarayonni davrlashtirishning turlicha tasniflarini ko’rsatishgan bo’lsa-da, xaligacha davrlashtirishning aniq varianti to’g’risida oxirgi to’xtamga kelinmagan. U. Turar, K. Yilmaz kabi turk tasavvufshunoslari uni quyidagicha: 1. Zuhd davri (VII-VIII), 2. Tasavvuf davri (IX-X), 3. Tariqatlar davri (XI asrdan keyin)ga bo’lganlar. O. Akimushkin esa buni quyidagicha davrlashtiradi: 1. IX-X asrlar. Tariqatning xol va maqom bilan bog’liq davri, 2. X-XII asrlar. Murshid va murid maktabi an’alari shakllangan davr. 3. XII asr oxiri. Ingliz olimi J. S. Trimingem esa quyidagicha davrlashtirgan: 1. Xonaqox davri (X-XII asrlar), 2. Tariqa davri (XIII-XIV asrlar), Toifa davri (XV asr). Eronlik olim R. Birinjkor esa tarixiy rivojlanish tasnifini quyidagicha keltiradi: 1. Zuhd davri (VII-VIII asrlar), 2. Xonaqohlar davri (VIII asr o’rtalari - IX asr boshlari), 3. Irfonning shakllanish davri

(IX-XIII asrlar), 4. Nazariy Irfon davri (XIII-XIV asrlar), So‘ngi davr (XV asrdan so‘ng). Tadqiqotchi K. Rahimov o‘zbek tasavvufshunos olimlari xulosalariga tayangan holda Markaziy Osiyo tasavvufi tarixini quyidagicha davrlashtiradi: 1. VIII-IX asrlar zohidlik davri. 2. IX-XI asrlar so‘fiylik maktablari va oqimlari davri. 3. XII asrdan keyin so‘fiylik tariqatlari davri. Tasavvufning bosh g‘oyasi – Janobi Xaqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab, go‘zal axloq egasi bo‘lishga intilmoq, ya’ni Olloh va uning Rasuli xulqi bilan axloqlanishdir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: “Tasavvuf nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettiradigan hayotiy falsafa bo‘lib, u muayyan amaliy riyozat vositasida haqiqatga aylanadi va ba’zi vaqtlarda oliy haqiqatga singish hissiga olib boradi”, - deb yozdi. Turk tasavvufshunosi Altintash Hayrani o‘zining “Tasavvuf tarixi” asarida tasavvuf haqida tushuncha berib o‘tib, u haqiqat to‘g‘risidagi eng asosli javobni beradigan ilm ekanligini ta’kidlaydi. Professor H. Salomova “Tasavvufda komil inson yoxud ruhiy me’yorning mohiyati va mezonlari” nomli maqolasida tasavvuf haqida bir necha ta’riflarni keltiradi: “Tasavvuf – Haqning sendagi “Sen”ni o‘ldirilishi va O‘zining nazdida tiriltirishidir (Junayd Bag‘dodiy)”, “Tasavvuf – yomon axloqdan parhez qilish orqali ilohiy sifatlar nuriga yetishishdir (Ibn Arabiy)”, “Tasavvuf – qalbni faqatgina Ollohgga yo‘naltirib, mosuvo – Ollohdan boshqa barcha narsalardan butkul aloqani uzishdir (Imom G‘azzoliy)”.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, tasavvufning ta’riflari juda ko‘p bo‘lib, ba’zilar tasavvuf ta’riflari sonini tasavvufchilar soniga nisbat beradi. Bu holat tasavvufni har bir amaliyotchi umumiy qoidalar asosida o‘ziga xos tajriba qilishidan darak beradi. VIII asr o‘rtalariga kelib diniy, ijtimoiy, siyosiy va aqidaviy sabablarga ko‘ra, shakllana boshlagan so‘fiylik harakatlariga tegishli odamlarga nisbatan so‘fiy so‘zi qo‘llanila boshladi. Bu so‘zning etimologik kelib chiqishi masalasida juda ko‘p qarashlar mavjud. Sharqning buyuk mutafakkiri Xusayn Voiz Koshifiy “Unsul so‘fiya” kitobida birinchi bo‘lib so‘fiy degan nomni olgan Odam Ato o‘g‘illaridan biri Shish edi, degan naqlni keltiradi. Boshqa tadqiqotchilar ilk bor so‘fiy nomini Eronning Tus shahrida tug‘ilib, keyinchalik Kufa shahrida yashagan Abu Xoshim Kufiy (vaf.776) nomi bilan bog‘laydi. Tasavvuf tarixida birinchi takya – xonaqoh esa bir nasroniy amir tomonidan Ramla shahrida Abu Hoshim uchun qurilgan edi. Sharqshunos A. D. Knish esa kufalik taqvodorlarni iroqlik xristian rohiblarga taqlidan jundan to‘qilgan kiyim kiyganliklarini sabab qilib ko‘rsatadi. Qur’oni Karim insondagi biologik va fiziologik xususiyatlardan tashqari yana boshqa ilohiy sirlar saqlanganligini, biz esa bu sirlarni kashf etishga buyurilganligimizni bildiradi. Qur’on tashqi dunyoga tegishli sirlarni kashf etish bilan bir qatorda, bizni aql ishlatishga chorlaydi va yana bizni “aql egalari sifatida”, deya sifatlaydi. Holbuki, ilohiy va ruhoniylar sirlarni kashf etishga chaqirar ekan, insonni “lubb” egasi sifatida eslaydi. Qalb haqiqatni bilishda aqldan ham yuksakroq bir vosita bo‘lib, tasavvufning g‘oyasi

inson ruhida yashiringan mazkur ilohiy sirlarni kashf qilib, yuzaga chiqarishdan iborat.

Tasavvufshunos olim Majid Faxriyning yozishicha, ilohiy sirlarni kashf qilish uchun esa qalbni tinglash, unga quloq solish, qalb orqali keladigan ilohiy sadoni ilg‘ay olish lozim. Inson o‘z qalbini tasavvuf orqali ilohiy yo‘lga sola bilsa va ma’lum amallar orqali uni yuksaltira olsa, uning ruhi ham barkamollik tomon boraveradi. Abu Bakr Kalobodiy, Abu Nasr Sarroj Tusiy, Mustamliy Buxoriy va Abu-l-Hasan Hujviriylar bu so‘z etimologiyasini bir necha arab so‘zlariga bog‘lasa, Abul Qosim Qushayriy, Abu Rayhon Beruniylar esa bu so‘zning arab etimologiyasini rad etishadi. Lekin ehtimollar turli-tumanligiga qaramasdan, ko‘pgina olimlar guruhi bu so‘zning arabcha “suf” va “so‘fiy” ni “jun kiyim kiygan kishi” variantini eng to‘g‘risi deb hisoblashadi. Anas ibn Molikdan rivoyat qilishlaricha, – Payg‘ambar alayhissalom bir kishining da’vatiga ijobat qilib, eshagiga minar va junli kiyim kiyib borar edilar. So‘fiylar ham junli kiyim – payg‘ambarlarning kiyimi va tavoze (kamtarlik) belgisi bo‘lganidan junli libos kiyar edilar. Oq rang junli kiyim kiyish hijriy III asrdan e’tiboran so‘fiylar tomonidan rasmiy libos sifatida maqbul ko‘rilgan.

Mutasavvif – qalbi bilan tasavvufona g‘oyalarga moyilligi bo‘lgan, tasavvufni o‘ziga e’tiqod va maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o‘tamaydigan, chinakam so‘fiy bo‘lmagan odam hisoblanadi. Navoiyshunos olim Abdumalik Orif fikricha, so‘fiy yoki darvesh muayyan bir tashkilot – tariqatga mansub bo‘lib, suluk yo‘lida haqiqatga erishishni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi. Bu yo‘lda unga maxsus ustoz – murshid, pir, shayx rahbarlik qiladi. Mutasavviflar toifasiga bilim egalari - tasavvuf ta’limini qabul qilgan, uning falsafiy g‘oyalari va axloqiy qoidalarini o‘z ijodlariga tatbiq etgan mutafakkir olimlar, yozuvchi – shoirlar mansubdir. Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar: mayda savdogarlar, hunarmandlar tashkil etgan edi. Ular ichida islom ta’limotini yetarli darajada o‘zlashtirganlari uncha ko‘p bo‘lmagan, shunday bo‘lsa-da, o‘zlarini “tasavvuf ilmi” ning nazariyotchilari deb bilishgan. Tasavvufning shakllangan bosqichida ma’naviy ustoz rahbarligida so‘fiylik nazariyasi va amaliyotini egallash lozim bo‘lgan. Busiz boshlovchi so‘fiy (murid) aql-hushi va sog‘lig‘ini yo‘qotishi mumkin edi. Shayxga butunlay bo‘ysunish, barcha diniy va dunyoviy masalalarda uning obro‘cini tan olish talabi uni muridlar ko‘z o‘ngida boshqa odamlardan ustun qilib qo‘yardi. Husayn Voiz Koshifiy xirqa va ahli faqrning kiyimlari, uni kiyish, kiydirish va muridlarga xirqa yetkazish va buning shartlari, odobu arkoni bayonida xirqa kiygan xazrati Odam bo‘lib, undan maqsad va asl muddao shulki, xirqa oshnolik to‘nidir, deb yozadi. Shu bilan birga so‘fiylarning xirqa ranglari bayonida uning ranglari xilma-xil bo‘lib, har biri bir xolatga ishoradir deb quyidagini bayon etadi: – Agar oq rang qaysi toifaniki, deb so‘rasalar, javob bergilki, oq rang kunduzning rangidir va dili ravshan jamoanikidir va ularning ko‘ksi qudrat, gina va g‘ubordan pokdir. Kimki oq rang

xirqa kiya, subhi sodiq kabi bo’ladi va kunduz misoli barchaga ravshanlik bag’ishlaydi. Shuning bilan birgalikda adib yashil, zangori hamda tuproq rangli xirqalarga tavsif berib, ularning qaysi matodan tikilishi bayonida ham ularni tavsiflab, birinchisi – jundan, ikkinchisi – paxtadan, uchinchi – palosdan va to’rtinchisi – teridan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Ko’rinadiki, tasavvufda so’fiyning kiyadigan kiyimi va uning ma’naviy olami o’zaro muvofiq bo’lishiga katta e’tibor qilingan. Usmon Turar xirqa tariqat ahli kiyadigan libos ekanligini ta’kidlagan holda “xirqa kiyish an’anasi hazrati Ibrohimga borib taqaladi”, deb yozadi. Naql qilishlaricha, hazrati Ibrohimni gulxanga tashlaganlarida Jabroil (...) jannatdan ipak ko’ylak olib kelib unga kiydirgan va hazrati Ibrohim uning barakoti tufayli olovdan qutilgan. Ushbu ko’ylakni saqlab qo’yib, hazrati Ismoilga qurbon qilmoqchi bo’lganida kiydirgan. Bu ko’ylak hazrati Ismoildan xazrati Isxoqqa, undan Ya’qubga, undan Yusuf (...) ga qadar kelgan va uning quduqdan qutilishiga, hazrati Ya’qubning esa ko’zlarining ochilishiga vosita bo’lgan. Demak, xirqa shunchaki kiyimgina emas, u jannatdan maxsus olib chiqilgan va so’fiylarni asrovchi vosita sanaladi. Shuning uchun xirqa muqaddas hisoblanadi. Uni kiyadigan kishi ham shunga munosib bo’lishi shart bo’lgan.

Tasavvufning shakllanish ildizlari haqidagi fikrlar undan ham xilma-xildir. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – arab, turk va o’zbek tadqiqotchilari bo’lib, ular so’fiylikni faqat islomiy ildizlarga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Ikkinchi – g’arb va eronlik olimlar guruhi tasavvufda islomdan boshqa din va madaniyatlar – buddaviylik, zardo’shtiylik, yaxudiylik, xristianlik, moniylik, ba’zi mahalliy e’tiqodlar va qadimgi yunon falsafiy ta’limotlari ildizlarini ko’radilar. Ibn Xaldun – “Muqaddima” asarida tasavvuf ilmi haqida aniq-ravshan ma’lumot bergan: “Bu ilm, islom jamiyatida paydo bo’lgan shar’iy ilmlardandir. Uning asli budir: tasavvuf ahlining yo’li, sahoba va tobeindan bo’lgan salaflar nazarida haq va hidoyat yo’li edi”. Ingliz sharqshunosi J. S. Trimingem tasavvufning islomiy ildizlarga borib taqalishini rad etib, “Tasavvuf musulmon manbalaridan deyarli hech narsa olmasdan, islom ichida rivojlandi, shu bilan birga sharqiy xristianlikning asketik va mistik amaliyoti hamda falsafasini o’zlashtirdi”, deydi. Ingliz tasavvufshunos olimi Reynold Nikolson, so’fiylik harakati islomdan oldingi davrda ham mavjud bo’lgan, degan fikrni ilgari surgan. Iqtisodiy og’ir hayot va nosog’lom turmush tarzi - darveshlik va asketik hayot tarzini shakllantiradi. Keyinchalik islom dinining shakllanishi va keng mintaqaga tarqalishi natijasida bunday harakat tizimlashtirilgan, nazariy jihatdan sayqallangan va tartibga solingan. Tasavvuf ta’limotining vujudga kelish davri ilk islom davriga to’g’ri kelsa-da, – deydi Bertels, uning to’liq shakllanish davri yaxlit ta’limot sifatida XIII asrgacha mavjud bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, diniy-irfoniy g’oya va ta’limotlar zahirida shakllandi hamda qaror topdi. Bu davrda otashparastlik, buddaviylik, qadimgi yunon falsafasi va

xristianlikdagi diniy g‘oyalar ta’sirida shakllangan tasavvufning yaxlit ta’limot sifatida rivojlanishi islom ta’limoti va g‘oyalari bilan uyg‘unlashishi zaruriyatga aylandi, ya’ni, islom ta’limoti asosida tasavvuf o‘z aqidalarini shakllantirib, tartibga solib, IX-X asrlarda yaxlit ta’limotga aylandi.

Tasavvuf ilmining paydo bo‘lishini islom negizlarida ko‘ruvchilar uning shakllanish tarixini Payg‘ambar (...) davridan boshlanganligini ta’kidlaydilar. So‘fiylar sahobalarni dastlabki so‘fiylar bo‘lgan degan fikrni ilgari surishgan va o‘z silsilalarini Payg‘ambar (...)gacha bog‘laydilar. “Maqomoti Xoja Yusuf Xamadoniy” asarida Abduxoliq G‘ijduvoniy o‘z silsilasini Muhammad (s.a.v.)dan yetti vosita orqali yetib kelganligini va bu silsilada u to‘qqizinchi xalqa piri ekanligini yozib qoldirgan. Lekin ba’zi tadqiqotchilar tasavvuf aynan payg‘ambar (...) davridan emas, keyinroq boshlanganligini ta’kidlashadi. Ular o‘z qarashlarida Payg‘ambar va sahobalar hayoti har doim so‘fiylar uchun bosh o‘rnak bo‘lganligini inkor etmagan holda payg‘ambar (...) va sahobalar davrida tasavvuf tushunchasining o‘zi mavjud bo‘lmaganligini eslatib o‘tishadi. Shuningdek, arab olimi Abdulqodir Iso, tasavvufshunos Ibrohim Haqqul va G‘arb sharqshunoslaridan A. Knishlar ham bu qarashni tasdiqlaydilar. Ular payg‘ambar (...) zamoni shundoq ham taqvor, Ollohga o‘zlarini to‘laligicha bag‘ishlagan insonlar davri bo‘lganligini, ilk davrlarda islom ilmlari yaxlit bo‘lib, tafsir, fiqh, kalom kabi yo‘nalishlarga bo‘linmagani hamda tasavvufning asosi bo‘lgan zohidlik harakati islom bilan bir paytda vujudga kelgan bo‘lsada, haqiqiy ma’nodagi so‘fiylik keyinroq shakllanganligi haqidagi fikrlari bilan o‘z qarashlarini isbotlashga urinishgan.

Dastlabki zohidlar taqvonni mahkam ushlagan insonlar bo‘lsa ham, ishq va irfondan bexabar bo‘lishgan. Ular falsafiy mushohadakorlik, ma’naviy ahloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko‘rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Bu davrda zohidlarda ko‘zga tashlanadigan asosiy xususiyat Olloh roziligini topish bo‘lgan, ya’ni, ularning toat-ibodatlarida, tarki dunyolarida va yashash tarzlarida asosiy g‘oya Ollohning rozi qilish, shu orqali jahannam azoblaridan xalos bo‘lib, jannatga erishish bo‘lgan. Tasavvufga hali Ollohga nisbatan mistik muhabbat va borlikning birligi (Vahdat ul-vujud) ta’limoti kirib kelmagan edi. VIII asr o‘rtalariga kelib, tasavvuf boshqa islomiy ilmlardan farqlanuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilgan holda ajralib chiqq boshladi. Tasavvufning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan sabablar ham ko‘p qirrali bo‘lib, ularni tadqiq qilish mavzuni yana-da teranroq ochib berishga hizmat qiladi.

Bunday sabablardan eng asosiysi sifatida islom dini bilan bog‘liq bo‘lgan diniy sabablarni ko‘rsatish mumkin. So‘fiylar tasavvufni islom shariatiga asoslangan ta’limot ekanligiga urg‘u beradilar va Qur’oni karim oyatlari va Payg‘abar (s.a.v.) hadislaridan dalillar keltiradilar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdumalik Orif. Navoiy sufiymi yoki mutasavvufmi? – G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar / to‘plam /. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1994. – V. 223.
2. Akimushkina O.F. – M.: ID “Gelios” 2002. – S. 27.
3. Altıntaş Hayranı. Tasavvuf tarixi. – Ankara, Ankara universitesi ilahiyat fakültesi yayınları, 1986. –S. 8-9.
4. Bertels E.S. Sufizm i sufiyskaya literatura. – Moskva: Nauka, 1965. – S. 39.
5. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2019/1 (73). – B. 217
6. Eraydın Selçük. Tesevvuf ve tarikatlar. – Istanbul: Marmara universitesi Ilahiyat fakültesi vakfi yayınları. 1994. –S. 25.
7. Komilov N. Tasavvuf. G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar / to‘plam /. – Toshkent, O‘zbekiston, 1994. – B. 22.
8. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati. – Toshkent: “A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi” nashriyoti, 1994. – B.18.
9. Masit Fahri. İslam felsefesi kelimı ve tasavvufuna kısa bir giriş.– Ankara, İnsan yayınları, 1997. –S. 34.
10. Nuritdinov M. O‘rta asrlar sharq falsafiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Brok Class Servis, 2015. – B. 160.
11. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: “Akademnashr”, 2020. – B. 24.
12. Razzoqov G‘, Rahimov K. Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti pir. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2020. – B. 31.
13. Reynold A. Nicholson. İslam süfileri(The mystics of ıslam). –Ankara: Kültür bakanlığı, 1978. –S. 58-60
14. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol nashr, 2016. – B. 35.
15. Trimingem D.J. S.Sufiyskiye ordeni v islame / Per. s angl. A.A.Staviskoy, pod red. i predisl.
16. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999. – V. 101.

THE ROLE OF INTRINSIC AND EXTRINSIC MOTIVATION IN LANGUAGE LEARNING

Fozila Ochilzoda

The lecturer of Foreign Languages Department Tashkent International University
Tashkent, Uzbekistan

fozilaochilzoda@gmail.com

Abstract: A number of studies that haven't been conducted in the past ten years have shown some intriguing details about how various motivational styles affect output. Richard Ryan, Edward Deci, Sam Glucksberg, Dan Ariely, Robert Eisenhower, Linda Shanock, analysts from the London School of Economics, and other researchers are among those who have expressed interest in this topic. Although there hasn't been a consensus in this area, their findings imply that extrinsic incentives may have a detrimental effect on overall performance. I hope to clarify the connection between performance and intrinsic versus extrinsic motivation in this research. According to experts, intrinsic motivation is the desire to complete a task or activity because of the intrinsic fulfillment it brings, as opposed to the expectation of a different kind of reward. When an activity is undertaken in order to achieve a distinct end, on the other hand, we refer to it as extrinsic motivation as opposed to intrinsic motivation. We started and carried out an explanatory study in an effort to help make the connections between concepts clear. The study's foundation is an examination of the relationships between third-year students' academic performance and their primary motivational style. To do this, we combined quantitative (research) and qualitative (focus groups) methodologies to develop and test four work hypotheses. Following the surveys' validation, the respondents were split into four groups: those who were intrinsically motivated, those who were extrinsically motivated, those who were unmotivated, and those who were both. Excel and SPSS were utilized to examine the gathered data. Among the main findings of the study are the following: the percentage of people who possess both intrinsic and extrinsic motivation is declining as average rises; the highest proportion of unmotivated students is concentrated in the highest average category; female students typically perform better at the university level. The study aims to serve as almost a preliminary investigation into the nature of the connection between internal (and extrinsic) motivation and performance. More investigation is required.

Keywords: correlation, performance, extrinsic motivation, and intrinsic motivation.

1. Introduction

The idea of motivation first surfaced around 1930, and it has since been the subject of extensive discussion and research to determine what exactly motivates people to carry out a given activity. It is impossible to declare that there is a single, cohesive theory of motivation after decades of investigations and research. Nonetheless, there are several aspects of motivation that are well acknowledged. A number of studies that haven't been conducted in the past ten years have shown some intriguing details about how various motivational styles affect output. Richard Ryan, Edward Deci, Sam Glucksberg, renowned economist Dan Ariely (along with his colleagues from Carnegie Melon and the University of Chicago), analysts from the London School of Economics, Robert Eisenhower, Linda Shanock, and others are among the researchers who have expressed interest in this field (Pink: 2009). Although there hasn't been a consensus in this area, their findings imply that extrinsic incentives may have a detrimental effect on performance as a whole. Many businesses are developing a new idea centered on autonomy, mastery, and purpose, even if it is still unclear how extrinsic incentives affect creativity or what effects intrinsic motivation has on performance (Matei and Abrudan: 2010, 1137-1139). The research is focused on the analysis of the relations between the results (performance) acquired by third year students and their primary type of motivation (intrinsic and extrinsic motivation). II. Define the terms "intrinsic and extrinsic motivation" A motivated person feels inspired or stimulated to do action, whereas an unmotivated person has no such feelings (Ryan and Deci, 2000, 54). Consequently, it is evident that individuals differ in their levels of motivation. Human motivation can also differ in terms of its form and orientation in addition to its level. These characteristics of motivation serve as the basis for some recent studies, and there has never been greater discussion about intrinsic vs extrinsic drive. The definition of intrinsic motivation is the decision to carry with a task or activity because of the intrinsic fulfillment it brings, as opposed to the expectation of a different result. People's innate tendency to absorb information and integrate it into their lives is reflected in their intrinsic motivation. However, theorists Ryan and Deci (2000, 56) have demonstrated that this tendency seems to manifest itself only in certain situations. When an activity is carried out to achieve a distinct result, as opposed to intrinsic motivation, we refer to it as extrinsic motivation (Ryan and Deci: 2000, 60). Extrinsic rewards have the potential to reduce intrinsic motivation, according to experts Ryan and Deci (Ryan and Deci: 2000, 58). Threats, deadlines, rewards associated with task completion, and instructions all work against intrinsic motivation because people see them as methods of behavior control. However, because they come with a sense of autonomy, having freedom of choice and the ability to lead oneself can boost intrinsic drive. Even extrinsic motivation, though, is capable of some autonomy. Extrinsic motivation

influences autonomy to varying degrees, which may indicate genuine self-regulation or external control (Ryan and Deci: 2000, 59).

II. Methodologies for Research

We took into account the following work hypotheses when conducting the research: - The average is higher for those whose intrinsic motivation is stronger than for people whose extrinsic motivation is stronger. People who possess both intrinsic and extrinsic motivation outperform those who just have one active motivational factor. The least driven people have the lowest averages. Women exhibit intrinsic motivation in a different way than do males. Research has been done to provide an explanation in order to test the work hypothesis. In order to get the most significant results, quantitative and qualitative methodologies were used for this. We thus linked the focus group to the inquiry, which served as the main research method, in order to provide recommendations for the interpretation of the data. A questionnaire was employed as a research method in the study. The purpose of the 31 closed questions on the questionnaire, which was modified from one by Horst H. and Renate Siewert (Siewert H.H, Siewert R., 2000), is to gauge extrinsic and intrinsic motivation. Thirty-seven second-year Management students from The Faculty of Economics were administered the questionnaire. 35 of the 37 questionnaires were validated, while 2 were ignored. In order to streamline the analysis of the gathered information, three focus groups were arranged. The questionnaire results determined the participants' groups, which were as follows:

- People with both intrinsic and extrinsic motivation were in the first focus group (16 students);
- People with either intrinsic or extrinsic prevailing motivation were in the second focus group (12 students);
- People without motivation were in the third focus group (7 students).

III. Research results

Thirty-seven third-year students who completed the questionnaire during the study's initial phase made up the sample. 35 surveys have since been deemed legitimate. Men made up 37,1% of the responders, while women made up 62,9%. The following is a summary of the questionnaire's results: - 17,1% of respondents are intrinsically motivated; - 17,1% of respondents are extrinsically motivated; - 20% of respondents are unmotivated (neither extrinsic nor intrinsic motivation predominant). - 45,8% of respondents have both extrinsic and intrinsic motivation prevailing. We took into account each student's average during the first two years of university study in order to examine the relationships between performance and the dominant motivational style. To achieve a relatively equal distribution, the averages were split into three categories: averages falling between 5 and 6,5 in the first category, averages falling between 6,5 and 7,5 in the second, and averages above 7,5 in the

third. Three of the study hypotheses are clearly not proven, which makes the results uninspiring. Furthermore, it appears that the percentage of people who are motivated by both intrinsic and extrinsic factors is declining as the average rises. It's also important to note that the biggest percentage of unmotivated pupils (30%) is centered in the category with the highest average. In summary, it appears that the two variables under consideration have no link with one another. The correlation coefficient is provided in Exhibit 3. The correlation coefficient's low value (0,139) indicates that there isn't a strong association between motivation and average performance.

Overall, data analysis showed that the theories regarding the types of motivation that are correlated with performance were not supported. In contrast to predictions, as the average grew, the proportion of people who were motivated by both intrinsic and extrinsic factors declined. In the highest average category, the proportion of unmotivated pupils was highest.

IV. Conclusion

The study's assumptions produced a range of outcomes, highlighting the necessity for more investigation to fully understand the complex interplay between academic achievement and internal and extrinsic motivation. The association between gender and academic performance with female students typically outperforming male students at the university level was a noteworthy discovery, nevertheless. The acknowledgement of the research's shortcomings includes the fact that the population under investigation was not statistically representative.

All in all, this study provides a useful foundation for further research in this area by examining the intricate relationship between performance and motivation.

Reference:

1. Andrei Tudorel and Bourbonais Regis. Econometrie. Bucharest: Economic Publishing. 2008.
2. 2.Chelcea Septimiu. Metodologia cercetarii sociologice. Metode cantitative si calitative. Editia a
3. III-a. Bucharest: Economic Publishing. 2007.
4. 3.Deci Edward and Ryan Richard. Intrinsic motivation and self-determination in human
5. behavior. New York: Plenum Press. 1985.
6. 4.Kanfer Ruth, Chen Gilad and Pritchard Robert. Work Motivation: Past, Present and Future,
7. The Organizational Frontiers Series. New York: Taylor&Francis Group. 2008;

8. 5.Laming Donald. Understanding Human Motivation. What makes people tick?. UK: Blackwell Publishing. 2004;
10. 6.Marinaş Cristian-Virgil. Managementul comparat al resurselor umane. Bucharest: Economic Publishing. 2010.
12. 7.Pink Daniel. Drive: The Surprising Truth about What Motivates Us. USA: Published by Penguin Group. 2009.
14. Andrei Tudorel and Bourbonais Regis. Econometrie. Bucharest: Economic Publishing. 2008.
15. 2.Chelcea Septimiu. Metodologia cercetarii sociologice. Metode cantitative si calitative. Editia a III-a. Bucharest: Economic Publishing. 2007.
17. 3.Deci Edward and Ryan Richard. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: Plenum Press. 1985.
19. 4.Kanfer Ruth, Chen Gilad and Pritchard Robert. Work Motivation: Past, Present and Future, The Organizational Frontiers Series. New York: Taylor&Francis Group. 2008;
21. 5.Laming Donald. Understanding Human Motivation. What makes people tick?. UK: Blackwell Publishing. 2004;
23. 6.Marinaş Cristian-Virgil. Managementul comparat al resurselor umane. Bucharest: Economic Publishing. 2010.
25. 7.Pink Daniel. Drive: The Surprising Truth about What Motivates Us. USA: Published by Penguin Group. 2009.
27. Andrei Tudorel and Bourbonais Regis. Econometrie. Bucharest: Economic Publishing. 2008.
28. 2.Chelcea Septimiu. Metodologia cercetarii sociologice. Metode cantitative si calitative. Editia a III-a. Bucharest: Economic Publishing. 2007.
30. 3.Deci Edward and Ryan Richard. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: Plenum Press. 1985.
32. 4.Kanfer Ruth, Chen Gilad and Pritchard Robert. Work Motivation: Past, Present and Future,

33. The Organizational Frontiers Series. New York: Taylor&Francis Group. 2008;
34. 5.Laming Donald. Understanding Human Motivation. What makes people tick?. UK: Blackwell Publishing. 2004;
36. 6.Marinaş Cristian-Virgil. Managementul comparat al resurselor umane. Bucharest: Economic Publishing. 2010.
38. 7.Pink Daniel. Drive: The Surprising Truth about What Motivates Us. USA: Published by Penguin Group. 2009.
40. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching (5th ed). Pearson Longman.
41. Clark, J. S., Porath, S., Thiele, J., & Jobe, M. (s. f.). Action Research. Recuperado 16 de agosto de 2021, de <https://kstatelibraries.pressbooks.pub/gradactionresearch/>
42. Harmer, J. (1982). What is communicative? ELT Journal, 36(3), 164-168. <https://doi.org/10.1093/elt/36.3.164>
43. Howell, J. (1992). Using Role Play as a Teaching Method. Teaching Public Administration, 12(1), pp 69-75. <https://doi.org/10.1177/014473949201200109>
44. McCarthy, M., & Carter, R. (2006). Explorations in corpus linguistics. Cambridge University Press
45. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 147-150).
46. Richards, J. C. (2006,p. 20). Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.
47. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking Cambridge University Press. Sikapang, P. (1993). Stimulating the Students to Speak English by Using Games in the Classroom.
48. Thomson, G. (1996). Some misconceptions about communicative language teaching. ELT Journal, pp 9-15.

BUDJET TIZIMI BYUDJETLARINING MOHIYATI

Xamroqulov Olimjon Farxod o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti BNG‘ 60 guruh talabasi

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

Ilmiy rahbar Byudjet hisobi va g‘aznachilik kafedrası PhD, dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet tizimi va unga kiruvchi byudjetlarning iqtisodiy va huquqiy mohiyati, ularning davlat moliyaviy siyosatidagi o‘rni hamda o‘zaro aloqadorlik mexanizmlari yoritilgan. Budjet tizimi orqali amalga oshiriladigan moliyaviy boshqaruvning printsiplari va O‘zbekiston Respublikasida amalda mavjud bo‘lgan budjetlararo munosabatlar ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: budjet tizimi, davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, moliyaviy boshqaruv, budjetlararo munosabatlar.

Kirish

Budjet tizimi – bu davlat moliyasining asosiy boshqaruv mexanizmlaridan biri bo‘lib, u markaziy va mahalliy darajadagi byudjetlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning yagona budjet siyosatiga asoslangan holda boshqarilishini ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi Konstitutsiya va Budjet kodeksi asosida tartibga solinadi. Ushbu tizim orqali davlat o‘zining makroiqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshiradi.

Asosiy qism

Budjet tizimi – bu davlat moliyaviy tizimining strukturaviy elementi bo‘lib, unda turli darajadagi byudjetlar: Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyat va tuman (shahar) byudjetlari yagona moliyaviy boshqaruv ostida faoliyat yuritadi.

Tarkibiy jihatdan budjet tizimi quyidagi qismlardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti;
- Viloyatlar, Toshkent shahri va ularning tuman (shahar) byudjetlari;
- Davlat maqsadli jamg‘armalari;
- Budjet tashkilotining budjetdan tashqari jamg‘armalari.

Budjet tizimi orqali quyidagi asosiy funksiyalar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish;
- Davlat xizmatlari ko‘rsatish xarajatlarini ta‘minlash;
- Resurslarni qayta taqsimlash;
- Moliyaviy nazorat va fiskal barqarorlikni ta‘minlash.

Budjet tizimining mohiyati uning iqtisodiy, huquqiy va boshqaruviy jihatlarida namoyon bo‘ladi. Bunda daromadlar va xarajatlar manbalarining aniq belgilanishi, budjetlararo taqsimotning shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Budjet tizimidagi asosiy yo‘nalishlardan biri bu – budjetlararo munosabatlardir. Ular yuqori va quyi darajadagi byudjetlar o‘rtasidagi mablag‘larning oqimini belgilaydi. Budjetlararo transferlar yordamida moliyaviy tengsizlikni bartaraf etish, regionlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni kamaytirish maqsad qilinadi.

O‘zbekistonda ushbu munosabatlar budjet sub’ektlarining mustaqilligini saqlagan holda amalga oshiriladi. Transferlar shaklida amalga oshiriladigan mablag‘lar: dotatsiyalar, subsidiya va subvensiyalar ko‘rinishida bo‘ladi.

Budjet tizimining takomillashtirish yo‘nalishlari

Hozirgi vaqtda budjet tizimini takomillashtirish uchun quyidagi choralar dolzarb hisoblanadi:

- Budjetlararo munosabatlarda adolatli va shaffof mezonlarni joriy etish;
- Mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish;
- Raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosida budjet jarayonlarini samarali yuritish;
- Moliyaviy nazorat va ochiqlikni kuchaytirish.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, rivojlangan davlatlarda budjet tizimi fiskal markazlashuv va desentralizatsiya muvozanatiga asoslanadi. Bu esa budjet siyosatini yanada samarali va moslashuvchan qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, budjet tizimi davlat moliyasining barqarorligi va samaradorligini ta’minlovchi asosiy mexanizmdir. Uning to‘g‘ri va puxta tashkil etilishi davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarida moliyaviy ta’minot kafolatini beradi. O‘zbekiston sharoitida budjet tizimini isloh qilish, budjetlararo munosabatlarni optimallashtirish va moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish orqali davlat byudjet siyosatining samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, 2022-yilgi nashri.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi statistik axborotlari – www.mf.uz
3. Soliq qo‘mitasi hisobotlari – www.soliq.uz
4. Xodjaev A. “Davlat moliyasi”. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020.
5. Karimov B. “Fiskal siyosatning transformatsiyasi” – T.: 2023.
6. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma’lumotlari – www.worldbank.org, www.imf.org

TALABALARDA SOG’LOM VA NOSOG’LOM OVQATLANISHINING O’QUV SAMARADORLIGI VA SALOMATLIGIGA TA’SIRI

Xalimbayeva Zulhijja Said qizi

Ergasheva Dilbar Sherzod qizi

Alfraganus Universiteti nodalat ta’lim tashkiloti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi
yo‘nalishi 2-kurs talabalari

Alfraganus University nodavlat ta’lim tashkiloti

Ilmiy rahbar: **Mirzayev Dilshodbek Axmelovich**

Alfraganus Universiteti nodalat ta’lim tashkiloti Tibbiyot fakulteti Tibbiyot kafedrası
katta o‘qituvchisi, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning sog‘lom va nosog‘lom ovqatlanish odatlari ularning o‘zlashtirish va salomatligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tadqiq qilingan. 200 nafar talabani qamrab olgan ilmiy tadqiqotda o‘quv samaradorligi, diqqatni jamlash qobiliyati, uyqu sifati va stress darajasi kabi mezonlar asosida tahlil o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom ovqatlanadigan talabalar o‘quv natijalarida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ruhiy va jismoniy sog‘lom ekanligi aniqlangan. Nosog‘lom ovqatlanish esa o‘zlashtirishning pasayishiga, uyqu buzilishlariga va stress darajasining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sog‘lom ovqatlanish, talabalar salomatligi, o‘quv natijalari, konsentratsiya, uyqu sifati, stress va tashvish, o‘quv jarayoni, noto‘g‘ri ovqatlanish.

Аннотация: В этой статье рассматривается, как здоровые и нездоровые привычки питания студентов влияют на их обучение и здоровье. В научном исследовании, в котором приняли участие 200 студентов, анализировались такие критерии, как успеваемость, концентрация внимания, качество сна и уровень стресса. Согласно исследованиям, учащиеся, которые питаются здоровой пищей, демонстрируют более высокую успеваемость, а также обладают психическим и физическим здоровьем. Нездоровое питание может привести к снижению успеваемости, нарушениям сна и повышению уровня стресса..

Ключевые слова: здоровое питание, здоровье студентов, учебная успеваемость, концентрация внимания, качество сна, стресс и нервозность, учебный процесс, неправильное питание.

Annotation: This article examines how healthy and unhealthy eating habits of students affect their learning and health. The study, which included 200 students, analyzed their academic performance, concentration, sleep quality, and stress levels. The study found that students who eat healthily had higher academic performance

and were healthier mentally and physically. Unhealthy eating habits, on the other hand, can lead to decreased learning, sleep disturbances, and increased stress levels..

Keywords: healthy eating, student health, academic performance, concentration, sleep quality, stress and anxiety, educational process, poor nutrition.

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jismoniy salomatlikni saqlash masalalari dolzarb muammolar qatoridan joy olgan. Shu jihatdan qaralganda, **to‘g‘ri ovqatlanish** — inson salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va mehnatga layoqatni oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.[4] Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, noto‘g‘ri ovqatlanish har yili millionlab insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, semizlik kabi surunkali kasalliklarning asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi [5].

Ilmiy adabiyotlarda **to‘g‘ri ovqatlanish** — bu organizmning biologik ehtiyojlariga mos holda, ozuqa moddalari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalarning miqdoriy va sifat jihatdan muvozanatli iste’moli deb ta’riflanadi [2]. Shuningdek, ovqatlanish rejimining ratsionalligi, iste’mol qilinayotgan mahsulotlarning ekologik xavfsizligi va ularning qayta ishlanish uslublari ham salomatlikka ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida e’tirof etiladi.

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrda urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot va tezkor turmush tarzining keng tarqalishi fonida odamlar orasida yuqori kaloriyalı, lekin kam ozuqaviy qiymatga bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish holatlari ko‘paymoqda [3]. Natijada, mikroelementlar yetishmovchiligi, immun tizimi zaiflashuvi, bolalar va o‘smirlar orasida to‘yib ovqatlanmaslik yoki aksincha, ortiqcha tana vazni kabi salbiy holatlar yuzaga kelmoqda. [6]

Shu bois, to‘g‘ri ovqatlanish nafaqat shaxsiy salomatlik, balki umumiy sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va barvaqt o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar natijalari jamiyatda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi va u orqali kelajak avlodning sog‘lom rivojlanishi ta’minlanadi.

Tadqiqot maqsadi va metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — talabalarning sog‘lom va nosog‘lom ovqatlanish odatlari ularning salomatligiga, bilim olish salohiyatiga hamda diqqatni jamlash qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda Avstraliyaning Nyukasl universiteti (University of Newcastle) talabalari ishtirok etdi. Umumiy hisobda 278 nafar talaba tadqiqotda qatnashdi (o‘rtacha yosh: $26,9 \pm 10,5$ yil; ishtirokchilarning 70,9 foizi ayollar). Talabalar sog‘lom ovqatlanish ($n=100$) va nosog‘lom ovqatlanish ($n=100$) odatiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi. Ovqatlanish odatlarini baholash uchun Australian Eating Survey Food Frequency Questionnaire (Avstraliya Oziqlanish

So‘rovi Oziq-ovqat Chastotasi So‘rovnomasi) ishlatildi. Ushbu so‘rovnoma ilgari validatsiya qilingan va ishonchliligi tasdiqlangan (Collins et al., 2008). So‘rovnoma orqali talabalar o‘zlarining kunlik iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari, ovqatlanish sifati (Australian Recommended Food Score — ARFS ko‘rsatkichi), va energiyaga nisbatan energiya zich, lekin ozuqa moddalarga kambag‘al (EDNP) mahsulotlardan olingan energiya ulushi haqida ma’lumot taqdim etdilar. Talabalarning akademik yutuqlari esa o‘zlari bergan baholar (GPA — Grade Point Average) orqali baholandi. Olingan ma’lumotlar lineyer regressiya usuli yordamida tahlil qilindi va natijalar ijtimoiy-demografik va talabalik xususiyatlari inobatga olingan holda statistik tahlildan o‘tkazildi. [1]

Tadqiqot usuli. Tadqiqotda asosiy parametrlar sifatida quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

O‘quv samaradorligi –oraliq va yakuniy nazorat natijalari.

Diqqatni jamlash qobiliyati - dars davomida diqqatni jamlash va uzoq vaqt davomida o‘qish samaradorligi.

Uyqu rejimi - uyquning davomiyligi va sifati.

Stress darajasi va asabiylik - talabalarning o‘quv jarayonidagi stress va asabiy holatlari.

Tadqiqot natijalari.

O‘quv samaradorligi. Sog‘lom ovqatlanadigan talabalar o‘rtasida yillik imtihonlar va testlar natijalari yuqori bo‘ldi. Sog‘lom ovqatlanadigan talabalar orasida 85% o‘quvchilarning imtihon natijalari 80% dan yuqori bo‘ldi. Nosog‘lom ovqatlanadigan guruhda esa faqat 50% talabaning natijalari 80% dan yuqori bo‘ldi (jadval-1).

Tadqiqotning natijalari, sog‘lom ovqatlanishning talabalarning o‘quv muvaffaqiyati, salomatlik va ruhiy holatiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu, sog‘lom ovqatlanishning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi va talabalarga sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishni targ‘ib qilishning zarurligini ko‘rsatadi.

Jadaval-1

Ko‘rsatkichlar	I guruh (sog‘lom ovqatlanadiganlar) n=100	II guruh (nosog‘lom ovqatlanadiganlar) n=100	p - ko‘rsatkich
O‘zlashtirish	85%	50%	0.01
Diqqatni jamlash	75%	45%	0.05

qobiliyati.			
Uyqu rejimi.	85%	60%	0.03
Stress darajasi va asabiylik.	90% (stress darajasi past)	60% (stress darajasi yuqori)	0.02

Ushbu tadqiqotda olingan natijalar sog‘lom ovqatlanish va o‘quv samaradorligi o‘rtasidagi aloqani ochib berishda muhim rol o‘ynadi. Biroq, kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish lozim:

Turli yoshdagi talabalarda tadqiqotlar: Ushbu tadqiqot faqatgina universitet talabalari orasida o‘tkazildi. Kelajakda, o‘rta maktab va kollej talabalari orasida ham sog‘lom va nosog‘lom ovqatlanishning o‘quv samaradorligiga ta’sirini o‘rganish kerak. Bu, yoshga qarab o‘zgaradigan ta’sirlarni aniqlashga yordam beradi.

Ovqatlanish odatlari va aqliy salomatlik: Sog‘lom ovqatlanishning aqliy salomatlikka, masalan, xotira, kreativlik, va stressni boshqarish qobiliyatiga ta’sirini o‘rganish. Bu, talabalarning nafaqat jismoniy, balki aqliy salomatligini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Mavjud ovqatlanish dasturlarining samaradorligini o‘rganish: Maktab va universitetlar o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish dasturlarini tatbiq etish, ularning talabalarning umumiy salomatlik va o‘quv muvaffaqiyatiga ta’sirini o‘rganish. Bunday dasturlarni amaliyotga joriy qilish orqali, ularning samaradorligini baholash mumkin bo‘ladi.

Ekstralar ta’siri: Sog‘lom ovqatlanishning boshqa omillar, masalan, jismoniy mashqlar, vaqtni boshqarish va sog‘lom uyquni qo‘llab-quvvatlash kabi qo‘shimcha omillarning talabalarning o‘quv samaradorligiga ta’sirini yanada chuqurroq tahlil qilish.

Milliy miqyosda tadqiqotlar: Turli hududlardagi talabalarning ovqatlanish odatlari va o‘quv samaradorligi o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish. Milliy darajada sog‘lom ovqatlanish targ‘iboti va ta’lim tizimining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashga qanday ta’sir qilishini baholash.

Ushbu izlanishlar, sog‘lom ovqatlanishning talabalarning o‘quv muvaffaqiyatiga ta’sirini yanada kengroq o‘rganish va bu sohada amaliy takliflarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa. Sog‘lom ovqatlanish, diqqatni uzoq vaqt davomida jamlash va darsda samarali ishtirok etishni osonlashtiradi. Nosog‘lom ovqatlanadigan talabalar esa diqqatni jamlashda va vazifalarni bajarishda ko‘proq qiyinchiliklarga duch kelganlar. Sog‘lom ovqatlanadigan talabalar muntazam va sifatli uyquga ega bo‘lib, bu ularning salomatligini yaxshilaydi va o‘quv samaradorligini oshiradi. Nosog‘lom ovqatlanish

esa uyqu sifatini pasaytiradi, bu esa asabiylik, stress va charchoqqa olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom ovqatlanish talabalar orasida o‘quv samaradorligining oshishiga, diqqatni jamlashning yaxshilanishiga, uyqu sifatining yaxshilanishiga va stress darajasining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Collins CE, et al. The Australian Eating Survey: a brief FFQ for assessing habitual dietary intake. Nutr Diet. 2008
2. Mahan, L. K., & Escott-Stump, S. Krause's Food & Nutrition Therapy. 12th edition, 2008
3. Popkin, B. M. (2006). Global nutrition dynamics: the world is shifting rapidly toward a diet linked with noncommunicable diseases. American Journal of Clinical Nutrition.
4. World Health Organization (WHO). Healthy diet. 2020. Global Nutrition Report 2020 (Development Initiatives).
5. World Health Organization (WHO). Noncommunicable diseases. Fact sheet. 2021. WHO. Obesity and overweight. Fact sheet. 2021.
6. World Health Organization (WHO) ; Black va Victora, 2013

SUN’IY INTELLEKT RIVOJLANISHINING AXLOQIY QADRIYATLARGA TA’SIRI

Tukbayeva Ruxshona Jaxon qizi

Rustamova Iroda Najmiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institutining XT4-24guruh talabalari

tukbayevaruxshona@gmail.com

Annotatsiya: Sun’iy intellekt zamonaviy davrning eng ta’sirchan rivojlanish ta’siriga aylandi. Barcha sohalarni rivojlantirishda asos bo‘lib qolmay, balki insoniyat hayot tarzini tubdan o‘zgartiruvchi vosita masalasida ko‘rilmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellektning barcha funksiyalarini o‘rganish bilan bog‘lanib qolmasdan, axloqiy qadriyatlarga qay usulda ta’sir qilayotgani tahlil qilinadi va chuqur mushohada asosida afzalliklari va tahlikali jihatlari o‘rganiladi.

Kirish so‘zlar: Sun’iy intellekt, axloqiy mas’uliyat, manipulatsiyalash jarayoni, kelajak kasblarga ta’siri, insonlar o‘rtasida ijtimoiy va siyosiy munosabatlar o‘zgarishi, axloqiy qarorlar qabul qilishda sun’iy intellektning roli.

Annotation. Artificial intelligence has become one of the most influential developments of the modern era. It is not only a fundamental factor in advancing various fields but is also considered a tool that profoundly transforms human lifestyles. This article does not focus on studying all the functions of artificial intelligence but rather analyzes how it influences ethical values. Through deep reflection, its advantages and potential risks are examined.

Keywords: Artificial intelligence, ethical responsibility, manipulation process, impact on future professions, changes in social and political relations among people, the role of artificial intelligence in ethical decision-making.

Аннотация. Искусственный интеллект стал одним из самых влиятельных факторов развития в современную эпоху. Он не только является основой для развития всех сфер, но и рассматривается как инструмент, кардинально изменяющий образ жизни человечества. В данной статье анализируется не все функции искусственного интеллекта, а то, каким образом он влияет на моральные ценности. На основе глубокого анализа рассматриваются его преимущества и потенциальные угрозы.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, моральная ответственность, процесс манипуляции, влияние на профессии будущего, изменения в социальных и политических отношениях между людьми, роль искусственного интеллекта в принятии этических решений.

Sun’iy intellektning jamiyatda, sanoatda, fanda va inson hayoti faoliyatida tutgan o’rni yuqori desak mubolag’a bo’lmaydi. Sun’iy intellekt tizimi inson ongi bilan uzviy bog’liq bo’lib, insoniyat bajara oladigan har qanday vazifani bajara oladi. Sun’iy intellekt hayotimizning bir qismiga aylanib qolishi informatika fanining alohida sohasi ekanligidan dalolat hamda har qanday vaziyatda avtonom qarorlar qabul qilish darajasiga yetgan. Shu tufayli foydalanish huquqlariga e’tibor qaratilib, axloqiy muammolarni qabul qilayotganligiga diqqat markazi qaratilishi lozim. Sun’iy intellekt tez javob qaytarishi va har qanday holatda yo’l ko’rsatishi orqali insonlarni fikrlashdan to’xtatib qo’yish ehtimoli mavjud. Ayniqsa, yoshlar ongini manipulatsiyalash orqali ta’sir o’tkazishi mumkin chunki kichik narsalar va usullar sekinlik bilan axloqiy munosabatlar o’z ta’sirini ko’rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning fikrini manipulatsiya qilish va yolg’on ma’lumotlar tarqatishda ham asosiy rolda turadi. Biznes jarayoniga e’tibor qaratilsa, reklama va biznesda foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini oldindan bashorat qilish orqali ularning erkin tanloviga ta’sir o’tkazishi mumkin.

Olimlar sun’iy intellekt bilan tajriba o’tkazishga ishtiyoq bilan yondashsada, ko’p odamlar bundan yiroqda bo’lishadi. Hatto, Tesla rahbari Elon Musk ham buni insoniyat uchun asosiy tahdid hamda urush va ishsizlikning asosiy manbasi deya ta’kidlagan. Kelajak kasblarga intellektning ta’siri yuqori bo’lishi kutilmoqda chunki qiyin bo’lgan ish bazalarida intellekt uddasidan chiqmoqda. Insoniyat o’zi yaratgan uskunasi “quli”ga aylanib qolishini oldini olish uchun har bir vaziyatda me’yor va tartib qo’yilishi nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt 2060 yilga kelib insonning deyarli barcha vazifalarini mustaqil ravishdaq bajara olishini taxmin qilishmoqda.

Kelajak hayotimizga ta’sirlarini sanab o’tadigan bo’lsak; oddiy ishchilarning daromad manbayi kamayishi, banklar, fabrikalar va hatto xizmat ko’rsatish sohasida insonlar o’rniga algoritmlar ishlashi, texnologik tafovut ortib jamiyatda boylar va kambag’allar o’rtasida farq yuzaga kelishi, axloqiy jihatdan, inson mehnatining qadri kamayib borayotganing xavfi tug’ilishini ko’rishimiz mumkin. Sun’iy intellekt virtual olamdan foydalanish insonni tashqi olam tasavvurlaridan uzoqlashtirishi mumkin negaki virtual suhbatdoshlar, robot terapevtlar va sun’iy intellektga asoslangan sheriklar insoniy aloqalarni almashtirib keskin axloqiy o’zgarishga sabab bo’ladi. Psixologik nazariya bilan qaraladigan bo’lsa, real hayotdan uzoqlashish yolg’izlik va depressiyaga sabab bo’lishi mumkin. Insonning ijtimoiy mavjudlik sifatida o’zining mohiyatini yo’qotishi bu esa insonlar o’rtasida ishonch, mehr-muhabbat va hamdardlikni kamaytiradi. Intellektning roli baland bo’lishi real axloqiy ta’sirlarga sabab bo’ladi. Huquqiy jihatdan qaraydigan bo’lsak, sun’iy ong mavjudot sifatida saqlay olmasligi mumkin. Hozirda sun’iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun tuli sabablar keltirilmoqda. Ko’pchilik insonni olinishi mumkin emas negaki

muhim qarorlar chiqarishda to’g’ri pozitsiyani nlar sun’iy intellektni faqat robot ko’rinishida tushunadi, biroq sun’iy intellekt insonlarning imkoniyatlarini cheklovchi vosita. Birinchidan, biznes sohasida arzon narxlarda hisoblashning samarali usuli ya’ni har qanday tizimda oson va tez ishlay oladi, ko’pchilik biznesmenlar uchun bashorat qilsa olish imkoniyati ham qo’l keladi. Ikkinchidan, ta’limda asosiy katta hajmdagi ma’lumot yetkazuvchi manbadir, bu esa barcha foydalanuvchilarni osongina o’ziga jalb etadi. Bundan tashqari, tizimda doimiy yangiliklar kiritilini borishi foydalanuvchilar uchun keng imkoniyatlarni yaratadi hamda ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va turli xil algoritmlar ustida ishlaydi. Uchinchidan, sun’iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni muntazam rivojlantirib boradi va kompaniyalar o’rtasida raqobat darajasi ortishi tufayli bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi uchun vositalarni e’lon qilib boradi. Sun’iy intellekt taraqqiyoti bilan kelajakni qanday tasavvur qilamiz? Birinchi eng katta ta’sir ko’rsatiladigan narsa insonlar o’rtasida ishsizlikning ortishi. Shifoxonalarda professional va malakali jarrohlar o’rniga inson ko’zi ilg’amaydigan vosita orqali robotlar jarrohlik amaliyotini o’taydi va shifokorlarning vazifalarini to’liq qo’lga oladi. Sun’iy intellekt o’zi dasturlar yozish, kodlash, murakkab mexanizmlar bilan davomiy shikoyatlarsiz ishlash orqali dasturchilarning asosiy o’rnini yo’qotadi. Avtomatlashgan holda kafe, restoran insonlar gavjum joyda maxsulotni yetkazib berish yoki kassada tezkor pul sanash va hisoblash mexanizmi oddiy ishchilarning ish o’rinlarini kamaytirib yuborishi mumkin. Umumiy nazarya bilan qaraydigan bo’lsak, barcha sohlarida turli xil vazifalarni bajara olish funksiyasi orqali turli xil ta’sir ko’rsatadi. Axloqiy qadriyatlarga to’xtaldigan bo’lsak, yub o’zgarishlarga intellektual nazar bilan e’tibor berishimiz lozim. Misol uchun, insoniylik qadriyati – bu shaxsning ichki olami, hissiyotlari, mehr-muhabbat, hamdardlik va ma’naviyat orqali shakllangan tamoyildir. Sun’iy intellekt esa insoniy hissiyotlarni taqlid qilishi mumkin. Mas’uliyat qadriyati insoniyat sivilizatsiyasining negizidir. Har bir ijtimoiy tizim, qonun, madaniy norma insonning shaxsiy va jamoaviy javobgarligi ustiga qurilgan. Adolat qadriyati har bir jamiyatning asosiy negizlaridan biridir. Biroq sun’iy intellekt rivojlanishi ijtimoiy tengsizlik va adolat muammosini yanada chuqurlashtirishi mumkin. Algoritmlar ko’pincha mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda qaror qabul qiladi. Haqiqat qadriyati har doim inson bilimining asosiy tamoyili bo’lib kelgan. Biroq intellekt haqiqat tushunchasini muammoga aylantirmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida haqiqatni buzish yoki manipulyatsiya qilish juda osonlashgan. Erkinlik qadriyati insoniyat taraqqiyotining eng muhim tamoyillaridan biridir. Biroq intellekt algoritmlari inson tanlovini cheklash yoki yo’naltirish qobiliyatiga ega. Masalan: algoritmik tavsiyalar orqali insonlar faqat ma’lum bir axborot maydoniga yo’naltiriladi. Sun’iy intellekt hayotiy qarorlar qabul qilish jarayoniga aralashib, insonni o’zidan ko’ra samaraliroq

qaror chiqaruvchi tizimga ishonishga majbur qiladi. Xulosa qilib aytganda, texnologik taraqqiyot inson qadriyatlarini zaiflashtirmasligi lozim. Sun’iy intellektning roli va ahamiyati chuqur o’rganilib chiqib, kelajak poydevori uchun tahlikali tahdid asosini yaratayotganligiga shunchaki e’tiborsiz qarab bo’lmaydi. Ilmiy metodologik tamoyillarga asoslanib me’yoriy normalar orqali tizimni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Sun’iy intellektning rivojlanishi insoniyat tarixidagi eng katta texnologik burilishlardan biri bo’lib, uning ijobiy va salbiy oqibatlari jamiyatning axloqiy tuzilishini tubdan o’zgartirishi mumkin. Intellekt inson mehnatini yengillashtirishi, tibbiy va ilmiy kashfiyotlarni jaddalashtirishi hamda hayot sifatini yaxshilashi bilan birga, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy adolat, insoniy munosabatlar va haqiqat tushunchasiga yangi muammolarni olib kelmoqda. Texnologik taraqqiyot odatda insoniyatning axloqiy rivijlanishiga nisbatan tezroq kechadi. Tarix shuni ko’rsatadiki, har bir texnologik inqilob axloqiy me’yorlarni shakllantirgan. Biroq, intellekt masalasida bu o’zgarishlar nihoyatda jiddiy, global va chuqur ta’sirchan bo’lishi mumkin. Shunday ekan, insoniyat sun’iy intellektni to’g’ri boshqara olmasa, axloqiy qoidalar texnologiyaga moslashib, inson o’z me’yorlarini yo’qotish xavfi ostida qolishi mumkin. Aksincha, intellektni rivojlanishini axloqiy tamoyillar asosida yo’naltirish orqali biz uni inson manfaatlari yo’lida samarali vosita sifatida ishlata olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. www.iais.uz The University of World Economy and Diplomacy, AI Unveiled: Exploring Its Social Impacts, policy brief Mushtariy Usmonova 4th year student, International Relations, UWED.
2. International Labour Organization 2021. World Employment and Social Outlook, Geneve.
3. www.iupr.ru. “Ekonomika va Sotsiologiya” N°3(106)-2 2023 Sun’iy intellekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o’rni.
4. www.scientificprogress.uz Volume 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN:2181-1601. Sun’iy intellekt va uning insoniyat faoliyatidagi o’rni. Oybek Xamdamovich, Gulxayo Pulatova, G’iyos G’ofurjonovich.
5. Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish ma’ruza kursi qo’llanmasi I.A. FILIPOVA. Samarqand 2022.

A REGION-BASED APPROACH FOR EXPANDING IT AND BPO SERVICES EXPORT IN UZBEKISTAN: THE ROLE OF REGION-SPECIFIC PREFERENCES AND INCENTIVES

J.O.Khasanbaev

Master of Graduate School of Business and Entrepreneurship, Tashkent, Uzbekistan

This paper explores the significance of adopting a region-based approach for expanding Information Technology (IT) and Business Process Outsourcing (BPO) services export in Uzbekistan. Considering the unique economic, geographic, and infrastructural characteristics of Uzbekistan’s 14 regions, the paper argues that region-specific preferences and incentives can significantly contribute to the country’s digital economy and export performance. The study examines how customized policies can enhance competitiveness, attract investments, and create employment, thus accelerating the development of the IT and BPO sectors across the country.

Keywords: IT services, BPO, region-based policy, digital economy, regional development, incentives, preferences, export strategy, localization.

Introduction

In the global digital economy, Information Technology (IT) and Business Process Outsourcing (BPO) services are recognized as key drivers of economic transformation and export diversification. Uzbekistan, with its strategic location, youthful population, and government-led digitalization reforms, is well-positioned to become a regional leader in IT and BPO services. However, the uneven development across its 14 regions presents challenges that require tailored policy interventions.

A one-size-fits-all approach to developing the digital economy may overlook regional disparities in infrastructure, human capital, and economic specialization. Therefore, applying region-specific preferences and incentives aligned with local features can stimulate inclusive growth, enhance the IT and BPO sector's regional competitiveness, and boost export performance. This paper investigates how this approach can contribute to the expansion of Uzbekistan’s digital services export sector.

Regional Diversity in Uzbekistany

Uzbekistan is administratively divided into 12 provinces (viloyats), the Republic of Karakalpakstan, and the city of Tashkent. Each region has distinctive socio-economic, geographic, and infrastructural characteristics. For example:

- **Tashkent city** serves as the country's main technological hub, home to the majority of IT companies and the national IT Park.

- **Samarkand** and **Bukhara**, with their historical significance and tourism potential, offer opportunities for multilingual BPO and customer service centers.
- **Fergana Valley** (including Andijan, Fergana, Namangan) has a dense population and a skilled youth labor force.

Understanding and leveraging these differences is essential for crafting effective regional policies for IT and BPO sector development.

Region-Specific Preferences and Incentives: Concept and Relevance

Region-specific preferences and incentives refer to tailored government interventions designed based on the unique socio-economic conditions of each region. These may include:

- Tax holidays or reduced income tax rates for IT/BPO firms in underdeveloped areas.
- Subsidies or grants for workforce training in regions with high unemployment.
- Infrastructure support such as providing high-speed internet in remote areas.
- Special economic zones (SEZs) and IT clusters tailored to regional strengths.
- Localization of regulatory frameworks for startup and SME support.

Such targeted incentives can bridge regional disparities, decentralize economic activity, and enhance national productivity [7].

Benefits of the Region-Based Approach

Decentralized Economic Growth

By encouraging the establishment of IT and BPO centers outside of Tashkent, economic activity can be distributed more evenly. This alleviates pressure on the capital’s infrastructure and fosters job creation in peripheral regions [6].

Improved Talent Utilization

A region-based approach promotes skills development based on local demographics. For instance, language training in touristic regions can support multilingual call centers, while technical training in industrial regions can promote engineering services exports [4].

Increased Foreign Investment

Investors are more likely to engage in regions where government policies are supportive and tailored to local strengths. Regional incentives reduce operational costs and risks, making Uzbekistan more attractive for global IT and BPO firms [5].

Boosting Export Performance

Customized regional support can increase the number of export-ready IT and BPO firms. Regions with emerging talent but limited infrastructure can benefit from targeted interventions to connect to international markets [3].

Practical Implementation Strategies

Regional IT Parks and Incubators

Expanding the IT Park model to each region with localized services and support structures can catalyze innovation. Each regional IT park should specialize according to the local workforce and economic base.

Public-Private Partnerships (PPPs)

Encouraging PPPs to develop telecom infrastructure in underserved areas will help close the digital divide and enable remote service delivery, especially in Karakalpakstan and mountainous regions like Surkhandarya [2].

Localized Education and Certification Programs

Collaboration with local universities to offer specialized IT and BPO programs aligned with industry needs is critical. For example, Namangan can focus on mobile development, while Samarkand could specialize in translation and content services [8].

Case Study: The Role of IT Park Uzbekistan

IT Park Uzbekistan, with its headquarters in Tashkent, has expanded its presence to 14 regions by 2024. Each regional branch is designed to support local startups, improve access to training, and attract investment. As a result, regional IT export revenue increased by almost 40% in 2024 compared to the previous year [2].

This illustrates the effectiveness of a decentralized and region-specific policy in improving the digital ecosystem and enhancing export capacity. Replicating and deepening this approach can further drive inclusive national development.

Conclusion

Uzbekistan’s aspiration to become a regional leader in IT and BPO services requires a nuanced policy approach that considers the country’s regional diversity. Applying region-specific preferences and incentives according to the unique features of each of the 14 regions can significantly contribute to expanding service exports, attracting foreign investment, and creating high-value jobs.

This localized strategy supports decentralized growth, builds human capital, and bridges the digital divide. The evidence from IT Park expansion and global best practices underscores the potential of this approach to transform Uzbekistan into a competitive digital economy. Strategic implementation, regular impact assessment, and cross-sectoral coordination are essential to ensure long-term success.

References:

1. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan (2020) No.PP–6079 “On approval of the Strategy “Digital Uzbekistan-2030” and measures for its effective implementation”.
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 19, 2021 No. 699 “On Measures for the Further Development of the Telecommunications Infrastructure of the Republic of Uzbekistan.”.

3. Asian Development Bank (2023). Unlocking Economic Potential in Central Asia through ICT Services. Manila.
4. UNCTAD (2020). Digital Economy Report: Cross-border data flows and development. Geneva.
5. OECD (2023). Fostering Digital Innovation in Developing Countries: Regional Incentives and Infrastructure Strategies. Paris.
6. IT Park Uzbekistan Annual Report (2023). Retrieved from <https://it-park.uz/en>
7. World Bank (2022). Developing Uzbekistan’s Digital Economy: Regional Approaches and Policy Options. Washington, D.C. <https://www.worldbank.org>
8. International Telecommunication Union (2022). ICT Infrastructure Development and Regional Inclusion. Geneva <https://www.itu.int/>

XIX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY XAYOTDAGI O‘ZGARISHLAR

Rohila rajabova

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrası dotsenti.

Feruz Ashurov

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, yo‘nalishi 5.2 – ITM 21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vama’naviy ahvol, tarixiy shart-sharoitlar, ma’rifatparvarlik harakati, jadidchilik, mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashining ma’naviyasoslari masalalariga to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, ma’rifatparvarlik harakati, jadidchilik, davlat, jamiyat

ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется социальнополитической и духовной ситуации в Туркестане в начале XX века, историческим условиям, просветительскому движению, джадидизму, духовным основам освободительной борьбы против колониализма.

Ключевые слова: Туркестан, общественно-политическая жизнь, просветительское движение, джадидизм, государство, общество.

CHANGES IN THE SOCIAL, POLITICAL AND CULTURAL LIFE OF TURKESTAN AT THE END OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURY

Abstract: This article focuses on the socio-political and spiritual situation in Turkestan in the beginning of the XXth century, historical conditions, the enlightenment movement, Jadidism, and the spiritual foundations of the freedom struggle against colonialism.

Key words: Turkestan, socio-political life, enlightenment movement, Jadidism, state, society.

KIRISH:

Xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglash jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan tarixni o‘rganish va bilish zarur. Tarixsiz kelajak yo‘q. Zero bu maqolada XX asrda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va albatta manaviy hayoti haqida so‘z yuritishgaharakat qildik. Turkiston bu davrda qanday ahvolda edi va mintaqada qanday siyosiyijtimoiy o‘zgarishlar, jamoatchilik ishlari olib borilmoqda edi. Tarix– bu bizningkelajagimiz. Tarixni bilmasdan turib kelajakka yuz tutib bo‘lmaydi. Chunki, kelajakbugundan, bugun esa tarixdan boshlanadi. Bulardan tashqari o‘sha davr ma’rifatparvarlari qanday g‘oyalar ostida birlashishni ilgari surishgan va o‘lkani yangilash siyosati qay tarzda amalga oshirilganligi haqida ham so‘z yuritishga harakat qildik. Turkiston xalqining kelajagi eng avvalo xalqning o‘ziga, ma’naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bo‘g‘liq edi. Bu davrda Turkistonda millatning ma’naviy va aqliy o‘sish salohiyatining oshirilishiga kuchli e’tibor qaratilgan edi. Chunki, ma’naviylik va ma’rifiylik Turkiston xalqining ko‘p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli va o‘ziga xos bir xususiyati hisoblanardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risida qonun, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, germeneylik tahlil, vorislik, umuminsoniy va milliylining o‘zaro birligi, qiyosiy tahlil tamoyillari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

XX asrning boshlanishi Turkiston o‘lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to‘g‘ri keldi. O‘tgan o‘n yilliklar mobaynida o‘lka bag‘rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil emas, lekin o‘zining yemiruvchilik ta’siri jihatidan yaxlit edi. Turkiston 1917-yilda muhim siyosiy o‘zgarish arafasida turar edi.

Mintaqa xalqlari Rossiyaning 50 yillik mustamlakachilik zulmiga qarshi tinimsiz ravishda milliy ozodlik kurashini olib bordilar. Dastlab ma’rifatparvarlik harakati siyosatida vujudga kelgan Jadidchilik Turkiston taqdiri hal qilinoyatgan paytda o‘zbek xalqini g‘oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Turkiston birligi g‘oyasi unda istiqomat qilib kelgan xalqlarning azaliy orzusi bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham bu g‘oya barcha xalqlarimiz uchun mushtarakdir. XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Rossiya O‘rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo‘shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo‘lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O‘sha vaqtda hududining kattaligi va aholisining ko‘pligi

jihatidan Turkiston o'lkasi yoki Turkiston deb atalgan Turkiston generalgubernatorligi eng yirik sanalardi. Uning tarkibiga Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Zakaspiy va Ettisuv viloyatlari kirar edi. O'lkadagi besh milliondan ko'proq aholining asosiy, ko'pchilik qismini o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa yerli xalqlar tashkil etardi. Ularning hammasi Islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar edi. Biroq o'sha vaqtda “musulmon”, “musulmon aholi” tushunchalari diniy mazmunga emas, balki etnik mazmunga ham ega bo'lib, undan mahalliy aholini Rossiyadan ko'chirib keltirilgan rusiyzabon aholidan ajratish uchun foydalanilar, ko'chirib keltirilganlar soni o'lkadagi butun aholining o'ndan bir qismidan ham kam edi. Milliy ozodlik harakatlari muammolarini o'rtanish ko'zgusida 1917 yil fevralda chor tuzumi ag'darilgandan so'ng yuzaga kelgan, Turkiston taraqqiyotining tub burilishi bosqichida barcha ijtimoiy va siyosiy kuchlar, xalq ommasining haqiqiy fojeasiga to'liq, jonli tarixini o'zida aks ettiruvchi muxtoriyat, Turkiston birligi uchun, mohiyatiga ko'ra esa mustaqillik uchun kurash tarixi bizning kunlarda muhim va xatto, belgilovchi ahamiyatga ega. O'sha paytlarda chorizim esa mahalliy burjuaziyasining paydo bo'lishini also istamas edi. Shuning uchun rus chorizimi va burjuaziyasi o'sib kelayotgan o'zbek milliy burjuaziyasini iqtisodiy- siyosiy huquqlarini cheklab, uning rivojiga to'siq qo'ygan edi. Milliy burjuaziya bu kamsitishdan norozi bo'lgan. Islom dini arboblari o'rtasida xalqning ma'rifatli bo'lishini astoyidil istovchi guruh mavjud bo'lib, bu taraqqiyparvar ziyolilar chorizim va johil ruxoniylarga qarshi edilar. Millat taraqqiyotini o'ylovchi ushbu taraqqiyparvar kuchlar o'zbek xalqining hunarmandlari, dehqonlari, savdogarlari, yirik mulkdorlari, islom ulamolari xalqning deyarli barcha tabaqalari orasida mavjud edi. Ziyolilar chorizimga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish va ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qilgan edilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamon topdi. Oradan 20 yil o'tgach, 1917-yilga kelib jadidlar Turkistondagi siyosiy jarayonlarning qoq markazida turishdi. Jadidchilik 1917-yili ma'rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko'tarilgan edi, o'sha 1917-yilning o'zida to'rt marta butun Turkiston quriltoyi o'tkazildi. 1917-yil 16-23 aprelda Toshkentda bo'lgan 1-quriltoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston muxtoriyatida tashkil etish g'oyasi olg'a surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy demokratik davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi. 1917-yil 10-sentabrda Toshkentda butun Turkiston musulmonlarining 2-quriltoyi ochildi. Jadidlarning boy tarixiy merosida milliy g'oya va milliy mafkura alohida o'rin tutadi. Jadidchilik faqat madaniy hodisa bo'libgina qolmasdan u avvalo siyosiy hodisa ham edi. Jadidlar o'z faoliyatida davlat va uning qurilishidan tortib, jamiyat va uning manaviy hayotigacha bo'lgan barcha masalalarni qamrab olgan edi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. Bu

paytda yuzaga kelgan jadidlarning milliy g’oyasida quyidagi ikki masala asosiy maqsad qilib qo’yilgandi:

- xalqimizni dunyoning ma’rifatli millatlari darajaga ko’tarish;
- Turkistonning o’z mustaqilligiga erishuvi.

Jadidlarning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarida bu ikki masala bir biri bilan uzviy bog’lanib ketgan. Chunki millat ma’rifatli bo’lishi uchun mustaqil bo’lmog’i lozim. Mustaqil bo’lishi uchun esa xalqimiz eng avvalo ilm-ma’rifatni puxta egallashi kerak edi. Jadidlar bir tamondan Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. Ikkinchi tamondan, ular Turkistonda demakratik huquqiy davlat qurish uchun intildilar. Demak bu kurash jadidchilik mafkurasining asosini tashkil qildi.

Jadidlar orasida yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko’rishni orzu qilar edilar va shu yo’lda fidoyilarcha kurashadilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi kurash dasturida asosan to’rt yo’nalish mavjud edi:

- yangi usul maktablari tarmog’ini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o’qishga yuborish;
- gazeta va jurnallar chop qilish;
- turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish.

Ana shu dastur amalga oshirilgan taqdirda jadid ziyolilarining kuchli partiyasini tashkil qilish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o’rta asirlarga hos qaloqlik va diniy xurofatdan ozod etish, shariatni isloh qilish, halqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonga muxtoriyat maqomini berish uchun kurash, Buxora va Xiva davlatlarida konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demakratik respublika tuzumini o’rnatish orqali ozd va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo’shin tuzish. Undan tashqari Buxoro, Xiva, Tashkent, Farg’ona va Samarqandda hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy maorif jamiyatlari shaklidagi uyushmalardan jadidchilik harakati shakillangan edi. 1917 yilda o’lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy masala bo’lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g’oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy odamlar orasida ham ancha ommalashgan edi. Ijtimoiy tafovutlarga qaramay, butun Turkiston jamiyatida o’lkaning mustamlaka maqomini tugatishga intilish kayfiyati ustivor edi.

Milliy ozodlik uchun boshlangan harakat bu yerda yangi hokimiyatning rus muassasalari bilan bir qatorda “Sho’roi islomiya”, “Sho’roi ulamo”, “Mirvaj ulislom”, “Miftah ul-maorif”, “Ravnaq ul-islom”, “Ittifoq ul-muslimin”, “Turon” va boshqa turli musulmon tashkilotlari paydo bo’lishiga olib keldi. O’lka mahalliy aholisi orasida milliy Demokratik tashkilot va jamiyatlar yuzaga kelishi va

shakllanishiga milliy ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ma’lum darajada ta’sir ko’rsatdi. Ulardan ko’pi faol ishlari bilan Turkistonda demokratik mlliy davlatchilikni yaratish mafkurasini ishlab chiqishga ulkan hissa qo’shdilar. Ular orasida Turkistonda yashovchi millatlarning vakillari bo’lmish Munavvar Qori Abdurashidxon o’g’li, Mahmudxo’ja Behbudiy, Ubaydulla Xo’jaev, Mustafo Cho’qae, Toshpo’lat Norbo’tabekov, Abdulla Avloniy, Ahmad Zakiy Validiy To’g’on, Turor Risqulov, Abdurauf Fitrat, Sultonbek Xo’janov, Miryokub Davlatov va boshqa milliy harakatga boshchilik qilgan taniqli ma’rifatparvar, jamoat va siyosiy arboblardan biri edi.

Ular jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimini isloh qilish, ta’lim va fanni rivojlantirish orqali dunyoviy, demokratik jamiyat barpo etishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’yidilar. Bu musulmon xalqlarni dunyo sivilizatsiyasi, xususan Yevropa madaniyatiga oshno etishning o’ziga xos yo’li edi. Bu yo’l shubhasiz, milliy va ma’naviy qadriyatlardan voz kechmay, hech qanday zo’rliksiz, sekin-asta olib boriladigan o’zgarishlar, bundan keyinga taraqqiyotga xalaqit beruvchi eskirgan aqida va xurofotlardan tozalanishlar yo’li edi. Ko’pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashoqlashuvi bilan uyg’unlashib ketgan davomli turg’unlikka olib kelgan omillarning birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g’arb usulida zo’rlilik bilan yangilash (zamonaviylashtirish) mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilash jarayoni doimo qaloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Birinchidan, iqtisodiy ekspansiya (bosqinchilik) yillari mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo’jaligining yangi o’choqlari zo’r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yog’ ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish (konchilik), temir yo’l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o’lka milliy xo’jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi.

Bu tarmoqlar Rossiya markaziy sanoat rayonlarining talab-ehtiyojlari bilan bog’liq bo’lib, bular mahsulotining Turkiston doirasidan chetga chiqarilishi uni olinadigan foydadan butunlay mahrum etar, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini barbod qilardi. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o’choqlarining barpo etilishi o’lka iqtisodiyotini izdan chiqardi, ko’p ukladli ijtimoiy tuzilmani vujudga keltirdi. Bunda asosan hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko’proq tushkunlikka uchrab yemrila bordi. Va nihoyat, Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan o’lka xo’jaligining dehqonchilik xom ashyo yetishtirish yo’nalishida bo’lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi o’lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi.

Ana shu tobelik halokatli oqibatlarining butun og’irligini Birinchi jahon urushi (1914-1917) yillarida xalq ommasini o’zgarganida sinab ko’rdi: muntazam harakatda bo’lgan temir yo’llar ishidagi uzilish va barbod bo’lish hollarining tez-tez sodir bo’lib

turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi. Chorizm oʻrnatgan va bosqinchi armiyaning nayzalariga tayanib oʻlkani idora qilgan ma'muriy mustamlakachilik devonining cheklanmagan hukmronligi sharoitida kelgindi aholining barcha tabaqalari imtiyozli yashagani holda, iqtisodiy qoloqlik oʻlkadagi mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi sababli koʻproq kuchayib bordi.

Madaniyat sohasida tashqaridan tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoni milliy madaniy merosni barbod etish, xalqning yashovchan an'anaviy qadriyatlarini yoʻq qilish xavfini tugʻdirdi. Mustamlakachilik Turkiston xoʻjaligining an'anaviy tarkibiga putur yetkazish bilan bir qatorda milliy asosda burjua yoʻnalishida oʻz ahvolini mustaqil ravishda oʻzgartirish imkoniyatidan uni mahrum etdi, turgʻunlikka, inqirozga, qoloqlikka mahkum qildi, ishsizlik oʻsishiga, xalq turmush darajasi pasayib ketishiga koʻmaklashdi. Bularning hammasi ijtimoiy hayotda nizo va mojarolarni koʻpaytirdi. Siyosiy beqarorlikni, kuchlar qarama-qarshiligini kuchaytirdi. Shu tariqa turkistonliklar birdamligiga muhim qadam qoʻyildi: tarixda ilk bor umumturkiston miqyosida musulmonlar s'ezdi chaqirildi, unda xalqlarning muxtoriyatga qat'iy intilishi, oʻz urf-odatlarini, turmush tarzini himoya qilishi aytili;

Bu manfaatlar ifodachisi - Turkiston musulmonlari markaziy Shoʻrosi tashkil etildi. Turkiston jamoatchiligi, ayniqsa uning ilgʻor qismi tomoilidan Milliy markaz sifatida tushunildi. Taraqqiyparvarlar (jadidlar oʻzlarini shunday deb atardilar) chorizmning qarshiligini bartaraf etib, jismoniy jihatdan yoʻq qilib yuborish taxdidiga ham qaramasdan, oʻz ma'rifatparvarlik faoliyatidan qaytmadilar, tabiiy fanlar asoslari oʻqitiladigan yangi usul maktablari tarmoqlarini ochib, gazeta va jurnallar nashr etdilar, chop qilingan mahsulotlarni tarqatib, oʻzlarining badiiy asarlari asosida xalq ommasini bilan aloqani yoʻlga qoʻyib, ana shu aloqa vositalarini mustahkamladilar, xalqda taraqqiyot, ilm sari intilishni uygʻotdilar, bularni butun insoniyat hayoti bilan bogʻladilar.

XULOSA:

Turkistonning ijtimoiy hayot maydoniga madaniy-ma'rifiy harakat sifatida kelgan va oʻz oldiga eski maktab ta'limini isloh qilishni maqsad etib qoʻygan jadidchilik XX asrning boshlarida keng ijtimoiy harakat tarzida shakllandi. Jadidchilik turli tabaqalardan chiqqan fuqarolarni vujudga kelayotgan yosh milliy ziyolilar namoyandalarini, musulmon ruhoniylari ilgʻor unsurlarini, savdogarlarni, diniy maktablar muallimlari va talabalarini, mayda amaldorlarni, ilgʻor noshirlar, yozuvchilar, jurnalistlar va boshqalarni oʻz saflarida birlashtirdi. Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Fayzulla Xoʻjaev, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xoʻjaev, Munavvar Qori, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Tavallo jadidlarning eng taniqli namoyandalari edi. Jadidlarning "Turon" gazetasida xotin-qizlar maktabini ochish va ularni ijtimoiy hayotga jalb etish zaruriyati haqida soʻz borgan maqolani tanqid qilib, jurnal uning muallifiini xudo

yo‘lidan toyganlikda ayblaydi. Jurnal ayol kishi ayoligicha qolishi kerak va uni erkakka tenglashtirish aqlsizlikdir deb yozadi. Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Turkiston xalqi bu davrlar mobaynida judayam bir murakkab tarixiy voqealarga boy bo‘lgan davrni o‘z boshidan kechirgan. Turkiston chor Rossiyasi tuzumining zulmi ostida qolgan bir paytda o‘lkada Taraqqiyparvar guruhlar paydo bo‘la boshlagan edi. Va bu holatni yuzaga chiqishini, paydo bo‘lishini chor Rossiyasi xohlamas va bu yo‘nalishning taraqqiyparvarlarini jazolar edi. Lekin Taraqqiyparvarlar xalqning g‘oyaviy jihatdan birlashishi va Turkiston xalqining azaliy orzusini amalga oshirish g‘oyalari ostida nazarga tusha olgan edi. Xulosa o‘rnida yana shuni aytishimiz zarurki, Turkiston tuprog‘ini, Turkiston o‘lkasini, zaminini Yaratganning o‘zi ham alohida mehr va ihlos ila bino qilgan, desak mubolag’a bo‘lmaydi. Chunki, bu muqaddas zaminda kamol topgan yuzlab buyuk zotlar dahosi butun dunyo ma’naviyati va madaniyatini charog‘on etib turgani bejiz emas, albatta.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.
–Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.:O‘zbekiston, 2017.
2. Азамхўжаев.С, Туркистон бирлиги учун. –Ўзбекистон.: “Фан”.1995. –15.б.
3. Жўраев.М., Нуриллин.Р., Камолов. Ўзбекистон мустамлалачилиги даврида. –Т.:”Шарқ”, -2000.
4. Зоҳидов.А, 1913-1914 йилларда Тўғоннинг Марказий Осиёга илмий сафари. Т.: “Фан”. 1995. –76.б.
5. Ражабов.Қ., Хайдаров. М. Туркистон тарихи. –Т.:Университет. 2002.
6. Kochetov E. Development strategy: geo-economic model // Security of Eurasia. - 2000. - N 1 (January - June). - pp.107-146.
7. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.
8. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993
9. Vol. 2, Issue 2. May. (2023) 150 www.birunijournal.uz
10. 9. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA

YONDASHUVLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 9-14.

11. 10. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 25), 363-373.

12. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 451-455.

13. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНING АҲАМИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 864-871.

14. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 1477-1483.

15. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА КОНФУЦИЙ ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 26), 613-621.

16. Sulaymonov, J. B. (2019). Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar. Falsafa va huquq jurnali, 42-45.

17. Sulaymonov, J. B. (2020). Vzgl'yadi Abdurrahmana ibn Xalduna o razvitiya obshchestva i sivilizatsii. Mejdunarodniy nauchno-prakticheskiy jurnal" Ekonomika i sotsium, 12, 79.

18. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИДА “АСАБИЙЯ” КАТЕГОРИЯСИ ТАҲЛИ. Academic research in educational sciences, 3(6), 719-726.

19. Сулаймонов, Ж. (2018). Идеи географического детерминизма во взглядах Ибн Халдуна. Востоковедения, 4(4), 108-111.

20. Сулаймонов, Ж. (2020). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ЖАМИЯТ ВА ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ. Экономика и социум, (12-2 (79)), 163-167

QONUN QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING ROLI

Qurbonova Sevara

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada qonun chiqarish jarayonida jamoatchilikning ishtiroki, uning ahamiyati, shakllari va samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, demokratik jamiyatda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishning huquqiy mexanizmlari o‘rganilgan. Mavzuga doir xalqaro tajribalar va O‘zbekiston amaliyoti misolida muammo va imkoniyatlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qonun chiqarish, jamoatchilik ishtiroki, “Regulation.gov.uz” sayti, “Meningfikrim.uz” portali, takliflar.


Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda qonunlar qabul qilish jarayoning ochiqligi, shaffofligi va jamoatchilik ishtirokiga tayangan holda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik ishtiroki fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish shakli bo‘lib, u qonunlarning sifatini oshirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, jamiyat ehtiyojlarini hisobga olish va davlat hokimiyatining legitimligini mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Demokratik tizimda xalq suvereniteti tamoyili asosida fuqarolar davlat hokimiyati shakllanishi va faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega. Jamoatchilik ishtiroki fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishini ta’minlaydi, davlat hokimiyati organlarini xalq manfaatlariga xizmat qilishga undaydi. Fuqarolarni qonun chiqarish jarayoniga jalb etilishi ularning siyosiy irodasini ifoda etish va davlat qarorlarining ijtimoiy asosini mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi.

Qonunlarni qabul qilishda demokratik tamoyillar ancha kuchaytirildi. Xususan, **yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 98-moddasi** ya’ni qonunchilik tashabbusi subyektlari doirasi kengaytirildi. Endilikda saylov huquqiga ega bo‘lgan yuz ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolarimiz ham o‘z qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga kiritishga haqlidirlar¹.

Shuningdek, **O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonun 20-moddasiga** binoan jismoniy va yuridik shaxslar normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash to‘g‘risidagi takliflarini tegishli davlat organlariga kiritishga haqli².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasi : <https://lex.uz/docs/-6445145>

² O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjarlar to‘g‘risida”gi Qonun - <https://lex.uz/docs/-5378966>



Fuqarolar nafaqat qonun qabul qilishda o‘z tashabbuslarini bildirishga, balki uning qabul qilinishida ham fikr bildirish huquqiga ega. **“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra** normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari jamoatchilik nazoratidan o‘tkaziladi. Unga ko‘ra

ishlab chiquvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini uni qabul qiluvchi organga kiritishdan oldin jamoatchilik nazoratidan o‘tkazish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga belgilangan tartibda joylashtiradi. Ishlab chiquvchi muhokama uchun o‘n besh kundan kam bo‘lmagan muddat belgilaydi. Muhokama davrida jamoatchilikdan kelib tushgan fikr-mulohaza va takliflarni ishlab chiquvchi inobatga olib, o‘z loyihasini takliflar asosida takomillashtiradi. Biroq taklif, fikr-mulohazalar rad etilgan taqdirda ishlab chiquvchining buning sababini asoslantirishi lozim bo‘ladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi yakunlari bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohaza va (yoki) takliflar ko‘rib chiqiladi hamda natijalari ko‘rsatilgan holda tegishli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga (huquqiy ekspertiza uchun) va normativ-huquqiy hujjat qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan organga (ko‘rib chiqish uchun) taqdim etiladi³.

So‘ngi yillarda **“Regulation.gov.uz”** va **“Meningfikrim.uz”** kabi platformalar orqali qonun loyihalari yuzasidan taklif va mulohazalar bildirish amaliyoti keng rivojlanmoqda.

Regulation.gov.uz sayti – bugungi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari davrida mamlakatimiz har bir fuqarosiga davlat boshqaruvida, jumladan huquq ijodkorligida ishtirok etish uchun yaratilgan imkoniyat namunalaridan biri hisoblanadi. Sayt 2018-yil 1-martdan ishga tushirilgan bo‘lib, asosiy maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga qonun hujjatlari loyihalarini ko‘rib chiqish, fikr-mulohaza va takliflar bildirish imkoniyatini berishdir.

³ O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun - <https://lex.uz/docs/-5378966>

Loyiga kirish va unda izoh qoldirish juda ham oson. Asosiy sahifaga kirishingiz bilan muhokamaga qo‘yilgan loyihalar ro‘yxati beriladi. O‘zingizni qiziqitirgan istalgan hujjat loyihasi bilan tanishib chiqib, “Fikr va mulohazalar qoldirish” tugmachasi orqali o‘z fikr va taklifingizni yozib qoldirishingiz mumkin.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini demokratlashtirish, shuningdek fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Jumladan, fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati va vakillik organlari faoliyatining ochiqqligini ta’minlash hamda qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo‘lishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston fuqarolari uchun rasmiy jamoaviy murojaatlar portali sifatida 2018-yil 20-aprelda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan **”Meningfikrim.uz” portali** ham ishga tushirilgan.

Portal “Regulation.uz” saytidan farqli hisoblanib, unda ma’lum hujjatlarga faqat fikr bildirilmaydi, balki fuqarolar portal orqali davlat va jamiyat ahamiyatiga molik muhim masalalar yuzasidan qonunchilikka takliflarini elektron jamoaviy murojaat shaklida yuborishlari mumkin. yuborilgan murojaatlar moderator tomonidan tekshirilgach, portalda e’lon qilinadi. Murojaat zarur miqdorda, ya’ni Oliy Majlis palatalari tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun fuqarolar tomonidan o‘n mingta, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i kengesi, Xalq deputatlar kegashi viloyatlar va Toshkent Shahar kengashiga yuborilgan murojaatlar besh mingta, Xalq deputatlar tuman (Shahar) kengashi tomonidan ko‘rib chiqilish uchun mingta ovoz to‘plashi lozim. Ovoz berish jarayoni murojaat berilgan kundan boshlab 90 kun davom etadi. Yetarli miqdorda ovoz olgan murojaatlar tegishli organlar tomonidan ko‘rib chiqilib,


60 kun ichida murojaat bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Xulosa

o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish yo‘lida juda ko‘p islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqorida fikr

bildirilgan elektron tizimlar ham gapimizning yaqqol isboti bo‘lib, ular qonun hujjatlarini qabul qilishda fuqarolar ham o‘z fikr va takliflarini bera olish



imkoniyatini osonlashtirmoqda. Biroq ularni yaqindagina ishga tushirilgan deya olmasakda, hali hanuz aholining ko‘pchiligi ulardan bexabar. Shu boisdan, aholi o‘rtasida ularning huquqlarini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibotlar o‘tkazish foydadan holi bo‘lmas edi, ehtimol. Axir hozir texnika taraqqiyoti asri. Zamonaviy rusmli telefon ishlatmaydigan insonlar chekka qishloqlarda ham kamayib ketgan.

Bundan tashqari, sayt ham portal ham ochiq va shaffof ishga tushirilgan bo‘lib, har kim undagi jarayonlarni bevosita kuzatib turish imkoniyatiga ega. Biroq uni yanada shaffoflashtirish lozimdir?

Masalan, “Meningfikrim.uz” portaliga kiritilgan murojaatlar uni vakolatli organlar tomonidan ko‘rib chiqib, tegishli qarorlar qabul qilish bosqichigacha yaxshi ishlangan. Biroq undan keying bosqich boshqa fuqarolar uchun mavhumligicha qolmoqda. Shuning uchun, tegishli organlar portalni takomillashtirgan holda unga qarorning natijasini ham yuklash funksiyasini yaratishi lozim. Bu orqali murojaatni qo‘llab-quvvatlaganlarda ham, boshqa fuqarolarda ham qaror shunchaki qog‘ozda qolib ketmadimikan degan o‘yga o‘rin qolmas edi.

Zerokim, mamlakatimiz har bir fuqarosi demokratik jamiyat tarafdoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonun
- 3) Lex.uz – sayti.
- 4) Regulation.gov.uz – sayti.
- 5) Meningfikrim.uz – portali.
- 6) Kun.uz – sayti.

**SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB, ARRALI JINLASH
MASHINASINING ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH
ORQALI ENERGIYA TEJAMKOR KONSTRUKSIYASINI ISHLAB
CHIQISH
USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TO IMPROVE THE ENERGY-
EFFICIENT DESIGN OF THE WORKING CHAMBER OF A SAW GIN
MACHINE**

Nosirov Xasanbek Murod o‘g‘li

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti,
doktorant

Abstract: This paper explores the application of Artificial Intelligence (AI) in optimizing the design of the working chamber of saw gin machines to increase energy efficiency. AI-based technologies such as genetic algorithms and real-time monitoring allow for significant reduction in energy consumption and improved fiber quality in cotton processing.

Keywords: Artificial Intelligence, Saw Gin Machine, Energy Efficiency, Genetic Algorithms, Real-Time Monitoring

Kirish

Paxta tolasi — O‘zbekiston iqtisodiyotidagi muhim xom ashyolardan biri bo‘lib, uning qayta ishlash jarayonida energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish dolzarb masaladir. Arrali jinlash mashinalari paxta tolasini tozalashda asosiy vosita sifatida ishlatiladi, ammo ularning ishchi kamerasining konstruksiyasi ko‘pincha yuqori energiya sarfi va mexanik yo‘qotishlar bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Sun‘iy intellekt (SI) va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bu muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu maqola SI yordamida Arrali jinlash mashinasining ishchi kamerasini takomillashtirish va energiya tejamkor konstruksiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Arrali jinlash mashinalarining hozirgi holati

Arrali jinlash mashinalari paxta tolasini chigitdan ajratishda ishlatiladi. Ishchi kamera — bu jarayonning yuragi bo‘lib, unda arra disklari paxta tolasi ilib olib chigitdan ajratadi. Ammo hozirgi konstruksiyalarda quyidagi muammolar mavjud:

- **Yuqori energiya sarfi:** Ishchi kameraning aerodinamik va mexanik yo‘qotishlari tufayli energiya samaradorligi past.

- **Tola sifatining pasayishi:** Noto‘g‘ri sozlangan arra disklari yoki kameraning konstruksiyasi tolada mikroshikastlanishlarga olib keladi.

• **Eskirgan texnologiyalar:** Ko‘pgina mashinalar 20-asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan konstruksiyalar asoslanadi va zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Sun’iy intellektdan foydalanish

Sun’iy intellekt arrali jinlash mashinasining ishchi kamerasini optimallashtirishda bir nechta yo‘nalishda qo‘llanilishi mumkin:

1. Ishchi kameraning konstruksiyasini optimallashtirish

SI algoritmlari, xususan, genetik algoritmlar va neyron tarmoqlar yordamida ishchi kameraning geometrik shakli va o‘lchamlari optimallashtiriladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

• **Ma’lumotlar tahlili:** Paxta tolasi va chigitining fizik-mexanik xususiyatlari, shuningdek, hozirgi mashinalarning ish parametrlariga oid ma’lumotlar to‘planadi.

• **Simulyatsiya:** SI yordamida ishchi kameraning 3D modellari yaratiladi va CFD (Computational Fluid Dynamics) simulyatsiyalari orqali aerodinamik oqimlar tahlil qilinadi.

• **Optimallashtirish:** Genetik algoritmlar yordamida kameraning shakli, arra diskrlarining joylashuvi va havo oqimining yo‘nalishi kabi parametrlar energiya sarfini minimallashtirish maqsadida sozlanadi.

2. Real vaqtda monitoring va boshqaruv

SI asosidagi sensorlar va IoT (Internet of Things) texnologiyalari ishchi kameraning ish jarayonini real vaqtda monitoring qilish imkonini beradi:

• **Sensorlar:** Ishchi kamera o‘rnatilgan tebranish, harorat va havo oqimi sensorlari ma’lumotlarni yig‘adi.

• **Ma’lumotlarni tahlil qilish:** Mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida sensorlardan olingan ma’lumotlar tahlil qilinadi va optimal ish rejimlari aniqlanadi.

• **Avtomatik sozlash:** SI tizimi mashina parametrlarini (masalan, arra aylanish tezligi yoki havo oqimi) avtomatik ravishda sozlaydi, bu esa energiya sarfini kamaytiradi.

3. Paxta tolasi sifati

SI yordamida paxta tolasining sifati (uzunligi, mustahkamligi, ifloslik darajasi) jarayon davomida nazorat qilinadi. Bu uchun:

• **Tasvirni tahlil qilish:** Yuqori aniqlikdagi kameralar va tasvirni qayta ishlash algoritmlari tolada shikastlanishlarni aniqlaydi.

• **Prognostik modellar:** Neyron tarmoqlar yordamida tolaning yakuniy sifati bashorat qilinadi va ishchi kameraning parametrlariga mos ravishda sozlanadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalar

Energiya tejamkor konstruksiyani ishlab chiqishda quyidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi:

• **3D bosib chiqarish:** Ishchi kameraning prototiplarini tez va arzon ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

• **Karbon tolali materiallar:** Kameraning og‘irligini kamaytirish va mexanik mustahkamlikni oshirish uchun qo‘llaniladi.

• **Aqlli sensorlar:** IoT asosidagi sensorlar real vaqtda ma’lumotlarni uzatadi va SI tizimlari bilan integratsiyalashadi.

• **Energiya qayta tiklash tizimlari:** Ish jarayonida yo‘qotilgan issiqlik va kinetik energiyani qayta ishlatish uchun maxsus tizimlar o‘rnatiladi.

Natijalar va Afzalliklar

SI va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda takomillashtirilgan Arrali jinlash mashinasining ishchi kamerasi quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

• **Energiya samaradorligi:** Energiya sarfi 20-30% ga kamayadi.

• **Tola sifati:** Paxta tolasining shikastlanishi 15% ga kamayadi, bu esa mahsulotning bozor qiymatini oshiradi.

• **Ishlab chiqarish xarajatlari:** Kam energiya sarfi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tufayli umumiy xarajatlar 25% ga qisqaradi.

• **Ekologik samaradorlik:** Energiya tejash va materiallardan samarali foydalanish uglerod chiqindilarini kamaytiradi.

Xulosa

Sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish Arrali jinlash mashinalarining ishchi kamerasini takomillashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. SI asosidagi dizayn optimallashtirish, real vaqtda monitoring va sifat bashorati kabi yondashuvlar energiya tejamkor va samarali konstruksiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu nafaqat paxta tolasini qayta ishlash jarayonini yaxshilaydi, balki O‘zbekistonning paxta sanoatida global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Paxta tozalash sanoati bo‘yicha hisobotlar, 2024.

2. Smith, J., & Lee, K. (2023). Artificial Intelligence in Industrial Design Optimization. Journal of Advanced Manufacturing.

3. Zhang, L., et al. (2024). IoT and Machine Learning in Cotton Processing. International Journal of Textile Engineering.

RUS MUSTAMLAKASI DAVRI XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONNING SIYOSIY,IQTISODIY-IJTIMOIIY VA MADANIY- MA'NAVIY XAYOTIDAGI TARIXIY O'ZGARISHLAR

Husen Xayrulloevich Jo'rayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti "Islom tarixi va
manbashunosligi,falsafa"kafedrası dotsenti,tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

husaynbuxoriy@mail.ru

Muhammad Ali Yo'ldoshev Salohiddin o'g'li

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuruduk fakulteti Islom tarixi va manbashunosligi
yo'nalishi 5.1.ITM-21 guruh talabasi

yoldoshevmuhammadali97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu kurs ishida XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston hududini bosib olishi va bu mustamlaka davrining mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy-ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilamiz.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ, ЭКОНОМИЧЕСКОЙ, СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНО-КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА В ПЕРИОД РУССКОЙ КОЛОНИЗАЦИИ

Аннотация:В данной курсовой работе анализируется захват территории Туркестана Российской империей во второй половине XIX века и влияние этого колониального периода на политическую, экономическую, социальную и духовно-культурную жизнь региона.

KIRISH:

Turkiston tarixida XIX asrning ikkinchi yarmi o'ziga xos murakkab va muhim davr bo'lib, bu davr Rossiya imperiyasining bosqinlari va mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqaning strategik va iqtisodiy ahamiyati Rossiyani bu hududni egallashga undadi. Natijada, Turkiston xalqlarining asrlar davomida shakllangan siyosiy mustaqilligi barham topdi, hayotning barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu kurs ishida aynan shu davr voqealari tahlil qilinadi, Rossiya hukmronligining Turkiston siyosiy tuzumi, iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy qatlamlar va madaniy-ma'naviy hayotiga bo'lgan ta'siri yoritib beriladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Turkistonning XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va

madaniy-ma’naviy hayotidagi o’zgarishlarni o’rganish — tarixiy jarayonlarning chuqur va ko’p qirrali tahlilini talab qiluvchi masalalardan biridir.

XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston xalqlari uchun tarixiy burilish davri bo’ldi. Aynan shu davrda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoga harbiy yurishlar orqali kirib keldi va bu hududni o’z mustamlakasiga aylantirdi. Bosib olingan hududlar ustidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, ruslar o’z siyosiy va iqtisodiy manfaatlari asosida boshqaruv tizimini joriy etdilar. Bu esa o’z navbatida Turkiston hayotining barcha sohalarida – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma’naviy yo’nalishlarda tub o’zgarishlarga sabab bo’ldi.

Siyosiy o’zgarishlar avvalo, mahalliy xonliklarning (Qo’qon, Buxoro va Xiva) mustaqilligiga barham berilishi orqali boshlandi. Rossiya imperiyasi harbiy kuch bilan bu xonliklarni mag’lub etdi va ularning o’rnida mustamlaka boshqaruvini o’rnatdi. Turkiston general-gubernatorligi 1867-yilda tashkil etildi va bu orqali markazdan boshqariladigan byurokratik tizim yo’lga qo’yildi. Mahalliy boshqaruvchilar chetlashtirildi, ularning o’rniga rus harbiy amaldorlari tayinlandi. Aholi ustidan nazorat kuchaydi, harbiy-grajdanskiy boshqaruv tuzumi mustahkamlandi.

Iqtisodiy sohada ham Rossiya mustamlakachiligi o’z izini qoldirdi. Birinchidan, Turkiston Rossiya imperiyasi uchun xomashyo bazasiga aylandi. Ayniqsa, paxta yetishtirish asosiy yo’nalishga aylandi, bu esa yer-suv munosabatlarida katta o’zgarishlarni yuzaga keltirdi. Paxta ekinlari uchun suvli yerlar tortib olindi, yangi irrigatsiya tizimlari qurildi, lekin bu asosan Rossiya manfaatlariga xizmat qilardi. Mahalliy hunarmandchilik, ichki savdo va o’ziga xos iqtisodiy tuzilmalar inqirozga uchradi. Savdo asosan Rossiya bilan bir tomonlama yo’nalishda olib borildi. Soliq tizimi ham tubdan o’zgartirildi: aholiga yangi soliqlar yuklandi, bu esa kambag’al qatlamlarning ahvolini og’irlashtirdi.

Ijtimoiy hayotda esa sinfiy tabaqalanish chuqurlashdi. Rossiyaliklar va rus muhojirlari Turkiston jamiyatining ustki qatlamiga aylantirildi. Mahalliy aholining siyosiy va ijtimoiy huquqlari cheklab qo’yildi. Yangi ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa, savdogar, yer egalari va sanoatchilar qatlamining shakllanishi kuzatildi. Bu esa mintaqada yangi ijtimoiy kuchlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Mahalliy aholining turmush tarzi, odatlari va qadriyatlariga bosim o’tkazila boshlandi.

Madaniy-ma’naviy sohada ham jiddiy o’zgarishlar ro’y berdi. Rossiya imperiyasi bu sohada ham o’z ta’sirini kuchaytirishga intildi. Rus maktablari, kutubxonalar, tipografiyalar ochildi. Ortodoks pravoslav cherkovlari qurildi, rus tili davlat idoralarida va ta’lim muassasalarida majburiy tilga aylandi. Shu bilan birga, jadidchilik harakatining shakllanishi ham aynan shu davrga to’g’ri keladi. Mustamlakachilik bosimiga javoban, milliy o’zlikni anglash va yangicha ta’lim, madaniyat yo’lini izlash kuchaydi. Bu harakat keyinchalik milliy uyg’onish

jarayoniga asos soldi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya imperiyasining Turkistonga bostirib kirishi natijasida mintaqadagi siyosiy mustaqillik butunlay yo‘qotildi. Qo‘qon xonligi 1876-yilda tugatilib, to‘liq imperiyaga qo‘shib olindi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa nomigagina mustaqil bo‘lgan yarim mustamlakalar maqomida faoliyat yuritdi. 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining janubdagi strategik hududini boshqaruvchi markazga aylandi. Barcha muhim lavozimlarga rus harbiylari va amaldorlari tayinlandi. Mahalliy elita esa ijtimoiy-siyosiy jarayondan chetlashtirildi. Siyosiy jihatdan eng muhim o‘zgarishlardan biri bu – avvalgi sharqona boshqaruv tizimining, ya’ni xonliklar tomonidan yuritilgan diniy-huquqiy tartiblarning bekor qilinib, ularning o‘rniga Rossiya imperiyasining yuridik va ma’muriy qonun-qoidalarining joriy qilinishi bo‘ldi. Bu holat jamiyatning ichki muvozanatini izdan chiqardi, milliy elitani zaiflashtirdi va aholining siyosiy ongini shakllantirish jarayoniga jiddiy to‘siq bo‘ldi.

Iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar

Rossiya imperiyasi Turkistonni xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar uchun bozor sifatida ko‘rdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu iqtisodiy yondashuv mintaqadagi qishloq xo‘jaligi va sanoat tuzilmasini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, paxta yetishtirish asosiy yo‘nalishga aylantirildi. Paxta plantatsiyalarining kengaytirilishi mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Chunki oldin yirik hajmda yetishtirilgan bug‘doy, arpa, tariq kabi oziq-ovqat ekinlari maydoni qisqarib bordi. Rossiyaliklar tomonidan qurilgan temir yo‘l tarmoqlari (masalan, O‘rta Osiyo temir yo‘li) bir qarashda mintaqani rivojlantirishga xizmat qilgandek tuyuladi. Ammo amalda bu yo‘llar asosan xom ashyoni tashish va harbiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan edi. Yangi infratuzilma xalq manfaatlaridan ko‘ra, imperiyaning iqtisodiy-siyosiy nazoratini kuchaytirish uchun xizmat qildi. Mahalliy aholi esa iqtisodiy jihatdan tobora ko‘proq qaram holga tushdi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi tomonidan kiritilgan yangi soliq tizimi (chaqim solig‘i, yer solig‘i va boshqalar) kambag‘al aholining og‘ir ahvolini yanada yomonlashtirdi. Aholi orasida norozilik kuchaydi va ayrim hududlarda mahalliy noroziliklar, qo‘zg‘olonlar vujudga keldi (masalan, Andijon qo‘zg‘oloni – 1898).

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar

Ijtimoiy hayotdagi eng muhim o‘zgarish bu — jamiyatning qatlamlarga bo‘linishining kuchayishi bo‘ldi. Rossiyaliklar va ularning yordamchilari ijtimoiy piramidaning eng yuqori pog‘onasiga joylashdi. Mahalliy xalq esa ikkinchi darajali fuqaro maqomida bo‘lib qoldi. Rus aholisi uchun alohida posyolkalar, shifoxonalar,

maktablar, bozorlari tashkil etildi, mahalliy aholi esa bularning deyarli hech biridan foydalana olmadi. Yangi ijtimoiy munosabatlar natijasida mintaqada zamonaviy savdogarlar, dehqonlar va ziyolilar qatlamlari shakllandi. Ular orasida jadidchilik harakati, ya’ni zamonaviy tafakkurga asoslangan islohotparvarlik g’oyalari ildiz ota boshladi. Bu ijtimoiy harakat Turkistonda milliy uyg’onishning boshlanishiga asos soldi.

Madaniy-ma’naviy hayotdagi o’zgarishlar

Rossiya imperiyasi Turkistonda madaniy-ma’naviy sohada ham o’z siyosatini olib bordi. Bu esa ikki tomonlama xarakterga ega bo’ldi. Bir tomondan, yangi tipdagi rus maktablari, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil etildi. Bu o’z navbatida ba’zi zamonaviy bilimlarning kirib kelishiga xizmat qildi. Ammo bu ta’lim muassasalari ruslashtirish, ortodoks e’tiqodini singdirish va imperiya g’oyalarini targ’ib qilish vositasi bo’lib xizmat qilgan. Ikkinchi tomondan, mahalliy diniy va milliy qadriyatlarga nisbatan bosim kuchaydi. Islom dini va uning institutlari (masjid, madrasalar) nazoratga olindi. Diniy ruxsatsiz faoliyat yuritish taqiqlanib, muftiylar ham imperiya hukumati tasdig’i bilan tayinlanadigan bo’ldi. Shu bilan birga, o’zini millat va jamiyat taqdiriga daxldor deb bilgan yangi ziyolilar avlodi shakllana boshladi. Bu ziyolilar xalqni o’qitish, o’z tarixini bilishga da’vat qilish, milliy uyg’onish g’oyalarini ilgari surish bilan tanildi (Munavvarqori, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar).

XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkistonni mustamlaka qilib olishi mintaqaning barcha sohalarida tub o’zgarishlarga olib keldi. Siyosiy jihatdan, Turkistonning siyosiy mustaqilligi yo’qotildi va Rossiya imperiyasining to’liq nazorati o’rnatildi. Iqtisodiy sohada, yer va resurslar imperiya foydasiga ishlatilib, mahalliy dehqonlar va ishlab chiqaruvchilar eng yomon holatga tushdi. Ijtimoiy hayotda, yangi sinfiy tuzum shakllandi va xalqning qiyinchiliklari ortdi. Madaniy jihatdan, ruslashtirish jarayonlari kuchayib, mahalliy an’analar va diniy institutlarga qarshi siyosat olib borildi. Shu bilan birga, bu davrda milliy uyg’onish harakatlari boshlanib, kelajakda Turkiston xalqlarining ozodlik yo’lida kurashlarini kuchaytirdi. Demak, Rossiya mustamlakasi Turkistonni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o’z ta’siriga solgan bo’lsa-da, bu jarayonlar mahalliy xalqlarning kelajakdagi taraqqiyoti uchun ham zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, X. (2002). Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi va uning ta’sirlari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Shahrukh, T. (2010). Turkiston va Rossiya imperiyasi: Tarixiy tahlil va

ijtimoiy o‘zgarishlar. Samarqand: Samarqand Universiteti nashriyoti.

3. Zaripov, A. (2014). XIX asrda Turkiston: Siyosiy va ijtimoiy tarix. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

4. Maqsudov, F. (2007). Mustamlakachilik davri va Turkiston: Iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlar. Tashkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

5. Aliyev, T. (2015). Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi va uning iqtisodiy oqibatlari. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.

6. Davronov, S. (2018). Turkistonning madaniy hayoti va Rossiya ta’siri. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.

7. Rakhmanov, M. (2013). Siyosiy inqiroz va yangi ijtimoiy tuzum: Rossiya mustamlakasi ostidagi Turkiston. Tashkent: Uzbekiston Yuridik Akademiyasi nashriyoti.

IQTISODIY TERMINLARNING TAHLILI VA TARJIMA JARAYONIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLARI

Dilnoza Yuldasheva

Samarqand iqtisodiyot va servis institute o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri,
dotsent

Sayipbekov Ulug‘bek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot fakulteti IK-624 talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy atamalarni filologik nuqtainazardan o‘rganish masalalari yoritilgan. Xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi iqtisodiy kollokatsiyalar, ularning tarjima muammolari hamda semantik moslik jihatlari tahlil qilingan. Tilshunoslik va iqtisodiyot fanlari kesishmasidagi izlanishlar zamonaviy kommunikatsiya muhitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы изучения экономических терминов с филологической точки зрения. Особое внимание уделяется экономическим коллокациям на английском и узбекском языках, проблемам перевода и вопросам семантического соответствия. Исследования на стыке лингвистики и экономики имеют особое значение в современном коммуникативном контексте.

Annotation: This article explores the issues of studying economic terms from a philological perspective. Specifically, it addresses economic collocations in English and Uzbek, translation issues, and aspects of semantic equivalence. Research at the intersection of linguistics and economics holds particular significance in the modern communication environment.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy atama Kollokatsiya ,Semantik moslik Tarjima muammolari Filologik tahlil, Terminologiya ,Iqtisodiy diskurs Atamalarning ekvivalentligi, Lingvistik tafovutlar, Sinonimiya va kontekst, Tilshunoslik yondashuvi, Tarjimada uslubiy moslik, Atamalarni standartlashtirish, Ko‘p tillilik va tarjima Tarjimada pragmatik xatoliklar, Iqtisodiy matnlar tahlili Ixtisoslashgan tarjima.

Ключевые слова: Экономический термин, Коллокация, Семантическое соответствие, Проблемы перевода, Филологический анализ, Терминология, Экономический дискурс, Эквивалентность терминов, Лингвистические различия, Синонимия и контекст, Лингвистический подход, Стилистическое соответствие в переводе, Стандартизация терминов, Многоязычие и перевод, Прагматические ошибки в переводе, Анализ экономических текстов, Специализированный перевод.

Keywords: Economic term, Collocation, Semantic equivalence, Translation issues, Philological analysis, Terminology, Economic discourse, Term equivalence,

Linguistic differences, Synonymy and context, Linguistic approach, Stylistic equivalence in translation, Terminology standardization, Multilingualism and translation, Pragmatic errors in translation, Economic text analysis, Specialized translation

Atama (yoki termin) — bu muayyan ilmiy, texnik yoki ijtimoiy sohada aniq tushunchani ifodalovchi maxsus leksik birlikdir. Atamalar oddiy soʻzlardan farqli ravishda, maʼnosi qatʼiy, kontekstga bogʻliq boʻlmagan, koʻpincha xalqaro xususiyatga ega boʻlgan birliklar hisoblanadi. Lingvistik jihatdan atamalar quyidagi xususiyatlarga ega: Fonetik xususiyatlar: Atamalar fonetik jihatdan asosan kirishgan soʻzlar boʻlib, koʻplab hollarda xalqaro fonetik standartlarga yaqinlashgan boʻladi. Masalan, “bank”, “audit”, “marketing” kabi soʻzlar oʻzbek tiliga oʻzlashgan holda fonetik moslashuvga uchraydi.

Leksik xususiyatlar: Atamalar monosemantik boʻladi, yaʼni ular koʻp maʼnoli boʻlmaydi. Har bir termin faqat bitta aniq tushunchani bildiradi. Bu esa ularning ilmiy-texnik matnlardagi aniqligini taʼminlaydi.

Grammatik xususiyatlar: Atamalar odatda oʻz grammatik shaklida oʻzgarishga kam uchraydi, ayniqsa turlanmaydigan sohalarda (masalan, kimyo formulalari yoki xalqaro birliklarda). Shu bilan birga, ularning turdosh shakllari morfologik yasaladi: “iqtisod” iqtisodiy” “iqtisodiylik”.

Termin va soʻz oʻrtasidagi farq shundaki, har bir termin soʻz boʻlishi mumkin, lekin har bir soʻz termin emas. Soʻzlar umumiy maʼlumot berishi mumkin boʻlsa, atamalar faqat maʼlum doiradagi aniq tushunchalarni ifodalaydi.

Global iqtisodiy tizimda atamalar aniq maʼnoga ega boʻlishi kerak. Bunday atamalar xalqaro tashkilotlar, xususan Xalqaro Valyuta Jamgʻarmasi (IMF) va Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan rasmiy hujjatlarda qatʼiy belgilangan. Masalan, ingliz tilidagi “inflation rate” (inflyatsiya darajasi) atamasi butun dunyoda keng qoʻllaniladi, ammo uning oʻzgarishi va iqtisodiy holatga qarab taʼriflari farq qilishi mumkin. Inflyatsiya darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha oʻlchovlar bilan baholanadi. Shuningdek, “Gross Domestic Product (GDP)” (yalpi ichki mahsulot) atamasi ham, har bir mamlakatda oʻlchov va qiymat farqlariga ega boʻlishi mumkin, chunki iqtisodiy tizim va metodologiya har xil. Iqtisodiy kollokatsiyalar — bu atamalar va iboralar orasidagi oʻzaro bogʻliqlikdir, masalan, “global economy”, “market competition”, “supply and demand” kabi iboralar. Ular faqat soʻzlarning maʼnosiga bogʻliq boʻlmay, balki oʻzaro bogʻliq iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydi. Koʻplab xalqaro iqtisodiy tahlillarda “free market economy” kabi atamalar koʻrinadi. Bunday iboralar bir davlatda bozor erkinligini anglatgan holda ishlatilsa, boshqa bir davlatda bu atama bozorni erkinlashtirish jarayonining noaniq oqibatlarini bilan bogʻliq tarzda ishlatilishi mumkin. Misol uchun, AQShda

“fiscal policy” (moliyaviy siyosat) odatda davlatning iqtisodiy faollikni rag’batlantirish uchun qarorlar qabul qilishini anglatadi, lekin Yevropa davlatlarida bu atama ko‘proq soliq tizimlari va byudjet siyosatiga oid muammolar bilan bog‘liq ishlatiladi. Shu sababli, bu atamalarni to‘g‘ri tarjima qilishda faqat lug‘aviy ma’noga emas, balki ularning tarixiy va madaniy kontekstiga ham e’tibor qaratish zarur. Tarjima qilishda ko‘plab iqtisodiy atamalar, ayniqsa, internatsional kontekstga ega bo‘lgan so‘zlar semantik moslikni saqlashni talab qiladi. Masalan, “currency devaluation” (valyutaning qadrsizlanishi) iborasi bir mamlakatda iqtisodiy inqirozning belgisini bildirsa, boshqa bir mamlakatda bu atama valyuta siyosati va valyuta kursining o‘zgarishini anglatishi mumkin. Shuningdek, “trade liberalization” (savdo erkinlashtirish) atamasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda turlicha talqin etilishi mumkin, chunki bu jarayon har bir mamlakatning iqtisodiy strategiyasiga qarab o‘zgaradi. Bir misol sifatida, Yevropa Ittifoqining “single market” (yagona bozor) siyosati bilan bog‘liq atamalarni oling. Bu atamalar Yevropadagi o‘zgarishlar, masalan, tovarlar, xizmatlar va kapitalning erkin harakati kabi jarayonlarga mos keladi. Ammo, boshqa mamlakatlarda, masalan, Markaziy Osiyoda, bu atamalarni shunday tarjima qilish yoki tushuntirish kerakki, ular o‘sha mamlakatlarning iqtisodiy real sharoitlariga mos kelsin

Zamonaviy dunyoda til nafaqat aloqa vositasi, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni ifodalovchi qudratli vositaga aylangan. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasidagi matnlar hisobotlar, shartnomalar, yangiliklar, va ilmiy maqolalar o‘ziga xos terminologik qatlamga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri anglash va tarjima qilish filologik bilimlarni talab qiladi. Filologiya esa tilning chuqur strukturasini, semantik qatlamini va kontekstual ma’nolarini o‘rganadi. Shu sababli iqtisodiy atamalarni filologik jihatdan tahlil qilish, ularning ko‘p ma’noliligi, madaniy sharoitga bog‘liqligi va tarjimadagi muqobillarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir iqtisodiy atama — bu muayyan tarixiy va madaniy kontekstga ega tushuncha. Masalan, ingliz tilidagi “stock market” so‘z birikmasi o‘zbek tiliga “fond bozori” deb tarjima qilinadi. Biroq, bu atama o‘zbek iqtisodiy kontekstida hamma uchun tushunarli bo‘lmasligi mumkin, chunki bu tizim nisbatan yangi va cheklangan auditoriyaga ega. Shuning uchun tarjimada kontekstual izohlar yoki ekvivalent ifodalar zarur bo‘ladi. Iqtisodiy atamalarni tahlil qilishda tilning struktura va semantik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Iqtisodiy til — bu o‘ziga xos til bo‘lib, u asosan professional til, shuningdek, xalqaro aloqalarda muhim rol o‘ynaydi. Har bir iqtisodiy atama yoki ibora o‘ziga xos semantik tarkibga ega. Bunda ko‘pincha atamaning aniq yoki kengaytirilgan ma’nosi o‘zgaradi, u o‘ziga xos iqtisodiy jarayonni anglatishi mumkin. Masalan, “monetary policy” (pul siyosati) iborasi har xil mamlakatlarda turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin: AQShda bu ko‘proq markaziy bankning siyosatini anglatgan bo‘lsa,

Yevropada esa bu Yevropa Markaziy Bankining siyosatini bildiradi. Bu farq nafaqat iqtisodiy tizimlar, balki tilshunoslik va madaniyatlar o’rtasidagi farqni ham ko’rsatadi. Iqtisodiy atamalarni tarjima qilishda semantik moslik muammolari eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy atamalarning har bir tilga xos nuanslari bo’lishi mumkin, shuning uchun ularning to’g’ri tarjimasini nafaqat so’zma-so’z, balki tilning mazmunini, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstini hisobga olishni talab qiladi. Misol uchun, ingliz tilidagi “inflation” (inflyatsiya) so’zi o’zbek tiliga to’g’ri tarjima qilinsa-da, bu atama iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni ko’rsatayotganligi uchun ba’zi holatlarda uning talqini va tasnifi farq qiladi. Bundan tashqari, ko’p tilli kontekstda iqtisodiy atamalarni tarjima qilishda masalalar shundaki, atamaning asl ma’nosi, uning tarixiy o’zgarishi va tasavvuri turli mamlakatlarda o’zgarishi mumkin. Masalan, “capitalism” (kapitalizm) atamasi ingliz tilida iqtisodiy tizimning bir turini anglatadi, ammo bu atama turli madaniyatlar va tarixiy kontekstlarda farqli ma’nolarga ega bo’lishi mumkin.

Iqtisodiy kollokatsiyalar, ya’ni birgalikda ishlatiladigan so’zlar va iboralar, iqtisodiy tilning o’ziga xos xususiyatlaridan biridir. Kollokatsiyalarni tahlil qilishda har bir atamaning ma’nosi, ular o’rtasidagi semantik bog’liqlik va kontekstual talqinlar muhimdir. Masalan, “market demand” (bozor talabi), “trade policy” (savdo siyosati), “tax reform” (soliq islohotlari) kabi kollokatsiyalar har bir mamlakatda turlicha ishlatilishi mumkin. Har bir kollokatsiyaning o’ziga xos semantik va ijtimoiy konteksti bo’lishi sababli, tarjimon bu kollokatsiyalarni to’g’ri va aniq tarzda ifodalash uchun ularning semantik va pragmatik jihatlarini hisobga olishi kerak.

Global iqtisodiy tizimda ishlatiladigan atamalar ko’pincha yagona va universal tushunchalarni ifodalaydi, lekin lokal kontekstda bu atamalarni tushunish va qo’llash ko’pincha farq qiladi. Misol uchun, “welfare state” (farovonlik davlati) atamasi Yevropada ko’plab davlatlarda ishlatiladi, lekin bu tushuncha rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha talqin etiladi. O’zbek tilida esa bunday tushuncha, ko’proq ijtimoiy yordam tizimi va davlatning ijtimoiy roli bilan bog’liq tarzda tushuniladi. Iqtisodiy matnlarda ko’p uchraydigan so’z birikmalari — kollokatsiyalar — tarjimada eng murakkab jihatlardan biridir. Masalan, “currency depreciation” (valyutaning qadrsizlanishi) yoki “economic downturn” (iqtisodiy pasayish) kabi iboralar ma’lum bir kontekstda ishlatiladi va ularning so’zma-so’z tarjimasini yetarli bo’lmisligi mumkin. O’zbek tilidagi muqobillarni tanlashda nafaqat leksik moslik, balki semantik moslik ham hisobga olinadi.

Iqtisodiy atamalarni filologik yondashuvda tahlil qilish nafaqat so’zma-so’z tarjima, balki ularning kontekstual, madaniy va iqtisodiy mohiyatini tushunishning zarurligini ko’rsatadi. Bu nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki iqtisodiy aloqalar va xalqaro savdoda aniq va samarali kommunikatsiyani ta’minlash uchun ham

muhimdir. Global iqtisodiy jarayonlar va lokal madaniyat o’rtasidagi bog‘liqlikni to’g’ri talqin qilish, muvaffaqiyatli tarjima va kommunikatsiyaning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shakirov, B. “Iqtisodiy atamalar va ularning o’zbek tilidagi ekvivalentlari”. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Shodmonov, F. “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Abdullayev, T. “O’zbek tilida iqtisodiy terminologiya va uning tarjimasi”. – Toshkent: O’qituvchi, 2015.
4. Rizaev, Z. “Ingliz tilidan o’zbek tiliga iqtisodiy atamalarni tarjima qilish usullari”. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Askarov, A. “Tilshunoslikda semantik tahlil: Nazariya va amaliyot”. – Toshkent: Adabiyot, 2017.
6. Yuldasheva, D. B. (2021). The intensification of learning Uzbek language using Moodle technology. *Psychology and Education*, 58(2), 224–230.
7. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. *Science and World*, (2)(90), 76.
8. Yuldasheva, D. B. (2021). Organization of terms as a factor for the improvement of economic sciences. *Euroasian Research Bulletin*, 2, 237.

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF THE SPEECH ACT OF REQUESTING IN ENGLISH AND UZBEK

Tojiyeva Farangis Kamolovna

TSUULL., 1st year master’s degree student of Comparative linguistics, linguistic
translation: English

farangistojiyeva@gmail.com

Annotation: This article analyzes the communicative and pragmatic features of the speech act of requesting in English and Uzbek. The study examines the linguistic forms of this speech act, its p with cultural context, and its impact on social relationships between interlocutors. In English, requests are often made using modal verbs and mitigating expressions, whereas in Uzbek, honorific forms and politeness expressions play a dominant role. Additionally, the article explores the pragmatic differences in requesting based on approaches such as Brown and Levinson’s face-saving theory and Searle’s speech act theory. The results indicate that request strategies in both languages are closely linked to cultural values and social norms, highlighting their significance in intercultural communication.

Keywords: Requesting, speech act, communicative pragmatics, politeness strategies, intercultural communication, English, Uzbek, linguistic features, pragmatic aspects, politeness principle, modal verbs, social relationships, indirect request, direct request, face-saving theory, language and culture.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “ILTIMOS” NUTQ AKTI IFODALANISHINING KOMMUNIKATIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Tojiyeva Farangis Kamolovna

ToshDO‘TAU Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik: ingliz tili
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

farangistojiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida iltimos qilish nutq aktining kommunikativ va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu nutq aktining lingvistik shakllari, madaniy kontekst bilan bog‘liqligi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ta’siri o‘rganiladi. Ingliz tilida iltimos qilish ko‘proq modallik fe’llari va yumshatuvchi ifodalar orqali amalga oshirilsa, o‘zbek tilida hurmat shakllari va muomala odo biga oid iboralar ustunlik qiladi. Shuningdek, maqolada Brown va Levinsonning yuz saqlash nazariyasi,

Searle’ning nutq aktlari nazariyasi kabi yondashuvlar asosida iltimos qilishning pragmatik farqlari yoritiladi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, har ikki tilda iltimos qilish strategiyalari madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar bilan uzviy bog’liq bo’lib, bu jihatlar madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: Iltimos qilish, nutq akti, kommunikativ pragmatika, xushmuomalalik strategiyalari, madaniyatlararo muloqot, ingliz tili, o’zbek tili, lingvistik xususiyatlar, pragmatik jihatlar, hurmat tamoyili, modallik fe’llari, ijtimoiy munosabatlar, bilvosita iltimos, bevosita iltimos, yuz saqlash nazariyasi, til va madaniyat.

Kirish

Til – insonlarning o’zaro muloqot vositasi bo’lib, undagi nutq aktlari pragmatik jihatdan o’rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iltimos nutq akti esa xushmuomalalik qoidalariga asoslangan holda ifodalanib, har bir tilning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz va o’zbek tillarida iltimos qilishning kommunikativ va pragmatik jihatlarini tahlil qilish muloqot strategiyalari va madaniyatlararo tafovutlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Asosiy qism

Nutq aktlari tilshunoslik va pragmatikaning asosiy tadqiqot yo’nalishlaridan biri bo’lib, uning rivojlanishiga J. Ostin, J. Searle, P. Grays, G. Lakoff, J. Levinson kabi olimlarning ishlari katta hissa qo’shgan. Nutq faqatgina axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki u orqali ma’lum harakat bajariladi. Nutq aktlarini shu jihatdan uchga ajratish mumkin:

Lokutiv akt – oddiy ma’no bildiruvchi gaplar.

Illokutiv akt – tinglovchiga ta’sir o’tkazuvchi gaplar (buyruq, iltimos, maslahat).

Perlokutiv akt – suhbatdoshga psixologik yoki ijtimoiy ta’sir ko’rsatadigan gaplar.⁴ Masalan, “Iltimos, eshikni yopib qo’ying” degan gapda: lokutiv akt – bu eshikni yopish haqidagi xabar. Illokutiv akt – gap orqali eshik yopilishini so’rash. Perlokutiv akt – tinglovchi gap ta’sirida eshikni yopadi.

Bundan tashqari, nutq aktlarini deklarativ, direktiv, ekspressiv, komissiv va representativ turlarga ajratiladi.⁵ Direktiv nutq akti – bu gaplovchining tinglovchiga muayyan harakatni amalga oshirishni talab qilishidir (buyruq, maslahat, iltimos). Shu nuqtayi nazardan, iltimos qilish ham direktiv nutq akti hisoblanadi.

P. Grays (1975) Hamkorlik tamoyili (Cooperative Principle) deb nomlangan nazariyasida samarali muloqotga xizmat qiluvchi to’rtta asosiy printsipti ilgari surilgan:

⁴ J. Ostin (1962) “How to Do Things with Words”

⁵ Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.

1. Sifat printsipi – faqat to‘g‘ri va aniq axborotni taqdim qilish.
2. Miqdor printsipi – keragidan ortiq yoki kam ma’lumot bermaslik.
3. Relevantiya printsipi – faqat dolzarb va mavzuga oid axborot yetkazish.
4. Uslub printsipi – nutq aniq va tushunarli bo‘lishi kerak.⁶

Iltimos qilish jarayonida Grays printsiplari ayniqsa muhim, chunki notog‘ri yoki ortiqcha so‘zlangan gaplar tushunmovchilik yoki qo‘pol tuyulishi mumkin. Misol uchun, agar biror kishi: “Derazani oching!” deb aytsa, bu bevosita buyruq bo‘lib, odatda qo‘pol eshitiladi. “Iltimos, derazani ochib yuboring.” Shaklida bo‘lsa, bu yumshoqroq va madaniy ko‘rinadi. “Xonada biroz havo yetishmayapti, derazani ochsak, yaxshi bo‘lardi.” Shaklida aytilsa, bu Graysning relevantiya printsiptiga asoslangan iltimos bo‘lib, bilvosita ifodalangan xushmuomalalik shakliga misol bōla oladi.

Xushmuomalalik nutqning muhim qismi hisoblanib, insonlar muloqotda uchta asosiy tamoyilga amal qilishlarini aytiladi:

1. Boshqalar ustidan nazorat o‘rnatmaslik – ya’ni, iloji boricha yumshoq va hurmat bilan gapirish.
2. O‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirish – tinglovchiga erkin javob berish imkoniyatini yaratish.
3. Suhbatdoshingizga iliqlik bildirish – iliq munosabat orqali o‘zaro hurmatni saqlash.⁷

Shunga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillarida iltimos qilish xushmuomalalikni ifodalash vositasi sifatida ham qaraladi. Masalan, ingliz tilida: “Would you mind opening the window?” (Siz derazani ochishga qarshi emasmisiz?) – juda xushmuomalalik bilan ifodalangan iltimos. O‘zbek tilida esa shunga o‘xshash yumshoq ifoda: “Zahmat bo‘lmasa, derazani ochib qo‘ysangiz.”

Brown va Levinson (1987) Yuz saqlash nazariyasi (Face Theory) ni ilgari surib, nutqning ijtimoiy va pragmatik jihatlariga e’tibor qaratgan. Ular ikki turdagi “yuz” tushunchasini ajratadilar:

1. Ijobiy yuz – inson o‘zining e’tirof etilishini va hurmat qilinishini istaydi.
2. Salbiy yuz – inson o‘z shaxsiy hududiga tajovuz qilinmasligini xohlaydi.⁸

Iltimos qilish, ayniqsa, salbiy yuzga tegishli bo‘lib, suhbatdoshga o‘z qarorini qabul qilish erkinligini berish orqali yumshatiladi. Masalan: ingliz tilida: “Could you possibly help me with this task?” O‘zbek tilida: “Imkon topsangiz, menga yordam

⁶ Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3. Academic Press.

⁷ Lakoff, R. (1973). The logic of politeness; or, minding your p’s and q’s. Chicago Linguistic Society, 9, 292-305.

⁸ Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.

bera olasizmi?” Har ikkala holatda ham iltimos ifodasi salbiy yuzga hurmat bilan qaragan holda tuzilgan.

Iltimos qilish nutq akti turli tillarda har xil lingvistik vositalar orqali ifodalanadi.⁹ Ingliz va o‘zbek tillarida bu nutq aktining tuzilishi, muloqotdagi ishlatilish darajasi hamda madaniy kontekstga bog‘liq jihatlari mavjud. Ingliz tilida iltimos qilish odatda modallik fe’llari yordamida ifodalanadi. Modallik fe’llari gapni yumshatib, xushmuomalalik darajasini oshiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri iltimos (direct request): Please close the door. (Iltimos, eshikni yoping.)

Modallik yordamida yumshatilgan iltimos (polite request): Can you help me with this project? (Bu loyihada menga yordam bera olasizmi?) Could you please send me the report? (Iltimos, hisobotni menga yubora olasizmi?) Yuqoridagi yumshoq iltimos shakllari ingliz tilida madaniy norma hisoblanadi.

Bilvosita iltimoslar yumshoqroq ifodalanib, iltimosni qabul qilish yoki rad etish imkoniyatini oshiradi. I was wondering if you could help me. It would be great if you could send me the document. Bu kabi iltimos shakllari suhbatdoshga haddan tashqari bosim o‘tkazmaslik uchun ishlatiladi.¹⁰ Ingliz tilida iltimos ifodasining ta’sirchanligini oshirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi: “Please” va “Kindly” yordamida yumshatish: Could you please send me the report? Kindly provide the necessary documents.

Qo‘shimcha tushuntirishlar yordamida yumshatish: I really appreciate it if you could help me with this. G. Lakoff (1973) xushmuomalalik tamoyillarida bu kabi iltimos shakllari suhbatdoshning yuzini saqlash va muloqotni muloyim shaklda olib borish uchun ishlatilishini ta’kidlagan.

O‘zbek tilida iltimos qilish xushmuomalalik va hurmat ifodalovchi elementlar bilan chambarchas bog‘liq. Iltimosning grammatik ifodalanishi va nutqiy konstruksiyalari ingliz tilidan farq qiladi. O‘zbek tilida bevosita iltimos qilish odatiy sanalsa-da, bu shakllarning ishlatilishi suhbatdoshning ijtimoiy maqomiga bog‘liq. Masalan, oddiy iltimos: Iltimos, menga choy olib keling. Iltimos, eshikni yoping.

Hurmat ifodalovchi iltimos shakllari: Marhamat qilib, shu hujjatni ko‘rib chiqasizmi? Zahmat bo‘lmasa, yordam bera olasizmi? Turli madaniyatlarda iltimos qilishga ijtimoiy maqom ta’sir qilishini ta’kidlaydi.¹¹ O‘zbek jamiyatida bu ayniqsa muhim. Bilvosita iltimos shakllari o‘zbek tilida ko‘proq ishlatiladi, ayniqsa, rasmiy muloqotda: Shu masalada yordam bera olasizmi? Agar imkon bo‘lsa, bir oz vaqt ajratib bera olasizmi? Shu hujjatni ko‘rib chiqishingiz mumkinmi? Bu shakllar

⁹ <https://www.thecollector.com/speech-act-theory-austin-and-searle/>

¹⁰ Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3. Academic Press.

¹¹ Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.

madaniy jihatdan bevosita buyruqdan ko‘ra yumshoqroq va xushmuomalalik mezonlariga ko‘proq mos keladi.

O‘zbek tilida iltimos qilishda hurmatni ifodalovchi qo‘shimchalar va so‘zlar ishlatiladi: “Marhamat qilib”, “Zahmat bo‘lmasa” yordamida yumshatish: Marhamat qilib, derazani oching. Zahmat bo‘lmasa, bu hujjatni imzolab bera olasizmi?

Hurmat shakllari bilan ifodalash: Sizdan iltimos qilardimki... Imkon bo‘lsa, shu masalada maslahat bersangiz. Bu kabi vositalar suhbatdoshning ijtimoiy maqomini hurmat qilish strategiyasi sifatida ko‘riladi.¹²

Xulosa

Yuoqirdagi tilshunoslarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, iltimos qilish nutq akti nafaqat lingvistik, balki pragmatik va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Ingliz va o‘zbek tillarida bu nutq aktining ifodalash usullari madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lib, har ikki til o‘ziga xos xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqotda ushbu tafovutlarni hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
2. Goffman, E. (1967). *Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior*. Garden City, NY: Anchor Books.
3. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation*. In Cole, P., & Morgan, J. L. (Eds.), *Syntax and Semantics*, Vol. 3. Academic Press.
4. Holtgraves, T. (2002). *Language as Social Action: Social Psychology and Language Use*. Lawrence Erlbaum Associates.
5. Lakoff, R. (1973). The logic of politeness; or, minding your p’s and q’s. *Chicago Linguistic Society*, 9, 292-305.
6. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
7. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press.
8. Wierzbicka, A. (1991). *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Mouton de Gruyter.
9. <https://www.thecollector.com/speech-act-theory-austin-and-searle/>

¹² Wierzbicka, A. (1991). *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Mouton de Gruyter.

TA’LIM MUASSASALARDA O‘QUVCHILAR ORASIDA DELINKVENT XULQ-ATVORNI VUJUDGA KELISHI VA UNING SABABLARI

Onmayeva Inobat Yoqubboyevna
Masharipova Dilshoda Mirzaboyevna

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi 5-son va 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
psixologlari

Annotatsiya: Voyaga etmagan yoshlar orasida delinkvent xulq-atvori va uning xarakterini rivojlantirishning murakkab jarayonining tashqi ko‘rinishidir. Jiddiy xatti-harakatlarning buzilishi ko‘pincha bu jarayondagi og‘ishlar bilan bog‘liq. Ko‘pincha bolalarning emotsional rivojlanishi buziladi va ularning xatti-harakati qiyinlashadi. Shu munosabat bilan psixologik rivojlanishning asoratlari ko‘pincha paydo bo‘ladi. Ushbu asoratlarning aksariyati psixologik kasallikning alomati emas, balki faqat normadan og‘ishdir.

Kalit so‘zlar: Delinkvent, deviant, asotsial, kriminogen, beqarorlik, psixofiziologik, dezadaptiv, o‘smirlik, individual, tajvuzkor

Voyaga yetmagan shaxsning qonunni buzadigan xatti-harakati hamda jamiyatda va ayni vaqtda o‘rnatilgan huquqiy me‘yorlardan og‘ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakatidir-bu delinkvent xulq-atvordir. Delin-quent so‘zi lot, “nojo‘ya xatti-harakat, aybdorlik” ma’nolarini anglatadi. Har qanday xatti-harakatni baholash har doim uni qandaydir norma bilan solishtirishni o‘z ichiga oladi; muammoli xatti-harakatlar odatda deviant deb ataladi. Deviant xulq-atvor — bu umumiy qabul qilingan yoki nazarda tutilgan me‘yordan chetga chiqadigan harakatlar tizimidir. (ruhiy salomatlik, huquq, madaniyat, axloq normalariga rioya qilmaslik) Deviant xulq-atvor me‘yorlaridan chetga chiqish nisbiy tushunchadir, chunki bunday xatti-harakatlar jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydi. Ammo o‘smirning jinoiy javobgarlik yoshiga yetmaganligi yoki jinoyati unchalik katta bo‘lmaganligi sababli jinoiy jazo qo‘llanilmaydi. Haqiqiy jinoiy jazoni o‘z ichiga olgan og‘ir jinoyatlar jinoiy xatti-harakatlar hisoblanadi.

Delinkvent shaxs - keskin og‘uvchi axloqqa ega bo‘lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi subyekt. Delinkvent xulq-atvorga ega shaxs qonunga zid axloqi - ushbu jamiyatda va ushbu vaqtda o‘rnatilgan qonunlardan og‘ishgan, boshqa odamlar yoki ijtimoiy tartibga, tinchlikka xavf soluvchi va o‘zining oxirgi ko‘rinishlarida jinoiy jazolanadigan aniq shaxsning harakatini tushunamiz. Delinkvent xulq-atvor odatda, maktabda darslarni qoldirishdan va tarbiyasi og‘ir tengdoshlar guruhiga qo‘shilish bilan boshlanadi. Buning ortidan mayda bezorilik, kichik va ojizlarni xafa qilish, bolalarning mayda pullarini tortib olish, velosiped va

mototsikllarni (haydash maqsadida) o‘g‘irlash sodir bo‘ladi. Jamoat joylarida xatti-harakatlarga olib keladigan firibgarlik va mayda oldi-sotdi firibgarlik kamroq tarqalgan. Bular kichik miqdordagi "maishiy o‘g‘irlik"dagi pullar ham bo‘lishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etishlarining ko‘pgina sabablari mavjud. Bolada muayyan qonunga xilof xulq-atvor shakllanishiga, eng avvalo, uning mikromuhiti (oil, o‘quv yurti, norasmiy guruhidagi) xususiyatlari sabab bo‘ladi. Xususan, ular quyidagicha bo‘lishi mumkin: kriminogen (jinoiy) muhitda bo‘lish, muammoli va notinch oilalarda tarbiyalanish, o‘quv-tarbiya yurtlarida tarbiyasi og‘ir bolaga nisbatan individual yondashuv yo‘qligi, asotsial (qonunga zid) tengdoshlar guruhlarining salbiy ta’siri va x.k. Delinkvent xulq-atvor shakllanishining qator shaxsiy shart-sharoitlari mavjud. Qondirilmagan ehtiyojlar. Huquqbuzarliklar, asosan, odamning oddiy ehtiyojlarini (fiziologik, xavfsizlik, guruhga mansublik, tan olinish, o‘z shaxsining ahamiyatini namoyon qilish, o‘z qobiliyatlarini amalga oshirish va sh.k.) qondirishga qaratiladi. Shuning uchun huquqbuzarlikni sodir etishga, odatda, ehtiyojlarning g‘ayrioddiyliklari emas, odamning moddiy ehtiyojlarini qonuniy yo‘l bilan qondirishga qodir bo‘lmasligi yoki xohlamasligi turtki bo‘ladi.

Psixofiziologik buzilishlar. Ayrim voyaga yetmagan huquqbuzarlarda tug‘ma yoki boshdan kechirilgan jarohatlanish yoki kasalliklar oqibatida, markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, bola tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sababi psixofiziologik buzilishlarning o‘zi emas, balki bolani tarbiyalash jarayonida ana shu omillarni mensimaslikdadir.

Dezadaptiv emotsional-irodaviy sifatlar. Ular delinkvent xulq-atvoriga sabab bo‘ladi. Ular sharoitlar va holatlarni xolis, oqilona baholash (jizjakilik, o‘jarlik), qarorlarni mustaqil qabul qilish va bajarishda (ikkilanish, beqarorlik, mustaqil bo‘lmaslik, moslashuvchanlik) qiynalishga olib keladi, muammoli vaziyatni hal qilishning kuch ishlatiladigan vositalarini (tajovuzkorlik, beshafqatlik) ko‘zda tutadi. Ba’zan voyaga yetmaganlarning xulq-atvori ular salbiy/noma’qul (masalan, xavfsirash, cho‘chish) deb hisoblaydigan fazilatlardan qutulish yuzasidan omadsiz istaklari (giperkompensatsiya) oqibatida izdan chiqishi mumkin.

Aqliy rivojlanish xususiyatlari. Boshdan kechirgan kasalliklar, jarohatlanish, tarbiyadagi kamchiliklar oqibatida voyaga yetmaganlarning bir qismi intellektual (aqliy) rivojlanishda yoki alohida bilim orttirish jarayonlari, nutq, e’tibor jamlash rivojlanishida orqada qolishi kuzatiladi. Bunday bolalar ko‘pincha o‘quv vazifalarini eplay olmaydilar, o‘zlashtirishlari past darajada bo‘ladi, sinfdoshlari orasida e’tibor qozonmaydilar, ta’qib, masxara qurbonlariga aylanishlari mumkin. Agar pedagoglar bu kabi bolalarga tegishli yondashuv topa olmasalar, ularga nisbatan korreksiya uslublarini ishlatmasalar yoki jazolarni qo‘llasalar, bolalarda o‘qish istagi yo‘qoladi,

to‘laonli inson emasligi hissi o‘rnashib qoladi, o‘zini baholash darajasi pasayib ketadi, o‘zini “tentak” deb hisoblaydi, o‘z shaxsining ahamiyatini ko‘rsatish yoki xatarli va qonunga zid harakatlar orqali o‘zini himoya qilish istagi paydo bo‘ladi.

Pedagogik qarovsizlik. Agar ota-onaning qonunga xilof xatti-harakatlari, ular o‘z vazifalarini bajarmasliklari yoki pedagogik bilimlari yetishmasligi sababli bola o‘z oilasida tegishli g‘amxo‘rlik, tarbiyadan mahrum etilgan bo‘lsa, bunday bola tengdoshlaridan jismoniy, aqliy rivojlanishda, irodaviy fazilatlar, madaniyati yuksalishida orqada qolishi, muvaffaqiyatli o‘qish, jamoada muloqot yuritish, o‘ziga o‘zi xizmat qilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalarni orttirmay qolishlari mumkin. Bunday bolalar stigmatizatsiyadan/kamsitishdan aziyat chekadilar, shunchaki qonun-qoidalarini bilmasliklari yoki o‘zlarini to‘g‘ri tuta olmasliklari, o‘z ehtiyojlarini boshqacha yo‘l bilan qondira olmasliklari sababli, intizomni buzishlari, qonunga zid harakatlarni sodir etishlari mumkin.

Asotsial va dezadaptiv xulq-atvor tarzi (Stereotip). Ayrim bolalar tajovuzkorona, axloqsiz va qonunga xilof xulq-atvorni o‘zlashtirib oladilar. Chunki bunday salbiy harakatlarni amalga oshirishga ilk urinishlaridan keyin yoki boshqalarning shu kabi “muvaffaqiyatli” xatti-harakatlari ketidan kuzatib borganda ijobiy ko‘makka (rag‘batga) ega bo‘ladilar. Noto‘g‘ri, xato tasavvurlar va e‘tiqodlar. Voyaga yetmagan bolaligida o‘z ota-onasi yoki tengdoshlarining ta’sirida o‘zlashtirgan borliqqa, axloq me’yorlariga qarama-qarshi va ma’lum guruhlarda tarqalgan xato, irratsional tasavvurlar qonun buzishlarga olib kelishi mumkin. Ayrim voyaga yetmaganlar boshqa odamlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarda o‘z fikrlarini asosli isbotlash, hamjihatlikka erishish va nizolarni amaliy hal qilish, yangi jamoaga kirib borish, yordam so‘rab, murojaat etish yoki boshqa odamlar iltimoslarini rad etish, guruh bosimi, manipulyatsiyalarga qarshi turish kabi muammolarni ijobiy hal qilishga qodir emasliklari sababli qonunni buzish, zo‘ravonlik qilish kabi salbiy harakatlarni sodir qiladilar. Agar voyaga yetmagan bunday holatlarda omadsizlikka uchraydigan bo‘lsa, u o‘z maqsadiga erishish, odamlarni qo‘rqitish va emotsional zo‘riqishni bosish uchun zo‘ravonlikni qo‘llashi mumkin. Hal qilinmagan shaxsiy muammolar, shaxslararo nizolar. Bunday muammolar hal qilinmaganligi oqibatida voyaga yetmagan nizolashuvda o‘z manfaatlarini himoya qilish, o‘z shaxsiyatining ahamiyatini o‘zi va boshqalarning oldida namoyon etish, o‘ziga e‘tibor qaratish, bu muammolarni hal qilish uchun mablag‘ (masalan, naqd pul, qimmatbaho buyumlar) olish, tajovuzni boshqa shaxslar yoki predmetlarga o‘tkazish uchun qonunga xilof harakatlarni sodir qilishi mumkin. O‘ziga ishonmaslik, o‘zini yetarli darajada baholamaslik. O‘zini past darajada baholaydigan voyaga yetmagan o‘zini zarur darajada bilimga ega bo‘lmagan va omadsiz deb hisoblaydi, o‘z maqsadiga ijtimoiy jihatdan maqbul (ijobiy) yo‘l bilan erishish mumkinligiga ishonmaganligi sababli

qonunga zid harakat qilishi yoki shu yo‘l bilan o‘z noroziligini ifodalashi, noqulaylikni yengib o‘tishi, o‘z mavqeini namoyon qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.To‘laganova “Tarbiyasi qiyin o‘smirlar”. Toshkent 2005-yil.
2. Z.Nishonova, D.Abdullayeva, G.Baykunosova. “O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” Toshkent 2015 yil.
3. Adizova T.M O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixoloik diagnostikasi va korreksiyasion ishlari.-Toshkent,TDPU,1997.1.
4. Sh.Xollilova “Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi” uslubiy qo‘llanma.Toshkent 2015 yil.
5. Axmedova M. “Shaxs psixodiagnostikasi”.T.:2010 yil.

ISLOM MADANIYATIDA OILA VA FARZAND TARBIYASINING O’RNI

Husen Xayrulloevich Jo’rayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedra dotsenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
husaynbuxoriy@mail.ru

Ozodbek Akbar o’g’li Murodullayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Islom madaniyatida oila jamiyatning eng muhim asosiy bo’g’ini bo’lib, uning mustahkamligi jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Qur’on va Hadislar asosida shakllangan Islomiy qadriyatlar oilani muqaddas maskan sifatida ulug’laydi. Farzand tarbiyasi esa ota-onaning eng ulug’ burchlaridan biri hisoblanadi. Islomiy tarbiya bolaga odob-axloq, halollik, ilmga intilish va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni singdirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bolalarga mehribonlik va adolat bilan munosabatda bo’lish, ularning diniy-ma’naviy tarbiyasiga e’tibor qaratish Islom madaniyatining ajralmas qismidir. Ushbu tadqiqotda oila va farzand tarbiyasining Islomdagi o’rni, uning ahamiyati va zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so’zlar: Islom madaniyati, oila, farzand tarbiyasi, Qur’on, Hadis, axloq, diniy tarbiya, ota-ona burchi, ma’naviyat, muqaddas oila, bolalar tarbiyasi, Islomiy qadriyatlar, mehribonlik, adolat, ilmga intilish, o’zgarmas qadriyatlar, jamiyat barqarorligi.

РОЛЬ СЕМЬИ И ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В ИСЛАМСКОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация: В исламской культуре семья является важнейшим фундаментальным звеном общества, прочность которого напрямую влияет на стабильность общества. Исламские ценности, сформулированные на основе Корана и хадисов, прославляют семью как священное место. С другой стороны, воспитание детей-одна из величайших обязанностей родителей. Исламское воспитание направлено на привитие ребенку таких качеств, как порядочность, честность, стремление к знаниям и преданность Родине. При этом относиться к детям с добротой и справедливостью, уделять внимание их религиозно-духовному воспитанию-неотъемлемая часть исламской культуры. В данном исследовании освещается роль семьи и воспитания детей в исламе, его значение и актуальность в современном обществе.

Ключевые слова: Исламская культура, семья, воспитание детей, Коран, хадис, мораль, религиозное воспитание, родительский долг, духовность,

священная семья, воспитание детей, исламские ценности, доброта, справедливость, стремление к знаниям, неизменные ценности, стабильность общества.

THE ROLE OF FAMILY AND CHILD REARING IN ISLAMIC CULTURE

Annotation: In Islamic culture, the family is the most important key link in society, and its robustness directly affects the stability of society. Islamic values, formed on the basis of the Quran and Hadith, glorify the family as a sacred dwelling. Child rearing is considered one of the greatest duties of a parent. Islamic upbringing is aimed at instilling in the child such qualities as decency, honesty, striving for science and devotion to the motherland. At the same time, treating children with kindness and Justice, focusing on their religious-spiritual upbringing, is an integral part of Islamic culture. This study highlights the role of family and child education in Islam, its importance and relevance in modern society.

Keywords: Islamic culture, family, child rearing, Quran, Hadith, Ethics, Religious rearing, parental duty, spirituality, Holy Family, child rearing, Islamic values, kindness, justice, pursuit of science, unchanging values, stability of society.

KIRISH:

Islom madaniyati tarixi davomida oila va farzand tarbiyasi muhim ijtimoiy institut sifatida e’tiborga olinib kelgan. Qur’on va Hadislarda oilaning o’rni va farzand tarbiyasiga bo’lgan yuksak e’tibor, Islom jamiyatining ma’naviy va axloqiy poydevorini tashkil etadi. Oila, Islomda faqatgina er-xotinning ijtimoiy-huquqiy munosabatlari bo’lib qolmay, balki jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim tuzilmasi sifatida, barqarorlikni ta’minlovchi muhim institutdir. Farzand tarbiyasi esa oilaning har bir a’zosiga, ayniqsa, ota-onaga katta mas’uliyat yuklaydi. Ota-ona, bolalarga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki diniy va ma’naviy qadriyatlarni ham singdirib, ularni halol va to’g’ri yo’lda tarbiyalashlari kerak. Islom madaniyatida farzand tarbiyasi nafaqat din, balki jamiyatda adolat va mehr-muhabbatni qaror toptiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Ushbu maqolada oila va farzand tarbiyasining Islom madaniyatidagi o’rni, uning ahamiyati hamda zamonaviy dunyoda uning dolzarbligi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM:

Bugungi kunda hayotda ko‘plab muammolarga duch kelamiz. Bulardan eng birinchisi bu - inson xarakteridir. Inson xarakteri qayerdan va qanday shakillanadi? Albatta, bu oiladan boshlanadi. Oila - bu nikoh va qon - qarindoshlik yoki birga istiqomat qilish orqali bir - biriga bog‘langan insonlardan iborat ijtimoiy guruh, bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini bajaruvchi, jamiyatning

mo‘jaz bir qo‘rg‘onlaridan biridir. Uning mustahkamligini asrash mana necha asrlar oshsa ham o‘z ahamiyatlilik darajasini yo‘qotmay kelayotgan masalalardandir. Vaholanki, bu sohada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar bir talaydir. Oila masalasiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo‘yiladi.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlari qizlarni qonuniy turmush yoshi Eronda - 9 yoshdan, Saudiyada - 10 yoshdan, AQShda - 12 yoshdan, Hindistonda - 18 yoshdan, Fransiyada - 18 yoshdan, Xitoyda - 20 yoshdan belgilanganlini ko‘rishimiz mumkin [1.75b]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 - yil 22 - aprelda imzolangan PQ 4296 - sonli qaroriga asosan, qizlar uchun nikoh yoshi 17 dan 18 yoshga o‘zgartilganligi va Oila kodeksining 15 - moddasi birinchi

qismi bilan nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanganligi, O‘zbekiston Respublikasi “Xotin - qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi ” Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi senatining “2030 - yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gendr tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida ” Qarori jamiyatdagi majud barcha sohalarda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xotin - qizlar huquqini qonuniy jihatdan himoyalashga qaratilgan islohotlarning yana bir isbotidir. Oilaning tibbiy, huquqiy, iqtisodiy savodxonligini oshirish masalalari ilgari surilayotgan bir davrda, diniy savodxonlikka ham ega bo‘lishlikni davrning o‘zi taqozo qilyapti. Zero, islom dini yaxshilik, ezgulikni ulug‘lovchi din bo‘lishi bilan birga unda oila mustahkamligiga ham alohida urg‘u berilgan. Bunda “Qur’oni Karim” va “Hadislar” asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda jamiyatimizda ommalashyotgan gendir tenglik tushunchasi va g‘oyasi bundan necha asr oldin islom dinida o‘z aksini topgandir. Xususan, quyidagi “Niso” (“Ayollar”) surasining 1 - oyatda “Ey odamlar ! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvo) ni yartgan hamda u ikksidan ko‘p erkak va ayollarni tarqatgan Robbingizdan qo‘rqingiz!...” [2]. Ushbu oyatda insonning ey inson, xitobi orqali uning kim ekanligi haqida eslatib turuvchi ulug‘vorlik mavjuddir. Zero, u inson ekanligini, buni hech qachon unitmagan holda insoniylikka xos amallar qilishga chaqiriladi. Shuningdek, ayol va erkakni bir jondan yaratilganligi ularning o‘zaro Alloh va din oldida birdek teng ekanligini, Alloh nazida maqul hisoblanmagan amallardan voz kechishlikka davat mavjuddir. Islomda ayollar ona, opa-singil, jufti halol va qiz sifatida hurmatlanadi. Ular meros oladi va meros qoldiradi, nikohda roziligi so‘raladi. Ular doim erkak qarindoshlari ta‘minoti ostida bo‘lishadi. Bundan ko‘rinadiki, ayollar va erkaklarning o‘zaro teng va bahamjihatlikda yashashining o‘ziyoq farzandlar tarbiyasining uyg‘un bo‘lishida muhim. “Al - Adab Al - Mufrad” asarida keltirilgan quyidagi hadisda esa: “Bolaning otasi bironing quli bo‘lgan bo‘lsa, uni xo‘jasidan sotib olib ozod qilmaguncha, uning haqqini ado qilgan bo‘lmaydi” - deb ta’kidlangan [3.16b]. Bundan ko‘rinadiki, Alloh

oldida otamizni sotib olish va uni ozod qilishning sira iloji yo‘q. Zero, butun insoniyat va barcha jamiyati narsalar va mahluqotlar egasi Alloh ekanligi, unga iymon keltirib yashash, nozil qilingan amallarga bo‘ysinishimiz taqdiri - azal ekanligini tushinib yetishlikning o‘ziyoq ota - onamizning haqqini hech qachon ado qila olmasligimizni anglatadi. Ota - ona qanchalik oqil va dona bo‘lsa oilada o‘sayotgan farzandlar ham shunchalik oqil va fozil bo‘lib voyaga Ota - onaning farzandiga bildirgan ishonchi bir kun o‘z mevasini bermasdan qolmaydi. Ota-onalarning qo‘l ochib farzandlarini duo qilishlarining o‘ziyoq farzand uchun berilayotgan eng oliy mukofot. “Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota - onaning duaosidir” [3.24b]. Lekin, tanganing ikkinchi tarafi ham bor bo‘lgani kabi hayotda ota - onasini norozi qiladigan farzandlar ham uchrab turishi hech birimizga sir emas. “Rasulloh (s.a.v) aytadilar: Alloh tallo marhamatni yuz bo‘lak qilib yaratdi - da, undan to‘qson to‘qqiz bo‘lagini o‘zida qoldirib, bir bo‘laginigina yer yuziga tushirdi. Mana shu bir bo‘lak rahmat bilan hamma maxluqotlar bir - biriga rahm qilishadi, hatto ot ham o‘z toychog‘iga tegib ketmasin deb ayab, oyoqlarini yuqoriga ko‘tarib turadi” [3.46b]. Haqiqatdan, yoshlik chog‘imizda to‘g‘ri yo‘lda ham qoqilib yiqiladigan paytlarimizda ota - onamiz bizga ziyon - zahmat yetmasin deb doim tashvishda bo‘lishadilar. Nega endi biz farzand bo‘la turib ota - onamizning keksalik deb atalmish umur ostonasiga kelgan bir paytlarida ular berishadigan oddiy savolariga javob berishda qo‘rslik qilamiz, ko‘ngillarini og‘ritamiz, yig‘latamiz. “Ota - onaning yig‘lashi boladan norozi bo‘lganliklaridan dalolat beradi va bu esa katta gunohlardandir” [3.23b]. Nimaga buni bila turib yana xato qilaveramiz ?. Axir tilimiz chiqayotgan ilk davrda ular sabr bilan kutishgan va har qanday savollarimizni e’tibordan chetda qoldirmagan holda javob berishgan. Bas, shunday ekan ota - onalarimizni hurmatini farzand sifatida joyiga qo‘yishimiz zarurdir.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan vazifalarning nechog‘lik to‘g‘ri tashkil etilganligi oyna kabi farzandlar xulq - atvorida o‘z aksini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Albatta, oilada bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatli. Bu har bir ota - onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan baxobar bo‘lib borishni talab etadi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xaqlimiz bejizga “Bola loy bo‘lsa, ota - ona kulol”deyishmagan. Oilada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy - axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika,psixologiya, pedagogika kabi fanlariga oid bilimlarni ham qamrab olishi zarur.Faqatgina buni shunchachi baland parvoz so‘zlar deb emas hayotning oddiy haqiqati sifatida qarashni o‘rganish, faqat o‘rganishgina emas amaliy isbotini yaratish lozimdir. Bunda ota-onalarning tenglik huquqiga tayanilgan holda tashkil etilgan

tarbiya eng adekvat varianti bo‘lib xizmat qiladi. Bunda bizning oldimizda turgan birinchi vazifa bu oila tarbiyasida tenglik tushunchasining tub mohiyatni o‘quvchi yoshlar onggiga yetkazib berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imom Buxoriy saboqlari. // jurnali 2020-04. sammuslim.uz/oz/juma mav’izalari.
2. Имом Исмоил ал-Бухорий Ал-Адаб Ал-Муфрад (Адаб дурдоналари) – Т.: Ўзбекистон. - 1990 6-16-17-54-bob 10-31-32-100 hadislar.
3. Каримов Т. Айтилмаган қўшиқлар шеърлар. – Т.: 1992.
4. Shoumarov G‘.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A., Akramova F.A., Solihova G., G.Niyozmetova. Oila psixologiyasi. Akademik litsiy va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. Uchinchi nashr. – Т.: Sharq. 2010.

SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKMDORLARI DAVRIDAGI MADANIY MANAVIY HAYOT

Husen Xayrulloevich Jo’rayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbahunosligi, falsafa” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
husaynbuxoriy@mail.ru

Odinaxon Dilmurodjon qizi Yo’ldosheva

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Islom tarixi va manbahunosligi
yo’nalishi 5.2. ITM-21 guruh talabasi
odinaysuf97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida (XVI asr) Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan madaniy-ma’naviy hayotning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada sulola hukmdorlarining ilm-fan, adabiyot, san’at va diniy hayotga bo’lgan e’tibori, madrasalar va kutubxonalar faoliyati, shuningdek, o’sha davr mualliflari va olimlarining jamiyatdagi o’rni ko’rib chiqiladi. Alisher Navoiy an’alarining davom ettirilishi, Boburiylar sulolasiga ta’siri va Turkiston hududida islom madaniyatining rivojiga qo’shgan hissasi haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqot asosida Shayboniylar davrida ilmiy-ma’naviy taraqqiyotning mustahkam zaminlari yaratilgani ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: Shayboniylar, Markaziy Osiyoda, kutubxona, xattot, madaniyat, ilmiy-ma’naviy, ilm-fan, adabiyot, san’at.

КУЛЬТУРНАЯ И ДУХОВНАЯ ЖИЗНЬ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИИ ШАЙБАНИДОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные аспекты культурной и духовной жизни в Центральной Азии в период правления династии Шайбани (XVI век). Анализируется отношение правителей династии к науке, литературе, искусству и религии, деятельность медресе и библиотек, а также роль ученых и авторов того времени в общественной жизни. Особое внимание уделено преемственности традиций Алишера Навои, влиянию на империю Бабуридов и вкладу в развитие исламской культуры в регионе Туркестана. В результате исследования подчёркивается, что в период Шайбанида было заложено прочное основание для научного и духовного прогресса.

Ключевые слова: Шейбаниды, Средняя Азия, библиотека, каллиграф, культура, научная и духовная, наука, литература, искусство.

CULTURAL AND SPIRITUAL LIFE DURING THE RULING OF THE SHAYBANID DYNASTY

Abstract: This article examines the main aspects of cultural and spiritual life in Central Asia during the reign of the Shaibani dynasty (16th century). It analyzes the attitude of the dynasty's rulers to science, literature, art and religion, the activities of madrassas and libraries, as well as the role of scientists and authors of that time in public life. Particular attention is paid to the continuity of the traditions of Alisher Navoi, the influence on the Baburid Empire and the contribution to the development of Islamic culture in the Turkestan region. As a result of the study, it is emphasized that during the Shaibanid period, a solid foundation was laid for scientific and spiritual progress.

Keywords: Shaibanids, Central Asia, library, calligrapher, culture, scientific and spiritual, science, literature, art.

KIRISH:

Markaziy Osiyo tarixida Shayboniylar sulolasi (XVI asr boshi) muhim siyosiy va madaniy o‘rin egallaydi. Bu davr, ayniqsa, Movarounnahr hududida yangi davlat tuzumining shakllanishi, siyosiy barqarorlikning tiklanishi va shu asosda madaniy-ma’naviy hayotning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shayboniy hukmdorlari nafaqat zabardast sarkardalar, balki ilm-fan, adabiyot va san’at homiylari sifatida ham tarixda muhim iz qoldirganlar. Ularning boshqaruvi davrida madrasalar, kutubxonalar va diniy markazlar faoliyati faollashgan, mashhur olim va shoirlar faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asos solgan adabiy-madaniy an’analar davom ettirilib, yangi davr madaniyatiga asos bo‘ldi. Ushbu maqolada Shayboniylar davridagi madaniy va ma’naviy hayotning asosiy jihatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Shayboniylar sulolasi tomonidan Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda amalga oshirilgan madaniy qurilish ishlari, ilohiy va dunyoviy bilimlarni rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvlari, bu davrda ilm-fan va san’at sohasida faoliyat yuritgan olim va ijodkorlar uchun qulay sharoitlar yaratgan. Ayniqsa, Muhammad Shayboniyxonning o‘zi ham shoir va mutafakkir sifatida tanilgan bo‘lib, “Shiboniynoma” kabi asarlar orqali bu davr madaniyatiga o‘z hissasini qo‘shgan. U va uning vorislari tomonidan olib borilgan madaniy siyosat natijasida turkiy tilda ijod qilish rag‘batlantirilgan, bu esa o‘zbek tilining ilmiy va adabiy til sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Shu tariqa, Shayboniylar davri nafaqat siyosiy barqarorlik davri, balki o‘ziga xos madaniy-ma’naviy yuksalish davri bo‘lib, bu jarayon Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI:

Shayboniylar sulolasi XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Movarounnahrda

temuriylardan keyin siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritgan turkiy sulola bo‘lib, ularning hukmronligi davri o‘ziga xos madaniy-ma’naviy yuksalish bilan ajralib turadi. Shayboniylar, ayniqsa Muhammad Shayboniyxon boshchiligida, diniy-ma’naviy qadriyatlarni tiklash, ilm-fan va adabiyotga e’tibor qaratish, islomiy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ishlar olib borgan. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlar madaniy markazlar sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan va rivojlantirilgan.

Ilm-fan va ta’limning rivoji

Shayboniy hukmdorlari ilm-fanga katta e’tibor qaratganlar. Ular ko‘plab madrasalar, kutubxonalar, va ilmiy markazlar barpo qilganlar. Bu madrasalar nafaqat diniy bilimlar, balki mantiq, falsafa, astronomiya, matematika kabi dunyoviy fanlar o‘qitilgan ilmiy muassasalar sifatida faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Muhammad Shayboniyxon o‘z atrofida ko‘plab olimlarni jamlagan, ularning faoliyatiga homiylik qilgan. Shayboniylar davrida faxr etilgan Buxoro madrasalari o‘zining ilmiy salohiyati bilan butun musulmon olamida tanilgan edi. Shayboniylar hukmronligi davrida o‘rta asrlardagi mashhur olimlardan biri bo‘lgan Ahmad Donish, Mirzo Mahdum A’zam kabi shaxslar ilmiy-axloqiy va falsafiy qarashlari bilan tanilgan. Garchi ularning faoliyati keyingi asrlarga taalluqli bo‘lsa-da, Shayboniylar tomonidan yaratilgan ilmiy-madaniy muhit bu singari olimlar shakllanishiga zamin yaratgan.

Adabiyot va ijodiy muhit

Adabiyot Shayboniylar davrida o‘zining taraqqiyot bosqichini boshdan kechirgan. Muhammad Shayboniyxonning o‘zi “Shiboniynoma” asarining muallifi bo‘lib, u forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan. Uning ijodi diniy, siyosiy va falsafiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, asarlarida o‘z davri muammolarini ochib bergan. Shayboniylar davrida adabiyotda turkiy til mavqei ko‘tarilgan bo‘lib, bu hol Alisher Navoiy boshlagan adabiy an‘analarga davom ettirilganidan dalolat beradi.

Bu davrda adabiy muhitda sufiylik ta’siri kuchli bo‘lgan. Shayboniylar bu borada ham Navoiy merosiga sodiq qolgan holda, diniy-ma’rifiy asarlarning yozilishi va targ‘ibotiga ko‘maklashganlar. Ayniqsa, tasavvufga oid asarlar, nafs tarbiyasi, axloqiy-ruhiy poklanish haqida yozilgan risolalar keng tarqalgan.

Diniy-ma’naviy hayot

Shayboniylar o‘z hukmronligini islom dini asosida mustahkamlashga harakat qilganlar. Ular hanafiy mazhabining rasmiy maqomini mustahkamlagan, islom aqidasi va fiqh ilmlarining rivojiga katta e’tibor qaratganlar. Buxoro va boshqa shaharlarda katta jome masjidlari, ziyoratgohlar, madrasa va xonaqohlar bunyod etilgan. Shayboniylar diniy ulamolarni hurmat qilgan, ularning siyosiy-ijtimoiy hayotdagi o‘rnini kuchaytirgan. Shuningdek, Shayboniylar davrida sufiylik tariqatlari, xususan, Naqshbandiya keng tarqalgan bo‘lib, bu tariqat vakillari diniy va axloqiy hayotda muhim rol o‘ynagan. Ularning faoliyati xalq orasida diniy bilimlarni yoyish,

axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali ma’naviy hayotni boyitgan.

San’at va me’morchilik

Shayboniylar davrida san’at va me’morchilik ham rivoj topgan. Ayniqsa, Buxoroda barpo etilgan madrasalar va masjidlar, Samarqanddagi me’moriy obidalar o’zining nafis naqshlari, gumbazlari va devoriy yozuvlari bilan ajralib turadi. Ular Temuriylar davridagi an’analarini davom ettirishgan bo’lsa-da, o’z davrlariga xos uslubni ham shakllantira olishgan. Me’morchilikda arabeska naqshlar, geometrik bezaklar, kufiy va naskh yozuvi asosidagi bezaklar keng qo’llanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA:

Shayboniylar davridagi madaniy-ma’naviy hayot bugungi kunda o’zbek va xorijiy tarixshunoslikda alohida e’tibor markazida turadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu davrga oid tarixiy, madaniy va diniy manbalar tahlil qilinib, Shayboniylar sulolasining ilm-fan, adabiyot, san’at va diniy hayotdagi roli haqida turli tadqiqotlar olib borilgan. O’zbekistonda, ayniqsa mustaqillikdan so’ng, bu mavzuga qiziqish sezilarli darajada oshdi, chunki Shayboniylar madaniyati o’zbek milliy davlatchiligi va madaniy o’zligining muhim bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda.

Tarixiy manba va tadqiqotlar asoslari

Shayboniylar davriga oid asosiy tarixiy manbalar qatoriga Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Mirxond va Xondamirning asarlari, shuningdek Muhammad Shayboniynonning “Risola”si va “Shiboniynoma” asari kiradi. Bu manbalarda sulola siyosati bilan bir qatorda, ularning ilm, adabiyot va diniy hayotga bo’lgan munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Akademik V.V. Barthold, A.Yu. Yakubovskiy, B.A. Ahmedov, M. Is’hoqov, R. Islomov kabi olimlar Shayboniylar davrining siyosiy va madaniy hayotini o’rganishga katta hissa qo’shganlar. B.A. Ahmedovning “O’zbekistonning XV–XVI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti” nomli tadqiqotida Shayboniylar hokimiyatga kelishining tarixiy ildizlari va ularning madaniyatga ta’siri keng yoritilgan. O’zbek olimlaridan A. Hayitmetov, H. Sulaymon, I. M. Muminov, va N. Komilovlarning ilmiy ishlari Shayboniylar davri adabiyoti va ma’naviy muhitining xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, N. Komilov o’zining “Ma’naviyat asoslari” nomli asarida bu davrda shakllangan tasavvufiy g’oyalar va ularning xalq ongidagi aks-sadosi haqida to’xtalgan.

Muhokamalar va bahsli jihatlar

Shayboniylar davridagi madaniy-ma’naviy hayotga doir ilmiy muhokamalarda ba’zi bahsli masalalar mavjud. Masalan, ayrim tadqiqotchilar Shayboniylar tomonidan ilgari surilgan madaniy siyosatni Temuriylar davriga nisbatan pasayish deb baholaganlar. Bu fikrga ko’ra, Temuriylar, xususan Mirzo Ulug’bek davrida ilm-fan va falsafa yuqori darajaga chiqqan bo’lsa-da, Shayboniylar davrida bu an’analar

davom etgan bo’lsa-da, tub yangiliklar bo’lmagan. Biroq boshqa tadqiqotchilar, xususan o’zbek tarixchilari, Shayboniylar ilm-fan, adabiyot va diniy hayotni siyosiy markazlashuv asosida tizimli ravishda qo’llab-quvvatlaganini ta’kidlashadi. Muhammad Shayboniyni o’zi ham shoir, alloma va davlat arbobi sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlari diniy-falsafiy va siyosiy g’oyalar uyg’unligi namunasi sifatida qadrlanadi. Bu jihatdan, uning ijodi orqali Shayboniylar davrining mafkuraviy asoslari o’rganiladi. Shu sababli, Shayboniylar siyosati hamisha kuch bilan emas, balki ma’naviyat bilan uyg’unlashgan boshqaruv sifatida ko’riladi. Shuningdek, tadqiqotchilar Shayboniylar tomonidan turkiy tilning adabiy va rasmiy til sifatida rivojlantirilganiga ham katta e’tibor qaratadilar. Bu hol Alisher Navoiy boshlab bergan adabiy maktabni davom ettirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, Shayboniylar davrida arab va fors tillarining ham ilm-fan va diniy adabiyotda saqlanib qolganini ko’ramiz. Bu ko’p tillilik madaniy muhitning boyligini ko’rsatadi va uni hozirgi zamon tarixiy-lingvistik tadqiqotlari uchun qimmatli manba sifatida baholash mumkin.

Zamonaviy yondashuvlar

Bugungi tarixshunoslikda Shayboniylar davriga zamonaviy, kompleks yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Jumladan, madaniy antropologiya, tafakkur tarixi, sivilizatsiyalararo muloqot nuqtai nazaridan bu davr qayta baholanishga harakat qilinmoqda. Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlarning urbanizatsiya jarayonlari, diniy institutlar va ulamolar tarmog’i, ijodiy uyushmalar kabi jihatlar yangi usullar bilan tadqiq qilinmoqda. Bunda arxiv manbalari, epigrafik yozuvlar, arxeologik topilmalar va qo’lyozmalar asosida aniq, hujjatli dalillar bilan ishlashga alohida urg’u berilmoqda. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan Shayboniylar davri merosiga bo’lgan qiziqish ham ortmoqda. Xususan, Buxoro shahri va uning tarixiy yodgorliklari ko’plab xalqaro madaniy loyihalarda o’rganilmoqda, bu esa Shayboniylar madaniyati haqida yangi ilmiy qarashlar shakllanishiga sabab bo’lmoqda.

XULOSA:

Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri Markaziy Osiyo tarixida o’ziga xos siyosiy barqarorlik, ilm-fan va madaniyat uyg’unishi bilan ajralib turadi. Temuriylar merosini davom ettirgan Shayboniylar hukmdorlari ayniqsa Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda madaniy-ma’naviy hayotni jonlantirishga alohida e’tibor qaratganlar. Ular tomonidan qurilgan madrasalar, kutubxonalar va diniy maskanlar ilm-fan va ma’rifat rivojining markazlariga aylangan. Sulola vakillarining o’zi ham ijodkor, mutafakkir, shoir sifatida madaniyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo’shgan. Shayboniylar davrida turkiy tilning adabiy til sifatida mustahkamlanishi, islomiy ta’lim tizimining takomillashuvi, tasavvuf ta’limotining keng tarqalishi, shuningdek, milliy madaniyatga asos soluvchi tarixiy meros yaratildi. Bu madaniy

siyosat keyingi avlodlar, jumladan, Boburiylar sulolasiga ham ta’sir ko’rsatgan. Zamonaviy tadqiqotlar Shayboniylar davrini o’rta asrlar islom sivilizatsiyasining yuksalgan bosqichlaridan biri sifatida baholaydi. Shu bois, Shayboniylar sulolasi davrida shakllangan madaniy-ma’naviy meros nafaqat o’z davri uchun, balki bugungi o’zbek xalqi uchun ham tarixiy, ma’naviy va ilmiy ahamiyatga ega bo’lib, u milliy o’zlikni anglash va qadriyatlarni qadrlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev N. “Markaziy Osiyoda Uyg’onish davri”, Universitet, 2012, 134–140-betlar.
2. Islomov M. “Shayboniylar davrida ilmlar rivoji”, Fan, 2015, 88–93-betlar.
3. Ражабов А. “Темурийлар ва Шайбонийлар даврида маданий ҳаёт”, Шарқ, 2007, 121–126-бетлар.
4. Султонов А. “Шайбонийлар даври маданияти”, Фан, 2005, 98–105-бетлар.
5. Xoliqov H. “O’zbek davlatchiligi tarixi”, O’zbekiston, 2010, 203–210-betlar.
6. Зоҳидов Ҳ. “Ўзбекистон тарихи”, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000, 156–160-бетлар.

IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA TO‘G‘RI OVQATLANISHNING GIGIYENIK ASOSLARI

Minxojiddinova Mohira Ulug‘bek qizi
Abdumannonova Muborakxon Abdupulat qizi
Ilmiy rahbar: **Maxmanazarov G‘.A**

Annotatsiya: Ushbu tezisda immunitetni tabiiy yo‘l bilan mustahkamlashda to‘g‘ri ovqatlanishning gigiyenik asoslari yoritilgan. Asosiy e‘tibor immun tizimiga ta’sir qiluvchi oziq-ovqat komponentlariga, xususan, vitaminlar, minerallar, probiotiklar, antioksidantlar, oqsillar va yog‘larning ahamiyatiga qaratilgan. Shuningdek, turli yosh guruhlarida ovqatlanish tartibi, noto‘g‘ri ovqatlanishning salbiy oqibatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Immunitet, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiyena, vitaminlar, probiotiklar, salomatlik

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются гигиенические основы правильного питания для укрепления иммунной системы естественным путём. Основное внимание уделено продуктам и компонентам, влияющим на иммунитет, таким как витамины, минералы, пробиотики, антиоксиданты, белки и жиры. Также рассмотрены особенности питания в разных возрастных группах и негативные последствия несбалансированного питания.

Ключевые слова: Иммунитет, правильное питание, гигиена, витамины, пробиотики, здоровье

Abstract. This thesis explores the hygienic foundations of proper nutrition in strengthening the immune system naturally. It focuses on key dietary elements such as vitamins, minerals, probiotics, antioxidants, proteins, and fats, and their role in supporting immunity. The paper also analyzes nutritional needs across different age groups and the consequences of poor dietary habits.

Keywords: Immunity, proper nutrition, hygiene, vitamins, probiotics, health

Inson salomatligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning ichida immunitetning o‘rni beqiyosdir. Immun tizimi organizimni tashqi va ichki zararli omillardan, infeksiyalar, viruslar, bakteriyalar va boshqa kasallik qo‘zgatuvchilardan himoya qiluvchi murakkab biologik mexanizimlardan tashkil topgan. Bugungi kunda tez o‘rganalayotgan ekologik sharoyitlar, stress, zararli odatlar va noto‘g‘ri ovqatlanish natijasida immun tizimi zaiflashmoqda, bu esa inson organizmini turli kasalliklarga nisbatan sezgir va himoyasiz holga keltiradi. Shuningdek, gigiyena qoydalariga amal qilish, sifatli va havfsiz maxsulotlaridan foydalanish, ovqat

tayyorlash va istemol qilishda sanitariya talablariga rioya qilish ham immunetetni mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi.

Ovqatlanishni immun tizimiga ta’siri. Tog‘ri va balanslangan ovqatlanish immun tizimi faoliyatini rag‘batlantiradi. Oziq-ovqat maxsulotlari orqali zarur vitaminlar minerallar va boshqa bioaktiv moddalarni yetarli darajada iste’mol qilinishi immunitetni qo‘llab-quvvatlaydi. Oqsil moddalari immun hujayralarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun go’sht, baliq, tuxum, dukkakli mahsulotlar iste’moli immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, meva-sabzavotlar, yong‘oqlar, sut mahsulotlari va donli mahsulotlar ham organizmga zarur energiya va oziq moddalarni beradi. Immunitet tizimining samarali ishlashi uchun organizmga zarur bo‘lgan oziq moddalarni muntazam va muvozanatli ravishda iste’mol qilish talab etiladi. Eng avvalo, C vitamini (apelsin, limon, karam, qulupnay), D vitamini (quyosh nuri, baliq yog‘i, tuxum sarig‘i), A va E vitaminlari kabi immunitetni rag‘batlantiruvchi moddalarga boy mahsulotlar ratsionda yetarli bo‘lishi lozim. Ushbu vitaminlar organizmga virus va bakteriyalarga qarshi kurashishda yordam beradi. Ichak mikroflorasi sog‘lom bo‘lsa, immunitet ham kuchli bo‘ladi. Probiotik mahsulotlar — yogurt, kefir, achitilgan karam kabilar ichakdagi foydali bakteriyalarni ko‘paytirib, immunitetni yaxshilaydi. Zararli mahsulotlardan — fastfood, konservalar, gazli ichimliklar va ortiqcha shakarli mahsulotlardan cheklanish esa organizmning tabiiy himoya tizimini zaiflashtirishdan saqlaydi. Shuningdek, ovqatlanish tartibi ham muhim: kuniga 3–4 mahal ovqatlanish, ayniqsa ertalabgi nonushtani kanda qilmaslik kerak. To‘g‘ri ovqatlanish jismoniy faollik, toza havo, sifatli uyqu va stressdan holi turmush tarzi bilan birga olib borilgandagina kuchli immunitetga erishish mumkin.

To‘g‘ri ovqatlanishning gigiyenik talablari. Taomlar sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilingan holda tayyorlanishi kerek. Yangi, tabiiy mahsulotlardan foydalanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, zarur mikroblarga qarshi ishlov berish immun tizimni qollab-qovvatlashda muhim omillardan biridir.

Gigiyenik talablar asosida tashkil etilgan ovqatlanish nafaqat kasalliklarning oldini olishga, balki inson organizmining to‘g‘ri rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda noto‘g‘ri ovqatlanish natijasida yuzaga kelayotgan muammolar – semirish, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, oshqozon-ichak tizimi buzilishlari kabi holatlar global sog‘liqni saqlash muammolaridan biridir.

Shuningdek, sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan mahsulotlar bilan oziqlanish turli infeksiyon kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlarini to‘g‘ri tanlash, ularni tayyorlash va saqlash qoidalariga rioya qilish har bir inson uchun muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholining ovqatlanish madaniyatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa,

maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida bolalarni to’g’ri ovqatlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa kelajak avlodning sog’lom va baquvvat bo’lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Immun tizimini mustahkamlashda to’g’ri ovqatlanish asosiy va eng muhim omil hisoblanadi. Gigiyenik tamoyillarga asoslangan to’g’ri ovqatlanish kasalliklarning oldini oladi, organizmning tabiiy himoya tizimini kuchaytiradi va inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yoshi, jinsi va hayot tarzi hisobga olingan individual ovqatlanish tavsiyalari orqali sog’lom turmush tarzini shakllantirish mumkin. Shu boisdan, sog’liqni saqlashda va profilaktika choralarida gigiyena fanining bu sohaga bo’lgan e’tibori yildan yilga ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoldoshev A.X. "Gigiyena va sanitariya asoslari". - Toshkent: Tibbiyot, 2022. - 250 b.
2. Sattorova D. "Ovqatlanish gigiyenasi". - Toshkent: Fan, 2021. - 180 b.
3. Karimov B.M. "Biologik faol moddalar va sog’liq". - Toshkent: Salomatlik, 2020. - 200 b.
4. Qodirov S.T. "Tibbiy gigiyena asoslari". Toshkent: O‘zbekiston ,2023.- 220b.

HUDUDIIY SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARASI

Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti i.f.f.d(Phd)

Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich

Termiz davlat univeristeti 1-bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu ilmiy ishda hududiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Iqtisodiy barqarorlik – bu nafaqat iqtisodiy zarbalarga bardoshlilik, balki ularni yengib o’tish va tiklanish qobiliyatidir. Tadqiqotda diversifikatsiyalashgan sanoat tuzilmasi hududiy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish, mehnat bozorida muvozanatni saqlash hamda tashqi omillarga moslashuvchanligini kuchaytirish orqali barqarorlikni ta’minlashi asoslab beriladi. Cambridge universiteti va boshqa xalqaro manbalar asosida sanoatning xilma-xilligi inqiroz davrida iqtisodiy tizimning chidamliligini oshirishda muhim omil ekani statistik tahlillar yordamida yoritilgan. Xususan, mehnat malakasi, moliyaviy tizim va savdo ochiqligi kabi tashqi omillar bilan bir qatorda, hududiy sanoat tuzilmasi ham iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko’rsatishi aniqlangan.

Annotation: This scientific paper analyzes the impact of regional industrial diversification on economic stability. Economic stability is understood not only as the ability to withstand economic shocks, but also to recover and adapt effectively. The study demonstrates that a diversified industrial structure enhances regional economic resilience by promoting innovation, maintaining labor market balance, and increasing adaptability to external factors. Based on sources from the University of Cambridge and other international research, the analysis highlights that industrial diversity is a key factor in ensuring economic resilience during crises. Both internal factors such as industrial structure and external ones such as labor skills, financial systems, and trade openness have been identified as major contributors to regional economic stability.

Kalit so’zlar: Sanoat diversifikatsiyasi, iqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanish, inson kapitali, empirik tahlil, innovatsion salohiyat, mehnat bozori, tashqi zarbalar, iqtisodiy chidamlilik.

Keywords: Industrial diversification, economic stability, regional development, human capital, empirical analysis, innovation potential, labor market, external shocks, economic resilience.

Iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash barqaror iqtisodiy o’sishning kalitidir. Avvagi davr iqtisodiy tadqiqotlarni o’rganish jarayonida, iqtisodiyotning

o'zgaruvchanlikning darajasiga va uning rivojlanish ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Iqtisodiy barqarorlikning rivojlanish tendentsiyasi va sabablari mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikdagi farqlarga ajratilgan. Mintaqaning o'z vaqf shartlari ham sanoat diversifikatsiyasining iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi. Diversifikatsiyalangan tarmoqlar mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni yanada ko'proq rag'batlantirishi mumkin. Ko'gina iqtisodiy rivojlangan shaharlarga nazar salsak, sanoat diversifikatsiyasining rivojlanishi moliya, inson kapitali va texnologik inovatsiyalar kabi tashqi omillarning qo'llab-quvvatlashiga ham bog'ligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun, ushbu omillarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali, belgilangan mintaqaviy hududda sanoat diversifikatsiyasining rolini ijobiy o'zgartirishga erishish mumkin. Dunyo miqiyosidagi ushbu soha vakillari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarni o'rganish, ularning xulasalarini va sabablarni jamlash orqali hududlararo mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishimiz mumkin. Bundan tashqari jahon miqiyosida mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni shakllantirish va tadqiqot natijalari uchun barqaror rivojlanish siyosatini optimallashtirish uchun ilmiy asoslarning yaratilganligi bu sohaning chuqur o'rganilishiga asosiy imkoniyatlarni ochib beradi. So'nggi yillarda tashqi omillar orqali yuzaga kelayotgan turli-xil voqeallarning tez-tez sodir bo'lishi iqtisodiy noaniqlikning kuchayishi va iqtisodiy barqarorlikni doimiy holda o'zgarishsiz qolishiga sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy barqarorlikning kuchaytirilishiga jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan keng e'tibor qaratilmoqda va uning kontseptsiyasi ham doimiy ravishda boyitib boriladi. Iqtisodiy barqarorlik nafaqat iqtisodiyotning zarbalarga dosh berish, balki tezda tiklanish, iqtisodiyotning moslashish, atrof-muhit o'zgarishi va doimiy o'zgarish qobiliyatidir. Hududlar orasidagi kuzatishlar natijasida shu aniqki, kuchliroq iqtisodiy chidamlilik bilan sanoat kompaniyalari iqtisodiy xavfli holatlardan keyin o'z tuzilmalarini qayta tuzata oladi va tezroq rivojlanishga erisha oladi, ammo iqtisodiy barqarorligi zaif bo'lgan hududlar esa buning aksidir va keyinchalik ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarida pasayishlarni kuzatish mumkin. Hududlardagi diversifikatsiya qilishga doir empirik adabiyotlarning uzluksiz to'planishi bilan mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar asta-sekin oshkor bo'ldi. Ulardan biri hududiy sanoat tuzilmasi bilan bog'liq ichki omillar bo'lsa, ikkinchisi mehnat malakasi, moliyaviy tuzilma va savdo ochiqqligi kabi tashqi omillardir.

Ilk bor fizika sohasida shakllangan barqarorlik tushunchasi vaqt o'tishi bilan iqtisodiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topdi. Bu tushuncha rivojlanish davomida muhandislik, ekologik va evolyutsion yondashuvlar asosida takomillashib borgan. Dastlabki ikki yondashuv tizimdagi muvozanat holatini tiklashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda evolyutsion barqarorlik—ya'ni tizimning vaqt o'tishi bilan moslashuvchanlik asosida shakllanishi—alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Bugungi global iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan turli salbiy omillar, xususan, iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar yoki geosiyosiy muammolar hududlarning rivojlanish sur’atiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Ana shunday vaziyatlarda hududiy iqtisodiy tizimlarning mustahkamligi u yerda mavjud sanoat tarmoqlarining qanchalik turli va o’zaro bog’langanligiga bog’liq bo’lib qolmoqda. Sanoat diversifikatsiyasi—ya’ni hududda bir nechta tarmoqlar birgalikda faoliyat yuritishi—xavf omillarining ta’sirini kamaytirib, iqtisodiy tizimni himoyalashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Ayniqsa, faqat bitta soha yoki cheklangan tarmoqlarga tayanuvchi hududlar kutilmagan iqtisodiy zarbalarga nisbatan ancha zaif bo’ladi. Aksincha, turli sanoat yo’nalishlari rivojlangan hududlarda bir sohada yuzaga kelgan inqiroz boshqa tarmoqlar orqali muvozanatga keltiriladi. Bu holat iqtisodiy tizimning o’zini tiklash qobiliyatini kuchaytiradi, resurslar esa tezroq va oqilona qayta taqsimlanadi. Shuningdek, sanoat tarmoqlarining xilma-xilligi ilmiy-texnik yangiliklarni kengroq tatbiq etish imkonini yaratadi. Hudud ichida faoliyat yuritayotgan turli sohalar o’rtasidagi o’zaro aloqalar bilim va tajribaning kengroq tarqalishiga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi, texnologik yangiliklarning tezroq joriy etilishi hamda yangi imkoniyatlarning ochilishi uchun zamin yaratadi. Natijada, bunday hududlar nafaqat inqirozga bardoshli bo’ladi, balki undan tezroq chiqib, barqaror o’sishni tiklay oladi. Bundan tashqari, diversifikatsiyalashgan sanoat tizimi mehnat bozorida ham moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Turli sohalarning mavjudligi ishchi kuchi uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Mehnat resurslarining bir sohadan boshqasiga osonlik bilan o’tishi, ayniqsa, inqirozdan so’nggi tiklanish davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, sanoat diversifikatsiyasi iqtisodiy tizimlarning tashqi zarbalarga nisbatan bardoshlilikini oshirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va mehnat bozorida muvozanatni saqlash orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Hududiy korxonalarni iqtisodiy samarasini oshirishda sanoat tuzilishi eng muhim omil sifatida qabul qilina boshladi. Agar hududlardagi korxonalar o’rtasidagi raqobatdoshlik orqai rivojlanish uzoq muddatli bo’lsa, ushbu jarayonida ba’zi hududlar ma’lum bir foydali sanoatning rivojlanishiga haddan tashqari bog’liqdir. Ushbu "ixtisoslashtirilgan" rivojlanish usuli qiyosiy afzalliklarga ega bo’lishi va ma’lum bir davrda iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishi mumkin bo’lsa-da, u hali ham ko’p kamchiliklarga ega (Martin et al., 2019). Bu kamchiliklarning ta’siriga kelganda, ushbu mintaqalarning yetakchi tarmoqlari jiddiy zarar ko’rgandan so’ng, asl o’sish modelini saqlab qolish qiyin bo’lishi mumkin, bu esa butun hududda iqtisodiy o’sishning turg’unligiga olib keladi. Sanoatlashtirishning uzluksiz rivojlanishi bilan sanoat taqsimoti va ko’proq hududlarning joylashuvi yanada takomillashtirildi va

mintaqaviy sanoat tuzilmasi soddalashtirilda va diversifikatsiyaga o'zgardi. Ko'p tarmoqli sanoat tuzilmasi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, turli-xil omillar oqimini, servislarning rivojlanishi va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarishni tezlashtiradi. Biroq, iqtisodiy barqarorlikning ta'siri bo'yicha chuqur tadqiqotlar hali ham mavjud emas. Sanoat diversifikatsiyasi va iqtisodiy barqarorlik bo'yicha oz miqdordagi tadqiqotlar asosan xavf zarbalari ostidagi bir yoki bir nechta aniq mintaqalarning yengish qobiliyatiga qaratilgan, bu esa umumiy qonunlarni jamlab, hamma uchun yaxlit global tartib ketma-ketligini yaratishga to'sqinlik qiladi.

Sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, ya'ni bir hududda turli sohalarning rivojlanishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu yondashuv, hududiy iqtisodiy tizimlarning tashqi zarbalarga nisbatan bardoshlilikini oshiradi va ularning inqirozlardan tezroq tiklanishiga yordam beradi. Cambridge universitetining Industrial Resilience tadqiqot guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarining xilma-xilligi hududiy iqtisodiy tizimlarning barqarorligini mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, global pandemiyalar yoki iqtisodiy inqirozlar davrida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki diversifikatsiyalashgan hududlar bunday zarbalarga nisbatan tezroq moslashadi va tiklanadi. Shuningdek, sanoat diversifikatsiyasi innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Turli sohalarning bir hududda mavjudligi bilim almashinuvi va yangi texnologiyalarning joriy etilishini tezlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi. Turli sohalarning mavjudligi ishchi kuchining boshqa sohalarga o'tishini osonlashtiradi, bu esa ishsizlik darajasini kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Umuman olganda, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi hududiy iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta'minlashda, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda va mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv, hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun zaruriy strategik yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati:

1. Martin, A., Johan, P., & Joakim, W. (2019). The economic microgeography of diversity and specialization externalities: Firm-level evidence from Swedish cities. *Research Policy*, 48(6), 1385–1398.
2. Martin, R., Sunley, P., Gardiner, B., & Tyler, P. (2016). How regions react to recessions: Resilience and the role of economic structure. *Regional Studies*, 50(4), 561–585.

3. <https://www.ciip.group.cam.ac.uk/innovation/structure-and-performance-of-the-uk-economy-2024/>
4. [Cambridge Industrial Innovation Policy+7Frontiers+7SAGE Journals+7](#)
5. <https://www.frontiersin.org/journals/environmental-science/articles/10.3389/fenvs.2022.987396/full>

ISLOM DINI VA MADANIYATI

Lazizbek Hayitov

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Biloliddin Sayfiddin o‘g‘li Sulaymonov

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, yo‘nalishi 5.2 - ITM 21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dini va uning madaniyatga ta’siri tahlil qilinadi. Islom nafaqat diniy e’tiqod tizimi, balki keng qamrovli madaniy hodisa sifatida insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi. Maqolada Islom qadriyatlari, ilm-fan, san’at, me’morchilik va adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri yoritilib, uning jamiyat hayotidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, Islom madaniyatining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy dunyodagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Islom dini, musulmonlar, payg‘ambar, Qur’oni Karim, bo‘ysunish, Makka, sura.

РЕЛИГИЯ И КУЛЬТУРА ИСЛАМА

Аннотация: В этой статье анализируется религия ислам и ее влияние на культуру. Ислам занимает важное место в истории человечества не только как система религиозных верований, но и как всеобъемлющее культурное явление. В статье освещаются ценности ислама, его влияние на науку, искусство, архитектуру и литературу, раскрывается его роль в жизни общества. Также анализируются этапы развития исламской культуры и ее значение в современном мире.

Ключевые слова: ислам, мусульмане, пророк, Коран, подчинение, Мекка, Сура.

ISLAMIC RELIGION AND CULTURE

Annotation: This article analyzes Islam and its impact on culture. Islam occupies an important place in the history of mankind not only as a system of religious beliefs, but also as a comprehensive cultural phenomenon. The article highlights the influence of Islam on values, science, art, architecture and literature and reveals its place in the life of society. The stages of development of Islamic culture and its importance in the modern world are also analyzed.

Keywords: Islam, Muslims, Prophet, Quran Karim, submission, Mecca, sura.

KIRISH:

Islom dini insoniyat tarixidagi eng yirik va ta’sirchan diniy-madaniy tizimlardan biri hisoblanadi. VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo’lgan bu din qisqa fursat ichida keng hududlarga tarqalib, turli xalqlarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko’rsatdi. Islom faqatgina e’tiqod va ibodatlar majmuasi emas, balki ilm-fan, san’at, me’morchilik, adabiyot va axloqiy qadriyatlarni o’zida mujassam etgan mukammal madaniy fenomen sifatida namoyon bo’ldi.

Mazkur maqolada Islom dinining madaniyatga ta’siri, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy dunyodagi o’rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Islom tamadduni orqali shakllangan ilmiy va madaniy yutuqlarning bugungi jamiyat uchun ahamiyati yoritiladi. Bu mavzu nafaqat tarixiy jarayonlarni tushunish, balki hozirgi globallashgan dunyoda Islom madaniyatining o’rnini anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM:

Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi I.ga e’tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko’prog’i Osiyoda yashaydi va bu qit’a aholisining 20% idan ortiqrog’ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to’g’ri keladi (qita aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo’lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasidamusulmonlar aholining ko’pchiligini tashkil qiladi Muhammad (s.a.v.) ana shundayshaxs sifatida nafaqat arablar dunyosida, balki butun musulmon olamida yangisivilizatsiyaga asos soldi. 40 yoshidan boshlab u Allohdan kelgan vahiy larni o’z qabiladoshlariga etkazadi. Muhammad (s.a.v) (571-632) –islom dini asoschisi va payg’ambari. Musulmonlar e’tqodiga ko’ra, Allohning oxirgi payg’ambari va elchisi.

Muhammad ismiga “sallalohu alayhi vassallam” (sav) –“unga Allohning rahmat va salomi bo’lsin” deb salovat aytib qo’shib qo’yiladi. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari tarixiy taraqqiyotida VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo’lgan va VIII asrda mintaqamizga ham yoyilgan islom dini muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Chunki islom dini, uning asosiy kitobi «Qur’oni Karim» va undan keyingi asosiy manba hisoblangan hadislar Allohga, uning payg’ambari Muhammad alayhissalomga e’tiqod qilish bilan birga ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o’zaro ahil bo’lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafosadoqatlilik, poklik, adolat, diyonat kabi insoniy sifatlar haqidagi jihatlari va yaxshi fazilatli hamda odob-axloqli bo’lishlik yo’llari bayon etilgan. Xuddishuningdek, islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat’iy nazar, inson insonligi uchun ulug’lanadi. Millatchilik, bir-birini kamsitish, talon-tarojlik, irqchilik islomda yo’q va bo’lmagan. Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqorituradigan olamshumul ta’limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do’st, yorubirodar qilib,

tinch-omon yashashlarini o'qtirib keladi. Ayni paytda islom dinidarazolat, kibr-havo, adovat, xasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi.¹³

ISLOM (arab.-bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish)-jahonda uch din (buddaviylik, xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” deb ataladi. Islomning eng asosiy talabi hisoblangan kalimai shahodatda “La ilaha illallohu Muhammadun Rusul-Alloh” (Allohdan o'zga iloh, Muhammad uning payg'ambaridir), deb uqtiradi. Qur'oni Karimda Allohning yagonaligi va buyukligi juda ko'p bor Qur'oni Karimda ta'kidlanadi. 1 Islom tarixiga ko'ra Qur'onning sura va oyatlari Muhammad payg'ambarga parcha-parcha tarzida vahy qilib borilgan; bu vahyning birinchi bayoni «Laylatur qadr» kechasi boshlanib, ularning vafotlarigacha, ya'ni 23 yil davom etgan. Islom dini, nur imon va hidoyatining boshlanishi bo'lgan ana shu tun diniy an'ana bo'yicha hijradan 12 yil oldin ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi melodiylar hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi deb hisoblanib, Qur'onni vahiy qilinishning boshlanishi to'g'risida 97-«Qadr» surasida ifodalangan. «Albatta Biz u (Qur'on)ni Qadr kechasida nozil qildik. (Ey Muhammad) Qadr kechasi nima ekanini Sizga ne ham anglatir?! Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir?!» (97,1-3).

Islom manbalarida rivoyat qilinishicha, Muhammad payg'ambar 40 yoshga etganlarida, ya'ni 610 yili Makka shahri yaqinidagi Hiro nomli g'orda yolg'iz qolib, ibodat bilan mashg'ul paytlarida, farishta Jabroil (a.s.) ularga birinchi bor Qur'on oyatlarini keltirganlar. Odatda Jabroil (a.s.) payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga oyatlarni o'qib berar, ular yodlab olib, o'z izdoshlariga etkazar edilar. Ular ham o'z navbatida shunday qilar edilar¹⁴. O'sha davrlarda mutlaqo ko'pchilik, shu jumladan Muhammad payg'ambar ham o'qish, yozishni bilmaganliklari uchun yodlab olish u davrning birdan bir usuli bo'lgan. Bu vahy melodiylar yil hisobida 22 yil, hijriy esa 23 yil davom etgan. Oyatlarda odamlarning savollariga javob berib, ularni to'g'ri yo'lga etaklagan, yuz bergan hodisalarni talqin qilib berilgan. Biron hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani bayon qilinabergan. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafot etganlarida ularning safdoshlari Qur'onni yod bilganlar. O'sha paytda oz sonli kishilargina o'qish-yozishni bilganlar. Savodli musulmonlar yozish imkoni bo'lgan narsalarga Qur'on oyatlarini aniqlik bilan yozib borganlar. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan. «Qur'oni Karim» g'oyalari, qadriyatlar (odamlarni to'g'rilik, rostgo'ylik, poklik, halollik, ezgulik, yaxshilik, saxovat, do'stlik, birodarlik, o'zaro totuvlik, hamjihatlik, tinchligu osoyishtalikka undash va h.k.), islomiy ahkomlar, jamiyatu odamlar

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O'zbekiston, 2018.

¹⁴ Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. – T.: Hilol-nashr nashriyoti. 2019.

hayotiga singdirib borilib, shu asosda ular avvalgi ko‘pxudolik, g‘ayridiniy sarqitlardan, xurofot tushunchalaridan xalos bo‘lib bordilar. Xalifa Usmon payg‘ambarimiz o‘limidan keyin og‘izma-og‘iz ko‘chib yurgan “Qur‘oni Karim” matnlarini bir joyga to‘plab, yagona mukammal matnni yaratib, islom madaniyati tarixida nom qoldirgan. U kotib Muxammad Zayd ibn Sobit ko‘magida va payg‘ambarimizning tirik sahobalari guvohligida “Qur‘oni Karim”ning yagona nusxasini tuzib chiqadi. So‘ng yagona nusxadan besh nusxa ko‘chirib Makka, Madina, Damashq, Kufa va Basra shaharlarida saqlashga buyuradi.

Xalifa Usmon Qur‘oni Amir Temur Shom (Suriya) yurishidan o‘lja sifatida o‘z poytaxtiga olib kelgan. Temuriylar tarixi Davlat muzeyida saqlanayotgan mavjud “Qur‘oni Karim” dastlabki tayyorlangan islomiy manbadir. Ayni chog‘da islom madaniyatining gultojisi hisoblangan hadisshunoslik ilmi rivoj topib bordiki, bunda xam peshqadamlikni o‘rta Osiyolik buyuk muhaddis olimlar egalladilar. Islom olamida Qur‘oni Karimdan keyin mo‘tabar manba, bu hadisi sharifdir. Sharif degan so‘z arabcha bo‘lib, sharaflı, aziz, qadrli degan ma‘nolarni anglatadi. Sharif unvoniga sazovor bo‘lgan shaharlar, bular: Shom, Bag‘dod, Quddus, Mozori Sharif va Buxoroyi Sharifdir.¹⁵

Muhammad sallollohu alayhi va sallamning aytgan gaplari, qilgan ishlari, shularning hammasi sunnat hisoblanadi. Bular haqidagi dalolat esa xadisdir. Butun musulmon dunyosida birdan-bir to‘g‘ri, ishonchli deb tan olingan 6 nafar hadisshunolar: Imom Buxoriy, Imom Muslim al Hajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sijistoni, Imom An-Nasafi, Imom Abdulla ibn Yazib ibn Mojjar hammasi aslan Markaziy Osiyolik bo‘lib, ularning «qutubi sitta» («Olti kitob») asari butun dunyoga mashhurdir. Ular orasida Imom Buxoriy (810-870) va ul zotga mansub «Al jome‘ assahih» («Ishonarlı to‘plam») asari yagonadir. Bu asarni islomshunoslar «Qur‘oni Karim»dan keyingi ulug‘ o‘ringa qo‘yadilar. 4 jilddan iborat bu muborak kitobga 7275 ta eng sahih (ishonarlı) hadislar kiritilgan bo‘lib, ular nihoyatda qimmatli tarbiyaviy ma‘rifiy ahamiyatga egadir. Allomaning «Al adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari ham mashhurdir. Bular mustaqillik yillarida o‘zbek tilida birinchi bor chop etildi. Uning bulardan tashqari yana 20 dan ziyod asarlari mavjud. Alloma tavalludining 1225 yilligi o‘lkamizda 1998 yilning oktabrida keng nishonlandi hamda uning xoki-poyi dafn etilgan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘ida esa unga bag‘ishlab yodgorlik majmui barpo etildi.

Imom Buxoriy shogirdi va izdoshi Imom at-Termiziy (824-892) xam buyuk xadisshunos allomalardan biridir. Uning mashxur asari «Al-jome‘» deb ataladi. «Ashshamoil an-nabaviyya» («Payg‘ambarning aloxida fazilatları», 408 ta xadisu sharifni o‘z ichiga olgan mazkur asar 1991 yilda o‘zbek tilida birinchi bor chop

¹⁵ Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T.: O‘zbekiston, 1997.; Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. –T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.

etilgan), «Kitob azzuxd» («Taqvo haqida») va boshqa kitoblar ham bu zoti sharif qalamiga mansubdir. Islom ta’limotida shariat va uning ruknlari xam muxim o’rin tutadi. Shariat (arabchada to’g’ri yo’l, qonunchilik ma’nosida) - islom diniy xuquqi, ya’ni barcha musulmonlar uchun bajarilishi majburiy bo’lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko’rsatmalar majmuidir. Islomiy ilm taraqqiyotida alloma Burhoniddin Marg’inoniy (1123-1197) ning xizmati ham buyukdir. U 1178 yili “Hidoya” (“To’g’ri yo’l”) noyob asarini yaratadi. Bu kitobda o’sha zamonlarda, jumlai musulmonlar duch keladigan dolzarb masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoiy jazo va insonning burch va mas’uliyatlariga taalluqli juda ko’p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib beradi. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom Sharqida xam islom-huquqshunosligi bo’yicha nufuzli huquqiy manba – asosiy qo’llanma sifatida foydalanilgan. Alloma «Bidoyat al-mubtadiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim»), «Kifoyat al-muntaxiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Kitob al-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Manosik ul-xaj» («Haj marosimlari»), Kitob ul-mashoyix («Shayxlar haqida kitob») va boshqa ko’plab asarlar muallifidir. Bu asarlarda adolat tuy’usi, o’z davrining xuquqiy mezonlari asosida yashash, o’zganing mol-mulkiga ko’z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Allomaning ilmiy merosi jahonning ko’plab oliy o’quv yurtlarida musulmon xuquqshunosligi yo’nalishida o’rganiladi¹⁶.

Yaqin Sharq, Markaziy Osiyolik olimu fuzalolar Islom ilmi rivojiga buyuk hissalarini qo’shar ekanlar, Allohning yakkayu yagonaligi, Allohning bir ekanligi to’g’risidagi tavhid bilan ham mashhur bo’ldilar. Fanning bu jabhasida, sirlar sirida ish ko’rgan zamon ulamolari va fuzalolari orasida buyuk qobiliyat egasi Abu Mansur Moturidiy nomi aloxida ajralib turadi. Uning mashhur asarlari jumlasiga «Tavhid» asarini nisbat berish mumkin. Ushbu asar o’sha zamon va davr ehtiyoji sifatida dunyoga kelgan. Sababi Moturidiy yashagan davr islom olamining «Oltin davri» xisoblangan. Ana shu davrda islom ilm markazi Bag’doddan o’rta Osiyoga ko’chgan, Samarqand «Oltin davr» markaziga aylangan.

Moturidiy islom ilmidagi yuksak ilmiy muvoffaqiyatlari evaziga «Abu Mansur», ya’ni «g’olib ota» martabasiga musharraf bo’ldi. Islom shariati besh diniy-xuquqiy mazxabdan iborat. Sunniylikda: hanafiya, molikiya, shofi’iya, xanbaliya mazhablari, Shialikda esa ja’fariya mazhabi bor. Yer yuzida jami 1,3 mlrd. musulmonlarning 47 foizi hanafiy, 27 foizi shofiyyi, 17 foizi molikiy, 7,5 foizi ja’fariy (shialar), 1,5 foizi xanbaliy mazhabidadirlar. Umumiy qilib olganda sunniylar 92,5 foizni, shialar esa

¹⁶ Abduhalimov B. Baytul hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag’doddagi ilmiy faoliyati. –T.: O’zbekiston, 2010.

7,5 foizni tashkil etadi. Tasavvuf - bu odamlarni halollik, poklik, tenglik, inson qadr-qimmatini ulug’lash, o’z mehnati bilan kun ko’rish, boshqalar kuchidan foydalanmaslik va ijtimoiy adolat qoidalariga da’vat etuvchi ezgu ta’limotdir. Xuroson va Movarounnaxr axolisi o’rtasida tasavvuf-falsafiy ilmi taraqqiyotida Yusuf Hamadoni katta obro’-e’tibor va xurmat qozongan. U asosan Buxoro shaxrida yashab yoshlarga tasavvufdan saboqlar bergan xamda juda ko’plab shogirdlar tarbiyalagan. Yusuf Hamadoniyni pir tutgan muridlaridan 213 tasi mashxur shayxlar bo’lib yetishganlar. Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdullox Barraqiy, Xoja Axmad Yassaviy, Xoja Abduxoliq g’ijduvoniylar uning to’rt zabardast xalifasi hisoblanadi.

Yurtimizda ildiz otgan Yassaviya (Axmad Yassaviy), Kubroviya (Najmiddin Kubro), Naqshbandiya (Xoja Bahovuddin Naqshband) ta’limotlari mohiyatan shunday olijanob g’oyalar ruxi bilan sug’orilgan. Jumladan, «Yassaviya» tariqatining bir qator asosiy qoidalar (odoblari)ga nazar tashlar ekanmiz, bunda insonlarning Allox visoliga yetishish yo’lida tinimsiz izlanishlari hayotning turli-tuman sinov-sinoatlariga dosh berishlari, o’z e’tiqodlarida sobit, ezgulik, haq yo’lida hamisha sa’y-harakatlarda bo’lishlari kerakligiga alohida urg’u berilganligi ayon bo’ladi. Shu bois Yassaviy «Hikmat»larida poklik, xalollik, to’g’rilik, mexr-shafqat, o’z kuchi, peshona teri va xalol mexnati bilan kun kechirish, Allox taolo visoliga yetishish yo’lida insonni botinan va zohiran xar tomonlama takomillashtirish kabi ilg’or umuminsoniy o’adriyatlar ifoda etilgan. Huddi shunday yuksak g’oyalar Kubroviya, Naqshbandiya singari tariqatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mamnuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmiddin Kubro qalamiga mansub “Favo’ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol”, “Al- Usul al-ashora”, “Risolutut-turk” kabi 30 ga yaqin noyob asarlar mavjud¹⁷.

Uning tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog’lanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning halollik, odamiylik, molu-dunyoga hirs o’ymaslik, o’z nojo’ya ishlaridan tavba qilishdek axloqiy-g’oyaviy, tarbiyaviy talab-qoidalar bizning kunlarimizda ham g’oyatda muhim ahamiyatga molikdir. o’z davrining komil insoni Bahouddin Naqshband haqida gapiradigan bo’lsak, avvalo u asos solgan Naqshbandiylikning asosiy mohiyati “qo’l ishda, Alloh dilda”, “Kam yegil, kam uxla va kam gapir!” degan ulug’ nasihatlar o’ta hayotiydir. Naqshbandiya ta’limoti halol mehnat qilishga, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdosotiq, ilm-ma’rifat, xattotlik, badiiy adabiyot, musiqa bilan shug’ullanish kabi foydali kasb-hunarli va xayrli ishlar sari da’vat etadi. Zotan, mustaqillik sharofati bilan yurtimiz tarixida, uning ma’naviy sarchashmalarida sezilarli iz qoldirgan, ularni o’z pok ruhoniylar ta’limotlari ila boyitgan ulug’ salaflarimiz – Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G’ijduvoni, Kaffol Shoshiy, Xoja Ahror Valiy singari

¹⁷ Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O’rta asrlar). O’quv qo’llanma. –T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.; Грюнебаум Г.Е. Основные черты арабо-мусульманской культуры. –М. 1981

bobokalonlarimiz aziz nomlari tiklanib, asarlari chop etilib, bebaho meroslaridan bahra olayapmizki, bu biz uchun katta baxtdir.

XULOSA:

Islom dini nafaqat e’tiqod tizimi, balki boy madaniy merosga ega tamaddun sifatida ham insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan. Uning ilm-fan, san’at, me’morchilik va adabiyotga bo’lgan ta’siri bugungi kunda ham dolzarb bo’lib qolmoqda. Islom madaniyati asrlar davomida shakllangan qadriyatlari bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan va bugungi globallashgan dunyoda ham o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois, Islom tamaddunining o’tmish va hozirgi zamondagi o’rnini chuqur o’rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Abduhalimov B. Baytul hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. –T.: O‘zbekiston, 2010.
3. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.
4. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. – T.: H1lol-nashr nashriyoti. 2019.
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T.: O‘zbekiston, 1997.
6. Грюнебаум Г.Е. Основные черты арабо-мусульманской культуры. – М. 1981.

UMUM TA’LIM MAKTABLARIDA ”OKSIDLAR VA ULARNING TUZILISHI ” MAVZUSINI O’QITISHDA INTEFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Boltayeva Gulsevar Abdulla qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oksidlarning nomlanishi, olinishi va fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilinadi. Shuningdek, oksidlarni o’rganishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish o’quvchilarning qanchalik xotirasi zehnli ekanligini bilish va ularni shu fanga qiziqtirishlarini orttirish bo’yicha umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: “Aqliy hujum” metodi, oksidlar, ta’lim oluvchilar, kislotali oksidlar, kimyoviy xossalari, fizik xossalari.

Аннотация: В этой статье рассматриваются классификация и физико-химические свойства оксидов. Также исследуется метод умственного нападения который позволяет узнать насколько хорошо развита памяти и сообразительности учащихся а также повысить их интерес к данной дисциплине. В статье приведена общая информация о данном методе.

Ключевые слова: Метод умственного штурма, оксиды, обучающиеся, физические свойства, химические свойства.

Kirish. Biz bilamizki hozirgi paytda eng zamonaviy metodlar orqali ta’lim oluvchilar tomonidan erkin fikrlar bayon etiladi. Shu metodlar ichidan biz Aqliy hujum metodini qo’llasak bu og’zaki va yozma shaklda bayon etiladi. Ta’lim oluvchilar faqat og’zaki emas, balki yozma shaklda bayon etishi mahoratini mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bu metod quyidagilardan iborat.

1. Ta’lim oluvchilar e’tiboriga savol tashlanadi va ular shu savol bo’yicha javoblarini bildirishlari so’raladi.

2. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari to’planadi.

3. Fikrlari ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya’ni ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda bu metod darsning kirish qismida amalga oshiriladi. Ayni paytda oksidlar haqida so’z borar ekan avvalo “oksid nima?” degan savolga javob topamiz.


Asosiy qism. Oksidlar- bu biri kislorod bo’lgan ikki elementdan tashkil topgan murakkab moddalar bo’lib ularning ko’plab turlari mavjud. Asosan, tabiatda shu jumladan atmosfera, suv va qattiq moddalarda uchraydi. Oksidlarni biz ikkita guruhga bo’lamiz bular: 1. Metall oksidlar 2. Metallmas oksidlar Metallik oksidlar- bu

metallar bilan kislorodning birikmasi natijasida hosil bo‘lgan oksidlar hisoblanadi. Bu oksidlar odatda asosiy xususiyatlarga ega bo‘lib suv bilan reaksiyaga kirishganda asoslarni hosil qilishi mumkin.

Metallmas oksidlar esa, metallmaslarning bilan kislorodning birikmasi natijasida hosil bo‘ladi. Bu oksidlar asosan kislotali xususiyatlarga ega bo‘lib suv bilan reaksiyaga kirishsa kislotalarni hosil qiladi. O‘zbekiston kimyo sanoati va ilm-fan rivojlanishida oksidlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Davlat tomonidan qabul qilingan texnologik modernizatsiya dasturlari doirasida oksidlarning yangi turlari ularning olinishi va qo‘llanilishi sohalarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, “ Kimyo sanoatini rivojlantirish bo‘yicha 2020-2030- yillar uchun davlat dasturi” da oksidlar asosida yaratilgan materiallardan energiya va ekologik samaradorlikni oshirish maqsadida foydalanish belgilangan. Oksidlar tabiatda keng tarqalgan va ko‘plab texnologik jarayonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular sanoatda xomashyo, katalizator, o‘tkazgich, shuningdek , qurilish materiallari sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan alyuminiy oksidi (Al_2O_3) Alyuminiy ishlab chiqarishda asosiy material hisoblanadi, silikon dioksid (SiO_2) esa shisha va keramika ishlab chiqarishda ishlatiladi. Oksidlarning ko‘p qirraliligi ularning kimyoviy va fizik kimyoviy xossalari bilan bog‘liq bo‘lib bu ularni fundamental va amaliy kimyo uchun muhim qilmoqda.

Oksidlarning olinishning asosiy usullari:


Elementlarni kislorod bilan tog‘ridan -to‘g‘ri reaksiyaga kiritish:



Kimyoviy birikmalarni qizdirish:



Metallarning gidrooksidlari yoki karbonatlarini parchalanishi:



Fizik va kimyoviy xossalari: Oksidlarning rangi elementga bog‘liq. Masalan CuO -qora, Al_2O_3 - oq rangda.



Shuningdek ular turli agregat holatlarda bo‘ladi. Suv bilan reaksiyalari:
 $\text{CaO} + \text{H}_2\text{O} = \text{Ca}(\text{OH})_2$.

Aqliy hujum metodidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarga quyidagi savollar tashlanadi:

1.Oksidlar xossalriga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?	Javob: Tuz hosil qiluvchi va tuz hosil qilmaydigan oksidlarga bo‘linadi.
2.Oksidlarning xossalriga nimalar kiradi?	Javob: Agregat holati, rangi, ishqorlar va kislotalar bilan ta’sirlashishi.
3.Eng muhim oksidlarga nimalar kiradi?	Javob: SiO ₂ , CaO, SO ₂ , NO ₂
4.Tuz hosil qilmaydigan oksidlar nima deb ataladi?	Javob: Befarq oksidlar
5.Oksidlarning umumiy formulasi?	Javob: E ₂ On
6. Kislota bilan ham ishqorlar bilan ham tuz hosil qiladigan oksid qaysi?	Javob: Amfoter oksid .
7.Asosli oksid kislotali oksidlar bilan ta’sirlashib nimani hosil qiladi?	Javob: Tuzlarni hosil qiladi.

Oksidlar kimyo fanining asosiy sinflaridan biri sifatida ilmiy va texnologik jihatdan alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqola davomida oksidlarning tasnifi, olinishi va xossalari batafsil tahlil qilinadi.Oksidlarning xossalari ularni keng ko‘lamda qo‘llash imkonini beradi.

Asosiy oksidlar qurilish sanoatida ohak va sment ishlab chiqarishda.Kislotali oksidlar: mineral o‘g‘itlar va kimyoviy moddalar ishlab chiqarishda Amfoter oksidlar esa qimmatbaho metallarning rafinatsiyasida qo‘llaniladi.

Amaliy ahamiyati:Oksidlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki ularning o‘rganilishi faqat kimyo sohasida emas balki, ekologiya, biologiya, va materialshunoslikda ham muhimdir.Kimyoviy reaksiyalarda ham oksidlarning roli quyidagicha:Oksidlar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida asosiy rol o‘ynaydi, bunda moddalar o‘rtasida elektronlar o‘tkaziladi.Oksidlanish-qaytarilish oksidlar oksidlovchi yoki qaytaruvchi sifatida harakat qilishi mumkin.Masalan,natriy oksidi (Na₂ O) suv bilan reaksiyaga kirishib natriy gidrooksidi (NaOH) hosil qiluvchi asosli oksid, (SO₂) esa suv bilan reaksiyaga kirishib (H₂ SO₄) kislotali oksid hosil qiladi.Oksidlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq ekologik muammolari ham mavjud. Shuni aytish joizki, suvning ifloslanishi ya’ni ba’zi oksid ishlab chiqarish jarayonlari suvdan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin va agar to‘g‘ri foydalanmasa yoki boshqarilmasa hosil bo‘lgan oqava suv

havzalarini ifloslantiruvchi moddalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek chiqindilarni ham hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin, sarflangan reaktivlar yoki ifloslangan erituvchilarni yo‘q qilish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, N. A. Umumiy va Noorganik kimyo - Toshkent fan va texnologiyalar-2020
2. Abdurashidov, A. R. Kimyoviy elementlarning reaksiyalari va tuzilmalari Toshkent. 2019.
3. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002.
4. N. A. Parpiyev, A. G. Muftaxov, H. R. Rahimov, Anorganik kimyo. –T.: “O‘zbekiston”, 2003.

G‘AZNACHILIK FAOLIYATI MEXANIZMI

Shuhratov Mirjalol Umidbek o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliqlar va Byudjet hisobi” fakulteti talabasi
mirjalolshuhratov04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda G‘aznachilikda Yagona g‘azna hisobraqami va boshqa g‘azna hisobvaraqlarini yuritilishi, Byudjet daromadlarining g‘azna ijrosini tashkil etish, Byudjet tizimi Byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosini ta’minlash, Markaziy bank, Davlat Byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari, shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari, Byudjet tizimi Byudjetlari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Yagona g‘azna hisobraqami, Markaziy bank, Davlat Byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari, shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari, Byudjet tizimi Byudjetlari.

O‘zbekistonda Yagona g‘azna hisobraqami qanday yuritiladi?

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni Davlat Byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi respublika Byudjetining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lari mavjud bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tijorat banklarida depozitlarga joylashtirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘larning hajmini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi respublika Byudjetining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini joylashtirish va ularni tijorat banklarida depozitlarga joylashtirishdan olingan daromadlardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

G‘aznachilik mexanizmi - davlat Byudjeti ijrosini ta’minlashning bir shakli bo‘lib, unda maxsus idora davlat soliqlarini yig‘imi va ulardan foydalanishni ta’minlaydi, mablag‘lar ustidan nazorat amalga oshiriladi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlarini boshqaradi hamda Byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar, Byudjet tashkilotlarining Byudjetdan tashqari mablag‘lari pul oqimlari monitoringini olib boradi.

YaG‘H dagi mablag‘lar taqsimlovchisi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachiligi hisoblanadi. YaG‘H O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (G‘aznachilik bo‘linmalari) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o‘zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

Byudjet daromadlarining G‘azna ijrosini tashkil etish.

Byudjet tizimi Byudjetlari daromad qismining ijrosi:

- tushumlarni Yagona G‘azna hisobvarag‘iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni;
- tushumlarni Byudjet tizimining Byudjetlari o‘rtasida taqsimlashni;
- ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to‘lash evaziga hisobga olishni;
- hisob va hisobotni nazarda tutadi.

Byudjet tizimi va BMJ Byudjetlari xarajatlari YaG‘H yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligining (G‘aznachilik bo‘linmalarining) boshqa bank hisobvaraqlaridan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda hamda:

•O‘zbekiston Respublikasi respublika Byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika Byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar Byudjetlari, shuningdek tumanlar va shaharlar Byudjetlari;

- DMJ va BMJ Byudjetlari;
- Byudjet tashkilotlarining Bbudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari qoldig‘i doirasida amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarning tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarini sotishdan, shuningdek inventarizatsiya (tekshirishlar) natijalari bo‘yicha tushgan mablag‘lar YaG‘Hga kirim qilinadi hamda Byudjet tashkilotlarining Byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha tegishli shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida keyinchalik Byudjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qayta taqsimlash orqali hisobga olinadi.

DMJ yoki BMJ Byudjetlaridan mablag‘ oluvchilarning joriy moliya yilida qaytarilgan o‘tgan yillarning debitor qarzdorlik summolari, shuningdek tovarmoddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirishlar) natijalari bo‘yicha tushgan mablag‘lari YaG‘Hga kirim qilinadi va tegishli DMJ va BMJ Byudjetlarida joriy moliya yilining daromadi sifatida hisobga olinadi.

DMJ yoki BMJ Byudjetlaridan mablag‘ oluvchilarning Byudjet mablag‘lari hisobidan sotib olingan tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarini sotishdan tushgan mablag‘lar tegishli Byudjetlar daromadiga o‘tkaziladi.

Byudjet tizimi Byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosini ta’minlash.

Byudjet tizimi Byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi:

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olishni;
- kassa xarajatlarini amalga oshirishni, shu jumladan Byudjetlararo transfertlarni o‘tkazishni;
- hisob va hisobotni nazarda tutadi.

Byudjet tizimi Byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida hamda Byudjet tashkilotlari va Byudjet mablag‘lari oluvchilar faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy majburiyatlari bo‘yicha undiruvni nazarda tutuvchi ijro hujjatlarini ijro etish:

- birinchi navbatda Byudjet tashkilotlarining Byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan;

- to‘lanishi lozim bo‘lgan qarz Byudjet tashkilotining xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlar moddasiga muvofiq bo‘lganda – Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika Byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika Byudjeti, viloyatlarning viloyat Byudjetlari, Toshkent shahrining shahar Byudjeti, tumanlar, shaharlar Byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari Byudjetlari o‘rtasidagi tegishli Byudjet biriktirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tegishli Byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga doir munosabatlar – Byudjetlararo munosabatlardir. Byudjetlararo transfertlarni o‘tkazish g‘azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/mact/-2304138> - O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi
2. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/29/NamDU-ARM-12076-GAZNACHILIK_ASOSLARI_.pdf

G’AZNACHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Begaydarova Madinabonu G’ayrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “BNG‘-60/22” guruh talabasi

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

Ilmiy rahbar Budget husobi va g’aznachilik kafedrası PhD, dotsent

Annotatsiya: “G’aznachilik faoliyatini tashkil etish bo’yicha xorijiy tajribalar” nomli ushbu tezis turli mamlakatlarda g’aznachilikni boshqarish bo’yicha ilg’or global tajribalarni o’rganadi. U AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi mamlakatlarda pul oqimlarini boshqarish, xavflarni nazorat qilish, davlat qarzi va moliyaviy hisobotlarga e’tibor qaratgan holda g’aznachilik tuzilmalarini taqqoslaydi. Tadqiqot markazlashgan va markazlashmagan g’aznachilik tizimlari qanday ishlashi, moliyaviy texnologiyalarning ta’siri va hukumatlar davlat moliyasini boshqarishda duch keladigan muammolarni tahlil qiladi. Xorijiy modellarni ko’rib chiqish orqali tezis turli kontekstlarda g’aznachilik amaliyotini, fiskal mas’uliyatni va davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish bo’yicha tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so’zlar: G’aznachilik boshqaruvi, davlat moliyasi, pul oqimini boshqarish, risklarni boshqarish, qarz boshqaruvi, moliyaviy hisobot, markazlashtirilgan g’aznachilik, markazlashtirilmagan g’aznachilik, global g’aznachilik modellari.

Kirish

Ushbu tezis byudjet tizimlari, davlat daromadlari, moliyaviy boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik kabi asosiy yo’nalishlarga e’tibor qaratgan holda g’aznachilik faoliyatini tashkil etish bo’yicha ilg’or jahon tajribasini o’rganadi. U fiskal mas’uliyat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun mamlakatlarning davlat byudjetlarini, soliq solish va g’aznachilik ijrosini qanday boshqarishini o’rganadi. Tadqiqot, shuningdek, moliyaviy texnologiyalar va institutsional asoslarning g’aznachilik operatsiyalari samaradorligini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. O’zbekistonga, uning joriy davlat moliyasi tizimi va davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishda duch kelayotgan muammolarga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot muvaffaqiyatli xalqaro modellarni O’zbekiston sharoitiga moslashtirish, g’aznachilik boshqaruvini takomillashtirish hamda mamlakatda iqtisodiy o’sish va soliq intizomini qo’llab-quvvatlash bo’yicha tushunchalar berishga qaratilgan.

Ma’lum bir xorij mamlakatlarining g’aznachilik tizimini tashkil etish tajribalari

Yaponiya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Germaniya kabi mamlakatlardagi g'aznachilikni boshqarish tizimlari davlat moliyasini samarali boshqarishning ilg'or tajribalari haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Yaponiya

Yaponiya g'aznachilikni boshqarishning dunyodagi eng ilg'or tizimlaridan biriga ega. Mamlakatning yondashuvi markazlashgan moliyaviy boshqaruvga yo'naltirilgan bo'lib, bu davlatning barcha daromadlari va xarajatlari Moliya vazirligi orqali qattiq nazorat qilinishini ta'minlaydi. Yaponiya davlat qarzini boshqarish uchun murakkab moliyaviy texnologiyalar va real vaqt rejimida kuzatuv tizimlaridan foydalanadi, bu esa fiskal nomutanosiblik bilan bog'liq har qanday muammolarni tezda hal qilishni ta'minlaydi. Mamlakat g'aznachiligi, shuningdek, iqtisodiy o'zgaruvchanlikni yumshatish uchun bashoratli modellar va keng qamrovli ma'lumotlarni tahlil qilishdan foydalangan holda risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikka katta e'tibor beradi. Bu tizim Yaponiyaga yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat qarzining past darajasini saqlab qolish imkonini beradi, hozirda YaIMning 230% atrofida, garchi uning katta qismi ichki bo'lsa ham, bu uning ichki moliya institutlariga bo'lgan ishonchni aks ettiradi.

Buyuk Britaniya

Xuddi shunday, Birlashgan Qirollik davlat moliyasini boshqarishning mustahkam tizimidan (PFM) foydalanadi va shaffoflik va hisobdorlikka katta e'tibor beradi. HM G'aznachiligi (Janob hazratlari g'aznachiligi-“Her Majesty’s treasury”) byudjetni rejalashtirish, ijro etish va baholashning murakkab tizimini nazorat qiladi. Buyuk Britaniya tizimining asosiy jihati Davlat moliyasi to'g'risidagi qonun bo'lib, u hukumat har yili aniq va hamma uchun ochiq byudjetni taqdim etishni talab qiladi. Bu davlat sektori mas'uliyatini saqlab qolishini ta'minlaydi va belgilangan byudjetdan har qanday chetga chiqishlar nazorat qilinadi va hisobot qilinadi. Raqamli platformalardan foydalanish, shuningdek, Buyuk Britaniyaga real vaqt rejimida xarajatlar va daromadlarni kuzatish, umumiy samaradorlikni oshirish va moliyaviy noto'g'ri boshqaruvni minimallashtirish imkonini berdi.

AQSh

Qo'shma Shtatlar yuqori darajada markazlashmagan g'aznachilik tizimi bilan ishlaydi, bu yerda shtat hukumatlari o'zlarining moliyaviy ishlarini boshqarishda muhim avtonomiyaga ega. Biroq, federal darajada G'aznachilik departamenti fiskal siyosatni boshqarish, milliy qarzni boshqarishni ta'minlash va Ichki daromad xizmatini (IRS) nazorat qilishda asosiy rol o'ynaydi. AQSh g'aznachilik tizimi ko'p jihatdan raqamlashtirishga tayanadi, IRS soliq yig'ish samaradorligini oshirish va firibgarlikni minimallashtirish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanadi. Bundan tashqari, Qo'shma Shtatlar qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlarni boshqarish uchun G'aznachilik qimmatli qog'ozlaridan foydalangan holda qarzni boshqarishning

murakkab strategiyalarini qo'llaydi. Federal hukumatning davlat qarziga yondashuvi samarali qarz berish va qayta moliyalash amaliyotiga misol bo'la oladi.

Germaniya

Germaniyaning g'aznachilik tizimi moliyaviy intizom va qarz barqarorligiga urg'u berishi bilan mashhur. Barqarorlik va o'sish paktiga ko'ra, Germaniya g'aznachiligi byudjet taqchilligini YaIMning 3%idan ko'p bo'lmagan miqdorda cheklaydigan qoidalarga qat'iy rioya qiladi. Bundesministerium der Finanzen (Federal Moliya Vazirligi) fiskal siyosatning federal va mintaqaviy darajada yaxshi muvofiqlashtirilganligini ta'minlaydi. Germaniya tizimining muhim xususiyati uning davlat qarzini, birinchi navbatda, davlat obligatsiyalari va kapital bozorining kuchli integratsiyasi orqali samarali boshqarishidir, bu esa hukumatga mablag'lardan arzon narxlarda foydalanish imkonini beradi. Germaniyaning samarali davlat sektori investitsiyalari va daromadlarini yig'ish jarayonlari uning umumiy fiskal barqarorligiga yordam beradi.

Xorij tajribalaridan O'zbekiston uchun muhim jihatlar

O'zbekiston byudjetni boshqarish, qarzlarni nazorat qilish, soliq samaradorligi va moliyaviy shaffoflik bo'yicha yetakchi bo'lgan Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSh kabi mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'zlashtirib, g'aznachilik tizimini yaxshilashi mumkin. Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan Yaponiyaning markazlashgan g'aznachiligi davlat mablag'larining kuchli nazoratini va samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Moliya vazirligiga byudjet ijrosi va moliyaviy nazoratni yaxshilash uchun moliya boshqaruvini markazlashtirish va tartibga solish huquqini berishi maqsadga muvofiq. Germaniyaning ichki qarzga e'tibor qaratilishi va qat'iy moliyaviy intizom barqarorlikni saqlashga yordam berdi. O'zbekiston tashqi qarzga bog'liqligini kamaytirishi va barqaror moliyalashtirish uchun mahalliy obligatsiyalar bozorini rivojlantirishi kerak. Buyuk Britaniya G'aznachiligi jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan moliyaviy hisobotlar orqali byudjet shaffofligi va hisobdorligini ta'minlaydi. O'zbekiston shaffof hisobot va real vaqt rejimida byudjet kuzatuvini qo'llash orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi mumkin. AQSH IRS soliqlarni samarali undirish va yuqori muvofiqlik stavkalari uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanadi. O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligini yaxshilash va firibgarlikni kamaytirish uchun raqamli vositalarni joriy qilishi kerak. Yaponiya iqtisodiy xavflarni boshqarish va barqarorlikni saqlash uchun bashoratli modellardan foydalanadi. O'zbekiston iqtisodiy muammolarni yaxshiroq prognozlash va hal qilish uchun risklarni boshqarish tizimlarini qo'llashi mumkin.

Xulosa

Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSHning asosiy amaliyotlarini integratsiyalashtirish holda O'zbekiston yanada samarali g'aznachilik tizimini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Markazlashtirilgan moliyaviy boshqaruvni

kuchaytirish, qarz barqarorligini oshirish, soliq yig‘ishni yaxshilash, oshkoralikni ta’minlash va tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha ilg‘or strategiyalarni qabul qilish nafaqat mamlakatda moliyaviy intizomni yaxshilash, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va o‘sishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Yaponiya Moliya vazirligi. (2023). Yaponiya davlat moliyasi bo'yicha yillik hisobot. <https://www.mof.go.jp>
2. HM G'aznachilik (Buyuk Britaniya). (2023). Byudjet hisoboti va moliyaviy shaffoflik bo'yicha ko'rsatmalar.
<https://www.gov.uk/government/organisations/hm-treasury>
3. AQSh Moliya vazirligi. (2023). Qarzlarni boshqarish va daromadlarni undirishning umumiy ko'rinishi. <https://home.treasury.gov>
4. Federal Moliya vazirligi (Germaniya). (2023). Fiskal qoidalar va davlat qarzi bo'yicha hisobotlar. <https://www.bundesfinanzministerium.de>
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. (2024). Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot. <https://www.imv.uz>
6. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF). (2023). G'aznachilik operatsiyalari va fiskal boshqaruv: global amaliyot. <https://www.imf.org>

FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA MUOMMOLAR VA YECHIMLAR

Turdikulova Gulshad Nurmamatovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali bosh auditori

Sattorova Sarvinoz Shohzamonovna

TATU 3-kurs AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada farmatsevtika sanoatida buxgalteriya hisobining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va uning xalqaro standartlarga moslashuvi tahlil qilinadi. O‘zbekiston farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobot yuritishdagi mavjud muammolari, xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashish investitsiyalar jalb etilishi va global bozorga chiqishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Annotation: This article analyzes the role of accounting in the pharmaceutical industry in the context of economic development and its adaptation to international standards. The existing challenges in financial reporting faced by pharmaceutical companies in Uzbekistan are compared with the experiences of foreign countries, and potential solutions are proposed. Adapting to international financial reporting standards is highlighted as an important factor for attracting investment and entering the global market.

Kalit so‘zlar: Farmatsevtika sanoati, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), milliy hisob standartlari (BHMS), investitsiyalar, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan hisob.

Keywords: Pharmaceutical industry, accounting, financial reporting, International Financial Reporting Standards (IFRS), national accounting standards (NAS), investments, information technologies, automated accounting.

Bugungi kunda farmatsevtika sanoati iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi korxonalarning buxgalteriya hisobi tizimiga bog‘liq. Buxgalteriya hisobining to‘g‘ri va shaffof olib borilishi nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki investitsiyalarni jalb etish va xalqaro bozor talablari asosida rivojlanish uchun ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, O‘zbekistonning 2020-yildan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirayotgani mahalliy farmatsevtika korxonalari uchun ham yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, xorij davlatlari, masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida buxgalteriya hisobi tizimi allaqachon mukammal mexanizmlarga ega bo‘lib, ushbu tajribalar o‘zlashtirish uchun muhim

ahamiyatga ega. 2023-yilda O‘zbekistonda farmatsevtika korxonalarining 75 foizi milliy hisob standartlaridan foydalanib kelayotgani, shundan faqat 15 foizi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga to‘liq moslashgani ko‘rsatmoqda. Taqqoslash uchun, Germaniyada bu ko‘rsatkich 95 foizni tashkil qiladi. Bunday farqlar korxonalarni moliyaviy hisobotlarini optimallashtirish va xorijiy tajribani qo‘llash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishdagi mavjud muammolar, jumladan, moliyaviy hisobotning noto‘g‘ri tuzilishi, soliq hisoboti bilan bog‘liq qiyinchiliklar, va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi cheklovlar batafsil ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston va xorij davlatlaridagi ilg‘or tajribalar asosida ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yechimlar taklif qilinadi. Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi jarayonini samarali tashkil qilish yo‘llarini aniqlash va ularning xalqaro standartlarga moslashuvini yengillashtirish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi xorijiy investitsiyalar hajmini 30-40 foizga oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ushbu masala O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish va yechimlarni taklif etish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Birinchi bosqichda, 2020–2023-yillar oralig‘idagi O‘zbekiston va bir qator xorij davlatlaridagi farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobotlari va buxgalteriya hisobi tizimi tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar, hisobotlar va ekspertlar fikrlariga asoslangan ravishda amaldagi muammolarni aniqlash uchun empirik usullardan foydalanildi. Ikkinchi bosqichda, taqqoslash metodi orqali O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar buxgalteriya hisobi standartlari (MHXS va BHMS) o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Ushbu farqlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash uchun kvantitativ tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida sohada ishlayotgan mutaxassislar o‘rtasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazilib, ularning amaliy tajribasi va tavsiyalari umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistondagi farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobot tuzish va buxgalteriya hisobi jarayonlari o‘rganildi. 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi farmatsevtika korxonalarining 70 foizida buxgalteriya hisobi milliy standartlarga asoslanib olib boriladi, bu esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga to‘liq mos kelmasligi sababli, xorijiy investorlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Ayniqsa, hisobotlarning shaffofligi va ma’lumotlarning aniqligi masalalarida kamchiliklar kuzatilgan. Xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya, AQSh va Hindistonning farmatsevtika sohasidagi buxgalteriya tizimlari tahlilida ushbu davlatlarda xalqaro standartlarga asoslangan hisob yuritish

korxonalarining global bozorga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirayotganini ko’rsatdi. Germaniyada farmatsevtika korxonalarining 95 foizi MHXSdan foydalanadi va bu ularning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari asosida avtomatlashtirilgan hisob tizimlari qabul qilinishi vaqt va mablag‘ni tejash imkonini beradi. O‘zbekistondagi asosiy muammo sifatida malakali buxgalterlar yetishmasligi va hisob jarayonlarida texnologik yetakchilikning past darajasi ajralib chiqdi. Aksariyat korxonalar hisobotlarni qo‘lda yoki eski dasturiy ta’minot yordamida tayyorlashadi, bu esa xatoliklar va ortiqcha vaqt sarflanishiga olib keladi. Xorij tajribasidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi tizimlarini avtomatlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish orqali bu muammolarni hal qilish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, ular asosan hisobot tuzish prinsiplari, ma’lumotlarning shaffofligi, va taqdimot shakllariga taalluqlidir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosan korxonalarining global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lsa, buxgalteriya hisobining milliy standartlari milliy qonunchilik va soliq siyosatining o‘ziga xos talablariga moslashtirilgan. Ushbu farqlar korxonalar moliyaviy hisobotlarini ishlab chiqishda yondashuvlarni sezilarli darajada o‘zgartirib, investorlarga taqdim etiladigan ma’lumotlarning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda ushbu ikki standart o‘rtasidagi asosiy farqlar aks ettirilgan.

1-jadval.

MHXS va BHMS o‘rtasidagi asosiy farqlar

№	Tushunchalar	MHXS	BHMS
1	Maqsad	Global darajada moslashuvchanlikni ta’minlash	Milliy qonunchilikka moslashuv
2	Asosiy tamoyillar	Investorlarga yo‘naltirilgan	Soliq organlariga yo‘naltirilgan
3	Moliyaviy hisobot tarkibi	Ixtiyoriy tafsilotlar kengroq	Faqat majburiy talablar
4	Baholash usullari	Bozor qiymati asosida	Tarixiy xarajatlar asosida
5	Standartlar qamrovi	Xalqaro amaliyotga mos	Milliy iqtisodiyotga mos

Moliyaviy hisobotning xalqaro va milliy standartlari o’rtasidagi farqlar korxonalarining biznes jarayonlarini boshqarish va hisobot taqdimotidagi yondashuvlarini tubdan o’zgartiradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari korxonalar uchun global bozor talablariga javob berish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirsa, buxgalteriya hisobining milliy standartlari mahalliy qonunchilik talablarini bajarishga qaratilgan. O’zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish uchun xalqaro tajribani hisobga olgan holda, milliy standartlarni bosqichma-bosqich Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish zarur. Bu mahalliy korxonalarining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O’zbekiston farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish uchun xalqaro standartlar talablariga moslashuv zarur. Ushbu yechimlar korxonalarining global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy hisobotning aniqligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan. Quyidagi jadvalda mavjud muammolar va ularning samarali yechimlari keltirilgan.

2-jadval.

Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobiga oid muammolar va ularning yechimlari

№	Muammo	Yechim
1	Xalqaro standartlarga mos kelmaslik	Milliy standartlarni bosqichma-bosqich MHXSga moslashtirish
2	Malakali buxgalterlar yetishmasligi	Buxgalterlar uchun xalqaro sertifikatlash kurslarini tashkil etish
3	Texnologik yetishmovchiliklar	Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish
4	Hisobotlarning shaffofligi va aniqligi past darajada	Moliyaviy audit tizimini kuchaytirish

Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish xalqaro tajribaga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish, kadrlar malakasini oshirish va hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish korxonalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ichki boshqaruvni takomillashtiradi, balki

xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va global raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

XULOSA

Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, buxgalteriya hisobning milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan taqqoslaganda global bozor talablariga yetarlicha mos kelmaydi. Bu esa korxonalar shaffofligi, investitsiyalar jalb etish imkoniyatlari va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni cheklaydi. Boshqa tomondan, xorijiy tajriba shuni isbotlaydiki, xalqaro standartlarga moslashuv moliyaviy boshqaruvning sifatini oshiradi, samaradorlikni kuchaytiradi va iqtisodiy o‘lishga yordam beradi.

1. Buxgalteriya hisobing milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga yaqinlashtirish uchun qonunchilikda islohotlar olib borish.

2. Buxgalteriya hisobiga ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash bo‘yicha xalqaro darajadagi o‘quv kurslari va sertifikatsiyalash dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

3. Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish orqali buxgalteriya jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish.

4. Hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash va shaffoflikni oshirish uchun mustaqil audit jarayonlarini kengaytirish.

5. Xorijiy mutaxassislar va tashkilotlar bilan tajriba almashish orqali milliy amaliyotga innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

Ushbu chora-tadbirlar farmatsevtika korxonalarining nafaqat ichki samaradorligini oshiradi, balki xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuviga ham xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. – T., 2016-yil 13-aprel (yangi tahrir).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – www.lex.uz,

3. D.E.Norbekov, A.T.To‘raev, Sh.Sh.Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya, 2019. -332 b.

4. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Globe Edit. 2018 y. 250 b.

5. Eshonqulov A.A., Turopov B.E. Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar moddiy zaxiralar hisobini yuritishda muommolar va yechimlar. Yangi O‘zbekiston

taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. 11-to'plam 1-son sentabr 2024. www.pedagoglar.org.

6. Eshonqulov A.A., Odnamatova N.T. Improvement of financial reporting of joint stock companies on the basis of the requirements of international standards. Journal of New Century Innovations, 58(1), 57–62. Retrieved from.

7. Alexander D., Britton A., & Jorissen A. (2021). International Financial Reporting and Analysis. Cengage Learning, 2021 yil. – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha chuqurlashtirilgan tahliliy material.

8. Ball R., & Brown P. "An Empirical Evaluation of Accounting Income Numbers". Journal of Accounting Research, 6(2), 2018yil. 159–178.

9. Karimov A.A. va boshqalar. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. — T.: 2018.

10. Abduvaxidov F.T, Qo'ziev I.N, Dadabaev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2021. -464 b.

11. Tuychiev A.J., Qo'ziev I.N., Avloqulov A.Z., Masharipov O.A., Avazov I.R. Audit. Elektron darslik. – T.: TMI. 2021 y.

12. Hojiyev M.S., Meliyev I.I., Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot auditi. Darslik. -T.: “LESSON PRESS”, 2021. - 306 b.

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Алмурадов Абдулла

Ташкентский государственный экономический университет

almuradov.55@mail.ru

Жумамуратов Султанбек

Ташкентский государственный экономический университет

Jumamuratovsultanbek99@gmail.com

Аннотация: В данном исследовании изучается экономическое сотрудничество между странами Центральной Азии посредством эконометрического анализа с использованием методов линейной регрессии. Модель исследует, как ключевые социально-экономические показатели - ВВП на душу населения (USD), прямые иностранные инвестиции в процентах от ВВП, ожидаемая продолжительность жизни при рождении, уровень смертности до 5 лет, использование интернета среди отдельных лиц и доля женщин в национальных парламентах - взаимосвязаны и отражают закономерности регионального развития и интеграции. Используя множественную линейную регрессию и тестирование на мультиколлинеарность среди независимых переменных, исследование выявляет значимые предикторы экономической эффективности и сотрудничества. Эти результаты способствуют лучшему пониманию динамики развития в Центральной Азии и предлагают научно обоснованные идеи для разработки политики, направленной на укрепление региональной экономической интеграции.

Ключевые слова: Центральная Азия, экономическое сотрудничество, множественная линейная регрессия, эконометрический анализ, прямые иностранные инвестиции, ВВП на душу населения, мультиколлинеарность, устойчивое развитие

AN ECONOMETRIC STUDY OF THE INDICATORS OF ECONOMIC COOPERATION AMONG CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Almuradov Abdulla

Tashkent state university of economics

almuradov.55@mail.ru

Jumamuratov Sultanbek

Tashkent state university of economics
Jumamuratovsultanbek99@gmail.com

Abstract: This study investigates the economic cooperation among Central Asian countries through an econometric analysis using linear regression techniques. The model explores how key socio-economic indicators—GDP per capita (USD), foreign direct investment as a percentage of GDP, life expectancy at birth, under-5 mortality rate, internet usage among individuals, and the proportion of women in national parliaments—relate to one another and reflect patterns of regional development and integration. By employing multiple linear regression and testing for multicollinearity among the independent variables, the study identifies significant predictors of economic performance and cooperation. The findings contribute to a better understanding of development dynamics in Central Asia and offer evidence-based insights for policy formulation aimed at enhancing regional economic integration.

Keywords: Central Asia, economic cooperation, multiple linear regression, econometric analysis, foreign direct investment, GDP per capita, multicollinearity, sustainable development

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI O‘RTASIDAGI IQTISODIY HAMKORLIK KO‘RSATKICHLARINI EKONOMETRIK O‘RGANISH

Almuradov Abdulla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

almuradov.55@mail.ru

Jumamuratov Sultonbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Jumamuratovsultanbek99@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik chiziqli regressiya usullaridan foydalangan holda ekonometrik tahlil orqali o‘rganiladi. Model asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar - aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (AQSH dollari), to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda, tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi, 5 yoshgacha bo‘lgan o‘lim darajasi, shaxslar o‘rtasida internetdan foydalanish va milliy parlamentlardagi ayollar ulushi - bir-biri bilan qanday bog‘liqligini va mintaqaviy rivojlanish va integratsiya qonuniyatlarini aks ettirishini o‘rganadi. Mustaqil o‘zgaruvchilar orasida ko‘p chiziqli regressiya va

multikollinearlikni tekshirishdan foydalangan holda, tadqiqot iqtisodiy samaradorlik va hamkorlikning muhim bashoratlarini aniqlaydi. Natijalar Markaziy Osiyodagi rivojlanish dinamikasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan siyosatni shakllantirish uchun dalillarga asoslangan tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit soʻzlar: Markaziy Osiyo, iqtisodiy hamkorlik, koʻp chiziqli regressiya, ekonometrik tahlil, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar, aholi jon boshiga YAIM, multikollinearlik, barqaror rivojlanish

Введение

Центральная Азия включает в себя пять стран: Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан и Узбекистан. Это разнообразный регион, включающий как страны с уровнем дохода выше среднего, так и с низким уровнем дохода, обладающий важным стратегическим значением благодаря своему географическому положению и богатым природным ресурсам (Всемирный банк о Центральной Азии). Все пять стран имеют за плечами 70 лет общей советской истории с Россией и обрели независимость в 1991 году после распада СССР. Согласно данным ООН (2024), нынешнее население Центральной Азии превышает 80 миллионов человек. В конце 2016 года все пять стран постсоветской Центральной Азии отметили 25-летие своей независимости после распада Советского Союза (Бацайхан Ууринтуя и Дабровский).

Несмотря на наличие общей инфраструктуры, языковых связей и экономической взаимозависимости, унаследованных от советского периода, переход к статусу независимых государств часто сопровождался фрагментарными политиками, ограничением торговых потоков и конкуренцией вместо сотрудничества. Этот разрыв между потенциальными возможностями и реальной практикой вызывает важный вопрос: какие измеримые показатели экономического сотрудничества существуют в Центральной Азии и в какой степени они отражают фактическую интеграцию?

Эконометрическая интеграция имеет решающее значение для Центральной Азии в целях обеспечения региональной стабильности, экономического роста и глобальной конкурентоспособности. Расположенный между Европой и Азией, регион играет исключительно важную роль в транспортных и торговых маршрутах.

Данное исследование направлено на изучение взаимосвязей между выбранными социально-экономическими показателями и оценку их коллективного влияния на экономическое развитие по всей Центральной Азии. Выбранные переменные - ВВП на душу населения, прямые иностранные

инвестиции (ПИИ) в процентах от ВВП, ожидаемая продолжительность жизни, уровень смертности до 5 лет, использование интернета и политическое представительство женщин - широко признаны критическими компонентами экономического и социального благополучия. Эконометрический подход, использующий множественную линейную регрессию, применяется для анализа этих переменных и выявления закономерностей, которые могут сигнализировать о сотрудничестве или расхождении между странами

Обзор литературы

Исследование экономического сотрудничества стран Центральной Азии широко представлено в научной литературе. Работы в данной области можно разделить на несколько ключевых направлений: Внутренний Валовый продукт, Прямые иностранные инвестиции (ПИИ) и Трудовая миграция. Доля мест, занимаемых женщинами в национальных парламентах (%), Доля пользователей интернета (% от всего населения), Ожидаемая продолжительность жизни при рождении, всего (в годах).

В частности, в рамках данного исследования эконометрического анализа показателей экономического сотрудничества стран центральной Азии и ее литература, использованная для освещения перспектив развития, включает ряд актуальных вопросов. Ниже анализируется содержание и значение этой литературы.

Для анализа экономики и сосиюание стран центральной Азии были проанализированы данные источники

1 Kaditi E.A. (2006). Foreign direct investment and productivity growth in the agri – foo sector of Eastern Europe and Central Asia

В данной статье автор проводится эмпирический анализ влияния прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на рост производительности в агропродовольственном секторе стран и Центральной Азии. Автор использует панельные данные и эконометрические методы для оценки степени, в которой ПИИ способствуют повышению эффективности и технологической модернизации в сельском хозяйстве и пищевой промышленности. Исследование подчеркивает важность институциональной среды и макроэкономической стабильности для привлечения инвестиций и обеспечения устойчивого роста.

2 Marat, Erica. Labor migration in Central Asia: Implications of the global economic crisis.

Из этого источника был сделан анализ влияние глобального экономического кризиса 2008–2009 годов на трудовую миграцию из стран Центральной Азии

3 Vakhidovich, Ganiev Shakhridin, and Achilov Uygunjon Ulugbekovich

Формула регрессионного анализа, первоначально использованная для оценки инвестиционной активности банков (Ganiev & Achilov, 2024), была адаптирована к условиям исследования внешней торговли Центральной Азии путём изменения переменных и контекста модели.

Методология

В качестве важного этапа исследования было проанализировано влияние социально-экономических показателей на экономическое развитие стран Центральной Азии с использованием коэффициентов корреляции. Также было проведено эконометрическое моделирование с применением метода наименьших квадратов, что позволило выявить основные факторы, способствующие или препятствующие экономическому сотрудничеству в регионах Центральной Азии.

Анализ и результаты

	Uzbekistan	Kazakhstan	Kyrgyzstan	Tajikistan	Turkmenistan
Capital City	Tashkent	Astana	Bishkek	Dushanbe	Ashgabat
Population (2025)	37,697,787	20 333 530	7.3	10,499	7 057 841
Ethnic Groups	Uzbek (81.1%) Russian (5.4%) Tajik (4%) Kazakh (3%) Karakalpak (3%) Tatar (1.5%) others (2.5%)	Kazakh (63.6%) Russian (23.3%) Uzbek (2.9%) Ukrainian (2%) others (8.2%)	Kyrgyz (72.6%) Uzbek (14.4%) Russian (6.4%) Dungan (1.1%) others (5.5%)	Tajik (79.9%) Uzbek (15.3%) Russian (1.1%) others (2.6%)	Turkmen (85%) Uzbek (5%) Russian (4%) others (6%)

Land Surface (sq.km)	448,924	2,724,902	199,950	141,379	491,209
% Population in Urban Areas	50,532	58,179	37,801	28,234	54,003
Life Expectancy (years)	71,7	69,5	70,5	71,3	69,4
% Annual Population Growth	2,02114614	1,464151517	1,769577541	2,018120097	1,839701
Gross Domestic Product (GRP, million US\$)	101,591.77	262,641.89	13,987.63	12,060.60	60,628.86
Per Capital GDP (US\$)	2849,514611	12918,86613	1970,15781	1160,81187	8232,65226
% Annual GDP Growth	6,291416351	5,1	6,151391837	8,299999217	6,300157585
Language Spoken	Uzbek, Karakalpak	Kazakh, Turkic, Russian, Uzbek, Ukrainian,	kyrgyz (national) Russian (official)	Tajik, Russian	Turkmen, Russian

		Uyghu, Kyrgyz, Tatar, Mongolian			
Currency (exchange rate,	1US\$ =12920,00 Uzbekistani Som (UZS)	1US\$ =516,73 Kazakhstani tenge (KZT)	1US\$ =87,45 Kyrgyzstan Som (KGS)	1US\$ =10,35 Tajikistani Somon (TJS)	1US\$ =3,50 Turkmenist an Manat (TMT)

Миграция

После распада Советского Союза страны Центральной Азии — Таджикистан, Кыргызстан и Узбекистан — столкнулись с экономическими трудностями, что привело к массовой трудовой миграции за рубеж. **В Таджикистане массовая миграция началось после гражданской войны 1992 -1997 годов. И к 2008 году почти в каждой семье было человек работающий за границей, и объем переводом составил \$2,7 млрд.** Большинство из их молодых людей из сельской местности. Из-за слабых знаний русского языка и недостатка образования они чаще выполняют низкоквалифицированную работу. Более половины работают в строительном секторе, а только 3% — в образовании и медицине. Диаспоры в России поддерживают мигрантов, но иногда сами оказываются вовлечёнными в торговлю людьми. Кыргызская экономика тоже стала зависеть от денежных переводов, которые к 2008 году составил 60% от ВВП. По разным данным более 600 миллионов населения ежегодно выезжают за границей в целях заработать. Власти считают **Образовательный кризис**, и нехватка рабочих специальностей усиливают миграционные потоки. Узбекистан с самым большим количеством населения (37 млн), стал крупнейшим экспортёром" трудовых мигрантов - от **2 до 8 миллионов** человек. Сотрудничество с Россией активно, а с Казахстаном — затруднено несмотря на то, что там узбеки чаще всего становятся жертвами сексуальной и трудовой избегает открытого диалога по миграционным вопросам, опасаясь негативного имиджа. (Marat, Labor)

Объем прямых иностранных инвестиций (ПИИ)

Страны Центральной Азии с начала 1990-х годов получили значительный объём прямых иностранных инвестиций (ПИИ) несмотря на то, что они являются странами без выхода к морю (Paswan). Приток иностранного капитала

в регион был предметом изучения ряда исследований. Например, Акбар и др. (2006), а также Дойч и Учтум (2011), сосредоточившиеся на экономическом развитии региона, утверждали, что начальный экономический рост в регионе положительно связан с объёмом получаемых ПИИ. Тем не менее, высказывается мнение, что приток ПИИ может не оказывать существенного влияния на развитие местных экономик. Отмечается, что приток иностранного капитала может положительно сказаться на передаче технологий и производительности на местном уровне; однако он также может негативно повлиять на местных конкурентов. Таким образом, влияние ПИИ на местные экономики следует учитывать при разработке политических мер (Kaditi). Приток прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в страны Центральной Азии, включая Узбекистан, зависит от качества государственного управления, уровня экономической либерализации и уровня коррупции в стране-получателе. Узбекистан, наряду с Таджикистаном и Кыргызстаном, занимает одни из последних мест по объёму накопленных ПИИ и прогнозируемому притоку инвестиций (Kenisarin & Andrews-Speed). Тем не менее, с 1991 года в Узбекистане были предприняты определённые шаги по улучшению внешней политики. Так, правительство страны способствовало укреплению независимости Узбекистана и налаживанию сотрудничества с другими государствами, включая Россию, Китай и США, с целью повышения инвестиционной привлекательности. Кроме того, внешняя политика была направлена на минимизацию вероятности конфликтов с другими странами, а также на улучшение социальной и образовательной инфраструктуры (Spechler & Spechler, 2010). Тем не менее, как отмечает Блэкмон (2007), правительство Узбекистана не предприняло значительных шагов по улучшению инфраструктуры, правовой базы и налоговой системы для повышения инвестиционной привлекательности по сравнению с другими странами, такими как Казахстан.

Регионы Центральной и Южной Азии включают в себя разнообразные страны с уникальными социальными и языковыми особенностями, несмотря на прочные исторические и культурные связи между ними. Таблица показывает общие социально-экономические показатели стран. Хотя в среднем Центральная Азия обладает высокими социальными и экономическими показателями, внутри каждого региона существуют значительные различия между странами. (Lord, Montague)

В настоящем исследовании в качестве основной аналитической модели выбраны множественная линейная регрессия и анализ мультиколлинеарности. Цель состоит в выявлении взаимосвязей между ключевыми социально-экономическими показателями и определении факторов, способствующих

экономическому сотрудничеству между странами Центральной Азии. В качестве зависимой переменной использовался показатель **ВВП на душу населения (USD)**, отражающий уровень экономического развития. В качестве независимых переменных в модель включены: прямые иностранные инвестиции в % от ВВП, ожидаемая продолжительность жизни при рождении, уровень младенческой смертности (до 5 лет на 1000 живорождённых), доля пользователей интернета (% от населения), доля женщин в национальных парламентах (%). В этой работе проведена корреляционное исследование, чтобы определить степень влияния других факторов на изменение этого показателя. Коэффициент корреляции, который колеблется от -1 до 1, является важнейшей мерой того, насколько один компонент влияет на изменение другого фактора. Факторный знак указывает на противоположное влияние на результирующее изменение знака, если показатель находится между -1 и 0, и положительное влияние на результирующее изменение знака, если оно находится между 0 и 1. Чем больше связь, тем ближе коэффициент корреляции к 1 или -1. (Vakhidovich, Ganiev, and Achilov)

Показатели	ВВП на душу населения (долл. США)	Прямые иностранные инвестиции в процентах от ВВП	Ожидаемая продолжительность жизни при рождении, всего (в годах)	Уровень смертности детей до 5 лет (на 1000 живорождений)	политическая ситуация на территории
ВВП на душу населения (долл. США)	1				
Прямые иностранные инвестиции в процентах от ВВП	0,16390895	1			
Ожидаемая продолжительность жизни при рождении, всего (в годах)	0,204077187	-0,114346894	1		
Уровень смертности детей до 5 лет (на 1000)	-0,06805798	0,096987387	-0,834716966	1	

живорождении)					
Доля пользователей интернета (% от всего населения)	0,29976658	-0,139230873	0,784705176	-0,843021482	
Доля мест, занимаемых женщинами в национальных парламентах (%)	0,35552704	0,173176442	-0,006697872	-0,016712131	0,

Здесь мы можем увидеть наиболее сильная связь с ВВП наблюдается у женщин в парламентах (0,3555) и доли пользователей интернета (0,2997). Это свидетельствует о том, что гендерное представительство и цифровизация имеют важное значение для уровня экономического развития. Негативная (хотя и слабая) корреляция наблюдается между ВВП и **детской смертностью** (-0.0681), что также соответствует логике: чем выше доход, тем ниже уровень смертности.

На следующем этапе исследование отражающая влияние социально-экономических факторов на **ВВП на душу населения** в странах Центральной Азии. В качестве метода оценки использован **метод наименьших квадратов (МНК)**, а также произведён выбор наилучшей и точный модель.

Анализ основан на **линейной регрессионной функции**, общая форма которой представлена следующим образом:

$$Y = a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \text{const} + e$$

Где:

Y - зависимая переменная

$a_1, a_2 \dots a_n$ - коэффициенты при независимых переменных

const - Начальное значение Y

e - Остаточный (случайный) член

Факторы	Коэффициенты	Стандартная ошибка	t-статистика	P-Значение
const	-1749,43	2611,505403	-0,669891667	0,506977424
Доля женщин в парламенте	255,2989072	108,8782076	2,344811811	0,024362161
Показатель	Значение			

Остаток	444012012,3			
Стандартная ошибка	3418,263688			
Показатель	Значение			
Множественный R	0,35552704			
R-квадрат	0,126399476			
Нормированный R-квадрат	0,103409989			
F	5,49814243			
P-Значение	0,024362161			

Регрессионный анализ показал, что зависимость от ВВП (на душу населения) была исследована от доли мест, занимаемых женщинами в парламенте в процентах. Эта модель показала существование статистически значимой положительной зависимости между этими переменными. Коэффициент при переменной Доля женщин в парламенте составило **255, 30** что означает при увеличении доли женщин в парламенте, ожидается рост ВВП на душу населения примерно на **224** долларов США. Показатель R значение для этой переменной меньше 0,5 и равен **0,024** что означает статистическую значимость этой переменной в модели. **F** - статистика **5,498** и её **P-значение 0,024** показывают о значимости всей модели в целом. Однако значение **R-квадрат** составляет всего лишь **0,126 вариации** в уровне ВВП на душу населения что говорит о влияние и других факторов. Таким образом можно сделать вывод что, увеличение представительства женщин в парламенте потенциально способствует росту уровня благосостояния страны, но при этом о данный фактор не является единственным определяющим экономического развития.

Для роста уровня общего благосостояния необходимо разработать государственные программы, направленные политической и экономической активности женщин и укрепить гендерный баланс в органах власти что может положительно сказывается на экономике

Обзор Литературы:

1 Kaditi E.A. (2006). Foreign direct investment and productivity growth in the agri – foo sector of Eastern Europe and Central Asia: An empirical analysis, Global Economy Journal, 6 (3), Article Number 4

2 Marat, Erica. Labor migration in Central Asia: Implications of the global economic crisis. Stockholm: Silk Road Studies Program, Institute for Security and Development Policy, 2009.

3 Vakhidovich, Ganiev Shakhriddin, and Achilov Uygunjon Ulugbekovich. "FACTORS AFFECTING INVESTMENT ACTIVITY OF BANKS AND WAYS TO IMPROVE THEM." Gospodarka i Innowacje. 46 (2024): 422-427.

TURK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘RGANAYOTGAN O‘ZBEKISTONLIK TALABALARNING YOZISH KO‘NIKMASIGA OID FIKRLARI

Dilorom Toshboeva

Ankara Hacı Bayram Veli universiteti 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda o‘zbekistonlik talabalarning turk tilida yozuv malakasiga oid fikrlari o‘rganildi. Tadqiqotda sifat tadqiqot yondashuvi qo‘llanildi va ma’lumotlar tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan savollar orqali to‘plandi. Tayyorlangan suhbat savollari O‘zbekistonda turk tilini o‘rganayotgan talabalarga elektron pochta orqali yuborildi va talabalar ixtiyoriy ravishda savollarga javob berdilar. Olingan ma’lumotlar tematik tahlil usuli yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotda 25 nafar o‘zbekistonlik talaba ishtirok etdi. Tadqiqot natijasida o‘quvchilar qiynalgan nuqtalari aniqlanib, bu borada takliflar bildirildi.

Kalit so‘zlar: Yozish malakasi, til o‘rgatish, chet tili, o‘zbek tili, turk tili

OPINIONS OF UZBEK STUDENTS LEARNING TURKISH AS A FOREIGN LANGUAGE REGARDING THEIR WRITING SKILLS

In this study, the views of Uzbek students on Turkish writing skills were examined. The research adopted a qualitative research approach and the data was collected through questions developed by the researcher. The prepared interview questions were sent to students learning Turkish in Uzbekistan via email, and the students voluntarily answered the questions. The obtained data was analyzed using thematic analysis method. 25 Uzbek students studying at the Alisher Nava’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature in Uzbekistan participated in the study. As a result of the research, the points where students struggled were identified, and recommendations were made on this issue.

Keywords: Writing Skills, Language Teaching, Exercise, Foreign Language, Uzbek language.

KIRISH

Bugungi kunda keng geografik hududda qo‘llanilayotgan turkiy til so‘zlashuvchilar soni va tarqalish jihatidan dunyoda yetakchi tillardan biridir (Ercilasun, 2013). Bu tilda so‘zlashuvchilar soni kundan kunga ortib borayotgani ko‘plab statistik ma’lumotlar bilan ifodalanadi. Turkiy til uzoq va yaqin sheva va tarmoqlardan iborat. Ularning ichida Turkiya turkchasi eng ko‘p qo‘llaniladigan lahja hisoblanadi. Dunyo tillarining statistikasi berib boriladigan Ethnologue saytidagi

rasmiy ma’lumotga ko‘ra Turkcha dunyoda qo‘llanilishi jihatdan 20-o‘rinda va 91,3 mln inson bu tilda muloqot qilmoqda (<https://www.ethnologue.com/>).

O‘zbekistonda turk madaniyatini har tomonlama tanish faqat 1991-yildan so‘ng mustaqillikka erishgandan keyingina boshlandi (Allaniyozova, 2014). Mustaqillikdan so‘ng turk tili va adabiyoti, shuningdek, G‘arb va Sharq tillari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan bakalavriat dasturlari va litseylar ochildi. (Hudaybergenova, 2009). Toshkent Davlat Sharqshunoslik universitetida o‘z faoliyatini davom ettirayotgan Turkologiya kafedrasida bugungi kunda mamlakatimizdagi eng yirik ilmiy tadqiqot markazi sifatida bilinmoqda. Universitetning Turkologiya bo‘limida ta’lim bakalavr va magistratura bosqichida davom etmoqda. Global dunyoda shaxs o‘z ona tilini va hech bo‘lmaganda xorijiy tillardan birini yaxshi bilmas ekan, madaniyatli va malakali hisoblanmaydi, ayniqsa, akademik sohalarda ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi (Sevdi, 2023).

Yozish malakasiga adabiyotlarda turli ta’riflar berilgan. Gunduz va Shimshek (2011) bu mahoratni quyidagicha ta’riflagan. “Yozish ko‘nikmas his-tuyg‘u, orzu va taassurotlarni eng yaxshi tarzda ifodalash uchun bir qator timsol va belgilarni ma’lum bir intizomga muvofiq tartibga soladigan tafakkur qurolidir.” Keskinkılıç (2017) yozishni his-tuyg‘ular, fikrlar, istaklar va orzularning yozma belgilar orqali uzatilishi deb tushuntiradi.

Yozish ko‘nikmasi maktab davrida o‘rganiladigan va rivojlantiriladigan mahorati sifatida qaraladi va asosan grammatika va imlo qoidalarini o‘zlashtirish orqali erishiladi (Cmejrkova va boshqalar, 1999). “Ona tili bo‘lmagan boshqa bir tilda yozma shaklda samarali muloqot qilish, turli sintaksis, so‘z boyligi va gap tuzilmasiga oid bilim va tushunchaning yetarli emasligi sababli xorijlik talabalar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.” (G‘afar, 2023). Fikrini yozma ifoda qilaolish mahorati shaxsning his-tuyg‘ularini, g‘oyalarini ta’sirli ifodalash va kelajak uchun mustaqil fikrga ega shaxsni yaratishda muhim vazifani bajaradi (Kardaş, 2021).

Yozma ko‘nikmasi chet tili darslarida yetarlicha rivojlantirilmasa, bu shaxsning chet tili ta’limidagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlanishi kerak bo‘lgan muhim masalalardan biri o‘quvchilar o‘zlashtirgan grammatik tuzilmalaridan to‘g‘ri foydalana olishi, o‘z ona tilida ijodiy va tanqidiy yozishdagi yutuqlari bilan bog‘liq (Durmuş, 2013). Ibrohim Ilhan aytganidek, “Chet tili ona tili orqali o‘rganiladi. Ona tilining grammatik qoidalari chet tiliga ko‘chiriladi. Shu sababdan O‘zaro til ya’ni oraliq til paydo bo‘ladi.” Bugungi kunga qadar ko‘plab tadqiqotchilar o‘quvchilar uchun eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan ko‘nikma yozish ekanligini aytib kelinadi. Gench (2014) bu ko‘nikmaning qiyinligini quyidagicha izohlaydi: “Til o‘rganish jarayonining so‘nggi bosqichi bo‘lgan yozish, eng ko‘p vaqt talab qiladigan va rivojlanishi qiyin bo‘lgan mahoratdir”. Ariana (2010) ushbu mahoratni o‘rgatish chet tili o‘qituvchilariga ham qiyinchilik tug‘dirishini ta’kidlaydi.

Uning so‘zlariga ko‘ra, “barcha til ko‘nikmalari ichida yozish o‘qituvchilar uchun eng qiyin, chunki talabalar yozma ifodalash tajribasiga ega emaslar.” Yozuv malakalarini rivojlantirishda nazariy bilimlarga emas, balki amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish yozuv ta’limining eng muhim bosqichlaridan biridir (Kemiksiz, 2021). Bu boradagi mas’uliyat til o‘qituvchisi zimmasiga tushadi. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning muhim vazifalari borligini ta’kidlagan Şengül (2011) ga ko‘ra, o‘qituvchilar yozuv ta’limining umumiy maqsadlari va o‘quv jarayonida talabalar ega bo‘lishi kutilayotgan yutuqlar haqida bilimga ega bo‘lishi va bu yutuqlarni talabalar uchun o‘lchanadigan (baholanadigan) jarayonga aylantirishlari kerak.

METOD

Ushbu tadqiqotda fenomenologiya metodidan foydalanilgan. Fenomenologiya insonlarning hayot tajribalari va ushbu tajribalarni qanday boshdan kechirayotganlarini o‘rganadi. Bu yondashuv orqali voqealar nimani anglatishini, ular qanday sodir bo‘layotganini hamda insonlar bu voqealarni qanday tushunishlarini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bu metod tadqiqotchilarga ma’lum bir hodisaning mohiyatini va uni boshdan kechirayotgan shaxslar o‘rtasidagi umumiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi (Çarpar va Ceylen, 2022).

Tadqiqot savollari quyidagi besh savoldan tashkil topgan:

- Sizningcha, nima uchun yozish ko‘nikmasi qiyin hisoblanadi?
- Matn yozish qoidalarini bilasizmi?
- Yedi İklim Türkçe darsligidagi yozish mashqlarini qanday baholaysiz?
- Yozish ko‘nikmangizni rivojlantirish uchun nimalar qilyapsiz?
- O‘zbekcha va turkcha o‘rtasidagi alifbo farqlari yozish ko‘nikmangizga qanday ta’sir qilmoqda?

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqot ishtirokchilari 25 oliy ta’lim talabalaridan tashkil topgan. Ulardan 19 nafari ayol va 6 nafari erkaklardir. Ishtirokchilarning har biriga savollar alohida alohida jo‘natildi va javoblar qabul qilindi.

NATIJALAR

Bu bo‘limda tadqiqot savollariga berilgan javoblar tahlil qilinadi.

Sizningcha, nima uchun yozish ko‘nikmasi qiyin hisoblanadi? savoliga berilgan javoblar.

Berilgan javob natijalariga ko‘ra 28% o‘quvchi gramatik qoidalarini bilmaganligi sababli yozmada qiynalayotganligini aytgan. Qolgan o‘quvchilar esa yetarli darajada so‘z bilmaganliklari, yetarli darajada o‘qimaganliklari va ko‘p yozmaganliklari yozganlar.

Matn yozish qoidalarini bilasizmi? savoliga berilgan javoblar.

Matn yozish qoidalarini bilasizmi? savoliga ishtirokchilarning 48% i yozish qoidalarini bilishini, 20% i biroz bilishini, 16% i bilmasligini va yana shuncha talaba o‘zbekcha qoidalarga ko‘ra yozishini bayon qilganlar.

Yedi İklım Türkçe darsligidagi yozish mashqlarini qanday baholaysiz? savoliga berilgan javoblar.

Bu savolga berilgan javoblarga ko‘ra ishtirokchilarning 52% i Yedi İklım Türkçe darsligidagi yozish mashqlarini yozma mashqlarni yetarsiz deb hisoblaydi. 32% i yaxshi ekanligini, 8% i mashqlarning qiyin ekanligini, 4% i esa oson ekanligini yozgan. Berilgan javoblar talabalarning ko‘p qismi qo‘shimcha shug‘ullanganliklarini aytganlar.

Yozish ko‘nikmangizni rivojlantirish uchun nimalar qilyapsiz? Savoliga berilgan javoblar.

4-savolga berilgan javoblar birbiriga o‘xshaydi. Yozish ko‘nikmangizni rivojlantirish uchun nimalar qilyapsiz? Savoliga ishtirokchilarning 8% i Turkcha so‘z yodlaganini, 24% i serial ko‘rganini, 28% i ko‘p yozuv yozganini, 24% i kitob o‘qiganini va 4% i hech narsa qilmaganini yozgan.

O‘zbekcha va turkcha o‘rtasidagi alifbo farqlari yozish ko‘nikmangizga qanday ta’sir qilmoqda? savoliga berilgan javoblar.

O‘zbekcha va turkcha o‘rtasidagi alifbo farqlari yozish ko‘nikmangizga qanday ta’sir qilmoqda? Savoliga 56% talaba o‘zbekcha va turkcha harflarning farqli bo‘lishi yozmada qiyanchilaklar tug‘dirishini yozgan.

XULOSA, MUNOZARA VA TAVSIYALAR

Yozish ko‘nikmasini egallash haqida til o‘rgatishda eng ko‘p uchraydigan shikoyatli mavzularidan biri hisoblanadi. O‘zturk va Dag‘istonliog‘lu (2017) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda turk tilini o‘rganayotganda eng ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan til ko‘nikmalari haqida so‘ralganda, 38 (63,3%) talaba yozishni, 15 (25%) talaba tinglab tushunish, 4 (6,7%) talaba gapirish, 3 (5%) talaba o‘qib tushinish deb javob berdi. Ba’zi tadqiqotlarda turk tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan turkiy xalqlarga mansub talabalar boshqa chet ellik talabalar bilan solishtirganda ko‘proq omadli ekanligi aytiladi. O‘z ona tillari turkiy tilning lahjasi bo‘lishi hamda tillarning ildiz va tuzilish jihatdan o‘xshashligi turk tilini o‘rganishni ancha osonlashtiradi (Biçer va Alan, 2019). Olingan natijalarga ko‘ra, o‘zbek va turk tillari orasidagi o‘xshashliklarga qaramay, talabalar yozish ko‘nikmasini qiyin deb hisoblaganlar. Bu qiyinchiliklar ko‘proq yozma mashqlar qilmaslik, yetarlicha so‘z boyligiga ega bo‘lmaslik, grammatik qoidalarini yaxshi bilmaslik va kam kitob o‘qish bilan bog‘liq. Büyükkiz (2011) o‘tkazgan tadqiqotida muntazam turk tilidagi matnlarni o‘qigan, darsdan tashqari yozma mashqlar bilan shug‘ullangan talabalar yozma ifoda borasida ijobiy o‘zgarishlarga erishganini ta’kidlagan va tadqiqot natijalari o‘zbek talabalarining fikrlari tadqiqodimiz natijalari bilan o‘xshashlik ko‘rsatgan.

Adabiyotlarda ba’zi tadqiqotchilar o’qish va yozish ko’nikmalari bevosita bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi ekanini aytib o’tganlar. Yıldız, Çoban, Sağlık (2019) o’qilgan matnni tushunish va yozma ifoda ko’nikmalari orasidagi munosabatni o’rganganlar. Tadqiqot natijalariga ko’ra, matnni tushunish va ravon o’qish, matnni tushunish va ravon yozish, shuningdek ravon o’qish va yozish o’rtasida ijobiy kuchli bog’liqlik mavjudligi aniqlangan (Yıldız va boshq., 2019). “ O’rganilayotgan tilida amalga oshirilgan o’qishlar nafaqat chet tilidagi so’z va iboralarni o’zlashtirishga yordam beradi, balki o’sha tilga oid tushuncha olamini ham boyitadi” (İnan, 2013). İnanning ushbu tadqiqoti ham ushbu fikrni qo’llab-quvvatlaydigan dalillardan biridir.

“Yozuv o’rgatilayotganda shu tilning imlo qoidalari ham o’rgatiladi. Imlo – bir tildagi so’zlarning o’sha tilning o’ziga xos tuzilishidan va ishlatish tizimidan kelib chiqqan qoidalarga binoan yozilish uslubidir” (Mete, 2019). Yozish jarayonida imlo talabalarga o’rgatilishi kerak. Izchil tarzda qanday yozish, mos grammatika va gap tuzilmalari, to’g’ri so’z tanlab yozish ko’nikmasini shakllantirishda o’rgatilishi lozim bo’lgan muhim qoidalarandir (Dragomir va Niculescu, 2020). Yozish qoidalari bilan bog’liq savolga olingan javoblarga ko’ra, talabalar ko’pincha bu qoidalarini bilishlarini, ayrimlari esa yozishda o’zbek tili qoidalaridan foydalanishlarini bildirganlar. O’zbek tili va turk tili o’rtasidagi til tuzilmasining o’xshashlik darajasi yuqori. Biroq uslub va tinish belgilari (punktuatsiya) nuqtai nazaridan farqlanadi. Aktaş (2021) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda turk tilini chet tili sifatida o’rganayotgan talabalar yozma ko’nikmalari va ularning xatolari turli omillar jihatidan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, turkiy xalqlarga mansub talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarning deyarli yarmi imlo va punktuatsiyaga oid ekani aniqlangan.

Talabalar “Yedi İklim” turk tili darsliklaridagi yozish ko’nikmasiga oid mashg’ulotlarni yetarli va sifatli emasligini ta’kidlaganlar. Shuningdek, o’qituvchi tomonidan qo’shimcha topshiriqlar berilishini ham qayd etganlar. Olingan natijalar Yaylı (2018) tomonidan o’tkazilgan tadqiqot natijalari bilan o’xshashlik ko’rsatadi. “Yedi İklim” turk tili darsligidagi yozma mashqlarni tahlil qilgan tadqiqot natijalariga ko’ra, kitobdagi faoliyatlar chet ellik talabalar yozma ko’nikmalarini rivojlantirishda yetarli emasligi, bu darslikdan foydalanayotgan o’qituvchilarga yozish borasida ko’plab qo’shimcha vazifalar yuklanishi aniqlangan.

Talabalar yozma ko’nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo essey yozish, kitob o’qish, serial tomosha qilish kabi bir nechta sinfdan tashqari faoliyatlar bilan shug’ullanishlarini aytib o’tganlar. Har qanday ko’nikmaning rivojlanishida qo’shimcha mashg’ulotlar muhim ahamiyatga ega. Ko’p yozish grammatik xatolarni kamaytirishga va yozishni odatga aylantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kitob o’qish so’z boyligini kengaytirishda katta rol o’ynaydi. Turk serial va filmlari O’zbekistonda katta qiziqish bilan tomosha qilinadi. Talabalar yozma ko’nikmalarini

rivojlantirish uchun turk seriallarini tomosha qilishlarini bildirganlar. Ilmiy adabiyotlarda chet elliklarga turk tilini o’rgatishda seriallardan foydalanilgan tadqiqotlarning deyarli barchasi ijobiy natijalar bergani ma’lum. Kırbaş (2022) turk serial va filmlarining chet tili sifatida turk tilini o’rgatishga qo’shgan hissasini o’rgangan. Turk serial va filmlarini tomosha qilishning turk tilini o’rganish jarayoniga ta’siri haqida berilgan savolga, 48 nafar ishtirokchining barchasi (%100) bu faoliyatning ijobiy ta’siri borligini aytganlar. So’zlarni turk tilida eshitganliklari sababli ularni tezroq o’zlashtirishganini va tilni yaxshiroq o’rganishga yordam berganini bildirganlar. Baratta va Jones (2008) esa filmni pedagogik vosita sifatida yozma ko’nikmalarni rivojlantirishda qo’llashni o’rgangan. 31 nafar talabadan olingan fikrlarga ko’ra, aksariyati yozish ko’nikmasini oshirish uchun serial va filmlardan foydalanganliklarini bildirgan.

Yozma ko’nikmaga ta’sir etuvchi omillardan biri — alifbodagi farqlardir. Olingan javoblarga ko’ra, talabalarining aksariyati ushbu farq yozma xatolarga sabab bo’layotganini bildirgan. Shuningdek, bu farq tufayli harflar o’rnini almashtirib yozish holatlari ham kuzatilmoqda. O’zbekistonda 1992-yildan buyon zamonaviy lotin alifbosi qo’llaniladi. Turk alifbosi bilan unli va undosh tovushlar jihatidan ba’zi farqlar mavjud. “Turkiya turkchasidagi undoshlardan farqli o’laroq, o’zbek tilida “Qq, G’g’, Shsh, Chch” undoshlari mavjud. Biroq “Üü, Iı, Öö” unli tovushlari yo’q” (Şimşek, 2019). Shu sababli, turk tilida yozganda ayniqsa talabalar tomonidan “Aa, Oo, Iı, İi, Öö, O’o’, Üü, Uu” unllarning o’rnini chalkashtirib yozish tez-tez uchraydigan yozuv xatolaridan biridir. Ladoning (1957) fikricha, “Insonlar o’z madaniyatlari va tillaridagi shakl va ma’nolarni chet tili va madaniyatiga ko’chirishga moyildirlar.” Talabalarning bir qismi yozma mashqlar orqali bu xatolarni bartaraf etish mumkin, degan fikrda. Bölükbaş (2011) bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, “o’rganilayotgan til bilan ona tili o’rtasida qiyosiy tahlil o’tkazish orqali talabalar tomonidan yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan xatolarni oldindan taxmin qilib, kerakli choralar ko’rish mumkin.”

• Chet tili sifatida turk tilini o’qitishda, ayniqsa boshlang’ich bosqichda, yozuv va tinish belgilariga oid bilimlar talabaga o’rgatilishi kerak. Ushbu xatolarning keyingi bosqichlarda davom etishining oldi olinishi lozim.

• Matn (essey, elektron pochta, ariza) yozish qoidalari to’g’ri shaklda o’rgatilishi zarur.

• Dars jarayonida o’qituvchi yozma ko’nikmalarni rivojlantirish uchun qo’shimcha materiallardan foydalanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akman, D. H. ve Erişen, M. A. (2022). Nitel araştırmalarda görüşme tekniği. Anadolu Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 22(2), 141-160.

2. Aktaş, H. (2021). Türkçeyi yabancı dil olarak öğrenen öğrencilerin yazma başarılarının ve hatalarının farklı değişkenler açısından incelenmesi. [Yüksek lisans tezi] Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi.
3. Biçer, N. ve Alan, Y. (2019). Türk soylulara Türkçe öğretimi ile ilgili çalışmalara genel bir bakış. Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 29(1), 143-157.
4. Bölükbaş, F. (2011). Arap öğrencilerin Türkçe yazılı anlatım becerilerinin değerlendirilmesi. Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, 6(3), 1357-1367.
5. Baratta, A. ve Steven, J. (2008). Using film to introduce and develop academic writing skills among UK undergraduate students. Journal of Educational Enquiry. 8(2), 15-37.
6. Creswell, W. (2017). Araştırma Deseni (3. Baskı). (S. Demir, Çev.). Eğiten Kitap (Orijinal kitabın basım tarihi 2014, 4. Baskı).
7. Durmuş, M. (2013). Yabancılar Türkçe Öğretimi (2. Baskı). Grafiker Yayınları.
8. Dragomir, I. A. & Niculescu, B. O. (2020). Different approaches to developing writing skills. Land Forces Academy Review, 3(99), 46-60.
9. Ercilasun, A. B. (2013). Türkçenin Dünya Dilleri Arasındaki Yeri. Dil Araştırmaları, 12(12), 17-22.
10. Genç İlter, B. (2014). How can writing skill be improved during foreign language teaching process? Dil Dergisi, 167(163), 36-45.
11. Gündüz, O. ve Şimşek, T. (2011). Anlatma teknikleri: uygulamalı yazma eğitimi. (2.Baskı). Ankara: Grafiker Yayınları.
12. Güney, N. (2016). Öğretmenlerin Yazma Eğitimine Yönelik Düşünceleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 5(2), 970-985.
13. Ghafar, Z. N. (2023). Teaching writing to Students of English as a foreign language: The Challenges Faced by Teachers. Journal of Digital Learning and Distance Education, 2(2), 483-490. doi.org/10.56778/jdlde.v2i1.123
14. Hamroev, G. (2022). Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish. [Doktora tezi]. Ali Şiir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi
15. <https://www.yee.org.tr/tr/haber/ozbekistanda-turkce-yeterlik-sinavina-rekor-katilim>
16. Hudaybergenova, Z. (2009). Özbekistan'da Türkçe'nin Kullanımı [Konferans]. I. Uluslararası Kitle İletişim Aracılığında Türkçe'nin Kullanımı, Kırıkkale, Türkiye.

17. İnan, K. (2013). Yabancı dil olarak Türkçe öğrenen İranlıların yazılı anlatımları üzerine bir inceleme. Gazi Üniversitesi. Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi.
18. Kardaş, M. N. (2021). Yazma eğitimi. (2. Baskı). Ankara: Pagem.
- Kemiksiz, Ö. (2021). Yazma becerilerinin geliştirilmesi üzerine hazırlanan tezlere yönelik bir inceleme: Yarı deneysel çalışmalar. OPUS– Uluslararası Toplum Araştırmaları Dergisi, 18(41), 3172-3203.
19. Kırbaş, G. (2022). Türk dizi ve filmlerinin yabancı dil olarak Türkçe öğretimine katkısı bakımından değerlendirilmesi: Balkanlar örneği. Uluslararası Türkçe Öğretimi Araştırmaları Dergisi, 2(2), 201-221.
20. Mekhirban, A. (2014). Özbekistan’da Türkiye Türkçesi Eğitimin Yeni Yaklaşım ve Yöntemler Açısından Değerlendirilmesi [Yüksek Lisans Tezi] İstanbul Üniversitesi/ Sosyal Bilimler Enstitüsü
21. Öztürk, B. Dağıstanlıoğlu, E. Yabancı dil olarak türkçe öğrenen öğrencilerin yazdıkları öyküleyici metinlerdeki yazım sorunları: bir hata analizi örneği. Eğitim bilimleri 2017 II. Uluslararası Sosyal Bilimler Sempozyumu 18-19-20 Mayıs 2017 Alanya
22. Punch, K. F. (2005). Introduction to social research–quantitative and qualitative approaches. Sage. London.
23. Sevdı, A. (2023). Gelişen ve Değişen Dünyada Yabancı Dilin Önemi. Genç Müttefekkirler Dergisi, 4(1), 204-218.
24. Şimşek, P. (2019). Türkçenin Yabancı Dil Olarak Öğretiminde Ana Dil ve Dil Ailesi Etkisi. (2.Baskı). Ankara: Pagem.
25. Şimşek, P. (2023). Ana dili Kazak Türkçesi olan öğrencilerin Türkçe öğrenim sürecinde yazma becerileri sorunları. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim (TEKE) Dergisi, 12(1), 239-252.
26. Walsh, M. (2010). Multimodal literacy: what does it mean for classroom practice? Journal of Language and Literacy, 33(3), 211–239.
27. Yaylı, D. ve Yaylı, D. (2018). Yabancılarla Türkçe Öğretimi ders kitaplarında yazma etkinliklerinin değerlendirilmesi (Yedi İklim Türkçe örneği). Pamukkale Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi. 44(4), 132-145.
28. Yıldız, M., Çoban G. Ş. A. ve Sağlık, Z. Y. (2019). Okuduğunu Anlama ve Yazılı Anlatım Becerileri Arasındaki İlişki. Turkish Studies, 10(5), 1367-1379.

**DESTRUKTIV SEKTA G‘OYALARIGA QARSHI KURASHNING
INSTITUTIONAL SHAKLLARI
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФОРМЫ БОРЬБЫ С ДЕСТРУКТИВНЫМИ
СЕКТАНТСКИМИ ИДЕЯМИ
INSTITUTIONAL FORMS OF COMBATING DESTRUCTIVE SECTARIAN
IDEAS**

Abdulxamidov Abdulxamid

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada destruktiv sekta g‘oyalaridan zarar ko‘rgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilishga yo‘naltirilgan reabilitatsiya markazlarining shakllanishi, rivojlanishi va faoliyat yo‘nalishlari tarixiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy diqqat sekta a‘zolari ongida yuzaga keladigan psixologik, emotsional va ijtimoiy izolyatsiya holatlarini bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan institutlar va ularning yondashuv strategiyalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: destruktiv sekta, deprogramming, ongni nazorat qilish, reabilitatsiya markazi, psixologik yordam, ekstremizm

Абстрактный. В статье дается историко-теоретический анализ становления, развития и деятельности реабилитационных центров, направленных на реинтеграцию в общественную жизнь лиц, пострадавших от деструктивных сектантских идей. Основное внимание уделяется институтам и их стратегиям решения проблем психологической, эмоциональной и социальной изоляции, возникающих в умах членов сект.

Ключевые слова: деструктивная секта, депрограммирование, контроль сознания, реабилитационный центр, психологическая помощь, экстремизм

Abstract. This article analyzes the formation, development and activities of rehabilitation centers aimed at reintegrating individuals affected by destructive sectarian ideas into social life from a historical and theoretical perspective. The main focus is on the institutions and their strategies for addressing the psychological, emotional and social isolation that arise in the minds of sect members.

Keywords: destructive sect, deprogramming, mind control, rehabilitation center, psychological assistance, extremism

Kirish (Introduction). Destruktiv sekta g‘oyalari so‘nggi o‘n yilliklarda global xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va insonlarning psixologik salomatligiga tahdid soluvchi dolzarb muammoga aylandi. Sekta a‘zolarining ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy izolyatsiyasi ularni jamiyatdan uzib qo‘yadi, shaxsiyatni buzadi va zo‘ravonlikka moyil qilishi mumkin. Aynan shunday oqibatlarga qarshi kurashish maqsadida dunyo

miqyosida bir qator maxsus rehabilitatsiya markazlari tashkil etilgan. Ushbu maqola shunday markazlar tarixiy taraqqiyotini ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning metodik yondashuvi, tashkiliy shakllanishi va amaliy samaradorligi o‘rganiladi.

Uslublar (Methods). Ushbu tadqiqotda tarixiy-komparativ yondashuv asosida turli mamlakatlardagi rehabilitatsiya markazlari faoliyatini solishtirish asosiy metod sifatida tanlandi. Ma’lumotlar AQSh va Yevropa mamlakatlarida mavjud bo‘lgan sekta qarshi markazlarining hujjatlari, intervyular, rasmiy hisobotlar, psixologik ekspertiza natijalari va ilmiy maqolalarga tayanib tahlil qilindi. Xususan:

Steven Hassanning “Freedom of Mind Resource Center” tajribasi;

Germaniyadagi “Exit Deutschland” dasturi.

Natijalar (Results). Destruktiv sekta g‘oyalaridan zarar ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan markazlar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning rivojlanishi va metodik yondashuvlari hududiy, madaniy va siyosiy sharoitga bog‘liq ravishda turlicha shakllangan. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan AQSh, Yevropa tajribalari har biri o‘ziga xos modelga asoslangan bo‘lib, ular quyidagi asosiy natijalarni aniqlash imkonini berdi.

AQShdagi “Freedom of Mind Resource Center” (asoschisi Steven Hassan) modeli ongni nazorat qilishning BITE modeli (Behavior, Information, Thought, Emotion – xatti-harakat, axborot, fikr va his-tuyg‘ularni nazorat qilish) asosida shakllantirilgan bo‘lib, u sobiq sekta a’zolarida qayta tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. Bu markaz rehabilitatsiya jarayonida kognitiv-behavioral psixoterapiya, motivatsion intervyu, va oila bilan ishlash texnikalarini qo‘llaydi. S.Hassanning kuzatishlariga ko‘ra, ongni nazorat qilishning barcha komponentlarini tushuntirish va ularni tahlil qilish orqali bemor o‘z ongidagi buzilishlarni tan oladi va asta-sekin sektaviy ta’sirdan chiqib ketishga erishadi.

Yevropada, xususan Germaniyada faoliyat yuritayotgan “Exit Deutschland” dasturi sobiq ekstremistik guruhlardan chiqqan shaxslarga yordam berishga ixtisoslashgan. U faqat diniy sektalar emas, balki neonatsist, ultramillatchi va radikal harakat a’zolarini ham qamrab oladi. Dastur ijtimoiy reintegratsiya tamoyiliga asoslanadi va unda shaxsni nafaqat psixologik, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud. Bu yerda shaxsiy maslahatchilar, sobiq sektantlar bilan individual yondashuvlar va jamiyatga moslashtirish bo‘yicha ijtimoiy ishchilar ishtirok etadi. 2012–2020 yillarda 700 dan ortiq shaxslar dastur orqali muvaffaqiyatli rehabilitatsiyadan o‘tganligi qayd etilgan.

Yuqorida tahlil etilgan markazlarda umumiy xulosa sifatida ixtiyoriy ishtirok, inson huquqlariga hurmat, va inklyuziv yondashuv asosiy prinsip sifatida tan olingan. Majburiy “deprogramming” (ongni zo‘rluk bilan o‘zgartirish) usullaridan voz kechilgan, chunki ular odatda salbiy psixologik oqibatlariga olib kelgan. Shuningdek,

reabilitatsiya samaradorligi ko‘proq ko‘p bosqichli yondashuvga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- diagnostik bosqich – shaxsning sekta ta’sirida necha darajada bo‘lgani aniqlanadi;
- psixologik terapiya – shaxsiy kimlikni qayta tiklash, qo‘rquv va e’tiqod tizimini qayta qurish;
- jamiyatga qaytish – ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, mehnatga jalb etish;
- monitoring – sobiq sektantning holati uzoq muddat davomida nazorat ostida bo‘ladi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, destruktiv sekta g‘oyalaridan xalos bo‘lishda yondashuvlar xilma-xilligiga qaramasdan, insonparvarlik, samarali psixologik model va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tajribalarni o‘rganish O‘zbekistonda ham milliy reabilitatsiya tizimini shakllantirishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, destruktiv sekta g‘oyalaridan zarar ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilishga qaratilgan markazlarning muvaffaqiyati ularning metodik yondashuvi, jamiyat bilan aloqasi, shuningdek, psixologik, ijtimoiy va diniy omillarni qay darajada uyg‘unlashtira olganligiga bevosita bog‘liqdir. Markazlar faoliyati doirasida kuzatilgan asosiy jihatlardan biri shundaki, bunday reabilitatsion tizimlar oddiy psixologik yordamdan ko‘ra kengroq, kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatish modeliga aylanib bormoqda.

Birinchi navbatda, zamonaviy reabilitatsiya markazlari sekta a‘zolarida sodir bo‘lgan psixologik buzilishlar tabiatini chuqur tushunishga asoslangan yondashuvni afzal ko‘rmoqda. Destruktiv sekta a‘zolari odatda o‘z tafakkuri, qadriyatlari va hatto shaxsiy xotiralari ustidan to‘liq nazorat yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda, faqat rasmiy va mantiqiy yo‘l bilan tushuntirish emas, balki emotsional qo‘llab-quvvatlov, identitetni qayta shakllantirish va shaxsiy travma bilan ishlash zarur bo‘ladi. Steven Hassan tomonidan ishlab chiqilgan “BITE modeli” aynan shunday psixologik holatlarni aniqlash va tiklashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, reabilitatsiya markazlarining faoliyati ko‘p hollarda maqsadli guruhning ijtimoiy kontekstiga mos ravishda shakllanadi. Misol uchun, Yevropadagi “Exit Deutschland” markazi ekstremistik guruhlardan chiqayotgan sobiq a‘zolar uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa, Yaponiyadagi markazlar diniy-falsafiy asoslarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, reabilitatsiya yondashuvlari standartlashtirilgan bo‘lishi shart emas, ularning har biri madaniyatga, e’tiqodga, tarixiy tajribaga va ijtimoiy strukturalarga moslashtirilgan bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, ko‘plab markazlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash markaziy o‘rinni egallaydi. Sekta a‘zolari odatda oilasi bilan aloqani uzgan bo‘ladi yoki sekta tomonidan oila yovuz kuch sifatida ko‘rsatiladi. Reabilitatsiya jarayonida esa, oila a‘zolari bilan bosqichma-bosqich munosabatlarni tiklash, oilaviy ishonchni qayta qurish muhim terapiya shakli hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ishtirok mavjud bo‘lgan holatlarda reabilitatsiya natijalari ijobiy bo‘ladi.

To‘rtinchidan, muhokama jarayonida aniqlanganki, destruktiv sekta g‘oyalaridan chiqqan shaxslar uchun jamiyatga reintegratsiya qilish eng murakkab bosqich bo‘lib qolmoqda. Reabilitatsiyadan o‘tganlar mehnat bozoriga kirishda, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishda yoki shunchaki o‘zini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida his qilishda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat ijtimoiy stigma, ya’ni jamiyatda sekta a‘zolariga nisbatan mavjud salbiy stereotiplar bilan bog‘liq. Shu bois, samarali reabilitatsiya dasturlari nafaqat individga, balki jamiyatning ongini ham qayta tarbiyalashni ko‘zda tutishi kerak. Ayrim mamlakatlarda ilgari qo‘llanilgan majburiy deprogramming usullari inson huquqlarini buzganligi sababli keskin tanqidga uchragan. 1980-1990-yillar oralig‘ida AQSh va ayrim Yevropa mamlakatlarida sekta a‘zolarini majburiy ravishda olib chiqish va ongini o‘zgartirish amaliyoti keng tarqalgan edi. Biroq, bu tajribalar ko‘plab yuridik da’volarga, ruhiy jarohatlarning kuchayishiga va markazlar obro‘sining tushishiga olib kelgan. Shundan so‘ng, zamonaviy yondashuvlar to‘liq ixtiyoriylik, individual motivatsiyani uyg‘otish hamda inklyuziv psixoterapiya modellariga asoslanmoqda.

O‘zbekiston kontekstida esa, bunday markazlar faoliyatini tashkil etish dolzarb ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda diniy ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta’siriga tushgan fuqarolar sonining ortib borayotgani reabilitatsiya tizimini yo‘lga qo‘yishni talab qilmoqda. Mazkur maqolada ko‘rib chiqilgan xorijiy tajribalar asosida milliy reabilitatsiya modeli ishlab chiqilishi mumkin bo‘lib, unda:

- o‘zbek xalqining madaniy va dini qadriyatlariga moslashtirilgan psixologik yondashuvlar;
- ruhoniylar, psixologlar va ijtimoiy pedagoglardan iborat jamoaviy reabilitatsiya guruhi;
- oilaviy va ijtimoiy reintegratsiyani qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar;
- diniy bilimlarni sog‘lom va asosli manbalardan taqdim etadigan ma’rifiy kurslar tashkil etilishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, destruktiv sekta g‘oyalaridan xalos bo‘lish oddiy tashqi aralashuv bilan emas, balki ko‘p bosqichli, kompleks, ijtimoiy-psixologik yondashuv bilan amalga oshiriladi. Har bir shaxs bu alohida holat, va har bir ong bu alohida tiklanish jarayonidir.

Xulosa. Destruktiv sekta g‘oyalarining inson tafakkuriga, ruhiy salomatligiga va ijtimoiy hayotiga ko‘rsatadigan tahdidlari zamonaviy jamiyat uchun tobora murakkab tus olayotgan sotsial-psixologik muammo sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni hal etishda klassik jazolash yoki kuch ishlatish vositalari bilan emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan, ijtimoiy jihatdan inklyuziv, madaniy va diniy kontekstga moslashtirilgan rehabilitatsiya yondashuvlari samaraliroq natijalar bermoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi mamlakatlarda destruktiv sekta a‘zolarini jamiyatga qayta integratsiyalashga qaratilgan markazlar faoliyatining o‘ziga xos modeli shakllangan. Bu markazlar ongni nazorat qilish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish, shaxsiy identitetni qayta shakllantirish, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va mehnatga layoqatni tiklash kabi ko‘p bosqichli strategiyalarni qo‘llaydi. Xulosa shuki, destruktiv sekta g‘oyalaridan xalos etish jarayoni bu faqat bir martalik psixoterapevtik muolaja emas, balki uzoq muddatli, kompleks va tizimli yondashuvni talab qiluvchi ijtimoiy-pedagogik va psixologik faoliyatdir. O‘zbekiston sharoitida ham bu kabi markazlarni tashkil etish ehtiyoji dolzarb bo‘lib, xorijiy tajribalar asosida milliy mentalitet va dini-madaniy qadriyatlar asosida shakllangan kompleks rehabilitatsiya modeli ishlab chiqilishi zarur. Shu maqsadda, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, diniy idoralar va ilmiy doiralar o‘rtasidagi hamkorlik asosida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan samarali rehabilitatsiya infratuzilmasini yaratish bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hassan Steven. Combating Cult Mind Control. Newton: Freedom of Mind Press, 2015.
2. Neumann Peter R. Exit Programs for Militant Islamists: A Handbook. ICSR Report, 2012.
3. Singer, Margaret. Cults in Our Midst: The Hidden Menace in Our Everyday Lives. Jossey-Bass, 2003.

ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA IJTIMOIY TANQID VA AYOL TAQDIRI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridagi ijtimoiy-tanqidiy qarashlar va ayol obrazi orqali ifodalangan o’sha davr jamiyatining muammolari tahlil qilinadi. Muallif asarda mavjud patriarxal tuzum, majburiy nikoh, diniy riyo va ayollarning jamiyatdagi ikkinchi darajali o’rnini keskin tanqid ostiga oladi. Ayollarning erkinlik, tanlov huquqi va shaxsiy baxtga intilishi Qodiriy tomonidan realizm uslubida, chuqur badiiy va ruhiy tafsilotlar bilan yoritiladi. Maqolada, shuningdek, yozuvchining badiiy vositalari, syujet qurilishi va obrazlar tizimi orqali qanday ijtimoiy islohot g’oyalarini ilgari surgani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asar kontekstida gender tengligi, shaxsiy erkinlik va jamiyatdagi ijtimoiy adolat tushunchalariga yondashuv zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirilib baholanadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon, ijtimoiy tanqid, realizm, ayol obrazi, patriarxal jamiyat, majburiy nikoh, diniy riyo, gender tengligi, ayol erkinligi, adabiy tahlil, o‘zbek adabiyoti.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-критические взгляды Абдуллы Кодирия и образ женщины в его произведении «Скорпион из алтаря», которые отражают проблемы общества того времени. Автор подвергает резкой критике существующую патриархальную структуру, обязательные браки, религиозное лицемерие и второстепенное положение женщин в обществе. Стремление женщин к свободе, праву на выбор и личному счастью изображено Кодирием с использованием реалистического стиля, глубоких художественных и психологических деталей. В статье также научно-теоретически анализируется, как с помощью художественных средств, сюжетного построения и системы образов писатель выдвигает идеи социальных реформ. В контексте произведения рассматриваются такие понятия, как гендерное равенство, личная свобода и социальная справедливость, с сопоставлением с современными научными подходами.

Ключевые слова: Абдулла Кодирий, Скорпион из алтаря, социальная критика, реализм, образ женщины, патриархальное общество, обязательный брак, религиозное лицемерие, гендерное равенство, свобода женщины, литературный анализ, узбекская литература.

Annotation: This article analyzes the social-critical views of Abdullah Qodiriy and the portrayal of women in his work Scorpion from the altar, which reflect the societal issues of that time. The author sharply criticizes the existing patriarchal structure, forced marriages, religious hypocrisy, and the secondary status of women in society. The desire of women for freedom, the right to choose, and personal

happiness is depicted by Qodiriy using a realistic style, with deep artistic and psychological details. The article also scientifically and theoretically analyzes how the writer, through artistic means, plot construction, and the system of characters, introduces ideas for social reforms. In the context of the work, concepts such as gender equality, personal freedom, and social justice are discussed and compared with modern scientific approaches.

Keywords: Abdullah Qodiriy, Scorpion from the altar, social criticism, realism, female image, patriarchal society, forced marriage, religious hypocrisy, gender equality, women's freedom, literary analysis, Uzbek literature.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotining rivojlanishi nafaqat badiiy ijodning yangi bosqichini, balki jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va siyosiy islohotlar bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Shu davrda ko‘plab yozuvchilar jamiyatdagi mavjud bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy adolatsizliklarga, o‘zgarishlarga ehtiyoj sezgan. Abdulla Qodiriy o‘zining Mehrobdan chayon asari orqali adabiyotda ijtimoiy tanqidni amalga oshirgan ustalardan biri bo‘ldi. Asarda keltirilgan voqealar orqali XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi hududida hukm surgan ijtimoiy va axloqiy tizim, diniy soxtakorlik, patriarxal tuzum, ayollarning haq-huquqsizligi, jamiyatdagi notenglik kabi muammolar muallif tomonidan keng yoritilgan. Abdulla Qodiriy o‘z asarida ijtimoiy tanqidi orqali ko‘plab illatlar va jamiyatdagi yovuzliklarni fosh qilgan. Ayniqsa, asarda ayollarning o‘z orzulari va baxti uchun kurashishlari, jamiyatning ularni jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida qabul qilishga qarshi bo‘lishi haqidagi g‘oya yorqin tarzda aks ettirilgan. Yozuvchi ayolni inson sifatida, shaxsiy erkinlik, haq-huquqlari bilan tan olmaslikning ziyonini ochib beradi. Shuningdek, Qodiriy o‘z asarida diniy riyo va zamonaviy notengliklarni ko‘rsatish orqali jamiyatdagi manipulyatsiya va soxtakorlikni ifoda etadi.

Mehrobdan chayon asaridagi asosiy syujet ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularning o‘z haq-huquqlarini himoya qilishda duch keladigan qiyinchiliklar haqida. Asardagi Zebunniso, bir tarafdin sevgi va baxtni izlaydigan ayol, boshqa tarafdin jamiyatning patriarxal tuzumi, ota-onasining majburiy qarorlari bilan o‘z orzularidan mahrum bo‘ladi. Bu obraz orqali muallif ayolga nisbatan jamiyatning yondashuvini, ularning ijtimoiy erkinligini qanday cheklashini ko‘rsatadi. Qodiriyning bu ijtimoiy tanqidi va ayol taqdiri orqali, aslida butun jamiyatning muammolari va iztiroblari tasvirlanadi. Qodiriy Mehrobdan chayon asarida ayolga qarshi olib borilgan ijtimoiy va ma’naviy zulmga qarshi kurashni, ular uchun tenglik va erkinlikni talab qilishni maqsad qilib qo‘ygan. Bu asar, o‘z davrida jamiyatga bo‘lgan ijtimoiy islohotlar, gender tengligi, ayollarning o‘z orzulari va baxtiga intilishi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Shu bilan birga, badiiy nuqtai nazardan, Qodiriy asarda realizm uslubini

qo‘llagan, tasvirlangan obrazlar va syujetlar orqali o‘quvchiga ijtimoiy haqiqatni, o‘sha davrning muammolarini taqdim etgan.

Bugungi kun uchun ham, Mehrobdan chayon asari ibratli va saboq beruvchi asar sifatida xizmat qiladi. U gender tengligi, shaxsiy erkinlik va inson huquqlari kabi muammolarni jamiyatning kundalik hayoti bilan bog‘lash orqali hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon asarida o‘z davrining ijtimoiy-axloqiy tizimini chuqur tahlil qilib, uning zaif tomonlarini ochib beradi. Asar, o‘zining badiiy va ma’naviy jihatdan chuqur ta’sir ko‘rsatadigan tahlillari bilan adabiyotda realizm uslubining eng yaxshi namunalari sifatida qadrlanadi. Yozuvchi, ijtimoiy muammolarni tasvirlar orqali jonli va ta’sirli tarzda taqdim etadi. Asarda jamiyatda hukm surgan patriarxal tuzumning ayollarga qarshi olib borilgan zulmi, majburiy nikohlar va diniy soxtakorlik ko‘rsatilgan. Qodiriy jamiyatda ayollarning haq-huquqsizligi, erkaklar hukmronligining kuchayishi va bu jarayonda ayollarning o‘z orzulari va erkinliklariga erishishdagi cheklovlarni tanqid qiladi. Asarda, ayollarning faqat o‘z turmushlariga emas, balki butun hayotlariga erkaklar tomonidan qarorlar qabul qilinishini, jamiyatda ularga nisbatan kiritilgan qattiq me’yorlar va cheklovlarni keltirib chiqaruvchi tizimning zaifligini ochib beradi.

Zebunniso obrazini misol qilib olish mumkin. U o‘z orzulari, sevgi va baxtni izlab, jamiyatning qattiq qoidalariga qarshi kurashish istagini ko‘rsatadi. Biroq, jamiyat tomonidan unga qo‘yilgan chegaralar va ota-onasining majburiy qarorlari uni o‘z hayotini boshqarish huquqidan mahrum qiladi. Asar, ayollarning o‘z baxti va erkinligi uchun olib borilgan kurashni ko‘rsatadi, lekin ularning bu kurashlari doimo jamiyatning patriarxal tuzumi tomonidan to‘siladi. Asar orqali Qodiriy, nafaqat ayollarning erkinligi va huquqlari uchun kurashini, balki butun jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy islohotlarga ehtiyojini ta’kidlaydi. Yozuvchi, an’anaviy qadriyatlar va diniy riyolarni tanqid qilish orqali, bu ijtimoiy muammolarni yoritadi va o‘quvchining ongida ijtimoiy islohotlar talabini uyg‘otadi. Asarda, ayniqsa, majburiy nikohlar va ularning ayollar hayotiga ta’sirini yoritish orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar fosh etiladi.

Qodiriy ijtimoiy adolatsizliklarni keskin tanqid qilgan holda, inson huquqlarini himoya qilishni, ayniqsa ayollarga nisbatan adolatli yondashuvni ta’kidlaydi. Mehrobdan chayon asari, o‘z davrining ijtimoiy va axloqiy tuzumlariga qarshi chiqishning badiiy shakli bo‘lib, o‘zining realizm uslubida o‘sha davrning yuzaga kelgan muammolarini qamrab olgan yirik adabiy hodisadir.

Zebunniso – Mehrobdan chayon asarining markaziy obrazidir va uning taqdiri asarning asosiy temalaridan birini tashkil etadi. Yozuvchi, bu obraz orqali faqatgina bir ayolning fojiasini emas, balki butun bir jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy va axloqiy muammolarni aks ettiradi. Zebunniso – bu ijtimoiy tizimning zulmiga duchor bo‘lgan, o‘z baxti va orzulari uchun kurashayotgan ayol obrazidir. Uning taqdiri,

ayollarning jamiyatdagi ikkinchi darajali mavqei, majburiy nikohlar va patriarxal tuzumning nohaqligini yorqin tarzda namoyon etadi. Zebunniso o‘z orzularini amalga oshirishga harakat qiladi, ammo jamiyatning patriarxal tuzumi uning har bir qadami ustidan nazorat qiladi. Uning baxtiga erishishi, jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar, ota-onasining majburiy qarorlari bilan to‘siqqa to‘g‘ri keladi. Bu orqali yozuvchi ayollarning erkinligi, shaxsiy tanlov huquqi va baxtga intilishi faqat individual kurash emas, balki jamiyatning ijtimoiy va axloqiy jihatdan isloh qilinishi zarurligini ta’kidlaydi. Zebunniso timsoli orqali Qodiriy, ayollarning faqat o‘z huquqlari emas, balki ularning shaxsiy erkinliklari va ijtimoiy tengligi uchun kurashlarini ham ko‘rsatadi. U, o‘z baxtiga intilayotgan ayolni jamiyatning qadriyatlari va ijtimoiy qonunlari orqali o‘z erkinligini yo‘qotgan holda tasvirlaydi. Bu orqali yozuvchi, o‘sha davrda jamiyatda hukm surgan patriarxal tuzumning ayollarga nisbatan qilgan zulmini fosh etadi. Zebunniso obrazida, baxt va sevgi izlab, o‘z erkinligi uchun kurashayotgan ayol, aslida jamiyatning patriarxal tuzumi, o‘zaro munosabatlar va diniy riyolar kabi muammolarni ham ochib beradi. Bu, o‘quvchiga ayollarning ijtimoiy huquqlari va baxtlari uchun kurashish zarurligini anglatadi. Uning orzularidan mahrum bo‘lishi, jamiyatdagi ko‘plab ayollarning taqdiri bilan bir xil bo‘lib, ularning baxtsizliklari hamda o‘z huquqlarini olishdagi to‘siqlarni o‘zida aks ettiradi. Zebunniso timsoli, nafaqat o‘sha davrda, balki hozirgi kunda ham ayollarning teng huquqliligi, erkinligi va ijtimoiy tenglik uchun kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Qodiriy bu obraz orqali, faqat ayollar emas, balki butun jamiyatning o‘zgarishi va ijtimoiy islohotlar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi. Asarda ayolning o‘z huquqlarini himoya qilish, erkinlikka erishish va jamiyatda teng yashash uchun olib borilgan kurash nafaqat individual, balki jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va islohotlar bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon asarida jamiyatdagi adolatsizliklar, patriarxal tuzum, diniy riyo, majburiy nikohlar kabi illatlarni keskin tanqid qiladi. Asar, o‘z davrida yuzaga kelgan ijtimoiy va axloqiy muammolarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi, ayniqsa, ayollarning huquqlari va erkinliklarini inkor etishning fojiali natijalarini ko‘rsatadi. Asar orqali Qodiriy, jamiyatda gender tengligi, ayollarning inson sifatida hurmat qilinishi va ularning shaxsiy erkinliklari uchun kurash zarurligini ta’kidlaydi. Qodiriy, o‘z asarida patriarxal tuzumning erkaklar hukmronligini qanday mustahkamlaganini, bu tizimning ayollarga nisbatan adolatsiz va hukmsizligini ochib beradi. Ayollar jamiyatda qarorlar qabul qilishda, turmush qurish va baxtni tanlashda deyarli hech qanday erkinlikka ega emaslar. Bu ijtimoiy adolatsizliklar asarda keskin tanqid qilinadi. Yozuvchi, ayollarning baxtli hayot kechirish uchun o‘z tanlovlariga ega bo‘lishlari kerakligini, shaxsiy orzularini amalga oshirish huquqini olishlari zarurligini ko‘rsatadi. Qodiriy o‘zining realizm uslubida ayollarning ichki kurashlarini, jamiyat tomonidan ko‘rsatilgan to‘siqlarga

qarshi qanday kurashayotganlarini chuqur tasvirlaydi. Ayollarning o‘z baxti uchun kurashi, faqat bir insonning shaxsiy muammosi bo‘lmay, balki butun jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurash sifatida namoyon bo‘ladi. Zebunniso va boshqa ayol obrazlari orqali yozuvchi, o‘sha davrda jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal tuzumning kamsituvchi ta’sirini ochib beradi va ijtimoiy islohotlarga chaqiradi.

Qodiriy asari, bugungi kunda ham zamonaviy ilmiy va adabiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Gender tengligi, ayollarning erkinligi va inson huquqlari masalalari har doim dolzarb bo‘lib qolgan. O‘z zamonida ayollarning huquqlari va shaxsiy erkinliklari uchun kurashishni o‘rganishning ilhomlantiruvchi va ibratli yo‘li bo‘lgan Mehrobdan chayon asari, bugun ham gender tengligi va ijtimoiy islohotlarni talab qiladigan badiiy va ilmiy ish sifatida o‘qilishi kerak. Qodiriy o‘zining ijtimoiy tanqidida, jamiyatda adolatli sharoitlar yaratish, ayollarning huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish g‘oyalarini ilgari suradi. Bugungi kunda, bu masalalar jamiyatimizda o‘ta dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarga adabiyot orqali ijtimoiy islohotlarga turtki berish zarurligini eslatib turadi. Asar, faqat o‘z davrining emas, balki butun insoniyatning tenglik, erkinlik va adolat yo‘lidagi kurashiga hissa qo‘shishga qodir bo‘lgan bir ibratli asar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Qodiriy A.** Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012..
2. **Qo‘chqorova G.** Abdulla Qodiriy romanlarida ayol obrazlari. – Toshkent: Fan, 2007.
3. **Rasulov B.** O‘zbek realizm adabiyotida ijtimoiy tanqid. – Samarqand: Ilm ziyo, 2015.
4. **Xo‘jayev A.** Jadid adabiyoti va ijtimoiy g‘oyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
5. **Saidov A.** Gender tengligi va inson huquqlari. – Toshkent: Adolat, 2020. — Ayollar erkinligi va huquqlari masalasini zamonaviy yondashuvda ko‘rsatadi.

BOSHQARUVDA LIDERLIK XAREZMASINING IJTIMOİY JIHATLARI СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ХАРИЗМЫ ЛИДЕРСТВА В УПРАВЛЕНИИ SOCIAL ASPECTS OF LEADERSHIP CHARISMA IN MANAGEMENT

Tadjixodjayev Botir

O‘zbekiston MU Sotsiologiya kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif boshqaruvdagi liderlik xarezmasining ijtimoiy jihatlarini sotsiologiyaning mavjud ilmiy metodlari asosida yoritishga harakat qilgan. Mavzu doirasida klassik sotsiologlarning ilmiy nazariyalari tahlil qilinish asnosida boshqaruvdagi liderlik xarezmasining ijtimoiy jihatlarini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: liderning xarezmasi, boshqaruvda xarezmatik usul omillari, jamoani faollashtirish, jamiyatda samarali boshqaruv, ilhomlantirish va motivatsiya, korporativ boshqaruv tizimi.

Аннотация: В данной статье автор попытался осветить социальные аспекты лидерской харизмы в управлении на основе существующих научных методов социологии. В рамках темы были выявлены социальные аспекты лидерской харизмы в государственном управлении путем анализа научных теорий классиков социологии.

Ключевые слова: харизма лидера, факторы харизматического метода в управлении, активизация команды, эффективное управление в обществе, вдохновение и мотивация, система корпоративного управления.

Abstract: In this article, the author tried to highlight the social aspects of leadership charisma in management based on existing scientific methods of sociology. Within the framework of the topic, social aspects of leadership charisma in public administration were identified by analyzing the scientific theories of the classics of sociology.

Key words: charisma of the leader, charisma method factors in management, team activation, effective management in society, inspiration and motivation, corporate management system.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy sohadagi islohatlardan biri butun xalqimiz taqdiriga dahldor bo‘lgan muhim masalalardan biri rahbarlikning samarali yo‘llarini topish, boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan. Chunki jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida ham taraqqiyotga aynan shu yo‘l bilan erishilgan. Binobarin, jamiyatimizda rahbarlik faoliyati tug‘ri rejalashtirilsa, davlatimiz va xalqimiz oldida turgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini topib, yurtimiz obod, turmushimiz farovon bo‘lishiga shak-shubhasizdir. Lekin, jamiyatimizda rahbarlik

faoliyati va uning samarasi hali yetarli darajada shakllaniagan, bu borada xali ba’zi muammolar mavjud. Buning har xil obyektiv va subyektiv omillari bor albatta. Subyektiv omillardan biri shuki, jamiyat a’zolaridan bir qismining ongi, dunyoqarashi hali boshqaruv faoliyatiga yetarlicha tayyor emas. Rahbarlikning mohiyatini, maqsad va vazifalarini tushunmaslik oqibatida ayrim yetakchilar o’z faoliyatiga loqayd munosabatda bo’lmoqdalar. Ba’zi kishilar esa boqimandalik kayfiyatidan to’la qutulgan emas. Shu bilan birga, ayrim rahbarlar o’z haq - huquqlarini, burch va majburiyatlarini yetarli darajada bilmaydilar. Ayniqsa, bugungi kunda har bir raxbar juda ko’p sohalarni, har bir sohaning o’ziga xos murakkabliklarini yaxshi bilishi, oldiga quygan maqsadini his etishi, rahbarlik madaniyati va etikasini chuqur anglashi lozimligini hayotning o’zi kun tartibiga chiqarmoqda. Ayniqsa siyosiy yo’lboshchilikda yoshlarning alohida o’rni bor. Ularda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda keyingi yillarda mamlakatimizda talaygina ijobiy yutuqlarga erishildi. Muhtaram prezidentimiz ta’kidlab o’tkanlaridek, “Biz yoshlarimizning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga, ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Bu nafaqat yosh avlodning, balki, butun xalqimiz manfaatlarini ta’minlashga katta hissa bo’lib qo’shiladi.” Bizning mamlakatimizda azaldan mukammal jamiyat qurish ajdodlarimizning eng ezgu sa’y harakatlaridan biri bo’lib kelgan. Bu borada boshqaruvning mukammal nazariyalarini yaratish bo’yicha ko’plab buyuk mutaffakkir olimlar yetishib chiqqan. Xususan, Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida o’zining muayyan funksiyalariga ega bo’lib, go’yoki, bu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan.” O’zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt – saodatiga erishtirish, zarur bo’lgan ish harakat qudratsiz bo’lsa, bunday odam sira ham rahbar bo’la olmaydi.” Qolaversa xalqimiz bosib o’tgan tarixiy tarqqiyot yo’lidan ma’lumki, har bir davrning o’z yo’lboshchilari bo’lgan. Ularning liderlik xarezmasi o’z navbatida Vatan ravnaqiga xizmat qilgan.

Fikrimizcha, liderlik borasida jahon tajribasiga murojaat qilib o’rganadigan jihatlarimiz bor. Taniqli siyosatchi va davlat rahbari sifatida tanilgan U.Churchilning shunday so’zlari bor: “Pessimist inson har qadamda qiyinchiliklarni ko’radi, optimist esa har qanday qiyin vaziyatlarda ham imkoniyat qidiradi. Lider inson ham anashunday optimist pozitsiyasida bo’lmog’i zarur, aks holda hech kim u bilan birga bo’la olmaydi. Siyosiy yo’lboshchi odamlarni shunchaki boshqarishi emas, balki, ular bilan til topisha olishi, har qanday vaziyatda ularni tushunishi, muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ega bo’lmog’i zarur. Lider uchun buncha kompetensiya, buncha talabmi deyish noto’g’ri bo’lar edi. Chunki haqiqiy yo’lboshchi o’z xodimlarining hisobotlarini va faoliyatini nazorat qiluvchi funksiyasidagi shaxsgina emas, balki, u

jamoaning qalbi, aqlu – tafakkuridir. Bu sifatlarsiz samarali natijaga erishuvchi jamoani shakllantirish mumkin emas. Kuchli lidersiz kuchli jamoa ham bo‘lmaydi.”

Bugun dunyo miqyosida liderlikning muhim jihatlariga qiziqish katta. Masalan AQSH da Djon Baldoni tomonidan yozilgan “Liderning oltin kitobi: har qanday vaziyatlardagi boshqaruvning 101 texnikasi va yo‘li“ kitobida aynan siyosiy yo‘lboshchilik bilan bog‘liq holatlarga baho berilgan. Ushbu kitobda taniqli siyosatshunos K.Pauellning ayrim mulohazalari haqida tahlillar e’tiborimizni tortdi. K.Pauell boshqaruvchining kuchli jihatlarini bayon qilar ekan, sobiq harbiy sifatida o‘zining quyidagi xulosasini bayon qiladi: “Siz o‘z askarlaringizning boshlig‘i bo‘lish pozitsiyasidan ular sizga o‘z muammolari bilan yordam so‘ramay qo‘ygan paytdan boshlab voz keching, aks holda ular sizga ishonmay qo‘yishadi. Yaxshi lider o‘z qo‘l ostidagilarga nafaqat instruksiya berishi, balki yuklatilgan vazifani muvafaqiyatli amalga oshirishga munosib sharoitni ham yaratib berishi zarur.” D.Baldonining mazkur kitobi boshqaruv sohasida samarali faoliyat olib borish niyatida bo‘lgan yo‘lboshchilarda zaruriy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yaxshi yordamchi bo‘la oladi. Yana bir nashr Saymon Sinekning “Liderlar oxirida ovqatlanishadi. Orzuindagi jamoani tuzish” nomli kitobida ham yo‘lboshchining bugungi vaziyatdagi holati va vazifalari borasida fikrlar bayon qilingan. Muallifning xulosasida aytilishicha, liderning muhim vazifalaridan biri bu har qanday jamoada avvalo yo‘lboshchi ichki xotirjamlik va xavfsizlikni shakllantira olishi zaruriyatidir. Agar shu ko‘zlangan natijaga jamoa erisha olsa ular har qanday tashqi kuchlar hujumini va jamoa bilan bog‘liq muammolarni samarali hal qila oladilar.

M.Bakingem va E.Gudell hamkorlikda nashr ettirgan “Bu bunday ishlamaydi!” nomli kitobida ham liderlikning abstrakt tushunchalari va sifatlari, ideal boshqaruv tizimi haqida tahlillar bayon qilinadi. Kitob dolzarb muammolarni ko‘targan bo‘lib AQSH ning “Amazon” kompaniyasida 14 000 nafar menejerning ishdan bo‘shatilishi holati boshqaruvdagi transformatsiya bilan bog‘liq vaziyatlar bilan bog‘liq ekanligi haqidagi tahlili berilganligi qiziqarli. “Liderlik xarezmasi: jamoani g‘alabaga qanday rag‘barlantirish mumkin?” nomli K.Myurreyning ushbu kitobi muallif liderlik xarezmasing beshta omillariga baho beradi. Uning fikricha xarezmatic liderlarga xos xususiyat bu ular ko‘proq boshqalarni eshitishni gapirishdan ko‘ra afzal biladi, boshqa insonlarni fikrlarini eshitishni intuziazmini hurmat qiladi, ular uchun u boshqarayotgan jamoaning har bir a‘zosining liderga va jamoadagilarga emas, o‘ziga bo‘lgan munosabati muhim hisoblanishi olib borilgan izlanishlar orqali tahlil qilib berilgan.

Bugun liderlik tushunchasi – jamiyat boshqaruvida muhim rol o‘ynaydigan ijtimoiy fenomen sifatida jamiyatdagi guruhlar, tashkilotlar va davlatlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Liderlikning qadrlash tizimidagi asosiy jihati guruh manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yishi, doimo guruh oldiga qo‘yilgan vazifani yechishga

sidqidildan kirishishi va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir. Liderlar odamlarni birlashtirish, maqsad sari yetaklash va muayyan vazifalarni bajarishda yo‘lboshchi bo‘lish qobiliyatiga ega shaxslardir. Shu boisdan ham liderlik tushunchasi va uning jamiyatdagi roli quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- **yo‘nalish berish:** jamiyatda liderlar odamlarni umumiy maqsad sari yo‘naltiradi.

- **motivlash:** liderlar jamoa a‘zolarini faollashtiradi va ularni harakatga keltiradi.

- **tashkillashtirish:** jamiyatda samarali boshqaruv tizimi yaratishda ishtirok etadi.

- **nazorat qilish:** liderlar amalga oshirilayotgan ishlar ustidan nazorat o‘rnatadi va kerakli o‘zgarishlarni joriy qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda liderlikning bir nechta nazariyalari ishlab chiqilgan:

- **xususiyatlar nazariyasi** – liderlik insonning tabiiy xususiyatlariga bog‘liq deb hisoblaydi. Bunday liderlar ko‘proq tug‘ma iste’dodlarga ega bo‘ladi.

- **holatga qarab liderlik nazariyasi** – liderlik xususiyatlari emas, balki vaziyatga qarab shakllanadi. Turli sharoitlarda turli xil yetakchilik uslublari samarali bo‘ladi.

- **interaktiv nazariya** – liderlik faqat bir kishining xususiyatlari emas, balki jamoa va lider o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladi. Jamiyatda liderlik turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- **siyosiy liderlik:** Prezidentlar, bosh vazirlar, siyosiy partiya yetakchilari jamiyat boshqaruvida muhim rol o‘ynaydi.

- **iqtisodiy liderlik:** Korporatsiyalar va biznes liderlari iqtisodiy rivojlanishga yo‘nalish beradi.

- **ijtimoiy va ma’naviy liderlik:** Ijtimoiy faollar, diniy yetakchilar va ma’naviy shaxslar jamiyat ongiga ta’sir qiladi.

Liderlar jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga katta hissa qo‘shadi. Ularning ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- islohotlar va o‘zgarishlarni amalga oshirish
- ijtimoiy birdamlikni ta’minlash
- innovatsiyalar va taraqqiyotni rag‘batlantirish
- xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash

Liderlar jamiyatda boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Ular jamoalarni tashkillashtirish, motivlashtirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun jamiyatda samarali liderlikni shakllantirish va uni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xarizmatik liderlik va uning boshqaruvdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Xarizmatik liderlik – bu shaxsning o‘zining shaxsiy fazilatlari,

xarizmasi va ta’sir kuchiga asoslangan rahbarlik uslubi hisoblanadi. Bu tushuncha nemis sotsiologi Maks Veber tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u liderlikning uch xil tipini ajratadi:

1. **an’anaviy liderlik** – qonunchilik va urf-odatlariga asoslangan.
2. **huquqiy-ratsional liderlik** – qonunlar va institutlarga asoslangan.
3. **xarizmatik liderlik** – shaxsiy maftunkorlik va karizmaga asoslangan.

Xarizmatik liderlar odamlarga kuchli ta’sir o‘tkazib, ularni o‘z g‘oyalari ortidan ergashtira oladi. Ular ko‘pincha inqiroz yoki murakkab vaziyatlarda paydo bo‘ladi va jamiyatda katta o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladi. Xarizmatik liderlarning boshqaruvdagi o‘rni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **ilhomlantirish va motivatsiya** - Xarizmatik rahbarlar odamlarni ruhlantirish va ularni katta maqsadlarga intilishga undaydi. Ular o‘z chiqishlari va harakatlari bilan jamiyat yoki tashkilotni harakatga keltirishi mumkin.

2. **islohot va innovatsiyalar** - Bunday liderlar mavjud tizimlardan tashqari fikrlaydi va tub o‘zgarishlar kiritishga qodir. Ular ko‘pincha jamiyatni yoki tashkilotni inqirozdan olib chiqadi.

3. **tashkilot va jamiyatni birlashtirish** - Xarizmatik liderlar insonlarning ishonchini qozonadi va ularni umumiy maqsad sari yo‘naltirishi mumkin. Ular jamoaviy ruhni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. **mas’uliyat va xavf** -Xarizmatik liderlik ba’zan subyektiv qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Agar bunday lider manfur g‘oyalarga ega bo‘lsa, jamiyatni yoki tashkilotni noo‘rin yo‘nalishga burib yuborishi mumkin.

Tarixdan misollar keltiradigan bo‘lsak, Maxatma Gandi – Hindiston mustaqilligi uchun kurashgan va zo‘ravonliksiz kurash strategiyasini qo‘llagan xarizmatik lider. Nelson Mandela – Janubiy Afrikada aparteidga qarshi kurashgan va millatni birlashtirgan rahbar. Adolf Gitler – xarizmatik liderlikning manfiy misoli. Uning shaxsiy ta’siri Germaniyani ikkinchi jahon urushiga olib keldi. Xarizmatik liderlik jamiyat va davlat boshqaruvida muhim rol o‘ynaydi. Bunday liderlar tub o‘zgarishlarni amalga oshirishi mumkin, lekin ularning ta’siri ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Shuning uchun xarizmatik rahbarlikni to‘g‘ri boshqarish va uni nazorat qilish juda muhimdir.

O‘zbekistonda ham zamonaviy boshqaruv sohasidagi liderlik va uning ilmiy asoslari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, K.Murotmusayevning "Boshqaruv faoliyatida liderlik samarali vosita sifatida" nomli maqolasida turli tashkilotlarda samarali liderlik masalalari ko‘rib chiqilgan. Unda muallif shaxsning shaxsiy xususiyatlari va uning liderlik qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, turli tarixiy shaxslar misolida liderlik sifatlarini yoritgan. Shuningdek, B.Mullabayayevning “Zamonaviy boshqaruv kadrlariga qo‘yiladigan talablar” nomli maqolasida rahbarlik uslublari, vazifalarni bajarish va xodimlarni

boshqarish usullari muhokama qilingan. Ushbu maqolada rahbarning jamoani vazifalarni bajarishga qanday rag‘batlantirishi va nazorat qilishi masalalari yoritilgan.

U.Kenjayeve esa “O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish yo‘llari” nomli tadqiqotida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi, uning xorij tajribasi va O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni taqdim etgan. Bundan tashqari, A.Abdualimov va J.Omonkeldiyevning "O‘zbekistonda tadbirkorlik sohasida zamonaviy boshqaruvning roli va uni joriy etish muammosi" nomli maqolasida mamlakatdagi boshqaruvning hozirgi holati va tadbirkorlikda zamonaviy boshqaruvni joriy etish muammolari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekistonda zamonaviy boshqaruv va liderlik sohasidagi ilmiy izlanishlarning muhimligini ko‘rsatadi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratadi. 2023 yilning fevral oyida Toshkent, Farg‘ona va Andijon shaharlarida “Zamonaviy maktab liderlar nigohida” mavzusida seminarlar tashkil etildi. Ushbu seminarlarda 10 mingdan ortiq maktab direktorlari maktabni boshqarish, muammolarni jamoaviy hal qilish va o‘quvchilar ta’limi uchun muhim omillar borasida fikr va tajriba almashdilar. Tadbirlar davomida maktab rahbarlari liderlik faoliyatini olib borish, jamoani boshqarishda jamoaviy fikrni qo‘llash va rejalarni amalga oshirish kabi mavzular muhokama qilindi. Ushbu tadqiqotlar va amaliy tashabbuslar O‘zbekistonda zamonaviy boshqaruv va liderlik sohasidagi rivojlanish va muammolarni chuqurroq o‘rganishga hissa qo‘shadi.

Bugun biz mustaqil va ozod mamlakatda yashamoqdamiz. Xalqimizning uzoq va yaqin o‘tmishidagi tarixiy voqeylikni hech bir mafkuraviy tazyiqlarsiz o‘rganish, ularga xolis baho berish imkoniyatiga egamiz. Shunday ekan, mamlakatimiz va dunyo hayotida alohida ahamiyatga ega o‘tkan asr va uning ikkinchi yarmi pozitiv voqealarga boy bo‘ldi. Qiyin vaziyatlarda insoniyat o‘z xarezmatic yo‘lboshchilarining to‘g‘ri faoliyati sabab qiyin vaziyatlarda qarama – qarshiliklar girdobidan chiqish yo‘lini topa oldi. Davom etayotgan ziddiyatli vaziyatlarning hal qilinishiga va unda albatta lider yo‘lboshchilarning o‘rniga ishongimiz keladi. Totalitar tartibotlarning qayta qaror topishiga, yovuz diktator shaxslarning qayta hokimiyatga kelishiga yo‘l qo‘yilmasligiga ishgimiz keladi. Yana umid qilamizki, insoniyat oxir oqibatda qashshoqlik, madaniyatsizlik, jinoyatchilik, haq – huquqlarning poymol qilinishi, beda’vo kasalliklar kabi muammolarini ham yengib o‘ta olishiga umid qilamiz. Albatta bunday muhim ijtimoiy siyosiy jarayonda liderlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Liderlikning o‘ziga xos tomonlari quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo‘ladi:

1. Vizionerlik – ya’ni, hodisalarni oldindan ko‘ra bilish lider keksa yoshdagilar bilan munosabatda bo‘lishda xavfsiz bo‘lishi kerak.

hodisalarni tahlil qilib, strategiya ishlab chiqadi.

2. O‘zini kamtarona tutishga harakat qilishi lider qaror qabul qilishdan qochmaydi va natijalar uchun javobgarlikni his qiladi.
tashabbuskorlik bilan qarorlar qabul qiladi va tavakkal qila oladi.
3. Jamoani ruhlantirish. Jamoa a’zolarining ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.
4. Munosabatlar va ishonch o‘rnatish odamlar bilan samimiy munosabatda bo‘ladi.
hamkorlik muhitini yaratishga e’tibor garatadi.
5. To‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish lider ichida ingliz tilini yaxshi biladiganlari strategik va taktik qarorlarni nisbatan tez qaror qabul qilishadi.
o‘zgaruvchan muhitda ham o‘zini yo‘qotmaydi.
6. Tashabbuskorlik v innovatsion fikrlash yangi g‘oyalar va innovatsionnovatsiyalarni ilgari suradi. jamoani yangilik yaratishga undaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. URL manzil <https://president.uz/uz.2690>
2. Abu Nasr Forobiy .Fozil odamlar shahri . – T.; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 189-bet
3. Yaxontova YE.S. Psixologiya delovix otnosheniy.- Moskva...; 1997, izd. Politizdat.
4. Abdullayeva R. Liderlik va rahbarlik sifatlarining bog‘liqlik jihatlari. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi:muammo va yechimlar. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. 2019, 20 noyabr, 255- 256 bet.
5. Alifanova S.A. Osnovniye napravleniya analiza liderstva.// Voprosi psixologii, 1991, № 3, 8.
6. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent.; 2007,

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATINING SEHRILI OLAMI

Aralova Farangiz Abdulla qizi

Samarqand davlat universiteti 1- kurs talabasi

aralovafarangiz00@mail.com

Annotatsiya: Muhammad Yusuf zamonaviy o‘zbek poeziyasining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lib, uning she’riyati xalq ruhiyatining poetik ifodasi, milliy tafakkurning badiiy aksidir. Ushbu maqolada shoirning badiiy merosi, uning poetik dunyoqarashi, xalqona obraz va ramzlar vositasida yaratgan “sehrli olami” chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Maqola doirasida Muhammad Yusuf she’rlaridagi tuyg‘ularning tabiiyligi, obrazlarning ramziyligi, xalq ruhiyatiga xos tilda ifodalangan lirizm, Vatanga muhabbat, ona tiliga ehtirom, milliy g‘urur kabi tushunchalar badiiy-estetik yondashuv asosida o‘rganiladi.

Maqola yozilishida adabiyotshunoslikning tahliliy-uslubiy va qiyosiy metodlaridan foydalanilgan bo‘lib, Muhammad Yusuf ijodi o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va hozirgi zamon ruhiy holati bilan uyg‘unlikda ko‘riladi. Shuningdek, shoirning she’riyati bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, ezgulik va imon ruhida tarbiyalash vositasi sifatida ham baholanadi. U yaratgan poetik uslub, xalqona ohang, ramziy timsollar orqali shoir o‘zbek poeziyasi tarixida noyob ijodiy maktab asoschisi sifatida tan olinadi.

Ushbu maqola Muhammad Yusuf ijodining estetik, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, shoirning she’riyati orqali o‘zbek milliy adabiy tafakkurining bugungi taraqqiyot bosqichidagi holati ham ko‘rsatib beriladi. Maqola ijodiy uslubda, ammo ilmiy talablarga to‘liq amal qilingan holda yozilgan bo‘lib, Muhammad Yusuf poetikasini yangi ilmiy qarashlar asosida talqin etishga urinishdir.

Kalit so‘zlar. Muhammad Yusuf, o‘zbek she’riyati, milliy ruh, obrazlilik, xalqona ifoda, badiiy-estetik tafakkur.

Kirish. Muhammad Yusuf o‘zbek she’riyatiga yangi nafas, yangi poetik ruh olib kirgan, xalq dardini xalq tilida ifoda qilgan, milliylik va insoniylikni uyg‘unlashtira olgan noyob shoirlardan biridir. Uning she’riy olami badiiy jihatdan boy, tuyg‘ular bilan serob, ramzlar bilan to‘la, ayni paytda sodda va xalqona tilda yaratilganligi bilan ajralib turadi. Shoirning she’rlari o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, ruhiyati, orzu-armonlari va vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan.

Asosiy qism

Muhammad Yusuf she’riyatidagi xalqona ohang. **Muhammad Yusuf she’rlarida xalq og’zaki ijodining ohangi va ritmi sezilib turadi. U xalq maqollari, aforizmlari va iboralarini she’riy misralarga singdirgan holda ularga badiiy chuqurlik baxsh etgan. Jumladan, “Ko’ksimda Vatan” deb atalgan she’rida xalqona ohang bilan Vatanga bo’lgan muhabbat kuchli lirizm bilan ifodalanadi:**

*Ko’ksimda Vatan, yuragimda el,
She’rimda yashar har bir ezgu til.*

Shoir xalqning ruhiy holatini xalqning o’z tili bilan ifoda etadi. Uning she’rlarida murakkab metaforalar emas, balki hayotning o’zidan olingan haqiqat, oddiylik orqali go’zallikka erishiladi.

Badiiy-estetik sehr: poetik ramzlar va obrazlar. **Muhammad Yusuf she’riyati poetik jihatdan ham boy. U o’z she’rlarida tabiat obrazlarini ramziy ma’nolarda ishlatadi: daraxt, qush, yong’ir, quyosh, to’lqin – bular xalq hayotining timsollariga aylangan. Shoir estetikani zamonaviy ifoda orqali xalq ruhiyatiga moslashtira olgan.**

*Men tongman – har tuningdan so’ng keladigan,
Men quyosh – qorong’ilikni yondiradigan.*

Uning obrazlari milliy tafakkur bilan bog’liq bo’lib, ular orqali ijtimoiy va falsafiy g’oyalar ilgari suriladi.

Vatanparvarlik va insonparvarlik ruhi. Shoir she’riyatining bosh g’oyalaridan biri – Vatan va xalqga muhabbat. Bu g’oya ko’plab she’rlarining asosiy mag’zini tashkil etadi. “Yolg’iz ona” she’rida ona siymosi orqali Vatanning timsoli yaratiladi. Shoir ko’pincha ona, xalq, el, tuproq obrazlarini bir-biri bilan bog’liq holda tasvirlaydi. Bu esa milliylik va insonparvarlikni uyg’unlashtiradi.

Shoir she’riyatining bugungi adabiyotdagi o’rni. Muhammad Yusuf she’riyati bugungi kunda ham yosh shoirlar, adabiy doira va o’quvchilar orasida e’tiborga molik. U hayotning o’zidan ilhom olgan, xalq bilan baravar nafas olgan shoir sifatida o’zbek adabiyotida mustahkam o’rin egallagan. Uning ijodi haqida ko’plab ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan.

XULOSA. Muhammad Yusuf – XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek she’riyatida milliy o‘zlik, xalqparvarlik va Vatanga sadoqat g‘oyalarini poetik vositalar bilan chuqur va ta’sirchan ifoda etgan betakror shoirdir. Uning she’riyati xalqning yuragidan joy olgan, xalq tilida yaratilgan, ammo yuksak badiiylilik, estetik did va ichki falsafiy qatlamlar bilan boyitilgan. U oddiy so‘zlar orqali murakkab tuyg‘ularni, ramziy obrazlar orqali tarixiy va ma’naviy haqiqatlarni ifodalash mahoratini namoyon etgan.

Shoir yaratgan poetik olam – bu xalq qalbining ifodasi, bu yurakdagi tuyg‘ularni she’rga aylantirish san’atining eng go‘zal namunalaridan biridir. Muhammad Yusuf o‘z she’rlarida Vatan va xalq timsolida nafaqat tabarruk zaminni, balki odamlarning orzu-umidlarini, dardini, quvonchini, tarixiy xotirasini, milliy g‘ururini va hayot falsafasini badiiy ifoda vositalari bilan yorqin tarzda ifodalagan.

Muhammad Yusufning she’riyatidagi xalqona ohang, lirizm, tabiat va Vatan obrazlari, ona siymosi va erk, erkinlik, tinchlik singari yuksak tushunchalar – barchasi o‘zbek poeziyasining milliy-estetik merosiga aylangan. Shoir o‘z ijodida badiiy ifoda va xalq qalbining zaruriyatini birlashtirdi. Aynan shu uyg‘unlik uni el ardog‘idagi shoir darajasiga ko‘tardi.

Muhammad Yusufning ijodi nafaqat o‘tmishni eslatadi, balki bugungi kunga xizmat qiladi, ertangi kunni esa umid bilan yoritadi. U millat ruhining tarjimoni, xalq yuragining she’riy tovushidir. Uning she’rlari o‘zbek tilining jozibasini, badiiy boyligi va ruhiy qudratini namoyon etadi. Shoir she’rlaridagi samimiyat va hayotiylik zamonaviy o‘zbek yoshlarining ma’naviy tarbiyasi uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammad Yusuf she’riyatining «sehrli olami» aslida xalqning ruhiy dunyosining badiiy talqinidir. Bu olamda ko‘ngil va qalb uyg‘unlashgan, dard va orzu barobar yashaydi. U yaratgan bu badiiy olam faqat adabiyotshunoslik doirasidagina emas, balki ma’naviyatshunoslik, milliy o‘zlik, estetik tarbiya, falsafa va til madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf she’riyati – bu yurakdan chiqqan, yuraklarga yo‘l topgan poeziya; bu so‘zlar bilan qurilgan ammo qalb bilan seziladigan hayot falsafasidir. U o‘zbek adabiyotiga xalqona lirikaning yangi, kuchli va samimiy yo‘nalishini olib kirdi va hozirgi kunda ham bu an’ana o‘z qiymatini yo‘qotmay, aksincha, har bir satrda yangicha ma’naviylik bilan yashamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. (2005). *O‘zbek she’riyati va zamon.* – Toshkent: Fan.
2. Qo‘chqorov O. (2010). *Muhammad Yusuf she’riyati: badiiyat va ramz.* – Toshkent: Adabiyot.

3. Xudoyberdiyev A. (2003). *Zamonaviy o‘zbek lirikasi*. – Samarqand: Ilm Ziyo.
4. Qodirov M. (2012). “Muhammad Yusuf – xalq yuragidan joy olgan shoir”, *O‘zbek tili va adabiyoti jurnali*, №3.
5. Niyozmetov N. (2018). *She’riy tafakkur va milliy ruh*. – Nukus: Bilim.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT

Akbar Axtamovich Allamov

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrası dotsenti.

Javohir Izzatullayev

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Islom tarixi va manbashunosligi yo‘nalishi 5.1ITM 21- guruh talabasi

Annotatsiya: XX asrlar davomida Turkiston mintaqasi islom dunyosining ilm-fan, madaniyat va ma’rifat markaziga aylangan. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Marv kabi shaharlarda ilmiy maktablar, kutubxonalar va madrasalar faoliyat yuritib, ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning asarlari nafaqat musulmon olami, balki butun jahon ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada Turkistonning ushbu davrdagi ilmiy-madaniy yuksalishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, XX asrlar, ilm-fan, madaniyat, islom tsivilizatsiyasi, allomalar, kutubxona, madrasalar.

КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ ТУРКЕСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация: В течение 20-го века Туркестанский край стал центром науки, культуры и просвещения исламского мира. В этот период в таких городах, как Бухара, Самарканд и Мерв, действовали научные школы, библиотеки и медресе, и было образовано много великих ученых. Их труды внесли большой вклад в развитие не только мусульманского мира, но и всего мира науки. В этой статье анализируется научный и культурный подъем Туркестана в этот период.

Ключевые слова: Туркестан, 20-й век, наука, культура, исламская цивилизация, ученые, библиотека, медресе.

CULTURAL LIFE OF TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURY

Abstract: During the 20th century, the Turkestan region became the center of science, culture and education of the Islamic world. During this period, scientific schools, libraries and madrassas operated in cities such as Bukhara, Samarkand and Merv, and many great scientists were educated. Their works made a great contribution to the development of not only the Muslim world, but also the entire

world of science. This article analyzes the scientific and cultural rise of Turkestan during this period.

Keywords: Turkestan, 20th century, science, culture, Islamic civilization, scientists, library, madrassas.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston hududi tarixiy va madaniy o'zgarishlarning markaziga aylandi. Ushbu davrda, Turkistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari, albatta, madaniyatga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, va boshqa xalqlar, o'zlarining an'analari, san'ati, adabiyoti va ilm-fanini rivojlantirishda katta qadamlar qo'ydilar. Bu davrda Turkiston hududida ilm-fan, san'at, adabiyot va boshqa madaniy sohalarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

1. Siyosiy va Ijtimoiy O'zgarishlar

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda mustamlakachilik siyosati va o'zgaruvchan ijtimoiy holat madaniyatga katta ta'sir ko'rsatdi. 1864 yilda Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olish jarayoni boshlandi. Bu jarayon nafaqat siyosiy o'zgarishlarga, balki ijtimoiy hayotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rossiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, ta'lim va ma'rifat tizimi, yangi boshqaruv shakllarini kiritish, madaniy hayotda yangi yo'nalishlar ochilishiga olib keldi.

Bundan tashqari, XIX asr oxiriga kelib, Turkistonda va butun Rossiya imperiyasida katta iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, madaniyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yangi infratuzilma va sanoat rivojlanishi, shuningdek, mahalliy xalqlarning madaniy merosi va qadriyatlarini saqlashga qaratilgan harakatlar boshlandi.

2. Ilm-fan va Ta'lim

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim tizimi yangi bosqichga o'tdi. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan ta'lim islohotlari, ta'limni markazlashtirish va yangi uslublar kiritish o'zgarishlarni ta'minladi. Shu bilan birga, mahalliy xalqlar o'z an'anaviy ta'lim tizimlarini ham saqlab qoldilar. Madrasalarda o'qish, ilm-fan va adabiyotga qiziqish ortdi.

Bu davrda ilm-fan sohasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Alimlar va mutaxassislar, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudi, Abdurauf Fitrat va boshqa mashhur shaxslar ilmiy ishlanmalari bilan turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular nafaqat adabiyot, balki tarix, falsafa va tabiatshunoslik kabi sohalarda ham tadqiqotlar olib bordilar.

3. Adabiyot va San'at

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston adabiyoti va san'ati o'ziga xos rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. Bu davrda adabiyotda modernizm va yangiliklarga intilish kuzatildi. Yangi janrlar, yangi yozuv uslublari va mavzular paydo bo'ldi.

Adabiyotda, ayniqsa, turk tilida yozgan mashhur shoirlar va yozuvchilar o'z ijodlari bilan katta iz qoldirdilar. Ma'lumki, Bu davrda she'riyat rivojlandi, va ko'plab mashhur shoirlar, jumladan, Alisher Navoiy, Abdulqodir Suyunqari va boshqa adiblar o'z ijodlari bilan Turkiston madaniyatiga katta hissa qo'shdilar.

4. Musiqa va San'at

Musiqa va san'at ham o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Turkiston xalqlari o'zlarining musiqiy an'alarini saqlab qolgan holda, zamonaviy uslublarni bilan ham tanishdilar. Musiqa maktablari va jamoalari ochildi. Bu davrda o'zbek musiqasida yangi uslublarni va janrlarni paydo bo'ldi, va shuningdek, rus musiqasi ham ta'sir ko'rsatdi.

San'at sohasida, ayniqsa, rasmlar va haykaltaroshlikda yangi uslublarni rivojlandi. Turkistonning mahalliy rassomlari o'zlarining an'alarini va tabiiy go'zalliklarni tasvirlab, yangi san'at asarlarini yaratdilar.

5. Madaniyatga Ta'sir Etuvchi Tashqi Omillar

XIX asr oxiriga kelib, Turkiston hududi Rossiya imperiyasining tarkibiga kiritilganidan so'ng, tashqi madaniyatlarni, ayniqsa, rus madaniyati, turk va arab madaniyatlari ta'siri sezilarli bo'ldi. Bu madaniy ta'sirlar, o'z navbatida, o'zbek, tojik, qozoq va boshqa xalqlarning madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutdi.

Xulosa

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda madaniy hayot jadal rivojlandi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va musiqaning har bir sohasida yangi bosqichlarni yuzaga keldi. Boshqa madaniyatlarni va zamonaviy sharoitlarning ta'sirida, Turkiston madaniyati o'zining noyob va boy merosini saqlab qoldi. Bu davrda yuz bergan o'zgarishlarni, hozirgi kunda ham Turkiston xalqlarining madaniyatini shakllantirishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudi, M. (2017). Madaniyat va ijtimoiy o'zgarishlarni: Turkiston misolida. Almaty: O'zbekiston.
2. Fitrat, A. (2011). Turkiston madaniyatining rivojlanishi va o'zgarishlari. Tashkent: O'zbekiston.
3. Mirzaeva, Z. (2014). Turkiston adabiyoti va uning rivojlanish jarayoni. Tashkent: UzFAN.
4. Usmonov, B. (2012). XIX asrda Turkistonda ilm-fan va ta'lim tizimi. Tashkent: O'zbekiston.
5. Yuldashev, M. (2013). XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayoti. Tashkent: Fan.

BALOG‘AT ILMI VA UNDA IMOM SAKKOKIYNING O‘RNI THE SCIENCE OF PUBERTY AND THE PLACE OF IMAM SAKKOKI IN IT

Hakimov O‘tkir Turdibayevich

Oriental universiteti Lingvistika arab tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

998974110403u@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Arab tilini o‘rganish uchun ham boshqa tillarni bilib olish uchun kerak bo‘ladigan lug‘at, morfologiya, grammatika, ya’ni sarf va nahv ilmlari mukammal o‘rganiladi. Shu bilan birga arab tilida mukammal gaplashish va uni tushunish uchun albatta, balog‘at fani qoidalarini yaxshi bilish kerakligi haqida fikr va mulohazalar bildirilgan. Xususan, Arab tili ilmlari bilimdoni ulug‘ alloma Imom Sakkokiy Imom Zamaxshariy bilan balog‘at ilmida birga e’tirof qilinishi uning qay darajada yuksak maqomga ega ekanligi ilmiy talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: Arab tili, Qur’oni karim, sarf, nahv va balog‘at ilmi, ilmi maoniy, ilmi bayon va ilmi badi', ulamolar.

Annotation: This article will perfectly study the vocabulary, morphology, grammar, that is, the science of sarf and nahv, which will also be needed to learn Arabic to learn other languages. At the same time, opinions and considerations were expressed that in order to speak Arabic perfectly and understand it, one should definitely know the rules of puberty. In particular, the scientific interpretation of the status of the great alloma Imom Sakkokiy with Imom Zamakhshari, a connoisseur of the Arabic language, in the science of puberty.

Keywords: Arabic language, Quran karim, sarf, nahv and the science of puberty, ilmi Maani, ilmi Bayan and ilmi badi', Ulama.

KIRISH

Arab tili Qur’oni karim tili, janob Payg‘ambarimiz sollalohu alayhi vasallam tillari bo‘lgani uchun ham uni o‘rganish yo‘llari sahobai kiromlar davridayoq ishlab chiqilgan. Arab tilini o‘rganish uchun ham boshqa tillarni bilib olish uchun kerak bo‘ladigan lug‘at, morfologiya, grammatika, ya’ni sarf va nahv ilmlari mukammal o‘rganiladi. Shu bilan birga arab tilida mukammal gaplashish va uni tushunish uchun albatta, balog‘at fani qoidalarini yaxshi bilish kerak.

Balog‘at ilmini tahsil qilish orqali Qur’oni karim va hadisi shariflar ma’nolarini to‘g‘ri tushunish va nozikliklarini teran anglash oson kechadi hamda Qur’oni karimning fasohat va balog‘at e’tiboridan i’jozi (mo’jizakorligi) kashf bo‘ladi. Shu boisdan, Qur’oni karim tafsiri, hadisi shariflar sharhi va shariat kitoblarini

o‘rganmoqchi bo‘lgan kishi yuqorida ta’kidlanganidek, lug‘at, sarf, nahv ilmlari bilan bir qatorda balog‘at ilmini ham puxta egallashi lozim. Shuningdek, mumtoz adabiyotimiz durdonalari hisoblangan she’r va g‘azallarda ham majoz, tashbeh, istiora, kinoya kabi balog‘at qoidalaridan keng foydalanilgan. Demak, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy adabiy merosimizni to‘g‘ri va chuqur o‘rganib boshqalarga ham yetkazishimizda balog‘at ilmi katta ahamiyat kasb etadi.

Bu ilm boshqa fanlardan o‘zining fazilati bilan ajralib turadi. Zero, uning lug‘at sir-asrorlarini ochishda va xazinalarini kashf etishda betakror o‘rni va uslublari bor. Shuning uchun ham u tilning nozik, nafis va daqiq jihatlarini o‘rganishda beqiyosdir.

ADABIYOTLAR VA O‘RGANGANLIK DARAJASI

Balog‘at ilmi o‘rta asrlarda sharqda Qur’on asosida vujudga keldi va rivojlandi. Uning tarkibiy qismlari arab tili zaminida mustaqil ravishda shakllana boshlagan. Uning “mustaqil”ligini I.Yu. Krachkovskiy yetarli dalillar bilan asoslab bergan. U o‘z tadqiqotini o‘sha davrda arab adabiyotiga ta’sir qilish ehtimoli bo‘lgan eroniy-sosoniy va grek-vizantiya dunyosidan izlashga urinadi va “arab poetikasining paydo bo‘lishiga tashqi omil ta’siri bo‘lgan, deyish qiyin”degan xulosaga keladi. Johizning “Kitobu-l-bayon va-t-tabyin”risolasi balog‘at ilmining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan asardir. Islom davri boshlangach, Qur’on-i Karim boshqa fazilatlar bilan bir qatorda yuksak darajadagi badiiyati bilan so‘zamol, fosih arablarni lol qoldirdi va ushbu ilmlarni chuqurroq tadqiq qilishga majbur etdi. Bayon ilmi haqidagi fikrlar birinchi bor Abu Ubaydaning (v.e. 825) “Majozu-l-Qur’on”kitobida zikr etilgan. U Qur’onda uchragan birinchi, ya’ni asl ma’nosidan boshqa ma’nolarda qo‘llangan so‘zlarni chuqur o‘rganib chiqqan. Bu kitobning yozilishiga Alloh Taoloning zaqqum daraxti borasidagi jumlasining ma’nosi haqida Ma’mun vazirlaridan biri al-Fazl ibnu-r-Rabi’ tomonidan berilgan savolga javob natijasida yuzaga kelgani manbalarda qayd etilgan bo‘lib, u quyidagi mazmunga ega: Shundan so‘ng Abu Ubayda tez orada Qur’onda uchragan birinchi, ya’ni asl ma’nosidan boshqa ma’nolarda qo‘llangan so‘zlarni chuqur o‘rganib chiqadi va ularni “Majozu-l-Qur’on”nomli kitobiga jamlaydi. Abu Ubayda Sibavayhning shogirdi va Horun ar-Rashidning ustози bo‘lgan. Bir qancha olimlar uning izidan borib, istiora va kinoya haqida risolalar bitganlar. Lekin ular bayon ilmini maxsus ajratmaganlar. Balog‘atning tarkibiga kiruvchi ma’oniy ilmi haqida ayrim atoqli yozuvchilar va Horun ar-Rashidning vazirlaridan biri Ja’far ibn Yahyo, shoir, adib va hakim Sahl ibn Horun kabi yozuvchi va notiqlar qisman gapirib o‘tganlar. Bu haqda birinchi bor mavjud ma’lumotlarni bir kitob holiga keltirgan olim yuqorida nomi zikr qilingan Johiz (775-868)dir. Bu asarlar – “Kitobu-l-bayon va-t-tabyin “, “I’jazu-l-Qur’on”va b. Keyinchalik Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) Qur’on-i Karim tafsirlarida ushbu ilm takomiliga katta hissa qo‘shgan. Johizga yetuk olimlardan Abu Abbos al-Mubarrad (826-898), yozuvchilardan Qudama ibn Ja’far (260-327 h.) ergashdilar.

Badi’ ilmi borasida birinchi bor maxsus asar yozgan kishi – abbosiylar halifasi olim Abdulloh ibn al-Mu’tazz (861-908). Ungacha Bashshar ibn Burd (696-783), Muslim ibn al-Valid (747-823), Abu Tammam (788-845) va boshqa shoirlar o‘z she’rlarida badi’ turlarini qo‘llaganlar.

Mu’tazz badi’ ilmining o‘n yetti turini to‘pladi. U haqda Yusuf Sakkokiy shunday deydi: “Bilgilki, badi’ning turlari ko‘p. Uni ixtiro qilgan birinchi kishi ibn al-Mu’tazzdir”. Mu’tazz “Kitobu-l-badi” (كتاب البديع) ning muqaddimasida e’tirof etishicha, “badi’” istilohini u birinchi bo‘lib qo‘llamagan, lekin uning san’atlarini ilk bora tadqiq qilgan va bu haqda kitob yaratgan. Akademik I.Yu.Krachkovskiy Mu’tazzning arab adabiyotidagi o‘rniga yuqori baho berib shunday deydi: “Mu’tazzning so‘z san’ati nazariyasi (hammasi bo‘lmasa ham) poetik tilning hamma nazariyasi bilan bog‘langan. Mu’tazz ishining originalligi butun arab poetikasining originalligi va uning mustaqil paydo bo‘lganligi masalasiga aylanadi”¹⁸. Mu’tazz o‘z risolasining birinchi bobini istiora, ikkinchi bobini tajnis, uchinchi bobini mutobaqa, to‘rtinchi bobini “a’jazu-l-kalam ala ma taqaddumuha” (“kalomning avvaliga o‘tgan oxirgi bo‘laklar”), beshinchi bobini “al-mazhabu-lkalamiy” (“kalom nazariyasi”) ga bag‘ishlaydi va ularni “fununu-l-badi’”, ya’ni “badi’ san’atlar” deb ataydi. Bu boblardan so‘ng kitob 274 hijriy yilda yozilgani va uni birinchi bor Ali ibn Horun ibn Yahyo ibn Abu Mansur Munajjim ko‘chirib yozgani zikr qilingan. Mu’tazz keyinroq bu asarga “mahosinu-l-kalom” deb atagan o‘n uchta san’at turini kiritgan. Bu san’atlar shunday nomlangan: iltifot, i’tiroz, ruju’, husnur-ruju’, ta’kidu-l-madh bimo yushbihi azzamma, tajohulu-l-orif, hazl yurodu bihi al-jadd, husnu-t-tazmin, ta’riz, kinoya, al-ifrot fi-s-sifa, husnu-t-tashbih, i’notu-shsho’ir nafsahu fi-l-qavofi va husnu-l-ibtidot. Safiy Hilliy (750 h.) “Sharhu-l-Kafiyati-l-badi’iyya” kitobida keltirishicha Qudama ibn Ja’far (260-327 h.) yigirma tur san’atni jamlashga erishgan, shulardan yettitasi ibn al-Mu’tazznikiga mos keladi. Qolgan o‘n uch tur ibn al-Mu’tazzning o‘n yetti turi bilan birga o‘ttiz turni tashkil qiladi¹⁹. Keyinchalik Abu Hilol Askariy (v.e. 395 h.) ularni o‘ttiz yettitaga, ibn Rashiq Qirvoniy (390-456 h.) oltmish beshtaga, Tifoshiy (v.e. 651 h.) yetmishtaga yetkazdi. Badi’ san’atlar keng yoritilgan asarlardan biri Ibn Abu Isba’ning (585- 654h.) “at-Tahrir”i hisoblanadi, unda to‘qsonta san’at turi keltirilgan. Ibn Munqiz “at-Tafri’ fi-l-badi’” kitobiga yana beshta turni kiritgan bo‘lsa, Safiyuddin Hilliy qirq beshta san’at qo‘shdi. Shu bilan arab adabiyotida badi’ san’atlar turi bir yuz qirqtaga yetkazildi. Bayon, ma’oniy va badi’ ilmlari keyingi asrdagina boblar va fasllarga ajratildi. Bu ishni birinchi bo‘lib Abdulqohir Jurjoniy amalga oshirdi. Jurjoniy o‘zidan oldingi fikrlarni ko‘p jihatdan takomillashtirgan va o‘z davrida ma’lum bo‘lgan balog‘at masalalarini jamlay olgan, ularni tasniflagan. U

¹⁸ Крачковский И.Ю. Ибн ал-Му‘тазз. У. «Китаб ал-бади‘» // Избранные соч. Т. VI.— М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1960. — С. 131

¹⁹ zaza@alwarraq.com

bayon va ma’oniy ilmlariga oid “Asroru-l-balog’a” (أسرار البالغة) va “Dalo’ilu-li’jaz” (العجاز الدال) asarlarini yaratgan. Bu asarlarda balog’at ilmi tarkibi tugal shaklga kelmagan bo’lsa-da, Jurjoniygacha yaratilgan ko’pgina asarlardan farq qiluvchi jihatlari ko’p.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abdulqohir Jurjoniyy va Yusuf Sakkokiy – balog’at ilmi asoschilari. Abdulqohir ibn Abdurrahmon ibn Muhammad abu Bakr al-Jurjoniyy balog’atning ma’oniy va bayon ilmlari, aruz ilmi, Qur’on ilmlarini yaxshi bilgan. Bu olim lingvist-grammatistlar orasida peshqadam hisoblangan. Uning, masalan, sarfga oid “Al-’umda fi-t-tasrif”, nahvga oid “Al-avamilu-l-mi’a fi-nnahv”, aruzga oid “Kitob fi-l-aruz” va Qur’on ilmiga oid “Sharhu-l-Fotiha” asarlari buning dalilidir. Uning “Asroru-l-balog’a” asari bayon ilmiga bag’ishlangan. Balog’at ilmi olimlari bu kitobni bayon ilmiga bag’ishlangan eng yaxshi asar ekanini e’tirof etganlar. U arab tili balog’ati qoidalarini yetkazishga mo’ljallangan. Jurjoniyy o’z asarida kalom masalasiga alohida to’xtaladi. Uning xususiyatlarini kalom bilimlarni o’z manziliga yetkazadi, ularning darajalarini ko’rsatib beradi, suratlarini kashf qiladi, samaralarini ko’rsatadi, ruhiyatiga dalolat qiladi, ularning zamiridagi pinhonlikni oshkor qiladi. Jurjoniyy kalomning insonga berilgan yuksak ne’mat ekanini arab tiliga xos balog’at bilan ilmiy asosda tushuntiradi, u kalom bo’lmasa, insonning atrofmuhitdan olgan ta’siri natijasida hosil bo’ladigan bilimlari namoyon bo’la olmasligi, oqil aqlining gullari o’z chiroyini namoyon qila olmasligi, o’rganganlari foydali yoki foydasiz ekanini bila olmasligi, yaxshi-yomonning farqi qolmasligini aytadi.

MUHOKAMA

Arab tili ilmlari bilimdoni ulug’ alloma Imom Sakkokiy haqida manbalarda ko’p ma’lumotlar berilmagan. Lekin Imom Zamaxshariy bilan balog’at ilmida birga e’tirof qilinishi uning qay darajada yuksak maqomga ega ekanini ifoda etadi.

Sirojiddin Abu Yaqub Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ali as-Sakkokiy al-Xorazmiy hijriy 555-yil Jumadul avval oyining uchinchi kunida Xorazmda tavallud topgan. “Sakkokiy” laqabini olishi temirchilik bilan bog’liq bo’lib, u zotning o’zi, ba’zi manbalarda bobosi dirham zarb qilinadigan “tanga” yasash bilan shug’ullangani uchun, mazkur laqabni olgan. Kunyasi esa Abu Yaqub. Yusuf ibn Bakr ibn Muhammad ibn Ali Sakkokiy rohimahulloh XII asrda yashab, arab tili ilmlari bo’yicha o’chmas iz qoldirgan olimlardan biridir. Yusuf Sakkokiy haqida tarix kitoblarida ko’p ma’lumotlar yozilmagan. U kishining tug’ilgan va vafot etgan vaqti, ustoz va shogirdlari haqida deyarli aniq va to’liq ma’lumot uchramaydi. Bir insonning kelajakda kim bo’lishi oldindan ma’lum bo’lmaydi. O’sha davrda ham Sakkokiy rohimahulloh arab tili va bayon ilmida nafaqat o’z asrining balki barcha asrlardagi etuk olim bo’lib etishishini hech kim tahmin ham qilmagan bo’lsa kerak.

Shu bois ham u kishining tug’ilgan va vafot etgan vaqti haqida ma’lumotlar aniq emas.

Yoqut Hamaviy rohimahulloh Yusuf Sakkokiyga hamasr olim bo’lib, o’zining “Mo’jamul udabo” asarida: “Bugungi kunda u (Sakkokiy) Xorazmdadir”, degan. U Sakkokiy rohimahullohni 554-hijriy sanada tavallud topgan, deb aytgan.

Yoqut Hamaviy rohimahulloh unga hamasr bo’lishiga qaramay, Sakkokiy haqida qisqagina satrlarni yozib qoldirgan xolos. Sakkokiy rohimahullohning hayoti haqida aniq-ravshan va to’liq ma’lumot uchramaydi. Faqatgina turli xil manbalarda biroz so’z yuritilgan.

U Sirojiddin Yusuf ibn Abu Bakr Muhammad ibn Ali, Abu Yaqub Xorazmiy Sakkokiy rohimahullohdir. “Sakkokiy” nisbati haqida turli ma’lumotlar aytilgan bo’lib, ulardan eng quvvatlirog’i temirchilikka oid kasb, deyilganidir. U kishi shu kasb bilan shug’ullangan. Ilm sari qadam qo’yishiga sabab bo’lgan voqea ham buni quvvatlaydi. Unda aytilishicha Sakkokiy judayam bejirim va kichkina siyohdon va unga mos jajji qulf yasaydi. Bu “san’at asari”ni amirga sovg’a qilish uchun saroyga boradi. Amir va uning a’yonlari uning ishini ko’rib, uncha ahamiyat bermaydilar. Sakkokiy rohimahulloh bundan xafa bo’ladi. Shu payt saroyga bir kishi kirib keladi. Amir uni o’rnidan turib qarshi oladi va o’z joyiga o’tqizadi. Unga hurmat-ehtirom ko’rsatib, savollarini so’rab bilib oladi. Ketgach, Sakkokiy uning kimligini so’raydi. Shunda: “U inson “falonchi olim”, deb aytishadi. Ana shu lahzadan boshlab Sakkokiy bor himmati va g’ayratini ilmga qaratishni maqsad qilib, ilm halqasi tomon yo’l oldi. O’sha vaqtda uning yoshi o’ttizdan oshgan edi. Bu har birimiz uchun katta ibrat-namunadir, albatta.

Sakkokiy fiqh va kalom ilmida yetuk olim Sadiduddin ibn Muhammad al-Xoyyotiy, “Shayxul islom” nomi bilan tanilgan Mahmud ibn Soid ibn Mahmud al-Horisiy, Burhonal aimma ibn Abdulkarim al-Turkistoniylar va boshqa ulamolardan dars olgan.

Sakkokiydan Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiy va bir necha ulamolar dars olishgan. Lekin tarojim kitoblarida ularning ismlari qayd qilinmagan. Sakkokiy bir necha kitoblar yozgan. Ibn Xoldun uning “at-Tibyan” asari borligini aytgan. U zot yana munozara ilmiga oid risola va Abdulqohir Jurjoniyni “al-Jumal” kitobiga sharh ham yozgan. Sakkokiyning eng mashhur asari sarf, nahv va balog’at kabi arab tili ilmlariga oid “al-Miftah” kitobidir. Uning yozilishi borasida kitob muqaddimasida shunday deydi: “Zamonamizning fuzalolari, fazlda kamolotga yetgan zotlar mendan uslubi barcha ziyrak kishi tushunib, undan xursand bo’ladigan qisqagina kitob yozib berishimni so’rab qattiq turib oldilar. Men bu gaplarni eshitgach, shunday kitobni yozib, u puxta o’zlashtirgan kishiga ilmiy maqsadlarning barchasini ochib berishiga kafil bo’ldim va kitobni “Miftahul ulum” - ya’ni, ilmlarning kaliti – deb nomladim”.

Darhaqiqat, Imom Sakkokiy bir oyoqlari nogiron va ilm tahsilini kech boshlashiga qaramay bu yo’lda qattiq jiddu-jahd qildi. Ulkan mehnat-mashaqqatlardan so’ng o’zidan ulkan ilmiy meros qoldirdi. Birgina misol, “Miftahul ulum” kitobi zamonlar osha hozirgacha balog’at ilmida tayanch hisoblanib, hozirgacha unga son-sanoqsiz, sharh, nazm va muxtasarlar yozilgan.

Imom Sakkokiy balog’at ilmida imom Zamaxshariydek yetuk bo’lgani kabi dard chekishda ham taqdiri o’xshash bo’lgan.

Balog’at ilmi ulamolari bir iborani ko’p takrorlaydilar .

لَوْ لَا الْأَعْرَجَانِ لَذَهَبَتْ بِلَاغَةُ الْقُرْآنِ

Ma’nosi, ”Agar ikki oqsoq bo’lmaganda Qur’onning balog’ati ketib qolardi”. Ya’ni, bandalar Qur’onning balog’atini anglay olmasdilar. Ushbu ibora orqali ulamolar Imom Zamaxshariy va Sakkokiy rahmatullohi alayhlarning balog’at ilmidagi yuksak maqomlarini e’tirof etadilar. Yana bundan Imom Sakkokiyni oyog’i oqsoq bo’lgani tushuniladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan va shunga o’xshash manbalarni o’rganish va tadqiq qilib shuni aytishim mumkinki, Sakkokiyning balog’atga doir barcha asarlari u yashagan davr taqozosi bilan sharh tarzida yozilgan bo’lib, alloma avvalgi balog’at olimlarining asarlarini batafsil o’rganib chiqqani va ularni tahqiq qilib, sharhlar yozganligi ma’lum bo’ldi. Sakkokiyning balog’at ilmiga oid ishlab chiqqan qoidalarini tanqidiy ko’rib chiqqan, to’g’rilagan, kengaytirgan, osonlashtirgan va yangi qoidalar bilan kengaytirgan hamda ularga dalillar keltirgan.

Sakkokiyning tashbehning turlari haqidagi qilgan aqliy taqsimotlariga, istidlolni maoniy ilmining bir bo’lagi deb hisoblashiga hamda balog’atga oid bo’lmagan ba’zi narsalarni unga qo’shib yuborganiga e’tibor qaratgan va ularga munosabat bildirgan. Bu o’z navbatida, Sakkokiyning balog’atdagi ilmiy uslubidan ko’ra Jurjoniyning uslubini afzal ko’rganligini ko’rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

I. Darslik va o’quv qo’llanmalar

O’zbekiston Respublikasida chop etilgan

¹ Mumtoz arab adabiyoti. – Toshkent: TDShI, 2013.; Зиёвуддинова М. Юсуф асСаккокий ва унинг «Мифтоҳ ал-улум» асари // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. – Тошкент: ТошДШИ, 2005. – б. 178-179.;

1. Зиёвуддинова М. Юсуф асСаккокий ва унинг «Мифтоҳ ал-улум» асари // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. – Тошкент: ТошДШИ, 2005. – б. 178-179.;

2. Зиявиддинова М. Поэтика в «Мафатих ал-улум» Абу Абдуллаха ал-Хорезми. Автореф. дис... кан.фил.наук. – Ташкент, 1990.; Mumtoz arab adabiyoti. – Toshkent: TDSH, 2013.;

Xorijiy davlatda chop etilgan

1. Гафуров А. Абдулқоҳири Чурчони – асосгузори улуми балоғи. // Ученые записки / Номаи донишгоҳ. – № 3(19). – Худжанд, 2019. – С. 22–30;

2. Grunebaum G.E. Bayan // The Encyclopaedia of Islam. Volume I. A-B. – Leiden: E.J.Brill, 1986. – P.114-116

3. Matlub A. Al-Kazwini wa-shuruh al-Talkhis. – Baghdad. 1387/1967. Encyclopedia of Arabic Literature. – Том II. – P. 440.

II. Manbalar

1. يوسف السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جازم و مصطفى أمين. البالغة الواضحة. البيام-المعاني-البدیع – القاهرة، 1999 – 539 ص؛
2. أساس البلاغة للزمخشري - دار صادر - بيروت ١٣٩٩ هـ
3. الإشارات والتنبيهات في علم البلاغة لمحمد بن علي الجرجاني تحقيق د / عبد القادر حسين / ط دار نهضة مصر

III. Internet saytlari

1. https://ar.wikipedia.org/wiki/إنشاء-غير-الطلبي/علوم-إنشاء-البيان_علم (25.10.2015)
2. <http://com.mahmoudqahtan://http/إنشاء-الطلبي/علوم-البالغة-البالغة/> (25.10.2015)
3. <http://mirror.al-eman.com/Islamlib/viewauthor.asp?AuthorID=55>.

ЗНАЧЕНИЕ И СВОЙСТВА ПЕРВОГО ВПЕЧАТЛЕНИЯ, ПРОИЗВЕДЕННОГО ОРАТОРОМ НА АУДИТОРИЮ

Комилова Мукаррам Кобилжоновна

Старший преподаватель СамИЭС

komilova.mukarram29@gmail.com

Асроров Камрон Алишерович

студент II курса СамИЭС

Аннотация: Данная статья посвящена значению и свойствам первого впечатления оратора на аудиторию в публичном выступлении. Рассматриваются факторы этого восприятия оратора – невербальные сигналы – жесты, мимика, внешний вид, уверенность и подготовленность, а также психологические механизмы социального и психологического формирования доверия и информационного восприятия. На основе анализа представлены элементы уровня значимости с точки зрения самой коммуникации. В частности, акцентируется внимание на роли первого впечатления на последующее влияние.

Ключевые слова: первое впечатление, невербальные сигналы, уверенность оратора, подготовленность, доверие аудитории, психологические механизмы, публичное выступление, коммуникация.

Abstract: This article is devoted to the meaning and properties of the speaker's first impression on the audience in a public speech. The factors of this perception of the speaker are considered – non-verbal signals - gestures, facial expressions, appearance, confidence and preparedness, as well as psychological mechanisms of social and psychological formation of trust and information perception. Based on the analysis, the elements of the level of significance from the point of view of communication itself are presented. In particular, attention is focused on the role of the first impression on subsequent influence.

Keywords: first impression, non-verbal signals, speaker's confidence, preparedness, audience's trust, psychological mechanisms, public speaking, communication.

Первое впечатление, произведенное оратором на аудиторию, играет ключевую роль в процессе коммуникации и восприятия информации. Оно формируется в считанные секунды и может оказать значительное влияние на дальнейшее взаимодействие между оратором и слушателями. В условиях современного общества, где информация передается мгновенно, важность

первого впечатления возрастает, так как оно может определить, насколько эффективно будет восприятие представляемого материала.

Невербальные сигналы представляют собой способы передачи информации без использования слов, включая жесты, мимику, позы, интонацию, контакт глазами и внешний вид. Они играют ключевую роль в коммуникации, так как составляют до 70% воспринимаемой информации в процессе взаимодействия [1]. Невербальные сигналы подразделяются на кинесические (жесты, мимика, движения тела), проксемические (использование пространства), паралингвистические (интонация, темп речи) и визуальные (одежда, внешний вид). Эти элементы формируют первое впечатление, создавая эмоциональный контекст и усиливая или ослабляя вербальное сообщение.

Жесты и мимика являются основными инструментами невербальной коммуникации, которые помогают оратору подчеркнуть ключевые моменты выступления и установить эмоциональную связь с аудиторией. Открытые жесты, такие как раскрытые ладони или умеренные движения рук, ассоциируются с искренностью и уверенностью, тогда как скрещенные руки или резкие движения могут сигнализировать о напряжении или неуверенности [2]. Мимика, в свою очередь, отражает эмоциональное состояние оратора. Улыбка и прямой зрительный контакт способствуют формированию доверия, тогда как отсутствие мимической активности может восприниматься как равнодушие. Исследования показывают, что аудитория склонна больше доверять ораторам, чьи жесты и мимика соответствуют содержанию речи [1].

Внешний вид оратора, включая одежду, прическу и аксессуары, формирует первоначальное восприятие еще до начала выступления. Согласно теории социального восприятия, люди склонны делать выводы о компетентности и статусе человека на основе его внешнего вида в течение первых 7–10 секунд [3]. Формальная одежда, соответствующая контексту выступления, усиливает восприятие профессионализма, тогда как неподходящий стиль может отвлечь аудиторию или снизить доверие. Например, в деловой среде строгий костюм ассоциируется с авторитетностью, в то время как в неформальной обстановке более свободный стиль одежды может способствовать близости с аудиторией. Таким образом, внешний вид является важным фактором, влияющим на первое впечатление и восприятие оратора.

Уверенность оратора определяется как способность демонстрировать убежденность в своих словах, контролировать эмоции и эффективно взаимодействовать с аудиторией. Она проявляется в четкой дикции, устойчивой позе, уверенном темпе речи и отсутствии излишней нервозности. Уверенность не только усиливает восприятие оратора как компетентного, но и способствует

формированию эмоциональной связи с аудиторией. Психологические исследования показывают, что уверенные ораторы воспринимаются как более убедительные, даже если содержание их речи не отличается от менее уверенных коллег [2].

Подготовленность оратора включает знание материала, структурированность выступления и умение адаптироваться к реакции аудитории. Эффективная подготовка предполагает изучение темы, разработку четкого плана речи, репетиции и учет особенностей аудитории. Например, использование визуальных материалов, таких как слайды, может усилить восприятие информации, если они логично встроены в выступление. Подготовка также включает работу над невербальными аспектами, такими как контроль жестов и интонации. Ораторы, которые демонстрируют глубокое знание темы и готовность к вопросам, вызывают большее доверие и уважение у слушателей.

Уверенность и подготовленность оратора напрямую влияют на уровень доверия аудитории. Подготовленный оратор, который демонстрирует владение материалом и уверенно отвечает на вопросы, воспринимается как надежный источник информации. В то же время, неуверенность или явные пробелы в подготовке могут подорвать доверие, даже если содержание выступления качественное. Эмпирические данные подтверждают, что аудитория склонна больше доверять ораторам, которые сочетают уверенность с глубоким знанием темы, что особенно важно в профессиональных и академических контекстах [3].

Доверие к оратору формируется на основе нескольких психологических факторов, включая воспринимаемую компетентность, искренность и эмоциональную близость. Теория атрибуции предполагает, что аудитория оценивает оратора, исходя из его поведения и контекста выступления. Например, искренние эмоции и демонстрация эмпатии усиливают доверие, тогда как чрезмерная самоуверенность может быть воспринята как высокомерие. Модель доверия Майера выделяет три ключевых компонента: способность (компетентность), доброжелательность и честность, которые напрямую связаны с первым впечатлением [1].

Восприятие информации аудиторией определяется когнитивными и эмоциональными механизмами. Эффект ореола, например, заключается в том, что положительное первое впечатление от оратора распространяется на восприятие его речи в целом. Напротив, негативное впечатление может привести к предвзятой оценке содержания. Эмоциональное состояние аудитории также играет роль: положительные эмоции, вызванные оратором, способствуют лучшему усвоению информации. Кроме того, стереотипы и

предубеждения аудитории могут влиять на восприятие, что подчеркивает важность адаптации оратора к культурным и социальным особенностям слушателей [2].

Первое впечатление оказывает долгосрочное влияние на взаимодействие оратора с аудиторией. Положительное впечатление способствует формированию лояльности и открытости слушателей, что упрощает дальнейшую коммуникацию. Напротив, негативное впечатление может создать барьеры, которые трудно преодолеть даже при высоком качестве последующей речи. Исследования показывают, что ораторы, сумевшие произвести благоприятное первое впечатление, имеют больше шансов удерживать внимание аудитории и эффективно доносить свои идеи [3].

Подводя итог, следует сказать, что первое впечатление, произведенное оратором на аудиторию, является ключевым фактором, определяющим эффективность публичного выступления. Невербальные сигналы, такие как жесты, мимика и внешний вид, играют решающую роль в формировании первоначального восприятия. Уверенность и подготовленность оратора усиливают доверие и способствуют убедительности речи. Психологические механизмы, включая эффект ореола и теорию атрибуции, объясняют, как первое впечатление влияет на восприятие информации и дальнейшее взаимодействие с аудиторией. Результаты исследования подчеркивают важность комплексной подготовки оратора, включающей работу над невербальными сигналами, уверенностью и знанием материала. Практическое применение этих знаний может значительно повысить эффективность коммуникации в различных сферах, от профессиональных выступлений до личных взаимодействий.

Список литературы:

1. Mehrabian, A. (1981). *Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes*. Wadsworth.
2. Knapp, M. L., & Hall, J. A. (2010). *Nonverbal Communication in Human Interaction*. Wadsworth.
3. Ambady, N., & Rosenthal, R. (1993). Half a Minute: Predicting Teacher Evaluations from Thin Slices of Nonverbal Behavior and Physical Attractiveness. *Journal of Personality and Social Psychology*, 64(3), 431–441.
4. Komilova M. K. Facilitating interactive language learning in groups with non-russian language of study // *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1065-1068.
5. Kobiljonovna K. M. Application Of Ways To Increase Efficiency In Learning The Russian Language // *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*. – 2024. – Т. 28. – С. 12-14.

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARNI KELTIRIB CHIQRADIGAN SABAB VA SHAROITLAR

Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich

Farg‘ona yuridik texnikumi O‘quv va tarbiyaviy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Nigmatov Jamshid Umidovich

Farg‘ona yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi
2-bosqich 33-23-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya: Jinoyatlarni ochish va oldini olishda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning jinoyat huquqiy jihatlarini yaxshi bilish, tergov harakatlarining taktik usullarini samarali va to‘g‘ri qo‘llay olish bilan bir vaqtda ularni keltirib chiqargan sabab va sharoitlarni ham chuqur o‘rganish talab qilinadi. Ushu maqolada ham aynan ekologiya sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda ularni keltirib chiqaradigan sabab va sharoitlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jinoyatchilikning sabab va sharoitlari, tozalash inshootlari, ekologik sharoit, xalq salomatligi, o‘zboshimchalik, nazoratsizlik, yashirin bozor.

Аннотация: Знание уголовно-правовых аспектов общественно опасных деяний, совершаемых при раскрытии и предупреждении преступлений, умение эффективно и правильно применять тактические приемы следственных действий, одновременно требует глубокого изучения причин и условий, их вызвавших. В этой статье также рассказывается о причинах и обстоятельствах, которые их вызывают при расследовании преступлений, совершаемых именно в сфере экологии.

Ключевые понятия: причины и условия преступности, очистные сооружения, условия окружающей среды, здоровье населения, произвол, неконтролируемость, скрытый рынок.

Abstract: A good knowledge of the criminal legal aspects of socially dangerous acts committed in the opening and Prevention of crimes is required, as well as an indepth study of the causes and conditions that caused them, while being able to effectively and correctly apply the tactical methods of investigative actions. The article Ushu also talks about the causes and conditions that cause them when investigating crimes that are committed precisely in the field of Ecology.

Key concepts: causes and conditions of crime, cleaning facilities, environmental conditions, Public Health, arbitrariness, uncontrollability, hidden market.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichlariga erishib bormoqda. Joriy yilning 30 aprelida

umumxalq referendumi o’tkazilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boyitilgan yangi tahrirda qabul qilinganligi ham quvonarli holat. Aynan konstitutsiyada ekologiya sohasida ham moddalar kengaytirilib, yangi me’yorlar kiritildi. Jumladan, 49-moddada har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega ekanligi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi hamda Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi kabi me’yorlar belgilandi.²⁰

Konstitutsiyaning 62-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlar degan me’yor o‘z ifodasi topgan, bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasida ham O‘zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart ekanligi ko‘rsatib qo‘yilgan.²¹

Jinoyatlarni ochish va oldini olishda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning jinoyat huquqiy jihatlarini yaxshi bilish, tergov harakatlarining taktik usullarini samarali va to‘g‘ri qo‘llay olish bilan bir vaqtda ularni keltirib chiqargan sabab va sharoitlarni ham chuqur o‘rganish talab qilinadi. Zero, qadimdan bu salbiy ijtimoiy hodisa insoniyatni hamisha tashvishga solib kelgan.

Jinoyatchilikning sabablari to‘g‘risida turli oqimlar, qarashlar hozirgi kunda ham mavjud. Marksizm nazariyasining tarafdorlari jinoyatchilikning sabablarini insoniyatning qarama - qarshi sinflarga bo‘linishi va bu sinflar o‘rtasidagi qarama - qarshilikning mahsuli desa, jinoyatchilikning biologik sabablari tarafdorlari, jinoyatchilik avloddan - avlodga o‘tuvchi tug‘ma xususiyatga ega deydilar, boshqa bir oqim jinoyatchilikning sabablari faqat obyektiv ijtimoiy muhitda yotadi degan nazariyani qo‘llaydilar.²²

Jinoyatchilikning sharoit va sabablarini kelib chiqish mohiyati jihatidan ijtimoiy harakterga ega. U jamiyatdagi qarama - qarshiliklarning mahsuli bo‘lib, o‘zining mazmuni jihatidan jamiyat va davlat manfaatlariga zid bo‘lgan salbiy hodisadir.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

²¹ O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-con Qonuni 09.12.1992- yil.

²² M.Usmonaliyev, Y.Karaketov Kriminologiya “Yangi asr avlodi”. –T.: 2001. 79-bet.

Demak, “Jinoyatchilikning sharoit va sabablari muayyan ijtimoiy - iqtisodiy tuzum va davlatdagi salbiy ijtimoiy hodisalar tizimining oqibatidir”.²³

Umuman, jinoyatchilikning sabab va sharoitlari xususida gap ketganda, aytish joizki, sabab va sharoit o‘rtasida bevosita aloqadorlik mavjud bo‘lib, sabablar o‘z mazmuniga ko‘ra ijtimoiy - ruhiy xususiyat kasb etadi. Sharoit esa iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy kabi mazmunga ega bo‘ladi.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning sabablari majmuida o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan bir qancha holatlar mavjud bo‘lib, ularning doimiy ravishda umumiy holatda mavjud bo‘ladiganlari inson va tabiatning o‘zaro aloqalari jarayoni va mohiyatini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarga xos bo‘lgan qarama - qarshiliklardan kelib chiqadigan sabablar hisoblanadi.

Ekologik muammolarning avj olishi sobiq Ittifoq davrining so‘nggi yillarida keskinlashib ketdi. Birgina Orol muammosini olaylik, bunga Orolning qurishi emas, balki quritilishi deb qarash joiz. Aslida cho‘lni o‘zlashtirish, bo‘stonga aylantirish istagida qilingan bu ishlar tabiatdagi muvozanatni shafqatsizlarcha buzish bo‘lib chiqdi. Behisob oq oltin xomashyosi makoniga aylantirish ilinjida bo‘lgan Markaz rahbariyati O‘zbekistonning ekologik sharoiti o‘zgarishi, tabiatdagi mutanosiblik darz ketishini, kelajakda xalq salomatligiga salbiy oqibatlar tug‘ilishi xususida o‘ylamadilar. Mana endi bugunga kelib, bu nafaqat O‘zbekistonning, balki Markaziy Osiyo davlatlarining katta muammosiga aylandi. Turli xorij xabarlarini eshitamiz, sobiq davlat rahbarlari o‘z davrida qilgan genotsid yoki boshqa ko‘plab odamlar o‘limiga sabab bo‘lgan jinoyatlarni sodir etganiligi uchun sud oldida javob beradigan bo‘ldi, deya jar solishadi. Nima uchun biz ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qotillik, o‘g‘irlik, bosqinchilik, terrorizm, genotsid, giyohvandlik jinoyatlaridan keyingi ikkinchi darajali jinoyatlar sifatida qarashimiz kerak?!

Tabiatning tili yo‘q. U o‘z vaqtida dardini hech kimga aytolmaydi. Lekin kasali bir kun kelib huruj qilganda, afsuski, ancha kech bo‘ladi. Shu bois Orol muammosi ham faqat muammo emas, balki o‘z vaqtida sodir etilgan jinoyatdir.

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti sharoitiga o‘tishi muayyan ijobiy yutuqlarga erishish barobarida jamiyat, davlat va fuqarolarning iqtisodiy, ekologik manfaatlarining to‘qnashuviga ham olib keldi va o‘z navbatida bu atrof muhitning degradatsiyasini tezlashtiradi hamda ekologiya sohasidagi yangi turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga real sharoit yaratib beradi deb, aytish mumkin.

Yuqorida tilga olinganidek sharoitlar, birinchi navbatda, ishlab chiqarish sohalarida vujudga keladi. Ya’ni atrof tabiiy muhitga zararli oqibatlar keltiruvchi vositalar chiqaruvchi korxona yoki tashkilotlarning ish faoliyati uzluksizligini

²³ Krimnologiya M.: “BEK”. 1998. 158-bet.

ta’minlash, dastavval, o’sib boruvchi tabiatdan foydalanuvchilarning himoya qilish uchun saflanadigan harajatlarning doimiy tarzda ko’paytirib borilishini taqozo etadi.

Bunda ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining muayyan hududning tabiiy boyliklaridan ratsional foydalanish qoidalarini buzib, korxonaning rentabelligini oshirishga intilishi bu sohadagi qonunlarning buzilishiga olib keladi. Insonlarning atrof tabiiy muhitga ta’sir qilish imkoniyatlarining miqyosi va undan kelib chiqadigan tabiatni muhofaza qilish zaruriyati, bir tomondan, odamlarning ekologik dunyoqarashi shakllanishi tezligi o’rtasidagi qarama - qarshilik, ikkinchi tomondan, muhim hodisalardan biri hisoblanadi.

Ko’p yillar mobaynida tabiiy resurslarga nisbatan faqat iste’molchi sifatidagi munosabat shakllandi. Tabiiy boyliklardan ratsional foydalanish, uni qo’riqlashga nomigagina yondashildi, aksariyat holatlarda bunga ahamiyat berib ham o’tirilmadi.

O’z - o’zidan ko’rinib turibdiki, bunday g’oyalar bilan tarbiya topgan insonlar ekologiya muammolarini ikkinchi darajali deb hisoblaydi va o’zlari his qilmagan tarzda qonun chegarasidan chiqib ketadilar.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning tarqalishi muayyan darajada o’tgan o’n yilliklar davomida davlat mulkining tabiiy resurslarga asoslanganligi, shunga muvofiq tabiiy boyliklarga nisbatan “Umumiy”. “hech kimniki emas” deb qarash shakllanib qolganligi bilan ham bevosita bog’liqdir. Bundan tashqari ekologik jinoyatlarning sodir etilishi har bir fuqaroning tabiatni muhofaza qilish hamda undan foydalanishni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar talablari bajarilishi zarurligi xususidagi ekologik - huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga ham bog’liq. Aholining ekologik - huquqiy ongining qoniqarsiz ahvoldaligi ekologik - huquqiy axborotlarning bir necha pog’onali ekanligi, ekologik - huquqiy nihilizm tufayli aholining huquqiy ongidagi deformatsiya bilan bog’liq ekanligini ham inkor etib bo’lmaydi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning umumiy sabablari tabiat bilan inson aloqalari o’rtasidagi qarama - qarshilikda yotadi. Mazkur qarama - qarshiliklar tabiatning bir qismi sanalmish inson va tabiat o’rtasidagi; jamiyat va davlatning tabiiy muhitdan foydalanish imkoniyatlari bilan ijtimoiy ehtiyojlari o’rtasidagi; tabiatdan mustaqil foydalanish va uni muhofaza qilish subyektlari hisoblangan jamiyat, ijtimoiy guruh, individ o’rtasidagi qarama - qarshiliklardir. Bu qarama - qarshiliklar murakkab ijtimoiy jarayonlar bo’lib, noqulay iqtisodiy rivojlanish sharoitida ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishi uchun barqaror sharoit yaratadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etuvchi subyektlari quyidagicha: mansabdor shaxslar va oddiy shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga ajratish mumkin. Bunda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar o’zining ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mansabdor shaxslar tomonidan

ko‘p miqdorda, ba’zan esa qoplashning imkoni bo‘lmaydigan darajada ekologik zarar yetkazilishi mumkin. Bu holat iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi; mehnat va iqtisodiyotning xarakteri o‘rtasidagi; ayrim hollarda alohida tarmoq, guruh, aholi manfaatlari o‘rtasidagi; boshqarishning zarur shakllari va qo‘llanilayotgan usullari hamda texnika resurslaridan foydalanish va texnologiya o‘rtasidagi qarama - qarshiliklarda yotadi. Ushbu qarama - qarshiliklarning asosi esa ma’muriy - xo‘jalik tashkiliy - boshqaruvchilik vazifasini bajarishdan kelib chiqadi. Aynan ana shu sohada jamiyat bilan ekologiya o‘zaro aloqadorligini ta’minlovchi rejalashtirish, ta’minlash, tezkor (boshqarish, tashkiliy tuzilmani tuzish, nazorat qilish, texnika texnologiya va resurslar bilan ta’minlash ishlari hal qilinadi.

Mansabdor shaxslarning g‘ayrihuquqiy xulqiga quyidagi holatlar salbiy ta’sir qiladi: ekologiya faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan tabiatni ifloslanishdan saqlash choralari ko‘rmaslik; foydali qazilmalar va tabiat resurslarini arzonlashtirish; tabiiy resurslardan to‘la foydalanmay yoki foydali qazilmalarni yerning chuqurroq qismidagisini olmay bu sohada ishlayotgan korxonalarining ishlash rejimini asossiz ravishda tezlashtirishga intilish kabilar.

So‘nggi paytlarda yer osti boyliklarini g‘ayriqonuniy ravishda ishlash, dorivor o‘simliklarni noqonuniy ravishda tayyorlash jinoyatlari tez - tez sodir etilmoqda. Bunday faoliyat natijasida tabiiy boyliklar o‘lchovsiz olinib, yashirin bozor kengaytirilmoqda.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning yuqorida aytilgan asosiy sabablaridan tashkari, individual holda sodir etiladigan vaziyat bilan bog‘liq sabablarini ham ko‘rsatish zarur. Ya’ni ular bezorilik tufayli dov - daraxtlarni sindirish, o‘rmon va daraxtzorlarga o‘t qo‘yish, ekin maydonlarini payhon qilish kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning sodir etilish sabablariga ta’sir qilishda, avvalo, har bir fuqaro o‘z konstitutsiyaviy burchini chuqur his qilishi, qolaversa korxona, tashkilotlarning mansabdor shaxslari va nazorat organlari xodimlarining katta mas’uliyat bilan yondashishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. “O‘zbekiston”, T.: 1997. 111-bet.
4. T.Mirzaev. “Ekologiyaga doir jinoyat ishlarini tergov qilish”. T,- “Yangi asr avlodi” 2001- y.
5. M.Usmonaliyev, Y.Karaketov. Kriminologiya. “Yangi asr avlodi”, - T.: 2001. 327-bet.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-con Qonuni 09.12.1992- yil.
7. M.Usmonaliyev, Y.Karaketov. Kriminologiya “Yangi asr avlodi”. - .T.: 2001. 79-bet.
8. Krimnologiya. M.: “BEK”. 1998. 158-bet.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ISLOM DININING IJTIMOIIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI Husen Xayrulloevich Jo‘rayev Shahrizod Amonov	4
2.	MATN YARATISHGA DOIR YONDASHUVLAR Yusupova Gulandon Atham qizi	12
3.	BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT TUZUMI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI (1753-1920) Akmal Baxtiyorovich Yo‘ldoshev Nodirbek Rustamjon o‘g‘li Hamroyev	19
4.	USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN Akmal Baxtiyorovich Yo‘ldoshev Farrux Abdumajid o‘g‘li O‘ngboyev	24
5.	XI ASRDAN BOSHLAB MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF ILM MADANIYATI Dilnoza Vohidova Abdulhay Ahmadali o‘g‘li Turdaliyev	30
6.	THE ROLE OF INTRINSIC AND EXTRINSIC MOTIVATION IN LANGUAGE LEARNING Fozila Ochilzoda	36
7.	BUDJET TIZIMI BYUDJETLARINING MOHIYATI Xamroqulov Olimjon Farxod o‘g‘li Abdualilova Dilnoz Abdusattorovna	43
8.	TALABALARDA SOG‘LOM VA NOSOG‘LOM OVQATLANISHINING O‘QUV SAMARADORLIGI VA SALOMATLIGIGA TA’SIRI Xalimbayeva Zulhijja Said qizi Ergasheva Dilbar Sherzod qizi Mirzayev Dilshodbek Axmelovich	45
9.	SUN’IY INTELLEKT RIVOJLANISHINING AXLOQIY QADRIYATLARGA TA’SIRI Tukbayeva Ruxshona Jaxon qizi Rustamova Iroda Najmiddin qizi	50
10.	A REGION-BASED APPROACH FOR EXPANDING IT AND BPO SERVICES EXPORT IN UZBEKISTAN: THE ROLE OF REGION-SPECIFIC PREFERENCES AND INCENTIVES J.O.Khasanbaev	54
11.	XIX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOIIY- SIYOSIY VA MADANIY XAYOTDAGI O‘ZGARISHLAR Rohila rajabova Feruz Ashurov	58
12.	QONUN QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING ROLI Qurbonova Sevara	66
13.	SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB, ARRALI JINLASH MASHINASINING ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ENERGIYA TEJAMKOR KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH Nosirov Xasanbek Murod o‘g‘li	70
14.	RUS MUSTAMLAKASI DAVRI XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONNING SIYOSIY,IQTISODIY-IJTIMOIIY VA MADANIY-MA’NAVIY	73

	XAYOTIDAGI TARIXIY O'ZGARISHLAR Husen Xayrulloevich Jo'rayev Muhammad Ali Yo'ldoshev Salohiddin o'g'li	
15.	IQTISODIY TERMINLARNING TAHLILI VA TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZIGA XOSLIKLARI Dilnoza Yuldasheva Sayipbekov Ulug'bek	78
16.	COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF THE SPEECH ACT OF REQUESTING IN ENGLISH AND UZBEK Tojiyeva Farangis Kamolovna	83
17.	TA'LIM MUASSASALARDA O'QUVCHILAR ORASIDA DELINKVENT XULQ- ATVORNI VUJUDGA KELISHI VA UNING SABABLARI Onnayeveva Inobat Yoqubboyevna Masharipova Dilshoda Mirzaboyevna	88
18.	ISLOM MADANIYATIDA OILA VA FARZAND TARBIYASINING O'RNI Husen Xayrulloevich Jo'rayev Ozodbek Akbar o'g'li Murodullayev	92
19.	SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKMDORLARI DAVRIDAGI MADANIY MANAVIY HAYOT Husen Xayrulloevich Jo'rayev Odinaxon Dilmurodjon qizi Yo'ldosheva	97
20.	IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA TO'G'RI OVQATLANISHNING GIGIYENIK ASOSLARI Minxojiddinova Mohira Ulug'bek qizi Abdumannonova Muborakxon Abdupulat qizi Maxmanazarov G'.A	103
21.	HUDUDIY SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARASI Ollokulova Feruza Mansurovna Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	106
22.	ISLOM DINI VA MADANIYATI Lazizbek Hayitov Biloliddin Sayfiddin o'g'li Sulaymonov	111
23.	UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA "OKSIDLAR VA ULARNING TUZILISHI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTEFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Boltayeva Gulsevar Abdulla qizi	118
24.	G'AZNACHILIK FAOLIYATI MEXANIZMI Shuhratov Mirjalol Umidbek o'g'li	122
25.	G'AZNACHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI Begaydarova Madinabonu G'ayrat qizi Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna	125
26.	FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA MUOMMOLAR VA YECHIMLAR Turdikulova Gulshad Nurmatovna Sattorova Sarvinov Shohzamonovna	129
27.	ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ Алмурадов Абдулла Жумамуратов Султанбек	135
28.	TURK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGANAYOTGAN O'ZBEKISTONLIK	147

	TALABALARNING YOZISH KO‘NIKMASIGA OID FIKRLARI Dilorom Toshboeva	
29.	DESTRUKTIV SEKTA G‘OYALARIGA QARSHI KURASHNING INSTITUTIONAL SHAKLLARI Abdulxamidov Abdulxamid	155
30.	ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA IJTIMOIIY TANQID VA AYOL TAQDIRI	160
31.	BOSHQARUVDA LIDERLIK XAREZMASINING IJTIMOIIY JIHATLARI СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ХАРИЗМЫ ЛИДЕРСТВА В УПРАВЛЕНИИ SOCIAL ASPECTS OF LEADERSHIP CHARISMA IN MANAGEMENT Tadjixodjayev Botir	165
32.	MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATINING SEHRLI OLAMI Aralova Farangiz Abdulla qizi	172
33.	XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT Javohir Izzatullayev	176
34.	BALOG‘AT ILMI VA UNDA IMOM SAKKOKIYNING O‘RNI THE SCIENCE OF PUBERTY AND THE PLACE OF IMAM SAKKOKI IN IT Hakimov O‘tkir Turdibayevich	179
35.	ЗНАЧЕНИЕ И СВОЙСТВА ПЕРВОГО ВПЕЧАТЛЕНИЯ, ПРОИЗВЕДЕННОГО ОРАТОРОМ НА АУДИТОРИЮ Комилова Мукаррам Кобилжоновна Асроров Камрон Алишерович	186
36.	EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARNI KELTIRIB CHIQRADIGAN SABAB VA SHAROITLAR Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich Nigmatov Jamshid Umidovich	190

Eslatma! “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

O.S.Isroilov

Nashrga tayyorlovchi

M.U.Abdullayeva

“Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali, 199 bet.

© <https://ilmfanvatalim.uz/>

© Farg‘ona, Mualliflar jamoasi, 2025